

14

84
5.90

ROBERT LUIS
STEVENSÖN

MEROSKÖR



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

2013 и -

18.03.15

21.12.16

11-02-15

20.08.14 (55)


6.5.



ROBERT LUIS STIVENSON

MEROSKO'R

Roman



72-2121/к-

№ 2

| | |
|---------------------------------------|--|
| OZBEKISTON RESPUBLIKASI | |
| OLIV VA C'ITIN MARKSUE TALIM YAZIREGI | |
| TOSHKENT TILLOQATI CHIRCHIQ | |
| DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI | |
| AXBOROT-RESURS MARKAZI | |
| 1. FILIALI | |
| MARKAZI SHAXOBCHASI | |

«SHARO» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2010



MEROSXO'R

yoldi

T a h r i r h a y ' a t i:

Omonulla YUNUSOV (*rahbar*), Ahror AHMEDOV (*rahbar o'rimbosari*), Alisher IBODINOV, Nizom KOMILOV,

Tohir MALIK, Erkin MALIKOV, Qodir MIRMUHAMEDOV,

Anvar OBIDJON, Xudoyberdi TO'XTABOYEV,

Barnobek ESHPO'LATOV (*hay'at korihi*)

Devid Belturning

sarguzashtlari

T a r j i m o n:
Nabijon Boqiy

R a s s o m:

Osimxon Vosixonov

Shul haqdakim, yigitcha o'g'irlanadi, dengizda kema halokatiga uchraydi, kimsasiz orolda misli ko'rilmag'an azob-uqubatarni boshidan kechiradi, odamzod oyog'i yet-magan tog'-u toshlarda sarson-sargardon bo'ladi; taqdir taqozosi bilan Alan Brek Slynart va bosqqa fidokor shot-land yakobinchilariiga yo'liqadi. Qolaversa, hech qanday haq-huquqi bo'lmasa-da, o'zini Shos qo'rg'onining xo'jayini deb e'lon qig'an manfir amakisi Ebenezer Bel-furning adolatsiz g'azabiga uchraydi — jabrlanadi. Ushbu voqealar qahramonlarning o'z qo'llari bilan yozib qoldirilgan, endilikda Robert Luis Stevenson uni Sizing hukmingizga havola etadi.

S - 90

Stivenson, Robert Luis.

Merosxo'r: Roman. //Tahrir hay'ati: Omonulla Yunusov (*rahbar*) va boshq. //Tajimon: Nabijon Boqiy. – T.: «Sharq», 2010. – 288 6.

BBK. I (Angl.) 527

ISBN 978-9943-00-607-2

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2010.

* **V a k o b i n c h i l i k** — XVIII asr o'rtaclarida G'arbiv Yevropa mamlakatlariida boshlangan inqilobiy xalq harakati. Yakobinchilar inson hurligi uchun kurashganlar.

BAG'ISHLOV

Azizim Charlz Bakster!

Agar vaqt-soati kelib, ushu qissani o'qib qolsangiz, ko'nglingizda bir takay savollar tug'ilishi turgan gap. Afsuski, Sizga qonigarli javob berolmayman — bu mening qo'lindan kelmaydi. Masalan: «Eye, nahoiki, Epinadagi qotillik ayman qoydari naqd Irreyd poyiga surilib qoldi ekan?» yoki «Mabuoda e'lon qilingan maqolalarda Devid Belfur to'g'risida lom-mim deyilmaganini qanday tushunish mumkin?» deb so'rashningiz mumkin. Men bunday yong'oqlarni chaqolmayman — tishim o'maydi. Ammo: «Alan aybdormi yoki aybdor emasmi?» deb qayta-qayta so'ravdigan bo'lsangiz, men kitobda bayon etgan taxminiy fikrlarim uchun boshim bilan javob berishga tayvormen. Epinda tarqalgan rivoyatlar hozir ham Alanning begunoh ekanimi tasdiqlaydi. Ishommasangiz, o'zingiz, «o'sha» o'z qo'lli bilan o'q uzgan kishini so'rabsurishtiring, ehtimol, uning avlodlarini hozir ham izlab topish mumkin, degan javobni eshitangiz qajab emas. Rostini ayt sam, qanchalik jon kuydirmang, baribir «o'sha» odamning nomini aniqlay olmaysiz: Shotlandiya tog'tiklari sir saqlashni qoyil qildilar, tashabbusi ularning jism-u jomiga qo'shib singdirildi. Men mana shu yo'sinda ertalabgacha muayan holaming asliga to'g'ri ekanimi zo'r berib himoya qilishim va ayni chog'da boshqa har qanday holami shubha ostida goldirishim mumkin. Lekin aniqlikka itoat etishga unchaliq xushim ham, ishim ham yo'qligini bir yo'la bo'yininga olib qo'ya qolsam tuzuk bo'lmaydim! Bu qissa olimlar foydalanadigan dasturulamal emas; uning joyi — uy vazifalarini bilmay, noiloj o'ringa kirayotgan o'quvchining yotoqxonasi dir. Aslida, xyla og'ir-wazmin, jangari shaxs — halol Alan o'zining yangi hayotida faqat jangovarlikni targ'ib etish bilan shug'ullanmaydi: Ovidiy asarlariiga mukkasidan ketib qolgan

ba'zi yosh do'starimni ma'lum muddat o'lgan asrlarga oshno etmoqchiman, ularni Shotlandiya tog'lari bo'ylab sayohatga chorlayman va o'ringa kirganlaridan keyin shirin-shirin, jozi-bador nashlar ko'rib uylashlarini istayman.

Qadrdonim Charlz, bu kitob ko'nglingiza yo'l topa olishiga ko'zim yetmaydi. Ammo o'g'linigiz voyaga yetgach, qissa tob boshlamasidan ko'rib xursand bo'lar. Hozir esa ko'pgina baxtili kunkarimiz u ba'zan boshimiga yog'ilgan kulfatlar xotirasidagi Sizning nomingini yana bir bor eslayotganindan, uni shu o'rinda muhr etovutqonimidan bog'ovat xursandman.

Shu tabda yoshligimida ro'y bergan g'aroyib sarguzashlarni xayolinga ketirayam, hechiyor yurdigim haqiqadi — o'zimni qo'yanga joy topolmay qolaman. Siz ham yoqangizni ushlavangiz kerak-a? Qancha yillar, qancha zamонлар o'tib ketdi-ya! Kishini g'olat kayfsiyat chulg'ab olishi tayin. Chunki Siz har kuni o'sha ko'chaldardan o'tasiz; ertagayovq ko'hma munozara klubining eshilklarini ochishingiz mumkin — u yerda bizini hozirdanoq Skott, Robert Emmet va unchalik mashhur bo'lmasa-da, lekin qizg'in muhabbatga sazovor Makbin bilan bir qatorga qo'yishmoqda. Shuningdek, Siz shavkatli L. J. R.* jamiyatining a'zolari yig'ilishadigan ibodatxonona hovlisi yonidan o'tishingiz mumkin: esingizdam, qachonlardir shoiri zamon Byorns oshna-og' aynilar bilan o'niradigan o'sha o'rindilarga yastanib olib phivo ichardik.

Men yaqqol tasavvur etyapman: do'stingiz faqat tushlari-da ko'radiqan joylarni, ana, Siz kappa-kunduzi tomosha qilib, sarsari kezib yuribisz. Kundalik turmush tashvishlaridan forig' bo'lgan damlarda o'mishdan kelayotgan sadolar quloglari ngiz osida tinimsiz jaranglab tursa ne tong! Illo, u do'stingiz haqidagi egzu xotiralarini tez-tez uyg'otib tursin.

R. L. S.
Skerrivor,
Bormut.

* Stevenson a'zo bo'lgan talabalarning maxfiy jamiyatni «L. J. R.» harflari taxminan englizcha «Liberty, Justice, Reverence» so'zlarining qisqartma shakli bo'lib, «Ozodlik, Haqqoniyat, Haq-huquq» ma'nomalarini anglatadi.

Nima deyishga hayroman, — ser, — deb ming'irladim. — Agar qayoqqa ketayotganimni, peshonanga nimalar yozilganimi bilganimdu bormi, hech ikkinumay javob qaytarardim. Essendin — tuburuk muskan, bu yerda ko'ngildagiday yashadim, ummo umrindu musofirchilik boshinga tushmagan, avir. Onam ham, onam ham olamdan o'tdilar — endi men Issendinda yashaymani, Majoriston qirolligidami baribir, ularning diydorini ko'rolmayman. Shuning uchun, rostini aytasim, agar xorijiy yurtlarda murodi maqandimga yetajagimni bilganimda, o'z uyimni turk etayotganimga sira ham achimmasdim.

— Shunuqimi hal? — dedi mister Kempbell.

B i r i n c h i b o b

MEN UZOQ SAFARGA — SHOS QO'RG'ONIGA JO'NAYAPMAN

O'z sarguzashtlarim haqidagi hikkoyani 1751-yilning unutilmas javzo tongidan boslashni istardim. O'sha kuni kindik qonim to'kilgan xonardon eshigini oxirgi marta quffadim-da, kalitni cho'ntagimga solib, yo'iga chiqdim. Quyosh nurlari endigina tog' cho'qqlarida jilvalana boshlagan edi. Ana-mana deb, ruhoniyning uyiga yaqinlashgan paytim sirenzorda qorayaloqlar sayrashardi; subhidamdan buyon vodiyni qoplab yotgan tuman pardasi ko'tarlimoqda edi.

Essendining ko'ngilchan ruhonysi mister Kempbell kamini chor bog' eshigi yonida kutib turgan ekan. U mendan, nonushta qildingmi, deb so'radi. Qornim to'q ekanini bilgach, qo'shqo'llab so'rashi-da, qo'lting'imdan oldi va yelkamga do'stona shapatilab qo'ydi.

— Shunaqa gaplar, qadrdom Devi, — dedi u. — Men seni daryogacha kuzatib boraman-u, yo'lni ko'rsatib qo'yib, izimga qaytaman. — Biz indamay qo'zg'aldik. Birpasdan keyin u: — Essendindan bosh olib ketayotganingga achimmayapsamni? — deb so'radi.

Nima deyishga hayroman, — ser, — deb ming'irladim. — Agar qayoqqa ketayotganimni, peshonanga nimalar yozilganimi bilganimdu bormi, hech ikkinumay javob qaytarardim. Essendin — tuburuk muskan, bu yerda ko'ngildagiday yashadim, ummo umrindu musofirchilik boshinga tushmagan, avir. Onam ham, onam ham olamdan o'tdilar — endi men Issendinda yashaymani, Majoriston qirolligidami baribir, ularning diydorini ko'rolmayman. Shuning uchun, rostini aytasim, agar xorijiy yurtlarda murodi maqandimga yetajagimni bilganimda, o'z uyimni turk etayotganimga sira ham achimmasdim.

— Shunuqimi hal? — dedi mister Kempbell.

chorn, Devi, taqdir ekan-da, Xulusi kalom, erta-indin bo'shingga tushadigan voqealardan ogoh etib qo'ymasam bo'lmaydi sheklli. Voldayi mukarraramang bandalikni bajo keltingan, otang (u inson nomiga munosib zot va mo'min xristian edi) tez-tez kasal bo'la boshladi: kuni bitib borayotganini sezdi, asrab qo'yish uchun menga bitta xat topshirdi; unda senga atalgan meros raqam etilgamini ta'kidladi. «O'lganimdan keyin, qo'iga ilinadigan buyumlar solilib, xonodonimiz tartibga keltirilgach, mana shu xatni shaxsan o'g'limga topshirasiz va uni Kremond yaqinidagi Shos qo'rg'oniga kuzatib qo'yasiz», dedi. Devi, marhunning barcha vasiyatları ado etildi. «Men o'sha yerda tug'ilganman, o'g'lim ota yurtiga qaytishi lozim. U azamat yigit, qo'rkoq odamlar tofasidan emas — juda abjir, shubhasizki, qo'rg'onga omon-eson yetib oladi va hammaning mehrini qozonadi», degan edi rahmatli otang.

— Shos qo'rg'onisi! — deb yubordim beixtiyor. — Sho'tlik otamning Shos qo'rg'oniga qanday aloqasi bor ekan?

— Shoshmay tur, — dedi mister Kempbell. — Xudo biladi. Men senga aysam, azizim, qo'rg'on egallari sizlarga familyiyadosh — ularni shoslik Belfurlar deb atashadi: so'nggi paytlari obro'-e'tibori biroz to'kilgan bo'lsa-da, lekin ko'hna shajara; halolligi uchun hamma ularni hurmat qildi. Qolaversa, otang rahmatli o'qimishli kishi edi.

Aslida, bama'ni muallim shunaqa bo'lishi lozim. Uning maktabi namunali edi, gap-so'zlar - yu muomalasi xashaki o'qituvchilarnikiga aslo o'xshamasdi. Esingdami, men obro'li kishilarni mehnon qilgan chog'larda otangni al-batta uyimizning to'riga o'iqazib qo'yardim; kilremetlik Kempbell, dansvirlik Kempbell, minchlik Kempbell singari qarindosh-urug 'larim va boshqa asilzoda jentelmenlar bilin suhbattashib o'tirishni yaxshi ko'rishardi. Xo'p mayli, mana senga vasiyat qilingan xat: marhum birodarimiz o'z qo'li bilan adresni yozib qo'ygan.

U menga xatni berdi, konvertiga quyidagi so'zlar tilgan edi: «Shos qo'rg'oni. Eskayr Ebenezer Belfurning o'z qo'liga topshirilsin. Xatni mening o'g'lim — Devid Belfur eltilib beradi».

Yuragim hapriqib ketdi: ovloq Etriks o'mmonidagi bechorahol qishloq o'qituvchisining o'n olti yashar o'g'liga birdan onmad yor bo'lsa-ya! Axir, bu hazil gap emas!

— Mister Kempbell... agar mening o'minda siz bo'lganingizda nima qillardingiz? — deb so'radim, haya-jondan tutilib-tutilib.

— O'ylab o'tirmsadan yo'lg'a otlanardim, — deb javob berdi ruhony. — Senga o'xshagan tiqmachoqday yigit Kremonda ikki kundayoq yetib boradi. Aytmoqchi, u yerdan Edinburggacha bir qadam qoladi, xolos. Agar ishlar chappasiga kelsa-yu, asilzoda qarindoshing (taxminmecha, sizlar harholda begona emassizlar) ketingga bir tepib, ko'chaga chiqarib tashlasa, buning qo'rqa digan joyi yo'q: yana ikki kunlik yo'ldan so'ng eshigimni taqillatish mumkin. Lekin, umid qilamanki, seni quchoq ochib kutib olishadi, otangning niyatları ro'yobga chiqadi. Nasib esa, vaqtı kelib katta odam bo'lib ketasan. Azizim Devi, shu tobda — sen bilan xayrlashishdan avval, fursat dan foydalanimizda oz-moz nasihat qilib qo'ymasam ko'nglim joyiga tushmaydi. — U nigohi bilan o'tirgani joy qidirdi va yo'1 chetidagi oq qayin ostida turgan katta yuma-loq toshga ko'zi tushdi-yu, uning usiiga o'mashib o'tirib shlyapasining tepasiga tashlab qo'ydi — ikki qoya orası-

dan ko'rinih turgent quyosh to'ppa-to"g'ri bizning manglayimizga olov purkardi. U ko'rsatkich barmog'ini falaka o'qulgancha yer yuzidagi ko'pdan ko'p gunohlardan meni ogoh eta boshladi, jumladan, kaminiini uzluksiz ravishda «Tavrotomni murolaa qilishga undadi. Lekin ruhonining maslahatları meni qizqitirmasdi. Shundan so'ng u badavlat xonadondagi hayot manzarasini tasvirlab berlo'g'risida yo'1-yo'riqlar ko'rnatdi.

— Devi, mayda-chuydu nor salar uchun tortishib o'tirmagin, — dedi u — Ellangda bo'lsin: sen dvoryan ollasida dunyoga kelgan bo'lsang hum, qishloqda turbiyalungansan. Yuzimizni yerga qurath qo'ymagin, Devi, toifisida uchryvdigan o'sha to'kin-sochin, mashhur xo-nidonda boshqalardan orqada qolmagin: ehtiyyot bo'lib, o'ylab qadam tashlagin, ko'p gapirmagin. Endi xonadon boshlig'i masalasiga kelsak, yodingda tutgin: u xo'jayin. Izolga hojat bo'lmasa kerak — og'zi qiyshiq bo'lsa ham boy gapirsin, degan maqol bejiz aytilmagan, axir. Shajara boshlig'iga itoat etish ham farz, ham qarz. Hech bo'lmasa, kishi yoshligida shunday deb o'ylashi lozim.

— Gaplinringizda jon bor, ser, — dedim. — Chizgan chizig'ingizdan chiqmaslikka vi'da berauman.

— Binoyideksan-ku! — dedi mister Kempbell xur-sand bo'lib. — Xo'sh, endi ashyoviy dalillar xususida gaplashsakmi-a? Albahta, tajnis* uchun xudoning o'zi kechirsin-u, balki bu hech qanday ashyo emasdir. Yominda bo'xcha bor, — dedi-da, ichki cho'ntagidan bir narsa oldi. — Bo'xchaga to'rita narsani solib qo'ygamman. Shulardan birinchisi qonun bo'yicha senga tegishi: boyaytganimdek, bu otangdan qolgan kitoblar va boshqa buning puli — ulami o'zin sotib oldim; keyinchalik otangning o'miga biorta o'qituvchi kelsa, o'shangap pulayman, mo'jalimcha, uch-to'rt tanga choychaqa qoladi

* T a j n i s — so'z o'yini. Bu yerda «shakkoklik» ma'nosida qo'llanyapti (taj, izohi).

shekilli. Yana uchta narsa esa men bilan missis Kempbell-dan sovg'a; qo'limizni qaytarma — chol-kampirni xur-sand qilgin, bolam. Biri — yum-yumaloq, dastlabki paytlari shunisi ko'proq yoqsua kerak. Lekin, Devi, jigarim, bu daryordan tomchi, xolos, Hasl-pash deguncha tamom bo'ladi — uning izi ham qolmaydi. Yapaloq, to'riburchak tumor esa bir umr senga madadkor bo'ladi: uzoq safarlar-da horib-tolsang unga hussaday suyanasan, tobing qoch-gan paytlarda yumshoq yostiqday bosh qo'yib yotasan. Xo'sh, oxirgisi — hamma tomoni teng ashyo — men chin diidan ishonamanki, bu narsa mushkulingni oson qiladi, semi boqiy dunyo sari yetaklaydi.

U so'zlarimi tugatdi-yu, o'midan turdi, shlyapasini yechib hayotga ilk bora mustaqil qadam qo'yayotgan o'smir haqiga qizg'in duo o'qidi. Keyin meni ilkis bag'tiga bosdi-da, o'zidan nari surib, diydorimga to'yib-to'yib tikilib oldi — uning yuzlari cho'g'day qizarib ket-gan edi; so'ngra shartta orqasiga burildi-yu: «Alvido» deb qichoqirgan ko'yi biz kelgan yo'l bo'ylab shitob izi-ga qaytdi. Nazarimda, begona odamga bu holat kulgili ko'rinsa kerak, ammo o'zim hozir kuladigan ahvolda emasdirm. U ko'zga ko'rinnay ketguncha orqasidan termi-lib turdim; u qadamini sekinlatmadi, bir marta ham orqasiga qayrilib qaramadi. Shundagina ayriliq naqadar og'ir ekanimi anglab yedim va birdan o'zimdan o'zim uyalib ketdim — qani endi yer yorilsa-yu kirib ketsam! Axir, bosar-tusarimmi bilmay qolgan edim: dang'llama, gavjum xonadonga — qondosh, jondosh bo'lgan badavlat, savlat to'kib yurishadigan janoblar huzuriga ketyapman-ku! «Eh, Devi, Devil! — dedim ichimda. — Axir, bu ko'mamatlik emasmi! Nahotki, dongdor kishilarning nomlarini eshitishing bilan darhol ko'zlarining chirt yumib, barcha yaxshiliklarni, do'stlaringni esdan chiqarib yuborishga tayyor bo'lsang-a? Uyalgin-e, uyatl!» Men boyagini ko'ngilchan ruhoniq qo'mim topgan yumaloq tosh ustiga o'tirdim-da, sovg'alami ko'zdan kechirish uchun bo'xchani ochdim. «Hamma tomoni teng

ashyoy devilgandayoq nima nazarda tutliyotganini angla-gan edim: albatta, bu cho'ntakkop mo'jaz «Tavro» edi — muquddus diniy kitob. «Yum-yumaloq» — tanga ekan, bir shilling.*

Uzoq safarlarda horib-tolsam, tobim qechsa va, umuman, menga bir umr madadkor bo'lgan «tumor» esa surg'ayib ketgan bir parcha dug'al qog'oz ekan — unga qizil siyoh bilan quyidagi no'zlar bitilgan edi:

«Marvaridgoldan tomchi dorii tuyyorlash usuli. Marvaridgul olnudi-da, ranga vinoqa tauishlab qo'yildi, keyin har kuni bir yoki ikki choy qoshiqdan ichildi, ehtiyojiga qarab iste'mol qilindi. Natijada duduqlarning nutqi yurak o'ynog'ni to'xtatadi va xotirani mustahkamlaydi. Gul shisha idishga solinadi-yu, qopqog'i mahkam berkiti-ladi va chumoli uyasiga tiqib qo'yiladi, o'sha joyda bir oy turgandan so'ng qaytarib olinadi: gullardan sharbat ajralib chiqqunini ko'rasan, uni kichik idishlarda atrash lozim — bu bemor-u sog' kishilarga ham, erkak va ayollarga ham birday soydalidir».

Bitik ostiga ruhoniq o'z qo'li bilan ushbu so'zlarini qo'shimcha qilgan edi.

«Ayni chog'du suyak chiqqunda (surish kerak) va sanchiq boshlanganda (har soatda bir choy qoshiq doricha) ham foydasini tegadi».

To'g'risini aytasam, bu qog'ozga qarab turib kulgim qistadi va ayni paytda ko'zlarimdan yosh tirqitab ketdi. Men zuidlilik bilan tugunchani qayqi tayoq uchiga ildim-da, kechuvdan daryoning narigi sohiliga o'tib oldim. Qiyalik danadir tepasiga ko'tarildim va ikki chetini supurgi gullar qoplagan, poda yuradigan ko'm-ko'k so'qmoqqa qadam qo'ydim-u. Essendin ibodatxonasiqa, ruhoniq xonadoni tevaragida chayqalayotgan daraxtlarning uylariga va otonam dafn etilgan qabristomning baland-balando chetan devorlariga bir qur nazar tashladim-u, unsiz xayrashdim.

* Shilling — pul birligi, funt sterlning yigirmadan bir bo'lagiga teng (tarj. izohi).

I k k i n c h i b o b

MANZILGA YETDIM

Ikkinchi kuni ertalab yana adir cho'q qisiga ko'tarildim: ko'z o'ngimda dengiz sohiliga tutashgan manzara yaqqol namoyon bo'ldi, chek-chegejurasi ko'rinnmaydigan tog' tiz-musi yonbag'rida — nishablik o'tasida go'yo qizdirilgan pechday Edinburg shahri tutab yotardi. Qo'rg'on tepasida bayroq hilpirardi, ko'rifaz uza kemalar yuzib yurardi yoki bandargohga langar tashlashgan edi: masofa xiyyla yiroq bo'lishiga qaramay, ularni aniq ko'rib turardim va kaminaning — qishloqi yigitchamining qalbi birdan to'lqinlambik ketdi.

Tez orada bitta cho'pon kulbasiga ro'para keldim, Kremondega borish uchun qaysi yo'naliш bo'yicha ketish lozimligini bilib oldim. Shunday qilib, duch kelgan yo'lovchididan so'ray-so'ray poytaxtning yonidan o'tib, g'arb tomonga ketaverdim — Kolington ham ortda qolib ketdi va oxiri Glazgoga olib boradigan yo'iga chiqdim. Ko'cha bo'ylab o'tib borayotgan polk askarlarini uchratdim: ular musiqa sadolari ostida bir maronda qadam tashlashardi: oldinda kuhrang otga mingan, g'ishtiga o'xshash dag'al yuzli keksa general borardi, norg'ul yigiltardan sara lab olingan grenadyorlar rotasi esa safning oxiriga tizib qo'yilgan edi — ularning bosh kiyimlari Rim papasining tojini eslatardi. Men negadir ich-ichimdan suyunib, og'zim ochilgancha askarlarini kuzatib turardim: jangchilarning qizil mundirlari-yu tantanavor musiqa sadolari a zoyi badanimni jumirlatib yubordi.

Birozdan keyin men Kremond viloyatiga qadam qo'ydim; endi odamlardan Shos qo'rg'onini so'ray boshladim. Ajab hol: kimga murojaat etsam, u menga hayratlanib tikilib qolardi. Dastlab, qishloqi turq-u atvormi, safar mobaynida obdan changga belangan qopga o'xshash ust-boshim o'zim yo'qlab borayotgan g'aroyib maskanga sira ham munosib bo'limasa kerak, deb o'yladim. Lekin

ikki yoki uch murta bir xil javob qaytarishgach, turli qiyofalarda huyrat alomatlarini ko'rdim-u, ko'nglimda shuba paydo bo'ldi: «Balki Shos qo'rg'onida ishlar pachavadir? Harholda, u yerda bir sir bo'lsu kerko».

Ko'nglimda uyg'ongan shubblingi chek qo'yish maqsudida boshqacha turzdu nayol berishgu quror qildim: dahn-yo'ldan foystun ko'rindi, o'rindiqdha olyjanob zot o'tirardi; men undan aShos qo'rg'onida deb ataladigan uyning xo'jayimi huqida bitor gap eshitigan-eshitmaganimi so'radim. U avoni to'xtatlidi, boshda yo'lovechilar singuri boshimdu oyog'imyugochi sinchiklab razm soldi. So'ng:

— Ishtigammun, — dedi. — Nimiyydi?

— Rostdan ham buduvlnt xo'jalikmi? — deb so'radim.

— Bo'limusam-chi, — dedi. — Dang'llama imorati bor.

— Tushunarli, — dedim. — Xo'p, mayli, odamlari qunuqu?

— Odamlari?! — deb qichqirib yubordi. — Eshushing joyidumi, o'zi? Axir, u yerda odam yo'q-kul!

— Nimulur deyupsiz? — dedim. — Mister Ebenezer odam emasmi?

— Ha-syn, u rostdan ham odam, — dedi. — Agur sen ga qo'rg'onning egasi kerak bo'lsa, shak-shubhasiz, umayjud. Ammo buning nima hojati bor-a?

— Meni ishga yollarmikan deb o'ylagan edim, — debim o'zimni go'likka solib.

— Nima?! — deb baqirib yubordi aravakash. Tovushidan hatto ot hurkib ketdi. — Menga qara, o'g'sim, — deb davom edi, — albatte, bu mening ishim emas, ammo xushmuomala yigitchaga o'xshayapsan, shuning uchun bitta maslahat bermoqchiman: esing bo'lsa, Shos qo'rg'onidan uzoqroq yurgin!

So'ogra boshiga dababali yasama soch qo'ndirib olgan harakatchan kishi duch keldi; fahmlashimcha, u miyozi huzuriga oshiqib ketayotgan sartarosh edi: avvaldan bilardimki, sartaroshlar gap tashishga niyoyatda o'ch

bo'lishadi — shuning uchun undan to'ppa-to'g'ri Shosda yashaydigan mister Belfur qanaqa odam deb so'rab qo'ya qoldim.

— Diyordi qursin! — deb pishqirdi sartarosh. — Odam emish, topgan gapingni qarn-yu! Axir, uning odamlik siyoqi yo'q-ku! — Keyin tilyog'lamatlik bilan mening asl niyatimni bilib olishga urindi, lekin men ayyorlik qildim — uning qo'ymini puch yong'oqqa to'ldirib yubordim.

Quloq-chakkanga birov tarsaki tortib yuborganday bo'ldi, esankirab qoldim. Men galvars, chuchvarani xom samab yurgan ekanman-da!.. Mayhum imo-ishoralar jominga tegdi, xomxayollardan miyam g'ovlab ketdi. Bu qanday janobning uyi bo'ldiki, o'sha tomonga eltadigan yo'ini so'rab-surishtisang — bas, to'satdan butun viloyat bir sapchib tushadi, odamlar esa ko'zlarini pirpiratish-gancha senga qarab baqraviy qolishadi? U qanaqa odam ekanki, katta ko'chada uchragan yo'lovchi oting qashqasiday tanisa? Agar piyoda yurib Esendinga bir soatda yetib borish mumkin bo'lganda, sarguzashtlarim allaqachon poyoniga yetgan bo'lardi — men mister Kempbell huzuriga qaytardim. Lekin uzoq yo'ning asosiy qismimi bosib o'tdim, endi ortga qaytishga g'ururim izn bermasi: hech bo'lmasa izzat-nafsimni qondirish uchun ham gap nima da ekanimi aniqlashim, manzilga yetib borishim lozim. G'alati gaplarni eshitaverib dovdirab qolgan, oyog'imga tosh bog'langanday sudrab qadam tashlayotgan esam-da, o'jarlik bilan yo'ini so'rab-surishtirishda davom etardim, olg'a borardim.

Kun botayotgan payda bitta ayolga duch keldim; u miqtigma edi, qora soch, aftidan, xiyla vaysaqi ko'rnardi — harsillab-harsillab nishablikdan pastga tushardi. Unga ham odatdag'i savol bilan murojaat etdim-u, u orqasiga ters burlib, o'zi hozingina tark etgan adir cho'qisisiga meni ergashirib chiqdi va qo'li bilan vodiy tubini ko'rsatti — yam-yashil o'tloqzorda ulug'vor toshqo'rg'on savlat to'kib turardi. Chor atrof nihoyatda go'zal edi: tepalikni dov-daraxtilar qoplagan

ed, imoqdu shildir-shildir suv oqardi, serhosil ekinzor ko'rinnib turardi, lekin imorat odam yashuydigan mas-kanga o'xshamasdi; u tomonga olib boradigan birorta hum so'qmoq ko'rinnasdi, mo'rlardan tutun chiqmusdi, bog' esa huvi lab yotardi. Birdan yurug'un tovoni minga tushib ketganday bo'ldi.

— Anavimi? — deb yubordim belxitiyor.

— Xuddi o'zil! — Birdan uning jazzavasi tutib vaysay boshladi! — Inson Jonidan buniyod etilgan, qonsirab yotib-di, begunoh to'kilgan qonlar uni yer bilan yaksan qiladi. Qurab tur: men unga uturaman! Tuf-tuf! Abadul abad irib-chirib ketsin! Uy egasini ko'rsang, eshitigan gaplarning hammassini ayg'in, xo'pmi? Jemmet Kluston seni bir ming ikki yuz-u o'n to'qizinch marta qarg'adi, la'natladi deb ayg'in! Xudo yo xudovando, uning uyimi, molxonasi-yu otxonasini, oskhonasi-yu oshpazlarini, barcha qavm-u qarindoshlarini-yu xizmatkorlarini, mehmonlari-yu yetti pushtimi yer yutsin!

Ayol sharitta orqasiga burilib g'oyib bo'ldi. Men xud di tizzamgacha yerga botib ketganday, turgan joyimda qaqqayib qoldim, qo'rquvdan sochlarmi tikka bo'lib ketdi. O'sha zamonda bali yalmog'iz kampir borligiga ishonardik, qarg'ish odamlarni birpasda dahshatga solib qo'yardi; xullas, manzil ostonasida bunday gaplarning yangrashi yaxshilik alomati emasdi, balki yo'imdag'i to'siqilar nishonasi edi. Oyoqlarimda majol qolmad. Asta yerga o'tirdim-da, Shos qo'rg'onimi ko'zdan kechira boshladim. Qanchalik uzoq tikilganim sari bu o'lkaga nisbatan tobra mehrim ortib borardi: chaman-chaman gullab yotgan qalin do'lana ham, yam-yashil o'tloq, alohida paykallarda oqarishib ko'rmayotgan sulizorlar-u to'p-to'p bo'lishib osmonda parvoz etayotgan go'ngqarg'alar — bulning hammasi bu yer nihoyatda umumdot Naob-havosi orombaxsh ekanimi bildirardi, faqat maydon! Q'rasdagi yiot ruyibatti tostiqqatko'singimga ko'ranka tashhab turadi xo-los!

Dala-tuzdan qaytayotgan dehqonlар yon-verimdan o'ta boshhadilar, men bo'lsam, hamon yo'l chetida hufsalam pir bo'llib o'tirardim, hatto ularga: «Hormang'lar!», deyish-ga ham yaramasdim. Nihoyat, quyosh utqiq bosh qo'ydi va shunda men surg'ish osmonga o'tlayotgan hilolday tutuni ko'rib qoldim, u xuddi shundan chiqayotganga o'sharedi — ingichka. Lekin barchi bu boshipunadan talyayotgan tunun edi; demak, o'choqqa o't yoqilgan, uy istillyapti, koniga quyynomni ovqat quyladi — xonadonda turk Jon bor, u gulsan yoyqapti, shuning o'ziyoq kishiga takkin berardi.

Men mayna qophugun torjuna so'qmoq bo'ylab o'shu tononga jo'mudim. So'qmoqni arung ilg'ab olish mungkin edi, kolon, inson bolasi istiqomat qillayotgan maskanga etudigan yangona yo'ning bunday ko'rinishi g'alati tuyularddi. Lekin boshqa yo'l ko'rinnasdi. Tez orada toshdan yasulgan ikkitu ustun ro'parasidan chiqib qoldim; ularning ustiga gerb o'matilgan edi. Yonginasida esa toshdan qurilgan, tomsiz qorovulkxona turardi. Ko'rimb turibdiki, bu yerdagi qurilish oxiriga yetkazilmagan edi: hashamatli — quyma darvoza o'mida ustunlarga somon bovliq bilan bog'lab qo'yilgan ikki qanoqli bog'eshik turardi. So'qmoq na bog' chetiga tortilan to'siqqa, na bo'sag'adagi mo'jaz xiyobonga duch kelardi — ustunlarni o'ng tomondan aylanib o'tardi-yu, itonizi misoli imorat sari yo'nalaridi. Manzilga qanchalik yaqinlashsam, imorat menga tobora huvillab yotganday tuyula boshladi. Go'yo u chala-yarim qurilishning cho'itoq qanotiga o'sharedi: dastlab rejalashitirilgan o'rta qismi ma'lum qavatgacha tikhangan edi, kolos. Pog'ona-pog'ona g'isht devorlar shundoq ko'rini turibdi. Ko'pgina derazalarga oyna solimmagan edi; ko'rshapalaklar pir etib uchib chiqishardi-yu, yana ortlariga qaytishardi — bamisol boloxonada istiqomat qilayotgan kaptarlarga o'sharedi.

Imorat tomon borardim. Oqshom cho'kdi. Odatdagidан yuqori birinchi qavatning uchta derazasidan g'irashira shu'la ko'rina boshladi. Derazalarga qalin-qalin



panjara qoplangan edi. O'h-ho', men uzoq yo'l bosib, istiqboliga intilayotgan saroy shunaqa ekan-da! Nahotki, mana shu devorlar qurshovida kaminiyi yangi do'stilar-u portoq kelajak kutib turgan bo'lsa? Ha, jonajon Essenzalaridan shunaqa yog'du tarallari, mo'riardan shunaqa tutun chiqardi — bir chaqrim naridan ko'rini turardi. Qoluversa, eshigimizni hatto tilanchi taqillatsa ham darrov ochar edik!

Uyga oyoq uchida yaqinlashdim-u, ichkariga qulqoq soldim: birov likopchalarni taraqlatdi, kimir quv-quv yo'taldi, lekin koshkiydi inson zotining tovushi eshitilsa, jillaqursa, it hursa ham go'rgaydi — yuragim siqilib ketdi.

G'irashirada ilg'ashimcha, eshik ulkan daraxting bir bo'lagi shekilli, zil-zambilday tuyulardi, mix qoqilmagan joyi yo'q. Zo'rg'atdan yuragim betlab qo'llimni ko'tardim va eshikni bir marta taqillatdim. So'ng kutib turdim. Jimjittik — xuddi o'lik chiqqan uyg'ula bo'ldim; abadiyatday cho'zilgan daqiqalar o'tib borardi, ammo tiq etgan tovush eshitilmasdi, fäqat boshim uzra ko'rshapalaklar charx urardi, xolos. Yana bir bora eshikni taqillatdim-u, ichkariga qulqoq tudim. Endi qulqolarim jimjittikka shu qadar ko'nib qolgan edi, beixtiyor ichkarida chiqillayotgan soat tovushini payqab qoldim — soniyalar bir maromda hisob-kitob qilinardi; lekin uyning nomi 'um egalari hamon sukit saqlardi, hatto nafas olmasdilar.

Ko'nglimda shubha uyg'ondi, yaxshilikcha juftakni rostlasamikan deb o'yladim. Lekin birdan jahlim chiqib ketdi va eshikni mushtay boshladim, gumburlatib tepib tepib yubordim, tovushimning boricha mister Belfurni chaqirdim. Umuman, o'zimni idora qilolmay qoldim. Bir dan aynan mening tepanda birov yo'taldi; zundlilik bilan orqaga chekinib, boshammi ko'tardim; pastki qavatning derazasidan tungi qalpoq kiyib olgan erkak kishining boshi va pilta miliqning quvuri ko'rindi.

— O'qlangan, — dedi tovush egasi.

— Men Shos qo'rg'omining sohibi bo'lmish mister Ebenezer Belfurga xat olib keldim, — dedim. — Bu yerda o'sha kishi yashaydimi?

— Xatni kim yozgan? — deb so'radi piltamiliqli kishi.

— Buning ishga aloqasi yo'q! — dedim, chunki g'uzabim benihoya jo'shib ketgan edi.

— Mayli, — degan tovush eshitildi yuqorida. — Xatni eshik ostiga tibq qo'yilin-u, tuyog'ingni shiqillat!

— Nima-nima? — deb qichqinib yubordim. — Bu xat kimga utolgan bo'lsa, o'sha kishiga beriladi; mister Belfuring o'se qo'lliga topshiriladi. Bu oddiy xat emas, tavsiyanomda.

— Qanqa nomi? — deb so'rudi kimsa turaddudlanib. Men gapimni takorladim.

— Xo'sh, o'zing kim bo'lasan? — deb so'radi u xiyla vug' o'gach.

— Men o'z nomimdan uyalmayman, — dedim zarda urash. — Mening nomin Devid Belfur.

Qasam ichishim munirkinki, bu so'zlarini eshitishi bilan noq nomi 'um kimsa titrab ketdi: piltamiliqi deraza raxiga turq etib urildi. Navbatdag'i savol anchu-muncha fursat-dan keyin berildi va, ajibet, u kishining tovushi muloyim-lashib qolgan edi.

— Otung vaftot etdimi?

Men hayratdan dong qotib qoldim, tilim kalimaga kelmasdi: ko'zlarimni pirpiratganimcha serrayib turaverdim.

— Afsus, vaftot etibdi, afsus, — deb bosh chayqab qo'ydi u kishi. — Shuning uchun mening eshigimni do'mbir qilib chalayotgan ekansan-da. — Yana suknat boshlandi. So'ng u biroz dadillashib so'zlarini yakunladi: — Nachora, do'sti aziz, men seni mehmon qilaman.

U deraza ortida g'oyib bo'ldi.

Uchinchibob

AMAKIM BILAN TANISHUV

Tez orada qator-qator zulfular-u zanjirlarning jarang-jarang tovushi eshitildi-yu, eshik salgina qiya ochildi va men ostona hatlab ichkariga kirgan zahotim yana yopildi.

— Oshxonaga kir, bitor narsaga tega ko'rma, — deb buyurdi menga tanish tovush egasi.

Qo'rg'on sohibi zo'r hafsala bilan eshikni qulflay boshladi. Men tavakkal qilib oldinga yurdim-u, birdan oshxonaga kirib qoldim. O'choqda gurkirab olov yonar, xonaga yog'du taralardи; umrimda bu darajadagi shiydam oshxonani ko'rmagan edim. Javonda besh-oltita likopcha turibdi, stol ustiga ovqat qo'yilgan edi: suli bo'tqa suzilgan kosa-yu suyak qoshiq, bir krujka pivo. Tosh gumbazli ushbu keng-mo'l xona yaroqsiz buyumlar makoniga aylantirilgan bo'lib, devor yonlarida quflangان sandiqlaru burchakda kattagina qulf osilgan idish-tovoq javonchasi turardi.

Anavi kimsa eshikka oxirgi zanjirni ildi-yu, orqamdan oshxonaga kirdi. U zahil yuzli, nimjongima kishi edi: bukchayib qolibdi, yelkalari puchmaygan — afidan yoshini bilib olish mushkul; uni ellikka kirgan yoki yetmishga borgan mo'ysafid chol deyish mumkin. Qalpog'i to'qima edi, yiritiq-yamoq ko'ylagining ustidan ham to'qima xalat kiyib olgan: na nimchasi, na belburma kamzuli bori turardi. Lekin, eng ajablansarsi, hatto dahshatlisi — uning ko'zları edi: u mendan nighohini uzmasdi, yuzlarimga yeb qo'ygudek bir alfozda tikilib-tikilib qarardi. Uning kasbкори, hunari nima ekanini aytilish qiyin, abatta. Shunday bo'lsa ham, u ko'proq keksa xizmatkorga o'xshardi — allaqachon hech ishga yaramay qolgan-u, faqat qormini to'ydirish uchun uymi qo'riqlab yotardi.

— Ovqat yeysammi? — deb so'radi u, nighohini tax-

minni tizzalaringga qadagan ko'yи. — Manavi bo'tqaning tuzini ko'rishing mumkin.

— Nazarinda, bu ovqatni o'zingiz yemoqchisiz, — deb javob berdim.

— Hechqisi yo'q, — dedi u. — Men shundeq ham bit lojini qilaman. Lekin pivoni ichib qo'yaman, bu yo'ulimga doni bo'ledi. — U mendan ko'zlarini uzmay yarim krujkani bo'shudi da, bidan qo'llini cho'zib: — Qani, ko'mylk'ehi, qannoq xat ekai, — dedi.

Men e'tiroz bildirdim.

— Bu xat nizgu emas, miser Helhonga atolgan, — dedim.

— Seningicha, men kimmon? — dedi u. — Aleksandrning xatini bu yoziqu ber!

— Bilmus ekannman-da! — deb to'ng'illadi u.

Oting mening tug'ishgan og'am, aziz do'stim Devi, men nenga amaki bo'laman. Ko'rini turibdiki, sen mendan hum, uyimdan ham, to'yimli suli oshimdan ham jirkangan yapsan. Tag'in mening tug'ishgan jiyamamsan. Qani, xatni ber-chi, o'zing o'tir — qormingni to'ydirib ol.

Agar bir-ikki yosh kichikroq o'smir bo'lganimda bormi, uyalganimdan, charchaganimdan, hafsalam pir bo'lganidan ho'ngrab yuborardim. Hozir na bir og'iz haqorat yoki maqtov so'zi aytishga qurbim yetmasa-da, indamay xatniunga berdim va yorma bo'tqani pok-pokiza tushirdim.

Bu payt amakim gulxanga engashgan ko'yи qo'llidagi xatni aylantira boshladi.

— Unda nimalar yozilganini bilasanmi? — deb so'radi u tuyqusdan.

— Ser, muhr buzilmagan, — deb javob qaytardim. O'zingiz ham ko'rib turibsiz-ku.

— Shundaylikka shundayku-ya, — dedi u. — Lekin sen bu yoqqa bekordan bekorga kelmagandirsan, to'g'rimi?

— Xatni topshirgani keldim.

— Ana xolos! — dedi mug'ambirlik bilan. — O'laymanki, nimadandir umidvor ham bo'lgansan, shundaymi?

— Tommayman, ser, — dedim. — Boy-badavlat qarindoshlarim bor ekanini aytishgan paytda rostdan ham umidvor bo'lqanman: ular menga madad berishadi, deb o'ylaganman. Ammo men tilanchi emasman, sizning sadaqangizga qurab qolganim yo'q. Harholda, chin ko'ngildan hadya etilmagan in'om o'zingizga siylov. Odmigina ustboshimga e'tibor bermang, mening do'stlarim ko'p — har doim jon deb yordam beradilar.

— Paq-puq, miliqdori! — dedi Ebenezer amakim. — Bekordan bekorga tajang bo'laverma. Mana, ko'rasan, biz hali apoq-chapoq bo'lil ketamiz. Devi do'stginam, ugur bo'iqlaga to'yib qolgan bo'lsang, kosani o'zim yalab qo'yaman. Hm-m, suli bo'tqa — dong'i ketgan ovqat, — dedi u va meni taburetkadan nari surdi-yu, qo'lindan qoshiqni oldi. — To'yimli yemish, shirinligini aytmasanmi! — U shosha-pisha kalima qaytardi-yu, ovqat yemogqa tutindi. — Esimda bor, otang ham ovqat yeyishni juda yaxshi ko'rardi. Uni yebto'ymas deb bo'lmasdi-yu, lekin niyojatda xo'ra edi, men unday emas — bir-ikki cho'qilayman-u, to'yaman-qolaman. — U pivoni lo'q-lo'q ichdi-yu, birdan mehnondo'stiligi yodiga tushib qoldi shekilli: — Agar tomog'ingni ho'llab olmoqchi bo'lsang, eshik orqasida suv bor, — dedi.

Men indamadin, amakindan ko'zlarimni uzmay, ser-rayib turaverdim. Sabr kosam lim-lim to'lgan edi. Aman kim esa hamon og'ziga ovqat tiqqan ko'yi dam-badam mening boshmoqlarimga, dag'al, qishloqcha paypoqlarimga nazar tashlab qo'yardi. U faqat bir marta nighohini ko'tardi-yu, ko'zlarimiz to'qnashdi: amakim xuddi qo'liga tushgan kissavur kabi sarosimaga tushib qoldi. Bu holat ko'nglimda g'alati mulohaza uyg'oldi: balki, u ko'pdan beri odamlarga aralashmay qo'ygani uchun ham o'zini g'ayritabiyy tutayotgandir, biroz ko'nikma hosil qilgach, hammasi o'tib ketar — amakim butunlay boshqa odam-

ga aylanur? Uning xirldoq tovushi xayollavimni to'zg'itib yubordi.

— Ohung vaftot etganiga anchu bo'ldimi-a?

— Uch hafta bo'lyapti, ser, — deb javob berdim.

— U xayolchun odam edi, Aleksandrni aytaman-da, arolli ko'rindi, indamus edi, — deb davom etdi unumkim, — Yonhligida bi'zan kun bo'yil bir og'iz ham gapirmasdi. Hoynahoy, men huqinda ham ko'p gapirmagan bo'hu konak ni?

— Hey, o'zingiz aytgongingizga qadar men uning ukasi borligini ham bilmadim.

— Hay-hay-hay, — dedi Ebenezer, — Nahotki, u Shosha qida hikoya qilib bermagan?

— Bi nomni bitor marta tilga ohnagan, ser,

— Aql bovar qilmaydi! — dedi amakim. — Hayronmon, u quenuq odam ekan!

Shungi quramay, u o'zidanmi, mendanmi yoki otamning ajibtovor xulq-atvoriidanmi — bilmadim-u, lekin nihoyatda numunun edi. Shubhaisizki, men paydo bo'lgan dastlabki paytlardagi begonasirash, hatto kin-adovat kayfiyatni asta-sekin tarqala boshladi. Harqalay, bipasdan so'ng u supchib o'midan turdi-yu, menga orqa tomonidan yaqin kelib, dadil-dadil yelkamga qoqib qo'ydi.

— Ozgina muddat o'tsin, ana innakeyin biz apoq-chapoq bo'lil ketamiz! — deb qichqirdi u. — Ochig'ini oytsam, men seni uysa taklif etganimdan xursandman. Ko'p, endi o'ringa kirib damningi olgin.

Ajablanarisi shundaki, u fonus yoki shamchiroq yoqib o'tirmadi, qop-qorong'i yo'lakka chiqdi-yu, paypaslangancha, hansirab-hansirab zinapoyadan yuqoriga ko'tarila boshladi, keyin qandaydir eshik qarshisida to'xtadi va uni ochib ichkariga kirdi. Men ko'r-kora ravishda uning orqasidan ergashib borardim; oyog'ini bosib olgan zahotim u mana shu xona menga atalganini e'lon qildi va ichkariga kirishga taklif etdi. Ostonadan o'tdim-u, bir necha qadam yurganimdan so'ng joyimda taqqa to'xtab, o'ringa kirib olish uchun chiroq so'radim.

— Paq-puq! — dedi Ebenezer amakim. — Oppoq oydinda-ya!

— Ser, na oy bor, na yulduz! — deb e'tiroz bildirim. — Zim-ziyo, karavotni ko'rnayapman.

— Paq-puq, safsata! — dedi u. — Men uyda chiroq yoqib o'tirishni yomon ko'raman. Yong'in chiqishidan o'iguday qo'rquam. Xayli tun, Devi, aziz do'stginam.

U yana e'tiroz bildirishimi kutib o'tirmay, zudlik bilan eshkini yopdi-da, tashqaridan quflay boshladi.

Dam kulgin qistardi, dam yig'lagim kelardi. Xona quduqdan ham sovuqroq edi; paypaslay-paypaslay karta votni topdim; ma'lum bo'idiki, u ham botqoq misoli shilta ekan. Yaxshiyamki, qalin jun ro'mol bilan bo'xchani qo'tlig'imga qisitirib olgan ekanman; ro'molga o'randid-u, salobatli karavot yoniga — polga cho'zildim. Birpasda ko'zin ilindi.

Tong otishi bilan uyg'onib ketdim: keng-mo'l xonada yotardim, devorlarga naqsh solingen terilar yopishitirilgan edi, xilma-xil mebellar terib qo'yilgandi va uchta yirik-yirik derazasi bor ekan. O'n yil, ehtimolk, yigirma yil muqaddam bunday joyda uslash yoki uyg'onish kishiga huzur bag'ishlagan bo'lishi mumkin, albatta. Lekin o'tgan davr mobaynida namlik, tartibszilik, ko'rshapalakkalar-o'rgimchaklar o'z ishlarini ado etib ulgurishgan edi. Boz ustiga, derazalarning barcha oynalari chil-chil sintib tushgan edi va, umuman, butun qo'rg'on oynasiz huvillab yotardi; beixtiyor o'ylash mumkinki, bir zamonal aramakim jennet Kluston boshchiligidagi g'azabi qaymagan qo'ni-qo'shililarining tajovuzkorona hujumlariga dosh bergen bo'lsa-da ajab emasdi.

Ayni chog'da deraza ortidan charaqlab quyosh ko'rindi. Men bo'lsam, la'natni xonada junjikib o'tirardim. Zo'r berib eshkini taqillata boshladim va tovushimi barella qo'yib, zindonbonni chaqirdim. Nihoyat, u meni ozod qildi.

U kamminani uy orqasidagi quduq boshiga ergashtirib bordi. Quduq tepasida yog'och paqircha osig'liq turardi.

«Man, intasang — yuvwingim», dedi amakim. Yuvinib-taradim va tezda oshxonaga bordim: u o'choqqa olov qolab, yana suli bo'tqa pishirardi. Stol untidi ikkin kosa, ikki dona suyak qoshiq turadi-yu, lekin bir krujka pivo bor edi, xolos. Nazarimda, dastursonga biroz sinchkov nazar soldim shekilli, balki ajabloniyognimni amakim nezzondi, harqalay, u mening fikringa javob qaytarayot-gonday!»

— Pivojon ichging kelyopimi? — deb so'rudi. Suyuq ichimlikni shug'lab, spivajons deb atardi.

— Ododa oz mo'z ichib turadim, lekin siz xotijam bo'ling, — deb javob berdim.

— Heja endi, — dedi u. — Sen uchun hech narsamni ayammym. Abutta, me'yorni imutmaslik kerak.

Javondan ikkinchi krujkani oldi-yu, unga ko'zadan to'ldirib pivo quyish o'miga o'zining krujkasidagi pivonning oppa-tousa yarmini bo'lishtirdi. Bu harakat o'ziga xon olyyjanoblik atomuti edi; qalbim to'iqinlanib ketdi. Albotta, qarshimda xasis chol turardi, lekin u uchiga chiqqan xasis edi — uning illati hum go'yo fazilatday tuyulardi.

Oqquthonib bo'ldik. Ebenezer amakim idish-tovoqlar singlundigan javon g'uldonini ochdi-da, sopol trubkasini, bir qui tumukisini oldi va bir chekimlik tamakini ushtdi-yu, qutichani joyiga tiqb qo'ydi. Keyin derazadan tushayotgan otoibga o'zini toblagancha jingga tamakisi ni tutardi. Goh-goh menga nazar tashlab qo'yardi va uzuq-yoluq savollar berardi. Bir payt u mendan:

— Kampir qalay, onaangni aytaman? — deb so'radi.

— U ham vafo't etgan, — deb javob berdim.

— Ha, xushro'y qiz edi boyaqish. — Keyin anche paytgacha miq etmadni va oxiri: — Do'stlarining qanaqa odamlar? — deb so'radi.

— Hammasi jentelmenlar — Kempbellar avlodidan, — deb javob berdim. Aslida esa, ularning orasida menga zig'ircha e'tibor beradigani bo'lsa, u ham yolg'izgina ruhoni yedi, xolos. Ammo, nazarimda, amakim meni kansitayotganday tuyuldi va yuzma-yuz turgan

paytimizda so'roqlaydig'an jonkuyuarlarim birligini unga pisanda qilib qo'yimoqchi bo'idim.

Aftidan, u ichida nimalarnidir xomcho't qilib ko'rdi, so'ng tilga kirdi:

— Devi, do'sti aziz, amaking Ebenezer huzuriga tashrif buyurib xato qilmagansan. Men uchun oila shon-sharafi hamma natsadan yuqori turadi. Burchimni ado etaman, qurzimni uzaman. Lekin men seni qayooqqa joylashni uzbekil hal etmagunimcha og'zingdan gullab qo'yimag'in; al-laqanday tog'li o'lkadagi yalangoyoq Kempbellar oldida Befsur o'z qadrimi tushirmaslig'i lozim. Seni huquqshunoslik sohasiga tavsija etsammikan yoki ruhoniylig durustmi, balki harbyi xizmat ma'quldir — axir, yigitlar faqat sipoh bo'lismi orzu qiladilar-ku?.. Itimos, hozircha o'zingga mahkam bo'l; hech qanday xat-pat yozmaysan, birov bilan aloqa qilmaysan. Xullas, hech kinga hech narsa demaysan, agar bu talabim yoqmasa, ana — katta ko'cha, xohlagan tomonga ketaver, xudo yor bo'lisin!

— Ebenezer amaki, sizga ishonaman — menga faqat yaxshiilik qilmoqchisiz, — dedim. — Shunday bo'lsa ham, bilib qo'yingki, mendayam o'zimga yarasha g'urur bor: bu yerga o'z xohishimga ko'ra kelganim yo'q, agar bir marta ko'chani ko'rsatadigan bo'lsangiz, keyin bu so'zni takrorlasnga hojat qoldirmayman.

— Paq-puq! — dedi u. — Shoshqaloq ekansan, muhtaram do'stim. Bir-ikki kun sabr qilgin, axir! Ko'rib turibsan-ku, men sehrgar emasman — bo'tqa suzilgan anavi kosadan jaranglatib oltin to'kolmayman. Sen faqat menga bir yoki ikki kun muhlat bergin, hech kinga hech narsa demagin: xotirjam bo'l, men sening g'amingni yey-man, xolos.

— Xo'p, mayli, — dedim. — Qisqa va lo'nda, Agar siz menga yordam bermoqchi bo'lsangiz, minnatdor bo'lardim.

Nazarimda, amakimning popugi pasayib qoldi (balki, yanglishayotgandirman), shuning uchun darrov unga yan-

il' tolashimi bayon etdim: ko'rpa-to'shaklurini ostobga yoylib quritish lozim, bunday ho'l latto-puttolarga burkanib ushlashi mutlaqo istumayman.

— Bu uydn kim xo'jayin: semmi yoki men? — deb xilladi u yoqimsiz tovushda, so'ng birdan dami ichiga tuthib ketdi. — Devi, do'stingim, biz endi talashib-tortishib o'timak uyat bo'lat... Qondoshlik — quruq gap emas. Belhor avlodidan fuqat ikkovimiz qoldik, xolos.

U tutilib-tutilib shahzumining qidimiy shon-shuhratini qo'yib o'n qorilishiga ayno solgan ekam, lekin u ortiqcha surʼsurajalarga chek qo'yildi. Shu payt Jemmet Klusion topshiril'mi bajarildiha ahd qildim.

— Yarmos musiqi! — deb to'ng'illadi u. — Bir ming ikki yuzu o'n to'qqiz — demak, men uning qazari evaziga lush-lushlarini sotib yuborganimdan beri har kuni qong'ayotgan okan-dal. Hechqisi yo'q. Devi, hali u qo'llingga tushadi — dodini beraman! Men buni shundoq qoldirmayman. Jodugar, kindan xohlasang — o'shandan so'ra, u jodugar! Men hoziroq vositachi qoziga uchrashaman.

U javrab-javrab sandiqni ochdi-du, kiyilmusdan esklil' ketjon chukmonini, nimchusini hamda binoyidek moyot shlyapinini oldi: ust-boshlariga uquq qoldalmagan edi. U bor bisotini kiydi, javonchadan tayvoq oldi — qurollandi, so'ngira sundiqqu qufl osdi va endigina ostonaga qadam qo'yaman degan payida xayoliga bir gap keldi-yu, joyida tuqqa to'xtdi.

— Uyni senga yolg'iz tashlab ketolmayman, — dedi u. — Tashqariga chiq, men hozir eshkini quflayman.

Miyanga qon tepdi, g'azabim qaynab ketdi.

— Agar uyni quflasangiz, bundan keyin meni ko'rmaysiz, — dedim. — Ishqilib, bundan buyyon yaxshilikcha uchrashmaymiz.

Amakimning rang-ro'y'i oqarib ketdi va labini tishladi. — Devid, bunday qilish yaramaydi, — dedi u hirqirab, burchakka tikigan ko'yi. — Bu avvolda ikki dunyoda ham ko'nglimga yo'l topolmaysan.

— Ser, men yoshingizni, qarindosh ekaningizni ni-hoyatda qadrlayman, ammo izzat-hurmat evaziga sizdan sadaqa olishga nomus qilaman. Avvalo, o'zinni hurmat qilaman — kamininga shunday tarbiya berganlar: menga yigirma barobar amaki bo'lsangiz ham, bu dunyoda sizdan boshqa birorta panohim bo'lmasa ham, lekin bunday tarzda ko'nglingizni ov/lashni aslo istamayman, — deb javob berdim.

Ebenezer amakim oshxonaga o'tdi va derazaga qara-gancha jim turib qoldi. U xuddi bezgak tutgan kishiday dir-dir titrardi. Biroq, u orqasiga o'girilgan payt yuzlariغا xanda yugurgan edi.

— Xo'p, mayli, — dedi. — Baribir xudoning aytgani bo'ladi, biz ojiz bandalarmiz. Men hech qayoqq bormayman, vassalom.

— Ebenezer amaki, hayronman: nima balo, siz meni o'g'ri deb o'ylayapsizmi? — dedim o'zimni tutol-may. — Muomalangizga qaraganda, kamini ko'rarga ko'zingiz, otarga o'qingiz yo'q shekilli. Har daqiqada, har bir so'zingizdan shu narsa ma'lum bo'lyapti. Siz jiyangi-nizni unchaliq xushlamadingiz, endi hech qachon yaxshi ko'rmaysiz. O'zinga kelsak, men vaqt-soati kelib odam-uxlab tushinda ham ko'rmaganman. Xo'sh, nega meni ushlab turibsiz? Keling, men o'z do'starim — meni yaxshi ko'radigan kishilar yoniga qayta qolay!

— Yo'q, yo'q! — dedi u hayajonlanib. — Yo'q. Sen mening jigarimsan. Biz hali apoq-chapoq bo'lib keta-miz. Qolaversa, bu uydan qup-quruq chiqib ketsang yob-bo'gin — mehmonsan: indamay, bermalol yuraver. Mana, ko'rasan, hali hammasi mixday bo'lib ketadi!

— Nachora, ser, — dedim biroz o'ylab. — Mayli, yana uch-to'rt kun yashab ko'raman. Harholda, begona-lardan ko'ra, qarindoshlarim yaqinroq — baribir suyak tortadi-da. Agar biz chiqisha olmasak, o'ylaymanki, bun-ga faqat siz aybdor bo'lasiz.

SHOS QO'RQ'ONI — BALO-QAZOLAR UYASI

T o' r t i n c h i b o b

Xiyln noxush boshlangan kun bishornav poyoniga yet-di. Biz tushda suli yormuidan tuyyorlangan bo'tqa yedlik: u yaxday edi, kechki payt hisiq ovqat ichdik. Ma'lim um bo'lishicha, bo'tqa bilan kuchisiz pivo amukim xush gapirardi, o'z odaliga sodiq edi; ancha vaqtagacha churq etmuy o'tindi yu, birdan avvolarga ko'mib tushlardi; men o'z kelajigim xonimida gap ochishiga urinib ko'rdim, lekin u domo Jivohdan o'zini olib qochdi. Mening ixtiyorimga topshirilgani sonada son-sunoqsiz lotincha, inglizcha kitob tilolar bor ekan: Jon-jon deb ertadan kechgacha kitob titlab o'tirdim. Suyumli mashg'ulot bilan band bo'lganim intayli vaqt qanday o'ganini ham sezmay qoldim: endi inqdigo tun berishiga — Shos qo'rg'oniga ko'nkishga de-yurli rozi edim, lekin Ebenezer amakimni, uning olma-kemik terayotgan bejo ko'zlarini ko'rdim-u, ko'nglimda yani shubha uyg'ondi.

Tuyquis g'alati narsuna duch keldimki, natijada ko'nglimdag'i shubhalarim battar alangu olib ketdi. Yup-qagini munzumular to'plami (Patrik Uoker turkumidan) qo'limga tushib qoldi; kitob muqovasiga mening otam o'z qo'li bilan (bunga zarracha ham gunon qilmayman) qu-yidagi jumlalarni yozib qo'ygan edi: «Akam Ebenezerni besh yoshiga to'ladigan kun bilan tabriklayman». Bunga uql bovar qilmasdi: chunki otam aka-ukalarning kichkin-toyi edi-da, demak, u qo'pol xatoga yo'l qo'ygan yoki haqiqatan ham hali besh yoshiga yetmasdanoq katta kishi-lardek chiryoqli, dona-dona yozishni o'rganib olgan.

Keyin birtalay eski-tuski tarixiy kitoblarni, she'rlar va hikoyalar to'plamini ko'zdan kechirgan bo'lsam-da, biroz otamning dastxati sira xayolimni tark etmadı — u menga siri bo'lib tuyulaverdi. Nihoyat, bo'tqa-yu pivo bilan qor-nimni to'ydirib olish maqsadida yana oshxonaga qaytit

kirdim-u, Ebenezer amakimdan, otam osonlikcha savod chiqarganmi, deb so'radim shosha-pisha.

— Aleksandrmi? Qayqoqa! — deb javob berdi. —

Undan ko'ra, o'zim tezroq savod chiqarganman, bolaliginda niyoyatda qobiliyatli edim. Otang bilan barobar o'qishni o'rganib olganman.

Bundan so'ng yanada hayratlandim, boshim qoldi va amakimdan, mabodo sizlar egizak emasmisizlar, deb so'radim.

Amakim xuddi chayon chaqib olganday sapchib taretekadan turdi, suyak qoshiq tushdi-yu, polda yumalab ketdi.

— Sen nega meni tergov qilyapsan?! — dedi hirqiragan ko'y'i yoqamga yopishar ekan. U chaqinab turgan bitko'zlarini ko'zlarimga qadadi-yu, kipriklarini ajabtovur pirpiratdi.

— Iye, bu yana nima qiliq bo'ldi? — dedim bosiq ohangda; chunki men undan xiyla kuchli edim, kamani qo'rqtib qo'yish oson emasdi. — Yoqamni qo'yib yuboring! Uyalhmaysizmi?

Amakim zo'r-bazo'r o'zini qo'lga oldi.

— Parvardigori olam hammasini ko'rib turibdi, Devi, — dedi. — Mening yonimda otang haqida gap ochmagin. Chakki qilding. — U qalt-qalt titragancha joyiga o'tirdi, likopchasiga qarab ko'zlarini pirpiratdi. — Bila-samni, mening faqat bitta-birodarim bor edi, — deb qo'shib qo'ydi yasama ohangda. Keyin polda yotgan qoshiqni oldi-yu, yana ovqatini yeya boshladi: hamon titrog'i bosilmagan edi.

Nega u menga qo'l ko'tardi? Nima uchun kutilmagan-da rahmatli otam to'g'risida yaxshi gapirib qoldi? Uning oxirgi so'zları tasavvuringa aslo sig'masdi: ko'nglimdagumon battar kuchaydi, aymi chog'da yuragimning tubida milt etgan umid uchquni ham paydo bo'ldi. Rostimi aytam, amakim aqlidan ozgan shekilli, deb o'yladim. Agar shunday bo'lsa, u bilan yolg'iz qolish xavfi edi. Beixtiyor xalq o'rtasida mashhur bo'igan bitta manzuma vo-

qealar xayolimga kelib qoldi: unda qo'rg'onnинг qonuniy merosxo'ri baxtiqaro o'smir va uni humma narsadan benasib qilmoqchi bo'lgan yovuz qurindoshi huqida hikoya qilnardi. Darhaqiqat, kutilmaganda ostonsiga bosh urib kelgan kambag'al, qashshoq qarindoshi oldida umakim nega o'zini ming maqomga solyapti, nima uchun yuzidagi niqobni sidirib tashlamayapti, nimidun xavfsirayapti?

O'zim istamasan-du, budbin o'y-xayollar miyanga mixlanib qoldi va nogabon umukanning ajabtovur odatini o'zlashtirib oldim: ko'z qirim bilan uning xattiharakatharinizi zimdan kuzata bonhaldim. Biz stol tevaragida xuddi sichqon-mushuk misoli bir-birimizni yashirinchata qib eturdik. U endi to'ng'llamay qo'ydi, tilyog 'lamalik han qilmasdi, miq etmay o'tiraverdi, lekin muttasil ravishda nimalarnadir o'yaldi; biz qanchalik uzoq o'tirgan bo'lsak, men uni shunchalik ko'proq sinchiklab kuzatardimki, oxir-oqibatda yomon niyati bortigiga to'la-to'kis ishonch hosil qildim.

Tovoqni yalab-yulqab bo'lgach, u xuddi ertalabkiday bir chindim tamaki oldi, taburetkani burchakka — o'choqqa yaqinroq joyga surdi, o'tirdi va menga orqa o'girgancha tamaki cheka boshladi.

— Devi, xayolimga bir narsa keldi... — dedi uzoq jumlidan so'ng: Bitoz sukut saqlab turzach, yana boyagi gapini takrorladi: — Ha, bir narsani o'ylab qo'ydim. Sen halai dunyoga kelmasiningdan avval men otangga, chaqa-loqqa bir hovuch tila sovg'a qilaman, deb va'da bergandy bo'lgaman. Yo'q, sen to'g'ri tushungin, unga rasman va'da bergen emasman; ulfatchilik qilib o'tirib, hazil aralash shunday deganman, xolos. Xo'sh, o'zimga zarar bo'isa-da, lekin o'sha pulni asrab qo'ydim — va'daga vafo qilish kerak, axir! Yillar o'tgani saym pul bolalayveradi, hozir ropa-rosa... — U so'zida tutilib qoldi, so'ng: — Roppa-rosa... deyarli qirq funt* bo'ldi! — dedi to'rsillab.

* F u n t — pul birligi. Angliyada bir funt sterling yigirma shillingga tengdir, Shotlandiyada esa ancha qadsiz (tarj. izohi).

Yelkasi osha menga nazar tashladi-yu, shu zahoti qo'shimcha qildi: — Shotlandiya funti — ingliz shillingi qatorida turadi;

amakimming qistirma gapi tutayli yer bilan osmoncha tafuvut vujudga kelardi, albattra. Qolaversa, uning hamma gaplari g'irt yolg'on ekanligi ham yaqqol sezilib turardi: nima uchun shuncha uydimalarini to'qib chiqarayotganini anglab yetmoqchi bo'ldim-u, zaharxanda aralash:

— Bas qiling, ser, yaxshilab o'ylab ko'ring! — dedim.

— Men ham «funt sterling» dedim-ku! — deb ko'kragiga mushtladi amakim. — Sen bir daqiqa tash-qariga chiqib, ob-havo qanaqa ekanini bilib kelgанинда bo'lardi, men o'sha pulni hozirlab qo'yaman-da, seni cha-qiraman.

Unga itoat etdim, miyig'imda kulganimcha tash-qariga yo'l oldim: u meni osonlikcha laqillatman, deb o'ylayapti, galvars! Keecha qop-qorong'i edi, osmoni falakda onda-sonda yulduzlar miftirab ko'rindar; ostomada turar ekanman, uzoqlardagi qir-adirlar uzra esayotgan shamolning mungli tovushi qulog'imga chalindi. Havo aynib turibdi, momaqaldiroq bo'ladi degan qarorga keldim. Lekin bu qarorim qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini bilmasdim...

Keyin amakim meni chaqirib oldi; o'ttiz yettitila tangani sanab-sanab qo'limga tutqazdi, lekin hovuchida bir siqim mayda-chuyda tila, kumush tangalar qolgan payda yuragi dosh berolmadni va ularni cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Mana senga pul, — dedi u. — Endi bildingmi? Men g'alati odamman, ayniqsa, begona kishilar bilan sira til topisha olmayman. Ammo so'zimdan qaytmayman, buning isbotini ko'rib turibsam.

To'g'risini aytsam, amakim boylikka o'taketgan darajada hirs qo'ygan kimsaga o'xshardi; uning favqu-lodda hotamtoyligini ko'rib, dong qotib qoldim, hatto ko'ngildagiday minnatdorchilik bildira olmadim.

— Qo'y, gapirmu! — deb xitob qildi.

Minnadorchilking keragi yo'q! Men o'z burchimni ado etdim; humma ham shunday qilardi deyolmayman. Lekin ehtiyojkor inson bo'lam-da, tug'ishgan birodarining o'g'liga yaxshilik qilayotganimdan bennoya surʼandiman. O'ylymunki, endi biz upoq-chapqoq bo'llib ketamiz, astida ham, yuqin qorindoshlar orandim qil o'num do'set bo'lishi kerak.

Unga quo'lindan kelgancha javob berdim. Ayni chog'da endi nima bo'lishini isomin qila boshladim; axir u joni dildan ham aqik ko'radi um tanqolmani bekordan ge'dikni ham avvoy ahamondi.

Nihoyat, u menga qiyalatib nigoz tashladi.

O'zing ham bilasam: mushuk bekorga ostoqga chiq-maydi — sizdan u gina-yu bizzdan bu gina, — dedi.

Men minnadorchilgimni isbotlashga tayyor ekanimni ihoq'etdin va biron-bit mushkul vazifani ijro etishimi no'maa kerak deb kutib turdim. Biroq amakim irodasini jumlab oldi-yu, fiqat keksayib, kuchdan qolganidan nolidi honda mendan uy ishlariiga, tomorqaga qarashib turishimni so'radi, xolos. Menga uning gaplari jo'yalidek tuyuldi.

Jon deb xizmattingizni qilaman, — dedim.

Unday bo'lsa, boshlaysim! — Cho'ntagidan zang bo'ngan kalitni oldi. — Bu — qo'rg'onnинг narigi qanotidagi boloxonu-minoraning kaliti, — dedi. — U yoqqa fai-qit tashqaridan chiqish mumkin, chunki uyming o'sha qismi huli bitmagan. Qani, bo'laqol, pillapoya dan ko'tarilginichida qog'ozlar bor, — deb ilova qildi.

— Ser, chiroq ko'tarib olsam maylimi? — deb so'radim.

— Yo'-o'q! — dedi u mug'ambirona ohangda. — Menning uyimda hech qanday chiroq ishlatalmaydi.

— Baxayr, ser. Pillapoya baqvavtmi?

— Pillapoya ajoyib, — dedi va men eshik tomon o'girilishim bilan qo'shimcha qildi: — Devorga yaqinroq yurgin, panjarasi yo'q. Lekin pillapoya zo'r!

Tashqartiga chiqdim. Zim-zijo tun edi. Uzoq-uzoqlarda hamon shamol chiyillardı, lekin Shos qo'rg'onida qilt etgan shabada yo'q edi. Tevarak-atrofi deyarli ko'rib bo'lməsi; yaxshiyamki, chala-yarim uy qanoti bo'ylab, devormi paypaslab minora pillapoyasi eshigini topib oldim. Qulf teshigiga kalitni soldim-u, hali uni burashga ham ulgurnmasından tuyqus charaqlab chaqmoq chaqdi va yana hamma tomonni zulmat qopladı. Shamol yo'q, atrofda mozor sukunati hukmron edi. Qorong'likka ko'nikma hosil qilish uchun ko'zimni qo'llarim bilan berkiddim, lekin baribir minoraga shapko'rga o'xshab kirib bordim.

Ichkari yanada qorong'iroq edi, xuddi nafas olishga havo yetishmayotgandek tuyulardi. Ehtiyojkorlik bilan harakat qila boshladim; oldinga cho'zilgan qo'llarim tez oruda devorga tegdi-yu, pillapoyaning pastki pog'onasiga oyoq bosdim. Silab-siypalab bildimki, devor silliq yo'nigan toshdan tiklangan edi, pillapoya pog'onalari ham tep-tekis, mustahkam silliq toshlardan yasalgan bo'lsa-da, lekin xiyla ensiz va aylanma edi. Panjara yo'qligi haqidagi amakimning yo'il-yo'rinqilari amal qilib, devorga yaqinroq yurishga intillardim: zim-zijo qorong'ilik qo'ynida yuragim dukurhashi aniq eshitilib turadi, pog'onalarini paypaslab-paypaslab zo'rg'a topardim. Shos qo'rg'oni cherdakdan tashqari, yana butun boshli besh qavatdan iborat ekan. Yuqoriga ko'tarilganim sayin, nazarimda, pillapoyada nafas olish ham yengillashayot-ganday tuyulardi, qorong'ilik biroz siyraklashdi go'yo. Faqat yana-tag'in tuyqus chaqmoq chaqqaniga hayron qoldim, xolos. Agar qo'qisidan qichqirib yubormagan bo'lsam, buning sababi — qo'rquv tomog'imdan g'ippa bo'g'ib olgan edi; agar to'satdan pastikka uchib ketmag'an bo'lsam, buning sababi — mening epchilligim emas, balki parvardigori olamming marhamatidir. Har tomondag'i devor yoriqlaridan minoraga chaqmoq yog'dusi bostirib kirdi: ma'lum bo'ldiki, go'yo o'mron bag'ridagi yalanglik bo'ylab yuqoriga o'malab chiqayotgan ekanman, boz ustiga, pog'onalar o'ritasidagi masofaning har xil ekagini

va o'ng oyog'im tubsiz jarlikdan bor-yo'g'i ikki enlik berida turganini payqush uchun o'tkinchi yorug'lik kifoya qildi. Pillapoya qay durajida «ajoyib» ekanni endi bildim! Anna shu fikr xayolindan kechishi bilan oq qilibni alloqonday o'jar jasorat chulg'ab oldi. Demak, amakim billib turib meni xayf-xatir suri yo'llabdi-da, ehtimolti, ajalga yo'lg'itimoqezi bo'lg'andie! Hatto bo'ynim ostimda qolgan taqdirda ham amakim abitli turib» yoki «bilmasdans shunday qilganimi aniqlasligu qasum ichdim. Asta engashdim-u, tushbuqiga o'xshab to'rt oyoxqlab emakla-gommecha pillapoyadan o'rlay boshladimi; har bir qurich joyni paypaslab ko'rardim va tushlarning mustahkam ekaniqa lishonch hosil qilganimidan keyingina olg'a siljordim. Chiqmoq chaqqingandan so'ng qorong'lik go'yo ikki barobar quyuqlaslib ketganday bo'ldi; ustiga-ustak, yuqorida — minora to'sinlari ostida ko'rshapalaklar daho-shotti shovqin-suron ko'turdi, natijada qulqolarim bitib qoldi, xayollarim parishon bo'lib ketdi; o'lganning ustiga teggandyay, jirkanch maxluqlar pastga qarab uchib tusha boshlaadi; ularning qanotlari goh yuzlarimga, goh yelkalarimga tegib o'turdi.

Aytish munikinki, minora to'rburchak shaklida edi, har to'rt zina oralig'idagi burchakli supa plitulari esa keng-roq bo'lib, hujmi jihatdan avvalgilariga o'xshamasdi. Men yana bitta burilish joyga ko'tarildim-da, ko'rillarday paypaslab o'zinga yo'l qidira boshladim va tuyqus qo'llarim bo'shilqiqi duch keldi: yuqori tomonda pog'onalari yo'q edi. Notamish kimsani zimiston kechada bunday pillapoyadun ko'tarilishga majbur qilish — uni naqd o'limga girifor etish bilan barobar edi. Alatta, chaqmoq sharofati va o'zimning ehtiyojkorligim tufayli omon qoldim, lekin qanday xatarga ro'baro' kelganimni, nechog'li dahshatl balandlikdan qulab tushishim mumkinligini o'ylagan zahotim butun vujudimdan sovuq ter chiqib ketdi va birdan darmomin quridi.

Shunga qaramay, endi bundan keyin nima qilishim kerakligini bilardim: ortimga burildim-da, emaklab past-

ga tusha boshladim. Yuragim nafratga to'la edi. Taxniman yarim yo'iga kelgan paytum minoraga kuchli shamol urib berdi-yu, bipasdan keyin tindi va sharillab yomg'ir quya boshladi; oxirgi pog'onaga oyoq bosar-bosmasindan yomg'ir shunchalar kuchaydiki, xuddi chelaklab suv quyotganga o'xshardi. Tashqariga chiqdim-da, oshxona tomon nazar soldim. Boya tashqariga chiqqanimidan so'ng zichlab yopib qo'yilgan eshik endi qiya ochiq turardi, ichkarida g'ira-shira yorug'lik ko'rindari. Yomg'ir ostida esa odam sharpasi qimir etmay, go'yo nimagadir quloq solib turardi. Shu chog' ko'zlarimni qamashtirib chaqmoq chaqdi-yu, yanglismaganing amin bo'ldim: o'sha joyda haqiqatan ham amakim qaqqayib turardi. Birdan momoqal-diroq guldiradi. Momoqaldiroq guldur-gulduri mobaynida Ebenezer amakimning qulog'iga qanday tovush chalinganini bilmayman: ehtimol, u men tap etib qulab tushganim olamming g'azabnok tovushini eshitgandir? Qaydam. Bu haqda o'quvchi mulohaza yuritib ko'tar degan umiddaman. Lekin bir narsa shubhasizki, u talvasaga tushib qoldi: shosha-pisha o'zini uyga urdi, eshikni yopib qo'yish ham esidan chiqib ketdi. Illojining boricha tovush chiqarmaslikka tirishib, uning orqasidan ergashdim: sezdirmay oshxonaga kirib oldim-u, to'xtadim va kuzata boshladim.

U allaqachon tovadomi oshib, poxolga o'ralgan katagina viski shishasini olishga ulgurgan edi va eshikka orqa o'girgan ko'yil stol yonida o'tirardi. Dag'-dag' titrardid: birdan tovushining boricha ingrab yubordi va shishani bo'g'zidan ushlab dast ko'tardi-yu, suv aralashirilmagan quvvatlari araqlari qult-qult etkazib icha boshladi.

Men olg'a qadam tashladim, unga orqa tomonidan yaqinlashdim-da, yelkasiga zarb bilan shap etkazib tushirdim.

— Ha-a! — deb qichqirib yubordim.

Amakim ma'rashga o'xshash g'alati tovush chiqardi-yu, qulochini yoygancha o'likday qulab tushdi. O'zim ham esankirab qoldim; harholda, avvalo o'zimming

g'animini yeyishim lozim edi, ko'p o'ylab o'tirmay nimakimni yotgan joyida qoldirishiga quron qildim. Idish-tovoqlar saqlanadigan javonchuda bir bog'lam kafit onig'liq turardi; amakim biorota hilya-nayruing ishlatisiga qodir bo'lmagan — behush yotgan payidan foydalunib, o'zimga qulol topib olishim lozim edi. Javonchuda qundaydir bo'ish shiebchular-o dori-sharmonlar, shuningdek, ko'plab hisob kliob dasturlari-yu har xil qog'ozlar saqlanor ekani agor vaqt tig'iz bo'lmanganda Jon-jon deb ularni tillah ko'rardim, thundan tushqori, turli tunum xo'jilik buyumlari ham shu joyga tiqb qo'yilgan edi, lekin ularning suriq chonlik qimmati yo'q. Keyin sandiqlarni qurish-to'mor qila boshladim. Birinchi sandiq limmoni un ekani, ikkinchi sandiqda esa xalta-xalta tangalar-u bo'lgan-hognigan qog'ozlar uylib yottardi. Uchinchi sandiqda eski-tuski kiyim-kechaklar orasidan zanglagan bo'linadi, lekin ko'rinishi xiyla mahobati shotland xanjari topib oldim: qinsiz edi. Uni nimchamming ostiga yashidim-u, amakim yotgan joyga qaytdim.

U xuddi bo'ish qopgina o'xshab shatvrib yotardi, holati o'ygarmagan edi: bir tizzasi bukilgan, qulochi yoyilgan bo'lib, bushurnasi ko'karib ketibdi, natufs olishi eshitilmashdi. Rosini aytam, qo'roqib ketdim: o'lib qolegan bo'lsa-ya! Suv keltirdim-da, yuzluriga purkuy boshladim; shunday keyingina unga jon kirdi — labini chapilladi, qovoqlari qimirladi. Nihoyat, ko'zlarini ochdi-yu, meni ko'rib qoldi va g'ayritabiy qo'rquvdan aft-basharasini jiyilib ketdi.

— Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, — dedim. — Qani, astagina o'mingizdan turing-chi!

— Sen tirikmisan? — dedi hiqillab. — Xudoyim-ey, nahot, sen tiriksan-a?

— Tirikman, ko'rib turibsiz-ku, — dedim. — Buning uchun sizdan minnatdor bo'lishim kerakmi?

U hansirab-hansirab, chuqur-chuqur nafas ola boshladi.

— Moviy shishacha... — dedi eshitilar-eshitilmash tovushda. — Javonchada moviy...

Uning nafas olishi yanada sustlashdi.

Men javoncha tonon yugurdim. Haqiqatan ham u yerda qorniga o'Ichovli miqdor yozilgan yorliq yopishtirilgan moviy dori shishachasi bor edi. Zudlik bilan dorini amkinga keltirib berdim.

— Yuragim, — dedi biroz o'ziga kelgach. — Devi, yuragimming mazasi yo'q. Men kasalmand odamman.

Amakimi stulga o'tqazdim-da, sinchiklab nazar soldim: ko'rinishi niyoyada ayananchli edi, to'g'risini aytsam, unga rahmin keldi, lekin ayni paytda qahr-g'aazabimni arang jilovlab turardim. Uni savollarga ko'mib tashladim, javob berishni talab qildim. Nega siz har doim yolg'on gapirasiz? Nima uchun meni qo'yib yuborishdan qo'rmasiz? Nima uchun otam bilan egizaksiz deb so'rasam, jiningiz qo'zib ketdi? Demak, taxminan to'g'ri ekan-da? Nega pul berdingiz, axir, bu pul meniki emas-ku?! Va niyoyat, nega meni o'dirmoqchi bo'ldingiz?

U hamma gapimni oxirgacha tingladi-da, keyin titroq tovushda o'ringa yotqizib qo'yishimni ittimos qildi.

— Ertalab hammassini aytilib beraman, — dedi. — Hayotimni garovga tikib, qasam ichaman..

U shu qadar majolsiz ediki, noiloj taklifiga rozi bo'ldim. Har ehtimolga qarshi u yotgan xonani qulfladimda, kalitni cho'ntaginga solib qo'ydim, so'ngra oshxonaga qaytib keldim va o'choqqa gurillab gulxan yоqib yubordim: bu o'choq ko'p yillardan beri bunday issiq olovni ko'rmagan bo'lsa kerak. Jun ro'molga o'raldim-u, sandiqning ustiga chiqib cho'zildim va tezda ko'zlarim ilindi.

B e s h i n c h i b o b

“KUINSFERI” KECHUVI TOMON YOL OLDIM

Tun bo'yи yomg'ir yog'di. Ertalab shimoli g'arbdan achchiq izg'irin esa boshladi: juldurovoi bulutlarni qayqlargadir haydab ketdi. Daryo sohiliga yugurib borib,

nuv to'la bochkhaga sho'ng'ib-sho'ng'ib olgan puytim hali quyosh yotog'idan bosh ko'tarmagan edi, osmonda tong yulduzi ... Cho'lp'on charnqlab turardi. Cho'milganimdan no'ng butun vujudimni go'yo otash chulg'ab oldi; yana o'choq yoniga o'tirdim-u, gulxanga tarasha tashladim va hozirgi abvolim to'g'risida jiddiy o'yuy boshladim.

Amakim dushnim edi — hunga endi mutlaqo shubhahammadim; shubhu yo'qli, men har qadunda o'z hayolimi sayf ostida qoldiram, chunki u jumiki haq-nohaq yo'lha bilan bo'la-دا, kammoni juwonning qilishga intishabi tuyin edi. Lekin man yosh edim, g'ayrat-shijoutim jo'sh urib yotardi va har qanday qishloq o'smir singari o'z aqlo'idokimga niyoyatda bino qo'ygan edim. Men go'yo thanchi misol, deyurtli o'z bolasiday uning ostonaliga najor istab borgan edim: u meni qanday kutib oldi? Mak-hiyla ishltdi, toshbig'irlik qildi; agar endi uni o'zinga itot ettilib olsam ham, cho'pon qo'y podasmi ming muqomga yo'rg'alatganday, xo'riasam ham haqqim ketadi!

Goh-goh tizzalarimni slab-siypalab, kipriklarim oranidan gulxanga temilgan ko'ydu jilmayib o'tirurdim: xayolimda alhqachon uning sirflarini birin-ketin fosh etib, umakimning sohibi qitoliga aylanib ulgurgan edim. Mishmishlurga quruganda, essendinlik jodugar g'aroyib ko'zgu yasugan emish — har qanday odam o'sha ko'zguga qarab turib o'z peshonassisidagi yozuvni o'qib olishi mumkin ekani; nazarimda, o'sha ustasi farang zot oynasini ko'mir cho'g'ida toblamagan shekilli, chunki mening ko'z o'ngimda turfa xil manzaralar, ajoyibotlar surati namoyon bo'lgan esa-da, lekin ular orasida na kema, na savaddek shupka kiygan dengizchilaru va na menin xumkallanga bo'ljallangan tayeq bor edi — xullas, tez orada murg'ak boshingga yog'laiaq kulfatlar to'g'risida jindek inoishora ham uchramasdi.

Nihoyat, xursandligimdan terimga sig'may, o'pkanni qo'ltiqlaganimcha yuqoriga ko'tarildim va o'z mahbusimni ozodlikka chiqardim. U xushmuomala ohangda kami-

naga «xayrli kun» tiladi, men bo'lsam zaharxanda aralash, kekkayib, xuddi o'shanday tilak izhor etdim. Ko'p o'tmay birgalashib nonushita qilishga o'tirdik: go'yo kechadan beri hech narsa o'zgarmagandek edi.

— Xo'sh, ser? — dedim achchiq qilib. — Nahotki, menga aytadigan gapingiz qolmagan bo'lsa? — Javob aniq bo'lgani uchun sabrim chidamay, qoshimcha qilin: — Nazarimda, endi bir-birimizni tushumog'imiz lozim. Siz meni qishloqi bo'sh-bayov bola, qo'rkoq, ahmoq, xuddi to'nkaga o'xshaydi deb o'yadingiz. Men esam, sizni olivjanob inson deb, hech bo'imsa, boshqalandan yomon emasdir deb o'yadim. Ko'rinish turibdiki, ikkımız ham xato qilibmiz. Xo'sh, nima uchun mendan qo'rqasiz, nega odamni aldaysiz, nechun hayotimga suqsad qilasiz?..

U, hazilkash odamanman, beg'araz hazil qilmoqchi edim, deb to'ng'illadi-yu, lekin miyig'inda kulib o'tirgamimi ko'rib, darhol muomala yo'sinini o'zgartirdi va nonush-tadan keyin zudlik bilan hammasini tushuntirib berishga va'da berdi. Biroq, aff-basharasi aytil turardiki, hozircha birorta yolg'on-yashiriq uydirma to'qishga ulgurungan edi: unga bekorga chiranyapsiz demoqchi bo'ldim-u, amno shu payt noxosdan eshilq taqillab qoldi.

Amakimga joyidan jilmay o'tirishni tayinladim-da, eshikni ochgani ketdim. Ostonada dengizchilar ko'ylagini kiyib olgan qandaydir o'smir turardi. U meni ko'rishi bilan noq tizzalariga shapatilab, dengizchilariga o'xshab raqsga tusha boshhladi (u paytleri dengizchilarning shunaqa hunari ham borligini bilmasdum): raqqos barmoqlarini qasirlatar, oyoqlari bilan yermi dupir-dupir tepar edi. Shunga qaramay, u sovuqdan gezarib ketgan, aftidan, o'smir nochor ahvolda edi: mana, hozir yo'kulib yuboradi, yoki yig'lab yuboradi, deb o'yladim — uning chapaniligi sira-sira shu tobdag'i holatiga mos tushmasdi.

— Do'stim, ahvollar qalay? — deb so'radi hazil to-vushda.

— Nima ishing bor? — dedim mag'nur turib.
— Mening ko'nglimni shod etingiz! — dedi va ashula aytu boshlidi:

Ovdin oqsham, bahoq avjom!
*Oh, nayqular soni!**

— Oq'pol gapirib qo'yam kechirish-u, lekin bu yeriga bitorib yuzasidan kelmag'an bo'tang, bor, yo'qol — tushungui tor! — dedim.

— Shunduma, og'ayni! — deb qichiqdi. — Nima balo, huzlibi tushummaymomin? Yoki meni boplab uvalashla-ni ishayuumi? Men mister Helbulga mo'yusifd Xozidon matub keltdim. — U menga xani ko'rsatdi-da, qo'shimcha qoldi: — Bundan tashqari, og'ayni, ochdan o'lay deyapnum.

— Xo'sp, mayli, — dedim. — Uyga kir. Qormimning po'stagi chiqsa chiqsinki, lekin senga bir burda non topip edi.

Uni oshxonaga boshlab kirdim va o'z o'minga o'tqozib qo'ydm: sho'rlik nonushtanining qolgan-qutganini pok-pokiza tushira boashladi; goh-goh menga qurab ko'zini qolib qo'yardi, g'yrityabliy qiliqlar qilardi — ko'rinish turibdiki, u odumoxun yigitchua edi va haqidiy erkak o'zini wynnun manu shunday tutishi kerak deb o'yardi. Bu paytda umakim xatga ko'z yogurtirib chiqib, teran o'ya tolgan edi. Birdan dilgir tortib, o'midan sapchib turdi-da, meni oshxonaga burchagiga yetaklab bordi.

— Ma, ol, o'qib ko'rigin, — deb u xatni qo'limga tut-qizdi.

Mana, hozir ham — ushbu jumlalarni yozayotgan paytida ham o'sha xat qo'l ostimda turibdi.

«Kuinsferri» kechuvi,
«Do'lana» mehmonxonasi.

* She'riy tizmalarni Ravshan Fayz va Mushfiq Murtazo tajima qilgan.

Ser!

Men bandargohga kiraverishdagi joyda bekor yetibman va kichik dengizchi vositachiligidagi sizga xabar yuboryapman. Agar avvalgi topshirig 'ingizga bitor narsa qo'shimcha qilishni lozim ko'rsangiz, bugun oxirgi imkoniyatingiz bor, chunki shamol o'ng'ay tomondan esyapti — biz ertaga ko'rfa zni tark etamiz. Tommayman, biz ishonchli vakilingiz bo'l mish mister Rankiler bilan ba'zi bir masalalarda kelisha olmadik; shoshilinch ravishda hal etilmagan har qanday muammo ma'ilum midorda zarar keltirishi mumkin. Men sizga tushum hisobotini tarib bo'yicha tuzib qo'ydim, ser, mablag' o'zimda turibdi, deb

kamina qulningiz Elay Xozison».

— Bilasamni, Devi, bu Xozison ikki yelkanli «Vasiyat» savdo kemasingin darg'asi, Daysetdan kelyapti. Biz u bilan bir ish qilyapmiz. Agar ikkovimiz hozir anavi bola bilan birga borsak yomon bo'lmashdi: shunda men darg'a bilan «Do'lana» mehmonxonasida yoki «Vasiyat» kemasida yuzma-yuz uchrashardim va, zarur bo'lsa, birorta qog'oz-pog'ozga imzo chekardim-da, keyin vaqtini bekor o'kazmasdan to'ppa-to'g'ri ishboshi — mister Rankiler huzuriga borardik. Bo'lib o'tgan voqealardan so'ng, o'laymanki, gaplarimni sariq chaqaga ham olmaysan, lekin Rankilerga ishonarsan. U mahalliy zodagonlarning teng yarmining ishboshisidir, keksa odam, hamma hummat qiladi, boz ustiga, u otangni ham tanirdi.

O'ylanib qoldim. U meni boshlab bormoqchi bo'lgan tomonda kemalar serob, demak, odamlar ham ko'p bo'lsa kerak; amakim odamlar oldida zug'um o'kazishga botinmas, qolaversa, bizning yonimizda kichik dengizchi bor-ku — xavfsirashga hojat yo'q. Hozir amakim aldash uchungina ishboshini eslatgan bo'lsa-da, lekin u yoqdan amakimni o'sha kishi huzuriga borishga majbur qilaman. Bundan tashqari, dengizni va kemalami yaqinroqdan tomosha qiliishi juda-juda istardim! Esingizza bo'lsinkim,

men sohilidan olsidi — tog'da o'sgan bolman; faqat ikki kun avval bepoyon, ko'm-ko'k ko'rfini vu xudi o'yinchoqqa o'xshush, jimiday yelkanli kemalani ko'rdim. Ishqlib, nimu bo'lganda ham, rozi bo'ldim.

— Ma'qul, — dedim. — Mayli, keschuygu borib kela-

mis.

Anakim shlyapni va chokmonini klyib, zang bosgan eski sanjirini belgiligi taqib oldi. Shu'ngra o'choqdagi olovni o'chirdik va eshlarni qulindik da, yo'lgan tushdik.

Yo'lgaydouq dilaclar bag'ini keshib o'tgan edi. Shimoli g'urbidan esayongan lag'irin yuzimini chinulb-chinidib olaadi. Iyun oyi edi, mayuzor uzu distorgulular oqurishib ko'rindan, doraxtar chumman-chumman gullarga burkangan, lekin ko'karib ketgan hammoqlarimiz-u to'ngib qolgan qo'llarimizni ko'rgan kishi qish keldimikan, xuddi dekabr oyidagidek qubraton-ku, deb o'ylashi mumkin.

Ebenezer amakim yo'l chetida imillab, tarvanglab borndi — xuddi dalindan horib-tolib qaytayotgan qo'shchiga o'kishardi. U yo'l bo'yisi miq etmadi va men beixtiyor kichik dengizchi bilan subbatashib ketdim. Uning ismi Ramom ekan; to'qqiz yoshidan boshlab dengiz bo'ylab nafunga chiqdi, hozir necha yosha ekunini uniq aytolmaydi, chunki hiosbini chalkashirib yuboribdi. U pandusihutlarimga qulq solmay, ko'kragini ochib shamolga tutdi, shumollab qolsang bormi, ajalingdan besh kun burni o'lib ketasan devyishinga qaramay, badanidagi naqshinkor yozuvlarni menga ko'z-ko'zlandi; huda-behuda boloxonador qilib so'kinaverardi, lekin so'kinishni qoyilmasdi — bo'z bolaligi bilinib qolardi; u qahramonona jasoratlarini birma-bir sanab berdi: yashirin o'g'irliliklar, tuhmatlar va hatto qotililik ham qilgannish. Lekin tafsilotlariiga odam bolasi ishonmasdi, bular qup-quruq, nochor maqtanchoqlikdan boshqa narsa emasdi, undan ko'ra, tuyulning dumli yerga tegibdi, degan uydurma rostroq tuyulardi, aymen chog'da bola paqiga odam achinardi.

Men undan yelkanli kema haqidam so'radim: «O'o', olam-jahondagi eng zo'r kema — o'sha!» — dedi. Ka-

pitan xususidagi so'rovimga ham og'zidan bol tomib, otashin javob qaytardi. Ta'riflariga qaraganda, Xozi-ovi

(u xo'jalik boshlig'ini hamon shunday nom bilan atardi) shayton-a iblsidan ham hayiqmaydigan dovyurak zotlar

dan ekan, ya'mi «hatto qiyomat qoyimga ham yelkanli ke-

mada uchib botar»mish, fe'l-atvori ham shunga monand

ekan: vabshiy, quturgan, shafqatsiz. Shunga qaramay,

sho'rlik bola paqr darg'a sha'niga tafsilar o'qirdi, uni

dengiz bo'risi va haqiqiy erkak deb bilardil! Ransom o'z

tangrisining bitta-yu bitta illatimi ilg'agan ekan.

— Faqat dengizchi sifatida uch pulga qimmat, — dedi

qulog'imga shivirlab. — Kemani mister Shuan boshqa-

radi, u haqiqiy dengizchi! Bunaqasi yetti iqlimdan ham

topilmaydi, lekin ichklikkha mukkasideketgani yomon-

da, bachehag'ar! Muni qaragin! — Paypog'ini tushirdi-

yu, yallig'lamb turgan o'ydim-chuqur yarasini men-

ga ko'rsatdi. Nafasim ichimga tushib ketdi. U bo'lsa,

g'ururlanib ilova qildi: — Buning hammasi o'sha mister

Shuanning hunarli!

— Nima? — deb qichqirib yubordim. — Sen shun-

day vahshiylikka ham chidayapsanmi? Nima balo, qulmi-

san, nega senga bunday muomala qilishadi?

— Hali ko'rsatib qo'yaman! — deb so'zimni ilib

ketti omadsiz savdoyi va darhol to'nini teskarri kiyib

oldi. — Shoshmay tursin, tavbasiga tayantiraman! —

G'ilosdan katta pichog'ini chiqardi. O'zining aytishi-

cha, buni o'g'irlab olgan ekan. — Ko'rdingmi? — deb

so'radi. — Qani, endi qo'lini tekkizib ko'isin-chi! Men

uni bo'g'izlab qo'yaman! Xudoga shukrki, u birinchisi emas! — Dag'dag'asini mustahkamlash maqsadida

bolexonador qilib so'kindi, lekin so'kishi o'niga tush-

madi.

Hech qachon hech kimga manavi g'arib kaltafahnga

achinganimdek ich-ichimdan kuyinmagan edim; shunday

bo'isa-da, anglay boshladimki, yelkanli kemaning nomi

ilohiy — «Vasiyat» esa-da, ma'lum bo'iishicha, unda

kamdan kam kishigina jahannamdagidan biroz afzal umr-

guzarollik qilar ekan. — Qarindosh-urug'laring yo'qmi?

— deb so'radi.

Uning ayutshicha, ingliz bandar goholarining birida, afsuski, nomi esida qolmibdi, otusi bor ekan.

— Yavshi odam edi, biroq vaqt etdi.

— Xudoyim-ey, nahotki, quruglikda o'zingbop bioritu ish topotmaysan-o? — deb so'rindim totaqib.

— Isg, yo'q, — deb e'tiroz bildirdi u va makkorlik bilan ko'z qolab qo'ydi. — Men aem o'ylagun odam emasman! Quruglikda birkunda biorita humarmandiga shogird tushirishadi.

Men undan hozir mishq'ul humuridan hum huyot uchun xavfhoq — nafsqat bo'ronlar-u to'liqlilar, ayni paytda xo'jayimning bug'ritoshligidan-da dahshatiroq kadh-kor bornikan, deb so'radi. U, gaplaring to'g'ri, dedi. Ammo shua zahoti o'sha hayrotni ko'klarga ko'tarib muqtoy boshladi, cho'ntak to'la pul bo'lsa, quruqlikka qadam qo'yishming ham o'zgacha gashti borligi to'g'risida, danta-dista pulni sarflash naqadar soz ekanligi, olma xarid qilihi va, umuman, aquruglik churvaqalarining (u aynan shunday dedi) ko'zini kuydorish xususida to'lib-toshib gapirib berdi.

— Uchhalik dahshatlri emas, — dedi mardonavor. — Boshqalarning peshonusi yanuda sho'rroq. Massalan, «yigirma funtlilik»ni olib ko'raylik. Eh! Ularga nechog'li og'ir ekamini bir ko'rsang edi! Bittasini o'z ko'zim bilan ko'rganman: sen tengqur erkak (men uning nazarida go'yo chol edim), soqoldor — mixday: ko'rfazni turk etishimiz bilanoq kayfi tarqalib ketdi va dunyoniboshiga ko'tarib, shunaqayam dodladiki! Bundan ko'ra o'lgani yaxshi-ye! Ishonaver, uni rosa kalaka qildim! Yoki yana-tag'in tirmizaklar masalasiga qaytaylik. Oh, chizig'inda yurgizaman. Har ehtimolga qarshi, kemada tirmizaklar paydo bo'lib qolishsa, asqotib qolar degan maqsadda ataylab bitta tayoq olib qo'yganman — ularni kaltaklayman-da.

Es-hushimni yig'ib olgunimcha ana shunaqa oldi-qochdi gaplarni rosa eshitdim. Fahmlashimcha, «yigirma funtlit» — bu Shimolli Amerikaga surgun qilingan baxtiaro jinoyatchilar bo'lsa kerak, balki o'sha zamonlarda rasm bo'lgan ibora bilan aytganda, g'arazli niyatda yoki qasos olish uchun aldab-suldab olib qochilgan begunoh sho'rtumshuqlardir?!

Biz tepalki ustiga ko'tarildik va ko'z o'ngimizda kechu bilan ko'rfaq namoyon bo'ldi. Ma'lumki, Fyort shu joyda xiyyla toraygan; shimoliy qismi o'racha daryo kengligida — kechib o'tish uchun juda qulay joy, yuqori tomonida esa har qanday kema foydalansa bo'ladigan yopiq bandargoh vujudga kelgan; ko'rfazung naq bo'g'zida xarobazorga aylangan orol bor; janubiy qirg'oqda sollar bog'lab qo'yiladigan maxsus joy hozirlangan va ushbu prichal oxirida, yo'nning narigi betida, gullab yotgan nayzabargli daraxtilar-u do'ilanalar orasida mehmonxonada binoysi ko'zga tashlanib turardi.

Kuinsferri shaharchasi g'arbiy tomonda joylashgan edi. Hozir mehmonxonada atrofida odam siyrak bo'lib, yo'lovchilar chiqarilgan sol yaqinda shimoliy sohil tomon jo'nab ketgandi. Darvoqe, prichalga eshkakli qayiq bog'lab qo'yilgan edi, eshkakchilar bochkalarning ustida mudrab o'tirishardi. Ransom, bu «Vasiyat»ga qarashli qayiq, darg'ani kutib turibdi, deb izoh berdi. Taxminan sohildan yarim mil* narida langar tashlab turgan «Vasiyat» ko'rindi. Palubada safarga qizg'in tayyoragarlik ko'rillardi: arqonlarga yopishib olgan dengizchilar mach-taladagi yelkan bog'lanadigan ko'ndalang yog'ochlarni shamol esadijan tomonga to'g'rilashardi, ular jo'rovoz bo'lib kuylayotgan qo'shiqni shamol sohilga uchirib kelmoqda edi. Men yo'l-yo'lakay eshitgan gaplardan so'ng ikki yelkanli kemaga jirkaniib nazar tashladim va dengiz safariga jo'naydigan manglayi qora odamlarga chin dildan achindim.

* Dengiz miliyasi 1852 metrga teng (taj. izohi).

Tepalki chetida men yo'nning narigi betiga o'tdim-da, amakimga:

— Ser, sizni ogohlantirib qo'yishim lozim! nima bo'lganda ham «Vasiyat» bortiga qedan bosmayman, dedim.

Nazarimda, amakim uyquduн endi uyg'ongandek bo'ldi.

— I? Nima gap? — deb so'radi.

Men gapimni takorladim.

— Mayli, mayli, — dedi u. — Sen aytgancha bo'la qolsin, so'zindan tommayman. Nega g'o'dayib turibmiz? Sovuq jon-jonimdan o'tib ketdi. Agar yanglishmayotgan bo'isam, «Vasiyat» yelkanlarini ko'tarishga hozirlirkot'ryapti shekilli...

O i t i n c h i b o b

KECHUVDA RO'Y BERGAN HODISA

Mehmonxona ostonasini hatlab o'tishimiz bilanoq Ransom pillapoya bo'ylab bizni yuqoriga boshlab chiqdi: bitta karavot turgan xonaga kirdik, o'choqda ko'mir lov-lov yonardi, xona xuddi tandir misoli isib ketgan edi. Ishchan qiyofali baquvvat, qoraygan erkak o'choq yondagi stolga o'mganini bergancha bir nimalarmi qog'ozga tushirish bilan mashg'ul edi. Xona issiq bo'lishiga qaramay, dengizchilar kurtkasining hamma tugmalarini qadab olgan, savatday shlyapasini esa qulog'igachcha bostirib kiyagan edi; rostimni aysam, umrim bino bo'lib men bu denizchi darg'adek sovuqqon, og'ir-vazmin insomni uchratmagamman, uning olimona qiyofasiga hatto majlislar zalida o'tiradigan sudya ham hasad qilishi mumkin edi.

U darhol o'midan turdi-da, bizning istiqbolimiz sari peshvoz chiqdi va kurakday qo'lini Ebenezer amakimga uzatdi.

— Menga muruvvat ko'rsatganingiz uchun minnatdor-

man, mister Belfur, — dedi jarangdor tovushda. — Ke-chikmay kelganingiz yaxshi bo'ldi. Shamol ham yo'llimizga monand ravishda esyapti, umid qilamanki, kech kirmasdan Mey oroli sohilidagi ko'hna manqaldon* bizni imlaydi.

— Darg'a Xozison, xonungiz toqat qilib bo'lmaydigan darajada issiq ekun, — dedi amakim.

— O'rganib qolganman, mister Belfur, — dedi de-nizchilar boshlig'i. — Tabiatan sovuqqa chidamsiz kishiman, qonim sovuq, ser. Nafsilarini ayganda, mo'yna ham, jun ham, hatto issiq aroq ham badanimi isitmaydi. Tropik dengizlarda jigarigacha qovurilgan odamlar shuna-qaq bo'lib qolar ekan, ser.

— Nachora, darg'a, — dedi amakim. — Kishi o'z tatiatidan hech qayoqqa qochib qutulolmaydi.

Shunday bo'lsa ham darg'aning g'alati qiliq'i boshma qimga bitgan balo bo'ldi. Qarindoshimni ko'zdan qochirmayman deb o'z-o'zimga so'z bergen bo'lamda, lekin dengizni yaqinroqdan ko'rish istagi yurak-bag'rimi shunchalar o'rtab yubordiki, asti qo'yaverasiz! Boz us-tiga, xona dimiqib ketgan edi, shuning uchunni, amaki, «pastlikka tushib, bir aylanib kelsang bo'larmida?» deyishi bilan ahmoqqa o'xshab tezda ko'na qoldim.

Qandaydir qog'ozlarga ko'milib, vino ichishib o'tirishgan kishilarini xonada qoldirdim-da, mehmonxonadan tashqariga chiqdim va yo'lni kesib o'tib, suv bo'yiga tushdim. Kuchli shamol essayotgan bo'tishiga qaramay, faqat mayin-mayin to'iqinlar sohil tomon yugurib kelardi — bular men ko'lda ko'rganimidan sal yirik edi, xolos. Lekin maysalar yangilik edi: goh ko'm-ko'k, gohida qo'ng'ir, naq belga urib qolibdi, ba'zilari g'ovachak hosil tugibdi, ularni barmoqlarim orasiga olib ezsam «paqpucq» etib yorildi. Hatto shu yerda — ko'rfa zdan ancha olisda ham dengizdan kelayotgan sho'rtak ta'm burunlarimni qichishtiradi. Ana, «Vasiyat» machtalariga yel-kanlar ko'tarilaypti: hamma narsa uzoq safar ruhi bilan

aug'origan edi, ko'ngilda notanish o'kalniga nisbatan ajib qiziqish uyg'onurdi.

Qayyida o'tirishgan eshkakchilarni hum tomoshu qildim: bidaqovoq azamatlar ekun; bu'zilar ko'yakchan, boshqatari budiplatdn, bir nechta kishi tomoqlarini gul-dor ro'mol bilan bog'lab olgandi, bitnisi beliga ikkito pponchha osib olibdi, ikki-uch kishi esa beliga xujjar olib, isho'z tayorq uzhlib olibdi. Ko'mishidan shirkayf bo'lgan bij kishi bilan sidom-allik qildim-dn, undan, kemo qachon jo'sha ketidi, deb no'indim. U, to'lpin orqaga qiyqigan zahid yo'lg'ga turhamiz, dedi va nu mayxonni bot, nu madhihoqil uchaydigan la'nati shuhurcha illaqchon jomilg' tekkmimini nytdi, so'ng boloxonador qilib so'kinu boshladi-yu, kamina shosha-pisha juftakni rostladim.

Bu uchrashuvdan keyin yana Ransom haqida o'lay boshladim: nazarinda, u mana shu shayka orasidagi eng mo'min-qobil yigitcha edi. Tez fursatda uning o'zi mehmonxonadan chiqib qoldi va musallas bilan siylashimni so'rab, yalinib-yolborgancha yugurib kela boshladim. Men unga, chuchvarani xom sanayapsan, tiraancha, ularga o'xshab tantiqlik qilishimizga hali yettiia qovun pishig'i bor, dedim.

— Itifot qilsinlar, taqsit! Atigi bir krujka pivo icha-

man, xolos, — deb qo'shib qo'ydi.

U aft-basharasini burishtrib meni rosa bo'ralab so'kkani bo'isa-da, lekin baribir pivo olib berishga rozi bo'ldim. Birpasdan keyin biz mehmonxona peshhayvonda pivo bilan gazakni maqtab o'tirardik. Mehmonxona xo'jayini bilan tanishib olsam yomon bo'lmassi, deb o'yladim, axir u shu yerlik kishi. O'sha zamон одатига ko'ra, men uni o'zimiz o'tirgan stolga taklif eidim; ammo u bizga o'xshagan tirmizaklar bilan ulfatchilik qilib o'tiradigan kishilar toifasidan emasdi, mo'tabar zot edi. Usalmoqli qadam tashlagan ko'y'i zaldan chiqib keta boshla-di, ammo qulay fursatni qo'idan boy bermay, mister Ran-kilerni tamimaysizmi, deb so'radim.

* M a n q a l d o n — ko'mir bilan yoqiladigan ko'chma o'choq.

— Nega tanimas ekamman! — dedi xo'jayin. — Beni-hoya hurmatli inson! Aytmoqchi, sen Ebenezer bilan birga keldingmi?

— Ha.

— Mabodo sizlar yor-u do'st emasmi? — Bu — shot-land tilida «sizlar qarindosh emasni» degan ma'noni bilsdiradi.

«Yo'q», deb javob berdim.

— O'zim ham shunday o'ylagan edim, — dedi xo'jayin. — Hartugul, sen mister Aleksandrda juda ham o'xshar ekansan.

— Nima balo, Ebenezer o'ikada yomon nom chiqargamni? — deb so'radim.

— Bo'lmasam-chi, — deb javob berdi xo'jayin. — Sassiq chol. Uning «marhamati» tufayli bitidan boshqa hech vuqosi qolmagan Jennet Kluston kabi odamlar Ebe-nezerni dorda tishlarini titriyatirib turganimi ko'risha, ko'z haqiga bor dunyosini hadya etishardi. Tavba, u qachon-lardir bama'ni yigit bo'lgan edi. Keyin mister Aleksandr haqida mishmishlar tarqaldi-yu, butunlay o'zgarib ketdi.

— Qanaqa mishmishlar? — deb so'radim.

— Ebenezer uning boshini yegan, deyishardi, — dedi xo'jayin. — Nahotki, eshitmagan bo'lsang?

— Nima uchun boshimi yegan ekan-a? — dedim tal-

movsirab.

— Nima uchun bo'lardi, qo'rg'omni o'ziniki qilib olish ilinjida, albattra.

— Qaysi qo'rg'omni? Shosnimi?

— Bo'lmasam-chi! — dedi xo'jayin.

— Aniqrog'i, izzat-ikrom talashibdi-da? To'g'rimi? Demak, mening... Demak, Aleksandr to'ng'ich fazand ekan-da?

— Albattra. Aks holda, Ebenezer uning boshini yeganidan nima foyma?

Shunday dedi-yu, avval-boshdanoq ketishga bahona topolmay turgan xo'jayin peshayvomi tark etdi. Albattra, ko'pdan beri shular to'g'risida gumonsirab

yurardim, ammo guman — boshqa narsa, asl haqiqat — boshqa. Rostini ay'sam, bu xabar meni emunkiratib qo'ydi, qulqlaringa ishommasdim; ikki kun avval cho'ntugida sariq chaqasi bo'lмаган, Etlik o'monining chung-to'zon yo'lida tenitrab yurgan yigitcha birdan boylib ketsa, qo'rg'on-u yer-mulk egasiga aylanib qolsa va, ehtimoli, eradan boshlab qonunyu huqqi kuchga kirsaya! Xulhas, peshayvonda lazzatbaxsh o'y-sayollariga g'arq bo'lib o'tirardim, hech narsaga e'tibor bermasdim; suqat esimda bori shuki, to'satdan durg'a Xozikoni ko'rib qoldim — usohildagi eshkakchilariga quandaydir farnoyish beut edi. Keyin yana mehnxononi tomon yo'l oldi; dengizchilar kabi lapanglab emas, balki shaxdam qadam tashlab, aza-mat qad-qomatini tik tutib, og'ir-vazmin harakat qilardi, qiyofasi jiddiy, o'ychan edi. U haqda Ransom aytg'an gap-lar ko'nglimda shubha uyg'otdi: kamina eshitgan diyidyo-lar darg'aning hozirgi qiyofasiga mulqaq yot edi. Aslida u men tasavvur etgandek olyijanob emasdi va ayini paytda Ransom tasvirlaganday yovuz kishiga ham o'xshamasdi: uning jismi jonida go'yo ikkita odam istiqomat qilardi-yu, kemaga chiqayotgan chog'da darg'aning «yxashii» qismi bandargohda qolib ketardi.

Nihoyat, amakim meni chaqira boshhlidi: boshimni ko'tarib qarasam, ular ikkalasi yo'lda turishgan ekan. Men bilan birinchi bo'lib darg'a gaplashdi; izzat-hurmatimni o'miga qo'yib, xuddi tengquiridek muomala qildi — shirin gap-so'zlar bilan o'smirlarni birpasda og'dirib olish mumkin.

— Ser, mister Belfur sizga nihoyatda yuksak baho berdi, — dedi u. — Qolaversa, bir ko'rishimdayoq menga juda yoqib qoldingiz. Afsuski, bu yerda siz bilan yaqindan tanisha olmayman — vaqt tig'iz, lekin ixtiyorimda qolgan fursatdan oqilona foydalanishga harakat qilaman. To'lqin qaytishigacha yana yarim soat bor, men sizni kema bortiga taklif etaman: nasib etsa bir piyoladan may ichamiz.

Haqiqiy kemaning ichki qismi qanaqa ekanini bir ko'rishni juda ham istardim-u, ammo o'z hayotimni xavf

ostida qoldirolmasdim; shuning uchun, biz amakim bilan ishboshiga uchrashmoqchi edik, deb javob berdim.

— Darvoqe, u ham menga shunaqa degan edi, — dedi darg'a. — Bo'pti, qayiqda sizlarni shahar bandargohiga cha kuzatib qo'yaman, keyin Rankilenga bir qadam qoladi, xolos. — Tuyqus engashdi-da, qulog'imga shivirtadi: — Qari tulkiiga ko'z-quloq bo'lib turing, uning nyati yomon. Yuring, mening kemamga chiqaylik — o'sha joyda birkikki og'iz gaplashib olamiz. — U qo'lting'imdani oldi-yu, qayiq tomon boshladi va tovushini balandlatib so'zlay boshladi: — Ochig'ini aytavering, Karolinadan men siga nima olib kelay? Doimo mister Belfurning do'stlariga jonjon deb xizmat qilishga tayyormani. Bir quti tamakimi? Patdan to'qilgan hinduyona bosh kiyimi kerak emasmi? Balki, xuddi mushukka o'xshab miyovlaydigan to'tiquish olarsiz-a? Yoki qizil qanoiti sayroqi kardinal qushti ma'quimi? Ko'nglingiz tusaganini tanlayering!

Biz deyarli qayiq yoniga borib qoldik, u meni o'rindiqa o'tqazdi... Qarshilik ko'rsatishni xayolimma ham keltirganim yo'q; olivyanob do'st, maslahago'y topganimdan xursand edim — ahmoq bo'imasam, keman ham tomosha qilaman deb suyunarmasdim! Biz joyjimizga o'tirishimiz bilanq qayiqni qirg'oqdan itarib yuborishdi va u to'lqinda chayqalgancha yuzib ketdi. Bu harakat yangilik edi, qalbimni g'alati his-tuyg'ular chulg'ab oldi: men suv ichida o'tirardim, sohil ham ko'zimga ajabtovor ko'rindari, huv, narida turgan kema asta-sekin kattalasha boshladi — bularning barchasi meni o'ziga rom qilib qo'ydi; darg'aning gap-so'zlar elas-elash qulog'imga chalnardi, xolos. O'yashimcha, unga tumtaroqjavob qaytarlardim.

Biz «Vasiyat»ga yondoshgan paytda (kemaning na-

qadar ulkan ekanini, bortga to'lpinlar zarb bilan urilayotganini, har xil yushmanlari bajarayotgan quvnoq dengiz-chilarni ko'rib og'zim ochili-ib qoldi). Xozison, dastlab kema bortiga chiqamiz, dedi va o'rinda ko'ndalang turgan narvonni pastga tushirish haqida buyruq berdi. Meni

pulubaga tortib olishdi va darg'a xuddi shuni kutib turganday darhol qo'lting'imdani qo'lini o'tkazdi. Birmuncha vaqj joyimda qimirhamay turdim; boshim aylanib ketdi: oyoqlarim ostida qalqib turgan tuxinda muvozamalimni saqlashga intilardim, begona odamlar oldida sal-pal istihola qillardim-u, lekin xilma-xil tinnauotlardan nihoyatda mammun edim. Ayni chog'da darg'a meni ujoyibothar bilan tamishtira boshladi: kema qismlarining vazifalarini, nomlarini hijjalab tushuntirdi.

— Iye, amakim quni? — deb so'radim bildim.

— Amaki?! — deb takrorladi Xozison va darhol yuzlari jiddiy tusga kirdi. — Anu xolos — pishdi giros!

Holim xarob ekanini angladim-u, kuchim boricha yulqinib, uning changalidan chiqib ketdim va o'zimni borto'sig'iga urdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, qayiq shahar tomon yuzib borardi, qayiqning quyruq tomonida amakim o'tirardi.

— Yordam beri-ing! — deb qichqirdim tomog'im yirtilguday bo'lib va tovushim ko'rfa zura baralla taraldi. — Yordamga-a! Do-o'd, o'ldirib qo'yishadi-i!

Amakim men tomon o'girilib qaradi: uning yuzko'zlarida rahm-shafqatdan asar ham yo'q edi.

Shundan boshqa hech narsani ko'rmadim. Baquvvat kishilar meni to'siqdan ajratib oldilar-u, go'yo birov boshimga gurzi bilan tushinganday bo'idi va ko'zlarimdan olov chaqnab ketdi-yu, hushimni yo'qotib qo'ydim.

Y e t t i n c h i b o b

“VASIVAT” KEMASIDA DENGIZ BO’YLAB SAFAR

Zim-ziyo qorong'ilikda o'zimga keldim, a'zoyi badanim sircirab og'rirdi, qo'i-oyoqlarim chirmab bog'langan edi. Qandaydir g'alati tovushlar qulogni qomatga keltirardi. Suv xuddi tegrimon novidan tushayottandek tinim-

siz shovvillardı; to'lıqınlar kema bortiga gurs-gurs urıldı, yelkanlar jazzavaga tushib «chchapak» chalardı, dengizchilar esa baqırıb-chaqırıshardi. Olam-jahon goh ko'kka sapchir-di, goho chirpiak bo'lib tubanlıkkı sho'ng'irdi: holingga maymurlar yig'tardi, ko'nglim aymirdı, jismi jonim eski uvadaga o'xshab hilvirab qolgan edi, ko'z oldımda allanımlar jimirlashardi, uzuq-yuluq xayollarımmı jamlab, ingray-singray oyoq-qo'llım bog'liq ekanını anglab yetgu-nimcha bir qancha vaqt o'tdı; la'nati kemanıng allaqaysı si burchagida yotardı, shamol borgan sari kuchayardi, dovol boshlanayotgan edi. Boshımgıa qanday kulfat tushıganı to'la-to'kıs idrok etishim bilanoq qonim qaynab ketdi, bema'nılıgım achchig'immi keltirdi, shu tobda amakimni ko'rarga ko'zim, otarga o'qim yo'q edi. So'ng yana es-hushınnı yo'qotdim.

Hushımgı kelgan chog'ında hamon o'sha shovqınsuron quoqqlarımı qommatga keltirardi, betartıb zarbalar dan dam narigi tomonqa, dam berigi tomonqa yumalab ketardı. Quruqlıkda yashashıga o'rgangan menday bechora, o'lgamming ustıga tepgandalı, dengiza chayqalarıdi. Yeldirim bolalıkkı yillarında boshımgı ne-ne musibatlار yog'ilgan bo'lsa-da, lekin hech qachon yelkanlı kemadagi dastlabkı soatlardagidek umidsızlıkkı tushımagın edim, bunchalıkkı azoblanmagandı.

Mana, oxırıgı zambarak tovushi qulog'ıma chalındı: endi kema dovolga bas kelolmaydi shekilli, shuning uchun tabiiy ofat to'g'risida signal beriliyaptı. Menga qolsa, bu azob-uqubatlardan qutulish uchun hatto dengiz tubiga cho'kib ketishıga ham rozi edim. Biroq, o'q otılıshıning sababi boshqa ekan: keyinchalıkkı menga hikoya qılıshıricha, darg'aning shunaqa odati bor ekan. Demoqchimanıki, eng bema'ni odamming ham qandaydır bema'ni fazilati bo'lishi mumkin. Ma'lum bo'lishiicha, biz Dayset yomidan o'tayotgan ekamız; yelkanlı kema shu yerda qurilgan bo'lib, bir necha yil muqaddam darg'aning onasi, keksa missis Xozison ham ushbu maskanga ko'chib kelgan ekan — «Vasiyat» safarga ketayotib yoki uyiga kelayotib,

bayrog'i baland ko'tarılğan holda abbatı zambahırdan o'q uzib kampırıshoni muborakbod etarckan.

Vaqı hisobını chalkashtırıb yubordı, kamına yot-gan bijg'ib ketgan kema qornıdagı bu «molsondu» kunduz ham tunga o'xshardi; ustıga-ustak, bunday nısva ahvolda har bir soat odatdagıdan ikki burobar uzoqroq cho'zillardı go'yo. Shuning uchun kemu quandaydır qoya-ga urılib, tumshug'i bilan girdob komığa botib ketishıga ilhaq bo'lib qancha yotganimmi aniq aytolmayman. Ni-hoyat, ko'zim ilindi-yu, burchu azob-uqubatlardan forıg' bo'ldı.

Yuzımgı tushayotgan qo'llıfanur nuridan uyg'onib ketdim. Ko'zlarımı ochsam, o'ttiz yoshlardagi ko'k ko'z, patila sochlı yigit ustımgı engashıgan ko'yı tikilib turardı.

— Xo'sh, ishlar qalay? — deb so'radi u.

Javob berish o'miga ingrandı; notanish kishi tomini ushlab, chakkamga kaftını bosib ko'rди va boshımdagi yara-chaqalarımmı yuvıb, bog'lashıga kirishdi.

— Ha-a, boplab do'pposlashıbdı-ku, — dedi. — Og'aynichalish, muncha shalviraysan?! E-e, qo'ysang-chi, tetik bo'!! Nima balo, oxırzamon bo'ptimi?! Hay, bu gal omading yurishmabdi, keyingi safir ishlaring yurishıb ketdi. Mana ko'rasan! Ovqat-povqat berishdimi?

Ovqat haqida o'yłasam, ko'nglim ayniydi, dedim. Shundan so'ng tunuka krujkada bir qultum suv aralash-tırılgan konyak ichirdi-da, yana o'zimmi yolg'ız tashılab chiqib ketdi.

U qaytib kelgan chog'da qorong'ilikkı tikilganimcha yo uxlab yotardı, yoki uyg'oq edim; dengiz kasalıdan qutulgandımlı, ammo boshım gir-gir aylanardi, narsalar ko'zimga oyog'i osmonda bo'lib ko'rınardi, xullas, azob-uqubatlarmı zig'ırcha ham kamaymagan edi. Boz ustıga, a'zoyi badanım zırqırdı, chirmab bog'langan ar-qon esa oyoq-qo'llarımı olıvday kuydirardi. Bu yerda yolar ekanman, nazarımda, o'zim ham bijg'ib ketganga o'xshardı; yolg'ız yotgan paytlarım goh atrofımda izg'ib

yurgan, ba'zan ustimga ham o'rmalab chiqib ketadigan kema kalamushlari, goh aloq-chaloq tushlar holi-jominga qo'ymasdi.

Qopqoq ochildi-yu, fonaarning g'ira-shira yog'dusi charaqlagan quyosh nuri ostiga ko'milib ketdi; ko'zimga faqat o'zin yotgan ezzindonning yo'g'on-yo'g'on qorantir yog'ochlari ko'ringan bo'lsa-da, lekin quvonganindan qichqirib yuborishga tayyor edim. Narvondan birinchi bo'lib boyagi ko'k ko'z yigit tushdi; negadir oyoqlarini arang ko'tarib bosardi. Uning orqasidan darg'a paydo bo'ldi. Ikkalasi ham miq etishmasdi: ko'k ko'z xuddi avvalgiday zudlik bilan u yoq-bu yog 'imni tekshirib ko'rdi va yara-chaqalarimni yangitdan bog'lab qo'ydi. Xozison esa aft-basharamga o'qraygancha tikilib turardi.

— Ser, mana, o'zingiz ham ko'rib turibsiz, — dedi ko'k ko'z. — Isitmasiyuqori, ishtahasi yo'q; na yorug'lik, na ovqat bor — oqibati nima bo'lishi o'zingizga ayon.

— Mister Riak, men folbin emasman, — deb javob berdi darg'a.

— Yetar, ser, — dedi Riak. — Yelkangizada turgan boshingiz butun, tilingiz biron; har qanday shotlandni mot qilasiz — xo'p, mayli, mening gapim ham ichimda qolmasin: yigitchani bu kandikdan chiqarib, kemaning umumiyo xonasiga joylashtirishni istayman.

— Istaysizmi yoki istamaysizmi, bu sizning ishingiz, ser, — deb e'tiroz bildirdi darg'a. — Lekin men nima desam, shu bo'ladi. Bu joyda yotibdimi, mayli, yotaversin.

— Aytaylirk, sизга mo'maygina haq to'lashdi, xo'p, biroq menga-chi? — dedi Riak. — Beodobchilik bo'lsa-da, eslatib qo'yishga ijozat berasiz: kamina hemiri ham olganim yo'q. Menga haq to'lashadi, albatta. Darvoqe, maoshim unchalik ko'p emas; faqat ushbu eski tog'orada ikkinchi yordamchi bo'lgamim uchungina moyana berishadi, xolos. O'zingizga juda yaxshi ma'lumki, peshona namdan tashqari sariq chaqa ham tushmaydi.

— Agar siz, mister Riak, topgan-tutganligizni dathol suvdonga tiqvavermaganingizda bormi, hozir bunchalik no-limasdingiz, — deb javob berdi darg'a. — Shuning uchun ilmoqli gaplami yig'ishtiring, tilingizga ehtiyoj bo'ling. Xo'p, endi palubaga chiqish kerak, — dedi u hukmdor ohangida va narvon pog'omasiga oyoq qo'ydi.

Mister Riak uning yengiduan ushlab qoldi.
— Xo'-o'sh, aytaylik, sizga qotillik uchun hum pul to'lashsa... — deb gap boshladi u.
Xozison tahdid solib ortiga o'girildi.

— Nima-nima? — dedi guldirk tovushdu. — Bu yana qanaqa gap?

— Ko'rinish turibdiki, sizni faqat shunaqa gaplar bilan sergak torttirish mumkin, xolos, — dedi mister Riak, uning ko'zlariga tik boqib.

— Mister Riak, biz siz bilan uch marta dengiz safarida birga bo'idik, — dedi kapitan. — Nazarimda, allaqachon mening fe'l-atvorimni bilib olishingiz kerak edi: ha, men cho'rtkesar, shafqatsiz kishiman, lekin og'zingizga qarab gapiring!.. Uyalmaysizmi? Faqat ko'nglida kiri bor, vijdoni toza bo'laman odamgina shunaqa deyishi mumkin. Agar siz rostdan ham yigitchanning o'lib qolishiga ishon-sangiz...

— Suv berilsa — bas, o'ladi! — deb ta'kidladi mister Riak.

— Bo'pti, ser, — dedi Xozison. — Uni xohlagan jo-yingizga eltilb qo'ying.

Shundan so'ng darg'a narvondan yuqori ko'tarildi, mister Riak esa uning ortidan masxaramuz ta'zim bajorildi: kamina hayratomuz suhbata guvoh bo'ldim. Jo-nim ko'zimga ko'rinish turgan bo'lsa ham, lekin ikkita narsani tushunib oldim: birinchidan, darg'a shama qilganimdek, yordamchi shirkayf edi; ikkinchidan, mast yoki mast emasligidan qat'iy nazar, u bilan yaqinroq do'stlashib olishim lozim.

Besh daqiqalardan keyin qo'l-oyoqlarimga bog'langan arqon kesib tashlandi va qandaydir dengizchi meni yel-

kasiga ortdi-da, kemaniy umumiyy xonasiga elti, dag' al
adyol to'shalgan o'ringa yotqizib qo'ydi-yu, birdan hu-
shmdan ketdim.

Eh, kuppa-kunduzi, odamlar orasida hushga kelish-
ning gashti o'zgacha bo'lar ekan! Umumiyy xona keng-
mo'l bo'lib, shiftg'i osma karavotlar ilib qo'yilgan edi;
posbonlikdan xoli dengizchilar tamaki chekib o'tirishardi,
ba'zilar o'rinda cho'zilib yotishardi, boshqalar esa uxla-
shardi. Ob-havo sokin edi, g'ir-g'ir shabada esardi; tuy-
nuk qopqog'i ochiq bo'lgani uchun xonaga yorug'lik
tushardi, kema bir yoniga qiyshaygan mahalda osmoni
falkada portlab turgan quyosh ham xonaga mo'ralardiki,
birdan ko'zlarim qamashib, ich-ichimdan to'lqinlanib ke-
tardim. Bundan tashqari, sal-pal qimirladim-u, darhol bitta
dengizchi mister Riak tayyorlab qo'ygan dorini og'zimga
tutdi va tezroq sog'ayishim uchun jimgina yotishim lozim
ekanini ta'kidladi.

— Suyaklaring butun, — dedi u. — Parvo qilma, bo-
shing ham yanchilgani yo'q. — So'ingra qo'shib qo'y-
di: — Bilasanmi, seni kaminiy kamitarmi siylagan edi!

Bu joyda usoq kunlar mobaynida qat'iy nazorat osti-
da yoddim, darmonga kirdim va yo'ldoshlarim bilan sirt-
dan tanishdim. Dengizchilar asosan dag'al xalq bo'ladi,
bular ham o'shalar toifasidan edi: insomni olivjanoblik-
ka, xushmuomalalikk o'rgatadigan muhitdan mosovo,
shafqatsiz xo'jayin qo'l ostida yaktan-u yakjon bo'lib,
alg'ov-dalg'ov, berahm tabiat quchog'ida umrguzaronlik
qilishga mahkum etilganlar. Ularning ba'zi birovlariliga
ri qaroqchiilar kemasida xizmat qilgan bo'lsa, boshqalari
qirolik flotidan qochganlar va bo'yndagi sirtmoq bilan
yashaydilar-u, lekin o'mishlarini sir tutmaydilar: ular
ko'rgan-kechirgan hodisalarini hikoya qilishga til ham
ojiz: ajabki, eng qadron do'star «sal narsaga ham bir-
birlarining tumshuqlariga solib» qolishi hech gap emas-
di. Umumiy xonada bir necha kun yotganimidan keyin
amin bo'ldimki, dastlab bandargohda ular haqda yomon
xulosa chiqarganim — ularni hayvonlardan ham battar

ekan, deb o'ylab xato qilgan ekannanun, bundan vijdonim
qiyinla boshhladi. Odamlar yoppasiga ablah bo'lmaydilar:
har qanday toifa orasida yaxshi-yomon kishilar uchraydi
va uyni paytda «Vasiyat» dengizchilari ham bundan xoli
emus. To'g'ri, dag'al edi, afidian, asloqiz ko'rinishardi,
lekin ularning ichida yaxshi kishilar ham ko'plab topi-
lardi. Kezi kelganda, niyoyatda dikkash bo'lib ketishardi,
hatto men kabib sodda qishloq yigit quansisida ham ochiq
ko'ngil ekanliklari bilinib turardi, hulollikni hommu nar-
sadan ustun qo'yardilari.

O'shalardan biri — qirq yoshlar chamusidagi dengiz-
chi karavotim chetida soatlab o'tirardi va timmsiz ravish-
da o'z xotini-yu o'g'il haqida hikoya qilaverardi. Ilgari
u baliq ovlardi, ammo qayig'idan ajralib qoladi va ochiq
dengizda yuzib yuradigan kemaga ishga yollanishga maj-
bur bo'ladi... Mana, o'shandan beri necha yillar o'tib ket-
di, biroq uni sira ham unutolmayman. O'zing sevimi
iborasi bilan aytganda, «niholday, mendan ikki muchal
kichkina xotinim» uyda intizorlik bilan kutardi. Afsuski,
u endi hech qachon erta tonglarda xotini uchun o'choqqa
o't yoqolmaydi, xotini betob bo'lib qolgan paytlarda esa
o'g'ilchasiiga qarab turolmaydi. Ha, sho'rpeshonalarning
ko'pchiligi o'shanda oxirgi safarga jo'nagan ekan: ularni
dengiz o'z bag'riga oldi, jasadlari baliqlarga yem bo'lib
ketdi. Aymoqchi, marhumlar to'g'risida yomon gapirib
bo'lmaydi.

Menga ko'rsatilgan olivjanob yordamlaridan biri —
hammaga teng bo'lashib, tarqatib yuborilgan pulimni ka-
minaga qaytarib berishganidir: pulimning uchdan bir qis-
mi izsiz yo'qolgan bo'isa-da, lekin men baribir xursand
bo'lib ketdim va cho'ntagim quruq emasligini o'ylab,
biz borayotgan mamlakat to'g'risida shirin xayollarga
cho'mar edim. «Vasiyat» Karolina tomon borardi, le-
kin u joyni men surgun qilingan ovloq deb o'ylamang.
Rostini aytganda, o'sha zamonalarda hali qulfurushlik
qizg'in davom etandi, faqat Amerika mustamlakalarida
qo'zg'ololnlar bo'lib o'tgach va Qo'shma Shtatlar tashkil

topgach, o'z-o'zidan ravshanki, quldorlikka chek qo'yildi. Biroq bolalik yillarinda oq tanilar ham zamindorlarga sotillardi; yovuz niyalli amakim meni qulbachchadek sofib yuborishni ko'zlagan edi.

Kichik dengizchi Ransom quyruqdagi boshqarmada yotib-turib yurudi, o'sha yerda xizmat qilardi va goh-goh mendan xabar olgani kelardi-yu, (bu yovuzliklar haqida ilk bora undan eshitgan edim) momataloq bo'tlib ketgan yuzlarini, lat yegan joylarini miq etmasdan silab-siypalab o'tirardi yoki jazavasi tutib mister Shuanning go'riga g'isht qalay boshlardi. Yuragim zardobga to'lib ketardi, ammo dengizchilar katta yordamchini niyoyatda hurmat qilishardi, u haqda gap ketsa, «barcha shallaqlar orasida gi birdan bir dengizchi — o'sha, kayfi tarqalgan paytda odanga o'xshab qoladi», deyishardi. Haqrost, men birinchchi via ikkinchi yordamchilarning alomat xususiyatlarni payqadim: mister Riak jiddiy, badqoyq, o'jar, asabiy edi; mister Shuan esa kayf bo'lmanan paytlarida chivinga ham ozor bermasdi. Darg'a to'g'risida so'rab-surishirdim, bu temir odam mast bo'lgan chog'larida ham es-hushini yo'qotmaydi, deb javob berishdi.

Uzuq-yuluq suhabatlar mobaynida Ransom ismili notavon jonzotni odam qilishga, antqrog'i, uni risoladagidek yigitcha maqomida tarbiyalashga harakat qilardim. Lekin uning aql-hushi joyida ekaniga shubhalanardim. U bolalik yillarini, dengizga ketguncha bo'lgan davrini muttaqo eslay olmasdi, faqat otasini sal-pal bilardi; otasi soattoz edi, ustaxonasida chug 'urchiq boqardi, chug 'urchiq: «Mening maskanim shinol», deb sayrardi; boshqa narsalar muh-tojlik va shiddatkor yillar mobaynidan xotirasidan butkul o'chib ketgan edi. Dengizchilarning hikoyalari asosida unda quruqlikdag'i hayot to'g'risida qo'rinchli tasavvur paydo bo'lgan edi: Go'yoki u yoqda o'g'il bolalar hunar-mandchilik deb ataladigan maxsus qulchilik «do'konwiga topshirilar ekan va shogirdvachchalar rutubati qamoqxonalarda kechasi-yu kunduzi achiq-sasib yotishaverar ekan. U duh kelgan shaharlikni odam yollaydigan jous deb,

hat uchun uydan bittasini esa dengizchilar aldb-suldab turqoqo tushirilidigan, so'ng must qilinib so'yildigan o'g'risona deb bilardi. Daragini eshitua — bus, uning labirigiga uchluq toshadigan qurnqlikdagi odamlar haqidu, ularning mehrbonchiligi-yu shirin-shakar taomlari bilan siylashgani, ota-onam va do'stilarim mening tu'ilim oli-shingga qanchalik g'umxo'rik qilishgani borasida «ertak-lar» so'ylardim. Odatda, u koltak yeb kelgandun keyin uchchiq-achechiq yig'lardi va «Xudo huqiq, qochib ketaman!» deb qasmlar ichib kelgan, xushechuechaq chog'larida mening kulginni qistatirdi, xolos.

Shubhasizki, mister Riak (ishqilib, uning gunohini xudoning o'zi kechirsin!) ko'ngilchaniq qilib yigitchaga «obi zamzam» quyib berardi, lekin alkogol Ransomming salomatligini puturdan ketkazzardi: bechorahol Jonivor nima balolar haqida javray-javray dovdrab raqsga tusha boshlagan kezları unga odamning rahmi kelardi. Bu ajab holni ko'rgan ba'zi bir dengizchilar tishlarining oqini ko'rsatishib turjayishardi, ammo hammasi emas; boshqalar esa o'zlarining bolaligini yoki farzandlarini o'yashib, tumayib olishardi, qovoqlaridan qor yog'ardi va raq-qosning yengidan tortib karavotga o'qazib qo'yishardi. «Bema'nilikni yig'ishtir, esingni yedingmi, cho'chqal!» deyishardi. Men bo'sam, sho'rik yigitchaga qarashta ham uyalib o'tirardim. U hozir ham mening tushlarimga kiradi.

Aytish lozimki, o'tgan kunlar davomida «Vasiyat» shamolga qarama-qarshi yo'nalish tonon yuzib bordi, ro'paradan bostirib keladigan to'lqinlar yelkanli kemamizni yoqdan bu yoqqa itqitib yuborardi, tuynuk qopqog'i doimo yopiq turardi, umumiyl xonani shiftda chayqalib turgan fona g'ira-shira yoritardi, xolos. Yumush hamma-ga yetib ortardi: bir soat o'tar-o'tmas yelkan ko'tarilardi yoki pastroq tushirilardi. Odamlar niyoyatda holdan toy-dilar, dam narigi karavotda, dam berigisida dahana jang boshlanib ketardi; menga esa palubaga qadam qo'yish ta-

qıqlangan edi, bunday hayot naqadar jonimga tekkani, bitor o'zgarishga qanchalik mushaq bo'lganımmi tasavvur etish unchaliq mushkul emas, albatta.

Nihoyat, o'zgarish ro'y berdi, lekin avvalombor, mis-ter Riak bilan qılgan bitta suhabatim tafsiloti to'g'risida gapirib berishim lozim, chunki o'shandan keyin sinovlar- ga bermalol bardosh beradigan bo'lib qoldim. Uning kay- fi taroq bo'lib turgan qulay fursatni (mister Riak mast bo'Imagan paytari men tomonga hatto qijo boqmasdi) poylab turib, tihi tiyishga qasam ichirdim-da, ko'rgan- kechinganlarimi ochiq-oydin gapirib berdim.

U, men eshitgan gaplarning hammasi manzumaga o'xshaydi, dedi va kuch-quvvatini ayamasdan menga yor- dam berishga va'da berdi, faqat pero, qog'oz-u siyoh to- pib mister Kempbell bilan mister Rankilerga xat bitmoq darkor; agar men yolg'on gapirmayotgan bo'lsam, Riak ularning ko'migida meni uzel-kesil kulfafdan qutqarib oladi va huquqlarimi himoya qiladi.

— Hozircha ruhing tushmasin, — dedi u. — Sen daslabkisi ham, oxirgisi ham emassan, menga ishona-ver. Bahri muhitning narigi qirg'og'ida tamaki ekishib, dehqonchilik qilib yurishgan kimsalar juda ko'pehilik. Eh, kim ham o'z yurtida shoh bo'lismi orzu qilmaydi- ya! Achchiq-chuchukni tatif ko'rмаган inson bu hayot- ning qadriga yetarmidi? Hammamiz eski ashulani xirgoyi qilishga majburmiz shekilli. Mana, o'zin zamindorming o'g'liman, saikkam o'qimishli tabibman, lekin Xozisoning soyasida yashayman!

U meni beadab ekan deb o'ylamasligi uchun o'z o'mishini so'yab berishni ittmos qildim.

Hushtak chalib yubordi.

— Qanaqa o'tmish, axir! Ermak qilişiga ishqivoz

edim, vassalom.

U zdlik bilan umumi yxonani tark etdi.

S a k k i z i n c h i b o b QUYRUQDAGI BOSHQARMA

Bir kuni yarim kechasi, sout o'n birlarda mister Riak smenasiagi posbon bushlatini olish uchun palu- badan pastga tushdi va birpasda umumi yxona bo'ylab mishmish tarqaldi: «Shuan uni baribir o'lar holatga yet- guncha do'pposlabi». Manglayi qoruning nomini hech kim tilga olmasdi, ammo kim to'g'risida gap ketuyotga- ni bilardik; biz bu yangilikni rostukamiga idrok etib, muhokama qilishga ulgurmasisidun tuyunik qopqog'i ochildi-yu, narvondan darg'a Xozison tushib keldi. U fonarning o'yoqqi shu'hasi tushayotgan karavotlarga bir qur sinchikov nazar soldi-da, to'pa-to'g'ri mening yo- nimga keldi va hech kutilmaganda muloyim ohangda so'zlay boshladi:

— Og'ayni, gap bunday: biz seni quyruqdagi bosh- qarmaga xizmatga olmoqchimiz. Ransom bilan karavotla- ringni almashtirrasan. Qani, boshqarmaga yugur!

U hali gapini tugatmasdan tuynukda ikkita dengizchi ko'rindi — ular Ransomni ko'tarib tushishardi. Shu payt kema bir tomonga qiyshaylib ketdi-yu, sonar chayqal- da, kichik dengizchining yuziga shu'la tushdi. Uning yuzi qog'ozday oppoq edi, lablarida qo'rqinchli zaharxanda qotib qolgandi. Xuddi meni birov zarb bilan urgandek yu- ragim hapriqib ketdi, nafasim bo'g'ildi.

— Boshqarmaga yugur, imillama! — deb qichqirdi Xozison.

Men dengizchilar qo'ida sas chiqarmay, behush yot- gan Ransom yonidan qisilib o'tdim-u, narvondan jadal yurib palubaga chiqdim.

Kema xuddi mast kishidek chayqalib, son-sanoqsiz to'lqinlarni yorib borardi. U o'ng tomonga qiyshayib qolgan edi, chap tomonda esa, oldingi machtaning pastki yelkani ostidan qip-qizil ufq ko'rini turardi. Men hay- ratdan dong qotib qoldim — vaqt allamahal bo'lsa ham

quyosh endigina yotog'iga bosh qo'yardi! Shotlandiyoning shimoliy chegarasini kesib o'tayotganimizni, Orkney va Shetland orolları oralig'idan Pettend-fyortning vahshiyona oqimini chetlab, ochiq dengiz sari yo'l olganimizni bilmasdim, albatta, ko'z o'ngimdag'i ajabtovor hodisalarini to'g'iri baholash uchun bilimin yetishmasdi. Bir qancha vaqt tutqunlikda bo'lganim, yorug'likni ko'rmaganim tufayli va doimo ro'paramizdan shamol esayotganimini e'tiborga olmay, o'zimcha Atlantika okeanining yarmiga yoki undan ham nariga borib qolgan bo'lsak kerak, deb o'yladim. Kechasi quyosh botayotganimi ko'rib, yocamga tuflab qo'ygan bo'lsam-da, lekin boshimni qashlashga ham fursatim yo'q edi: dam-badam paluba ustiga to'iqin shalop etib tushardi, tarang tortilgan arqonni ushlagan ko'yim zo'r-bazo'r olg'a siljirdim; agar doimo marhamatini darig' tutmaydigan bittta dengizchi yonginamda paydo bo'lib qolmaganda bormi, kuchli to'iqin meni bipasda kemadan itqitib tashlardi.

Quyruq ustiga qurilgan boloxona palubadan bir quloch chamasi baland bo'lib, «Vasiyat» kabi kema larga munosib edi. Endi shu yerda yotishim, xizmat qilishim lozim. Ichkarida palubaga mahkamlangan stol, o'rindiq va ikkita karavot bor ekan: bittasi darg'aga mo'ljallangan, boshqasida esa navbati bilan yordamchilari uxlashardi. Devorga qadalgan javon shiftga tegib turardi; unda boshliqlarning shaxsiy buyumlar va kemaning asbob-anjomlari saqlanardi; quyiroqda yana bitta xona bo'lib, unga maxsus qop-qoqdan kirilardi: eng yaxshi oziq-ovqatlar, a'lo navli tuzlangan go'shil, spirli ichimliklar hamda miltiqdorining barcha qo'r-quti asrab qo'yilgan edi. Bir juft mis zambarakdan tashqari «Vasiyat»ning barcha o'q otish qurollari xona devoriga osilgan bo'lsa-da, qurol-yarog'larning asosiy qismi boshqa joyda saqlanardi.

Boshqarmaga kunduzi qo'sh qavatlari darchadidan yorug'lik tushardi, yuqoridaq qopqoqli tuyunukdan ham nur kirardi; oqshom cho'kishi bilan lampa yoqilardi. Ichkariga kurgan chog'imda lampa yonib turardi, g'ira-shira

shu'la sochardi; boshqarmada mister Shuan o'tirgamini durhol payquadim: uning oldidagi stolda bir shishu kon'yik bilan tunuka krujka turar edi. U novchus, qod-qomati kelijegan, qonacha, qon soch kishi bo'lib, hozir ma'nisz nigojni stolga qidab o'tirardi.

U mengu mutlaqo e'tibor bermadni, darg'a kirib kelgan paytda ham joyidan qo'yg'almadi, darg'a mening yonimga keldi da, karavotga suyung'oncha yondumechisiga o'qrayib nazar taahlidi. Xozisonдан o'lindek qo'rqu edim, lekin u hozir mengu umehallik qu'rqindili tuyuhmadi va negadir dudilishib qutog'iga pichitadimi!

— U qonqa odam?

Darg'a bosh chayqadi, go'yo bilmayman va bilishni ham istamayman demoqchi bo'ldi; afidon, g'azabi qo'zib kelgan edi.

Tez orada mister Riak yetib keldi. U darg'aga ma'noli nigojt tashladi: uning qarashtalaridan yigitcha o'lganini bilib olish mushkul emasdi; keyin u yonimizga yaqinlashdi va biz uchhalamiz indamisdan mister Shuangga tikilib turaverdi, ayni paytda mister Shuan ham stolga tikilgan ko'yim emasdan o'tirardi.

Birdan u konyak shishasigni qo'l cho'zdi, lekin xuddi shu tobdni mister Rink olg'a intildi-yu, shishani tortib oldi (u kuchli bo'lgani uchun emas, balki Shuan kutilma-gan hurakatdan esankirab qolgan edi) va tovushimi baland ko'nrib so'kindi; bu joyda ko'p bema'ni ishlar qilindi, buning kasofati kemaga ham urdi, dedi. Shundan so'ng u shimalga betkay tomondagi ikki yoqqa ochiladigan eshik dan shishani dengizga uloqtirib yubordi.

Ko'z ochib-yumguncha Shuan oyoqqa qalqdi. U hamon tuijublanib turardi; ko'zlar qonga to'lgan edi; agar ulurning o'rtasiga darg'a turib olmaganida bormi, qotil bir kechada ikkinchi marta qon to'kishdan ham qaytmasdi, albatta.

— Joyingga o'tir! — dedi Xozison guldurak tovushda. — Nima qilib qo'yganingni bilasamni, o'zi, hayvon?! Norasida bolani o'ldirding!

Aftidan, mister Shuan tushundi; harholda u joyiga o'tirdi-da, kafsi bilan peshonasini ishqaladi.

— Nima bo'pti? — dedi u. — O'zi menga yuviqsiz krujkani tutqazdi-da!

Shu so'zlar qulog'imizga chalimishi bilanoq men, darg'a, Riak — hammamiz bir-birimizga xavotirlanib nazar tashladik; Xozison o'zining katta yordamchisiga yaqinlashdi-yu, yelkasidan quchgancha karavot yoniga boshlab keldi va yotib uxla, dedi. Odatta, sho'xlik qila-yotgan bola paqimi xuddi shunday tarza ovuntiradilar. Qotil yig'lab yubordi, lekin etigini yechib, karavotga ito-atkorona cho'zildi.

— O'-'o'! — deb qichqirib yubordi mister Riak dahan-shatli tovushda. — Siz allaqachon aralashmog'ingiz lozim edi! Endi juda ham kech bo'idi.

— Mister Riak, bugun kechasi ro'y bergen hodisani Daysetda hech kim bilmasligi kerak, — dedi darg'a. — Ser, bola paqir bortdan yiqilib tushdi, hamma gap shundan iborat, xolos. Agar menga qolsa, aynan shunday bo'ishi uchun cho'ntagimdan ketadigan besh funt pulimni ham ayamasdim. — U stol tomon o'grildi-da, qo'shib qo'ydi: — Nima uchun siz liq to'la shishani irg'itib yubordingiz? Bu kaltafahmlik, ser. Qani, Devid, menga og'zi ochilmaganidan olib ber-chi! Huv, anavi joyda, past-dagi qutida. — U menga kaitini irg'itdi. — Darvoqe, ser, siz ham bir stakan otib olsangiz ziyon qilmashi, — deb u yana Riakka murojaat edi. — Chamasi, jasadga rosa tikilib qaragan bo'lsangiz kerak-a?

Ikkalasi ham stol tevaragiga o'tirishdi-da, stakanlarini urishtrishdi, shu choq karavolda hiqillab yotgan qotil tir-sagiga suyanib, o'mganimi ko'tardi-yu, avval shishadoshlariga, so'ngra menga nigohini qadadi...

Yangi xizmat joyimdag'i dastlabki kecha xuddi shunday o'tdi, ertasi kuni esa o'z vazifalarimi deyarli o'zlashtirib oldim. Men yemishlarga ko'z-quloq bo'lib turishim lozim edi: darg'a posbonlikda turmagan birorta yordamchisi bilan birgalashib har soatda albatta ovqat-

lanordi, xudoning bergan kuni hall uniaga, hall bumisi-ga ichkilklik tushirdim; boshqarma poygakidagi ikki eshik o'tasida yaxdoq taxta ustida adyolga o'rallib uslardim, yon-verimdan yevvazak g'irillab o'turdij. Bu quttid, soyuq o'rin edi: qolaversa, hech bemulol uslatishmusdi; dam-badam palubadugilar tomoqlarini ho'llab oshiga kirib turishardik, posbonlar almushayotgan paytari esa ikkala yordamchi ham (ko'pincha ularga darg'a ham sherk bo'lardij) stol utrofiga o'tirishurdil da, poyvalomni to'ldirishib musallau ichishordi. Ularning ya o'zimning ham qanday qilib soyl 'inolomit yurgoninga hech aqsim bovar qilinadi.

Umuman, xismat umehalki og'ir omusdi. Stolga hech qanday diskurson yozilmasdi, asosiy ovqat — bo'tqa bilan tuzlangan yo'lih edi, hattasiga ikki bora suli yormidan qovurdoq hozirlanardi; chayqalayotgan kemada zo'rq'a oyoqda tursam ham, ba'zan taom to'ldirilgan patishni ko'turib borayotib to'ntarilib ketardim-u, lekin mister Riak bilan darg'a menga niyoyatda bosiqlik bilan muomala qilishardi. O'zimcha ularning vijdonlari azob-hinayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim, agar ilgari Ramsoniga nisbatan nohinqlik qilishmaganda, hozir men bilan puechukilashib o'tirishimusdi.

Mister Shuangga kelsin, ichkilkbozlikmi yoki jinoyat azobimini, ehtimol, ikkalasi qo'shilishib, uning es-hushini xiralashtririb qo'ydi. Uni aql-idroki joyida bo'lgan holatdu biror marta ham ko'rmadim. Boshqarmada turishimga u sira ko'nikolmasdi, doimo ko'zlarini olaytirib qarardi, nazarimda, meni nogahon ko'rib qolsa, qo'rqib ketardi, stol tevaragida o'tirgan paytida unga biror narsa uzatsam tushunmayapti, deb o'yladim va ikki kundan so'ng bunga ishonch hosil qildim. Bir kuni ikkovimiz yolg'iz qoldik; u uzuoq vaqt menga tikilib o'tirdi-da, keyin sapchib o'midan turib ketdi va jon-pominni chiqarib, yonninga yaqin keldi; rangi o'liknikiday oppoq edi. Lekin bekorga qo'rqqan ekannaman.

— Sen ilgari bu yerda yo'q eding-a? — deb so'radi u.

— Ha, ser.

— Buyerda qandaydir boshqa bir bola borni?

Men javob berdim.

— O'-o! O'zim ham shunaqa bo'lsa kerak deb o'ylagan edim, — dedi u va mendan uzoqlashdi, joyiga borib o'tirdi-yu, lom-mim demadi, faqat: «Konyak kel-tir!» deb buyruq berdi, xolos.

Bu holat g'alati tuyulishi mumkin. Uni qanchalik yomon ko'rsam ham, ichimda unga achnardim. U uylan-gan edi, xotimi Litada yashhardi; ularning farzandlari boryo'qligini hozir aniq esolmayaqman; chamanda, farzand ko'rishga ulgurmag'an edi.

Umuman aytganda, bu yerda umchalik ko'p yashama-gan bo'ismam-da (tez orada o'zingiz shunga amin bo'lasiz), hayot kechirishim og'ir bo'lmadi. Meni darg'a hisobidan boqishardi, tuzlangan go'sht va ziravor sepilgan baliq berishardi (eng noyob yemish), yordamchilar bilan teppateng miqdorda ovqat ajaratshardi; agar o'zim istasam erta-dan kechgacha miser Shuan kabi ichkiqlikbozlik qiliishim mumkin edi. Boz ustiga, oshna-og'aynilardan ham nolimasam bo'lardi. Hartugul, mister Riak kollejda saboq ol-gan edi, u xunobi oshib turmagan kezlar do'stona ravishda gurunglashib o'tirardi, qiziqrar, ibratomuz hikoyalalar so'yab berardi; odada, darg'a meni o'zidan sal narroq tutishga intilsa-da, lekin ba'zan ko'ngli yumshab ketardi-yu, o'z ko'zi bilan ko'rgan ajib mamlakatlar to'g'risida gapirishdan sira charchamasdi.

Biz o'zimizni qanchalik u yoqdan bu yoqqa urmaylik, ammo baribir to'rtovimizni ham, ayniqsa, men bilan mis-ter Shuan sho'rik Ransomning arvohi timmasdan ta'qib etaverardi. Ustiga-ustak, kulfatim o'zimga yetib ortadi. Xo'sh, qayerga kelib qoldim! Qora ishchiman, uchta erkakning yugurdagiman; lekin ularni ko'rgani ko'zim yo'q, eng kamida ulardan bittasi dorga osilishi lozim. Hoziri ahvolim shunday. Kelajagim-chi? Tamaki ekiladigan dalalarda zanjilar bilan yelkama-yelka turib, quldek ish-lashim zarur: bundan boshqa narsaga umid qilmasdim. Mister Riak, ehtirotkorlikni ko'zlabmi, meni og'iz ochir-

gani qo'ymasdi; darg'a esa unga murojat etishغا og'iz jutlashi bilanoq xuddi itga gapirgandek: «Jum bo'lli» deb po'pia qilib berardi, hatto gapimni eshitishni ham ista-masdi. Kunlar birin-ketin o'tiverdi, bangun sati ruhim cho'kaverdi, oxir-oqibatda Jon-jon deb ishu yopishhardim: hech bo'lmus, og'ir o'y-xuyollardan qutolindim, boshim-ni qophlashga fursatim ham qolmadi.

Y O' Q Q I S I N C H I B O B

III. A KAMARLI KISHI

Bir haftadan ko'proq vaqt o'tdi. Safar mobaynid'a Vasiyatoni ta'qib etib keluyotgan shum taqdir o'zimi yaq-qol ko'rnata boshladidi. Ba'zi kunlari oz-moz olg'a siljirdik, solon. Boshqa paythari esa kemamizni to'qinilar orqaga iqtidit tashhardi. Nihoyt, oqim bizni janub tomonga surib kechiyu, to'qiz sutka davomida odam oyog'i yetmagan, Rat burnining serqoya qirg'odlari ko'rniib turgan joyda tebranib o'tinverdi. Darg'a kengash chaqirdi; qandaydir qivor qabul qilindi, lekin qurorning muzmuni to'liq tushnumadm, fiqut uning oqibatini ko'rdiim, xolos: biz shunoq yo'naltishi bo'ylab yuza boshladik, demak, janub tomon burilibiz.

O'ninchki kuni oqshom mahali dovul pasaya boshla-di, ammo namchil, oqish, qalin tuman tushdi — quyruq-da turib kema tumshug'imi ko'rib bo'lmashi. Tun bo'yil palubaga chiqqan paytim men har gal bort to'sig'iga o'mganlarini berib turgan dengizchilarni, darg'a va uning yordamchilarini uehratardim, ular nimanidir ilg'ab olmoqchi bo'lishardi, bir-birlaridan: «Oq to'qin ko'rinnayaptimi?» deb so'rashardi. Bu so'zlarning asl ma'nosini bilmasdum-u, qandaydir xavf-xatar borligini his etardim, shuning uchun hushyor tortib qolgan edim.

Chamanda, kechasi soat o'narda — mister Riak bilan darg'aga endigina kechki ovqat berayotgan chog'imda

yelkanli kema bir narsaga gumburlab urildi-yu, birdan shovqin-suron ko'tarildi. Ikkalasi ham sapchib o'rnidan turishdi.

— Suv ostidagi qoyaga urildik! — deb qichqirdi mister Riak.

— Unday emas, ser, — dedi darg'a. — Bor-yo'g'i qandaydir qayiq bilan to'qnashib ketdik, xolos.

Darg'a haq bo'lib chiqdi: biz tumanda bitta qayiqqa urilgan ekammiz; qayiq ikkiga bo'linib ketibdi va butun komandas bilan g'arq bo'libdi. Faqat bir kishi omon qolibdi: keyinchalik bilsam, u yo'lovchi ekan, qayiq quyrug'ida o'tirgan ekan, boshqalar esa bankalar ustida o'turishgancha eshkak eshayotgan ekanlar. To'qnashuv chog'ida qayiq boshqarmasi-yu yo'lovchi osmonga uchib ketibdi, u tizzasidan pastrog'ini paxmoq chopon bilan o'rindiqa bog'lab qo'ygan bo'isa-da, qo'llari bo'sh bo'lgani uchun havodan qaytib tushayotgan paytda keman-miz tumshug'idagi yelkan o'matiladigan yog'ochga osilib qolibdi. Ko'rniib turibdiki, omadi bor ekan; agar shunday og'ir vaziyatdan ham omon-eson qutulib chiqibdimi, demak, epchil, baquvvat ekan. Ko'p o'tmay, darg'a uni boshqarmaga olib kirdi va men birinchi marta notanish yo'lovchini ko'rdim: uning qiyofasi niroyatda xotirjam edi, go'yo hech narsa ro'y bermagandek beparvo. O'rta bo'yli, zuvalasi pishiq, echkiday abjir kishi edi; istarasi issiq, ottobda xiyla qoraygan yuzlariда chechak izlari bor edi, sepkildor; ko'zları chaqnab, olma-kesak terib turardi, nigohidan jununi zo'r ekanini bilsa bo'lardi, bu hol darrov e'tiborni o'ziga tortardi va ko'ngilga g'ulg'ula solardi. U egnidan plashini yechdi-da, kamariga qisitirlgan bir jutt alomat, kumush dastali to'pponchasi olib stolga qo'ydi; belida uzungina qilich osig'lik turardi. Boz ustiga, nozik harakat qilardi; bajonidil darg'aming sog'lig'i uchun qada ko'tardi. Xullas, dastlabki, taassurotarimga binoan, bunday kishini dushtmanim deb emas, do'stim deb atagan bo'lardim.

Darg'a ham notanish kimsani sinciklab ko'zdan kechirardi, lekin uning shaxsiyatidun ko'ra, ust-boshiga ko'proq e'tibor berardi, chumunda. Tabiliki, mehmon plashini yechib tashlagandan so'ng ko'z o'nqimizda ajib ko'rimish numoyon bo'ldi: patli shlyupu, lolarang nimchu, qop-qora ipduxobu yengicha - shin tuzasiga qadolib turdi, yoqulariga zur usiq quidalgan, kumuch tugmali moviy chakmon - qimmatibko kiyim bosli tunuu ta'sirida bir oz namiqjan, yechlimmandon uslugani uchun jiyilib qolgan edi, shunga qorannay saylo hemusining boshqarmusida bunday insonni uchritish kamyob hodiso hisoblanordi.

— Men sizning qoyig'ingiza juda achindim, ser, — dedi darg'a.

— Niqqudar ujloyib insonlar suv ostiga g'arq bo'ldilar! — dedi notanish kimsa afsuslanib. — Ularni yana yer yuzida ko'rish uchun o'nta qayiq berishga ham rozi edim.

— Ular do'stlaringiz edimi? — deb so'radi Xozison. — Sizlarning o'kangizda unday do'stlar bo'lmaydi, — degan juvob eshitildi. — Ular men uchun itday o'lisiga ham tuyyor edilar.

— Baribir, ser, yer yuzida odamlar shunchalar ko'pki,

hammugu qayiqlur yetmuydi, — dedi darg'a, mehmonni sinciklab kuzatishda davom etarkan.

— To'g'ri, nima ham derdim! — deb qichqirdi notanish kimsa. — Ko'rniib turibdiki, siz, ser, juda ham sincikov odam ekansiz.

— Taqsir, men Farangistonda bo'lganman, — dedi darg'a siri ohangda nimagadir ishora qilib.

— Ijozatingiz bilan, barcha munosib insonlar singari, deb qo'shib qo'ymoqchiman, — dedi mehmon.

— Shubhasiz, ser, — dedi darg'a. — Aymoqchi, yashiqqli mundir kiyib borgan edim.

— O'h-ho! — dedi notanish kimsa. — Mana, gap quoqqa qarab ketyapti! — U zudlik bilan qo'llarini to'pponchalariga uzardi.

— Shoshmang, — dedi darg'a. — Bemavrid yomon-

lik qilmang. Ha, siz farangi harbiylarining mundirini kisir, bu ish qo'llindan kelmaydi. Agar siz hozir kelgan joyingizda bo'lgan taqdiringizda bu huqdin kelishib olish mungkin edi.

— Shunaqami? — dedi mundir kiygan jentelmen. — Demak, siz ham halol odamlar to'dasiga mansub ekansizda?

Bu degani — yakobinchilar* to'dasini bildiradi. Hozirgidek o'zaro dahananaki jainglarda har qaysi tomon faqat o'zini halol deb biladi.

— O'zingiz bilasiz, ser, — dedi darg'a. — Xudoga shukrki, men haqiqiy protestanman.** — Bu mening oldimda din haqida aytilgan dastlabki so'z edi; keyinchalik bilsam, u quruqlikda ibodatxonaga kanda qilmay borib turar ekan. — Shunga qaramay, devorga taqab qo'yilgan bo'lsa-da, lekin taslim bo'lishni istamayotgan kishiga yordam berishga qodirman.

— Rostdanni? — deb so'radi yakobinchii. — Nachorra, agar bor gapni aytadigan bo'lsam, men qirq beshinchi va qirq oltinchi yillarda boshiga musibat tushgan halol jentelmenlardan bittasi bo'laman. Endi gapning indallosi ni aytsam, mabodo qizil mundirli janoblar qo'liga tushib qolsam bormi, ahvolim yomon bo'ladi. Shunday qilib, ser, men Farangistonga yo'l olgan edim. Mana shu joylarda farangi kemasi soqchilik qiladi; ular meni kemaga tortib olishlari lozim edi, lekin tuman xalaqt berdi — ancha naridan o'tib ketishdi; sizlar ham meni ko'rmasdan o'tib ketganlaringda ayni muddao bo'lardi! Bir gapni ayting qo'yimoqchiman: agar sizlar kaminani o'zim aytgan joyga eltilb tashlasalaring, munosib taqdirlashga qurib yetadi.

— Kuangistongumi? — deb so'radi darg'a. — Yo'q, ser, bu ish qo'llindan kelmaydi. Agar siz hozir kelgan joyingizda bo'lgan taqdiringizda bu huqdin kelishib olish mungkin edi.

Buxta qarshi, darg'a shu payt buchukka ko'z tashladi-yu, meni ko'rib qoldi va oshxonu zing'ilab horib, jentelmeniga ovqat keltr, deb buyundi. Ishonchiniqiz komil bo'lsin, vaqtimni zoye ketqazgani yo'q, amuno boshqarmaga qaytib kelgan chog'inda mehnun beldagi kamarini yechib, uning qatidun ikki yokd uchta tila tungani stol ustigini qoqib hushirgun ekun. Darg'a em goh tila tangalarga, goh kamurgu, gohida notunish kimsaung yuzlariga qarardi; nazarinda, u sezjulari durajida hayajonlanardi.

— Yarmini bersangiz, xizmatingizza tayyorman!

Notanish kimsa tila tangalarni kamarga tiqli-da, uni nimchasi ostidan beliga bog'ladi.

— Ho'kizning qulog'iqa tanbur chertayotganim yo'q, ser. Buning ichida meni bir chaqa ham haqqim yo'q. Pul-lar qabilamiz boshlig'iga tegishi. — U humrat ma'nosida tu'zim bajo keltirdi. — Men bor-yo'g'i bitta choparman, xolos. Ulgurji boylikni astrab qolish uchun jindek chiqimdan qochisa, bema'nilik bo'lardi. Ammo o'z boshammi saqlab qolish uchun xonumomimidan kechib yuborishum, hayvondan farqim qolmaydi. Agar meni qirg'oqqa chiqarib qo'ysangiz — o'ttiz tanga, Lox-Lingga eltil qo'ysangiz — oltimish tanga olasiz. Istan sangiz — shu, istumasangiz — o'zingiz bilasiz.

— Ana shunaqa, — dedi Xozison. — Mabodo sizni uskarlar qo'liga topshirsam nima bo'ladi?

— Chuchvarani xom sanayapsiz, — deb javob berdi mehmon. — Xabarlingiz bo'lsa kerak, qabilamiz boshlig'ining bor bisoti Shotlandiyadagi barcha halol insonlarning mol-mulki qatorida musodara qilingan. Yerlari qirol Georg nomli kishining ixtiyoriga o'tib ketgan, endi kelgindi amadorlar mo'may daromad olishmoqda, aniqrog'i, daromad olishga tirishmoqdalar. Shotlandiya-

* Y a k o b i n c h i l i k — XVIII asr oxirlarida Farangistonda boshlangan inqilobiy-demokratik xalq harakati.

** P r o t e s t a n t l i k — G'arbiy Yevropada XVI asrda xristian dinidan ajralib chiqqan turli diniy mazhablarning nomi (tarj. izohlari).

ning haqqi-hurmati, battarak-chorakorlar yo'iboshchilari quvg'inda bo'isa-da, uning yuziga oyoq qo'ymayaptilar: bu pullar o'sha daromadning bir qismi, qiroq Georg ham shunga ko'zini olaytrib turibdi. Ser, nazarimda, tushuna-digan odamga o'xshaysizi; xo'sh, aytin-chi, agar bu pullar bir yamlab-bir yutadigan hukumatning qo'liga tushib qolsa, sizga qancha ulush beriladi?

— Albatta, unchalik ko'p emas, — deb javob qaytardi Xozison va birpas jum turgach, qurugina ohangda qo'shib qo'ydi: — Pul borligini bilishsa hisob-da. Men bo'isam, ishonchningiz komil bo'lsinki, agar harakat qilsam tilimi tiya olaman.

— Xuddi shu o'rinda men sizga pand beraman! — deb qichqirib yubordi notanish kimsa. — Al-qasos ul min al-haq! Agar qo'lga tushsam bormi, qancha pulim borligi hammaga oshkor bo'ladi.

— Xo'p, ko'riniq turibdiki, ilojiyo'q. — dedi darg'a. — Xullasi kalom, oltmish tanga. Qo'l tashlaysizmi?

— Qo'l tashladik, — dedi mehmmon. Darg'a negadir shosha-pisha tashqariga chiqib ketdi va men notanish kishi bilan boshqarmada yolg'iz qoldim.

U paytlarda qirq beshinchchi yil sadolari hali timmagan edi; juda ko'pchilik qochoqlar hayotlarini xavf ostida qoldirib bo'lsa ham vataniga qaytardi — do'stlar bilan diyord ko'rishmoqchi yoki oz-moz pul g'amlab olmoqchi bo'lishardi; mol-mulki musodara qilingan shotland tog'liklarining yo'boshchilar haqida har xil mishmishlar tarqalgan edi; chorikorlar esa o'zları yemay-ichmay, topgan-tutganlarini xorija jo'natshardi, lekin askarlarning tumshug'i ostida qabilalar oralab pul to'plash, us-talik bilan xayriya yig'ish va shavkatli Buyuk Britaniya flotining ko'zini shamg'atlat qilib, mablag'mi Katta yerga yuborish xiyla mushkul edi. O'zo'zidan ravshanki, ular to'g'risida birovlardan eshitgan edim, hozir esa gunoh-lari uchun o'llin jazosiga hukm etilishi mumkin bo'igan insonni o'z ko'zim bilan ko'rib turardim: ustiga-ustak, u

fugat g'alayonda ishtirot etib yoki chegaridam yashirin-chu pul olib o'tib qo'ya qolmasdan, ayni chog'du furoangi qiroli Lyudovik tug'i ostida xizmit qilmoqda edi. Bular ham kamlik qilayotgandek, u qutiga tila tunga to'idinligan kamarni belga bog'lab olgandi. Dunyoqurashim qanday bo'ishidam qat'lyuz nazar, bunday odam qiziqish uyg'otmonligi mumkin emoddil.

— Demak, siz yakobinchisiz? — dedim uning oldiga ovqat qo'yur ekammon.

— Ha, — dedi u tunqa qo'l cho'zayotib, — Sen, maynov, bo'y-bastiqiga qoraganda, vig* bo'thang kerak, to'g'rimi?

— Yarimta-O'rta Miyonam, — deb juvob berdim uning g'uzabini qo'zg'attib yuborishdan xavotirlanib. — Aslida, mister Kempbelldan saboq olgan ashaddiy vig edim.

— Bu degani — bum-bum! — deb cho'rt kesdi u. — Bitoq, menimcha, mister Yarimta-O'rta Miyona, shisha bo'm-bo'shga o'xshaydi-ku? Yaramaslar-ey, oltmish tanganni shilib olishadi-yu, yana-tag'in bir qultum musallasini qizg'unnishadi-ya!

— Men hozir kalitni olib kelaman, — dedim-da, palubuga chiqdim.

Tuman hali ham qalingina edi, lekin dovul tinibdi. Biz qayerga borib qolganimizni hech kim aniq bilmasdi; shamol ham (yoki shamolning qoldig'i — shabada) bizga o'ng'ay bo'imagan tomonдан esardi, bunday paytda kemumiz langar tashlab bir joyda turishga majbur edi. Ba'zi bir dengizchilar hamon ko'pikli to'lqin bor-yo'qligini kuzatib turardi, lekin darg'a va uning yordamchilari yuqori puluba sahnida to'p bo'lib olishib, o'zaro shivir-shivir qilishardi. Sababini bilmayman-u, ammo ularning niyati buzuq ekanini darrov ko'nglim sezdi va pisibgina yaqinlashgan paytimda eshitgan dastlabki so'zlar ham taxminim

* V i g y o k i b o ' l m a g ' u r v i g l a r — qiroq Georg muxlislarining masxaralomuz laqabi (muallif izohi).

to'g'riligini to'la-to'kis tasdiqaydi. Mister Riak go'yo tesha tegmagan fikr topib olgandek bunday dedi:

— Agar uni aldab-suldab boshqarmadan chiqarsakchi?

— Aksincha, o'sha joyda tursa bizga foyda bo'ladi, — deb e'tiroz bildirdi Xozison. — Qilichi bilan bermalol harakat qila olmasligi lozin.

— Gapingiz to'g'ri, — dedi Riak. — Lekin uni osonlikcha qo'lga tushirib bo'lmaydi-da.

— Safsata! — dedi Xozison. — Uni gap bilan chalq'itib turamiz-u, siz bir tomonidan, men boshqa tomonidan — shartta qo'liga yopishamiz. Ser, agar bunga muvaffaq bo'lolmasak, boshqa yo'li ham bor: ikkala eshilidan tuyqus bostirib kiramiz-da, qilichini qimidan sug'urgancha qo'lini qayririb, tappa ostimizga bosib olamiz.

Bu gaplarni eshitganimdan so'ng vujudimni qo'rquv, g'azab chulg'ab oldi; taqdir taqozosi bilan kemada tasodifan hamroh bo'lib qolganim munofiq, ikkiyuzlamachi, qonho'r odamlarni ko'rarga ko'zim yo'q edi. Dastlab, darhol juftakni rostlab qolmoqchi bo'idim, ammo birpasdan keyin qaysarligim tutib qoldi.

— Darg'a, anavi jentelmen konyak so'rayapti, shisha esa bo'm-bo'sh, — dedim. — Siz menga kalitini berasiz-mi?

Uchhalasi ham seskanib ketishdi-yu, men tomonga o'girilishi.

— Voh, ana, qurol-yarog' olib chiqish uchun qulay imkoniyat tug'ilid! — deb qichqindi Riak. — Menga qara, Devid, sen to'pponchalar qayerdaligini bilasanmi? — dedi u menga.

— Nega bilmas ekan, nega bilmasin! — deb gapni Xozison ilib ketdi. — Devid biladi, Devid biladi, zo'r bola! O'g'aynichalish. Shoflandiya tog'laridan tushib kelgan anavi kallakesar kemamizni albatta birorta falokatga giriftor qiladi; uni xudo yarlaqagur qiroq Georgning quturgan g'animi ekanini aytib o'tirmayman. «Vasiyat»ga chiqqanimdan beri atrofimda bunchalik

juftitapalak bo'llishmug'un edti: «Devidjon, Devidboy!» va hokaro, nati qo'yuvversiz! Biroq, men:

— Ko'rgulik ekan-da, ser, — deb qo'yu qoldin pina-jinni buzmay:

— Chap shundaki, qurol-yarog'larimiz — piltumil-tig'imizdan torib, to oxirgi to'pponchamizgachlo bosh-qurungan yashirilg'on, anavi kimining tumohog'i ostida toribdi, — deb davom etdi dug'la. — Poroq ham o'sha yerdii. Mahodo men yoki mening yordamchim boshqarmaga quol olimni kirim boymi, uning ko'ngilda shubha uyg'onishi mumkin. Devid, sengu o'sahlagan yosh bola bir jud to'pponcha bilan uncha-nunchu porox olib chiqsa, hech kim sezmydi. Evini topolsang, buni unutmayman, zarur paytda seni qo'llab-quvvatlayman, Karolinaga borgan chog'imizdu birovning yordamiga muhtoj bo'lishing tuyin, albatta.

Shu payt mister Riak uning qulog'iga bir nimalar deb picibildi.

— Mutlaqo to'g'ri, ser, — deb javob berdi darg'a va yana kaminaga murojaat etdi: — Bundan tashqari, Devid, unuvu nusxuning beli to'la tilla: chin so'zim shuki, seni ham quruq qo'symaymiz!

Xohishingizni bayo' keltiraman, dedim. Nazarimda, tovushimni o'zimdan boshqa odam eshitimadi, shekilli. Shundan so'ng darg'a menga ichimlik saqlanadigan sandiq' kaltini berdi-yu, asta-sekin boshqarmaga yo'l oldim. Nima qilmoq kerak? Ular itvachcha, talonchilar edi; meni vatanimdan judo qidiar, sho'rlik Ransomming boshini yedilar: nahotki, navbatdagi qotillikka zamin hozirlasam? Ayni payida qo'rquv ko'nglimga g'ulg'ula solardi, bilar-dimki, agar ularning aytgamini qilmasam bormi, holinga maymunlar yig'lardi; bitta o'smir bilan bitta katta kishi, hatto arslondek jasur bo'lsalar ham butun boshli kema dengizchilariga qarshi nima qila olardi?

Boshqarma ostonasiga qadam qo'ygan paytimda ham, qat'iy bir qarorga kelmagan edim, o'ylab o'yrimning oxriga yetolmasdim; yakobinchii esa lampa shu'lasida

o'tirgancha apil-tapil ovqatlanardi: ajabki, birpasda aniq to'xtamga keldim. Bu yerda mening xizmatim yo'q: go'yo birov orqamduñ itarayotganday beixtiyor stol yoniga yaqinlashdim-da, yakobinching yelkasiغا qo'llimi qo'ydim va:

— Qachon o'lisingizni kutib o'tiribsizmi? — deb so'rədim.

U sapehib o'midan turdi-yu, savol nazari bilan menga tikiildi.

— Ha, ularning hammasi qotillar! — deb qichqir-yigitchani asfalasofilinga jo'natishti, endi sizning navbattingiz.

— Hay-hay, — dedi u. — Hozircha men ularga taslim di. — Men tomonda turib urishasammi?

— Bo'imasam-chi! — dedim kuyunchaklik bilan. — Men talonchi ham, qotil ham emasman. Men siz tomonda bo'laman.

— Unday bo'lsa, ayt-chi, isming nima?

— Devid Belfur, — dedim va bunchalik baslang kiyangan odamga balandparvoz unvon moyday yoqsa kerak degan xayolga bordim-u, umrimda ilk bora: — Shos qo'rg'onidanman, — deb ilova qildim.

U kamining so'zlariga shubhalanmadı, albatta ahvolda ko'raverib, diydasi qotib ketgan edi; o'zining yermulki bo'Imasa-da, bolalardek maqtanchoqligi tutib ketdim, birdan qaddimi rostladi-yu:

— Men esam, Styuartlar avlodidan bo'laman, — dedi. — Ismin — Alan Brek. Kamining qirolning ismi sharfini ko'tarib yurishing o'ziyoq kifoya, agar nomim ilova qilmayoqgan bo'isam, aybga buyurmaysan-da!

Go'yo muhim narsa haqida gap ketayotgandek picthing qildi-yu, «qal'a»ni ko'zdan kechira boshladi. Quyruqda gi boshqarma kuchli to'iqinlar zarbasiga dosh beradigan

darajada mustahkam qurilgan edi. Unda beshta tirqishu tuyruk bo'lsa ham, biroq faqat yuqoridaq qopqoqdan va bir juft eshikkadan odam sig'ardi, xolos. Boz ustiga, eshiklar jiplashib yopillardı: qalın, emandan yutalgan eshik qinotlari u yoq-bu yoqqa qarab ariqchasimon iz bo'ylab siljirdi va zarur paytda ochib yoki yopib qo'yish uchun maxsus ilgak bilan jihozlangan edi. Yopiq turgan eshikka ilgak soldim-da, narigisi tonon yo'l olgan chog'inda Alan kamani to'xtatib qoldi.

— Devid... — dedi u. — Negadir sevgi qarashli yezning nomi esimduñ chiqib ketyapti, shuning uchun ijozat bersang-u, seni shunchaki Devid deb chiqiraversum... Xullas, mudofau planimiz zaffar keltirsin desak, o'sha eshikni ochiq qoldirgan ma'qul.

— Yopib qo'ysak yanada ishonchli bo'lardi, — dedim.

— E-e, yo'-o'q, Devid! Axir, mening yuzim bitta, tushundingmi?! Agar shu eshik ochiq bo'lsa, unga yuzma-

yuz turaman: dashmanlarimning asosiy qismi ham ko'z o'ngimda bo'jadi, — bu hammasidan-da qulay-kul!

U peshtaxtada turgan xanjarlarning bittasini menga bitta xanjarni tanlab oldi-yu, bosh chayqagancha, umrimda bunaqa rasvo qurolni ko'rмаганман, deb qo'ydi. Keyin u meni stol yoniga o'tqazdi-da, porox to'ldirilgan muguz va o'q to'la xaltachani oldinga qo'ydi: birpasda stol ustini to'pponchalarga to'ldirib tashladi hamda hammasini birma-bir o'qlagin, dedi.

— Ijozat bersinlar, taqsir! Tug'ma dvoryan g'ujaloq dengizchilarining kosa-tovog'ini yuvib, ularga ichkiilik ta-shib yurganidan ko'ra, mana shunaqa ish bilan mashg'ul bo'lgani afzal.

Keyin u eshik ro'parasiga bordi-da, qilichini qini-dan sug'urib, bermalol qilichvozlik qilishga imkon bor-yo'qligini chamałab ko'rdi.

— Faqat qilichning uchi bilan ishlashta ga to'g'ri ke-lar ekan, — dedi u bosh chayqab. — Men esam, aksiga

olgandek qulochkashlab qılıchvozlik qılısiming havosi-ni olganman. Afsuski, bu yerda bor hunarimni namoyish etolmas ekanman. Hechqisi yo'q. Sen to'pponchalarni o'qlayvergin-u, aynı chog'da gaplarimi ham eshitib o'tirgin.

Qulog'im sizda, dedim. Yuragim hapriqmoqda edi, og'zin qurib qoldi, ko'z oldim qorong'ilashdi; bu yerga qanaqa to'da bostirib kiritshini-yu, ustimizga tashlanishi o'ylasam, beixtiyor yuragim orqasiga tortib ketardi va keima tashqarisidan eshitilayotgan dengiz shovallashi qulog'imdan nari ketmasdi: chamannda, jonsiz jasadimni tong otguncha dengizga uлоqitrib yuborishsa kerak.

— Avalambor, bizning dushmanimiz nechta? — deb so'radi Alan.

Barmoqlarimni bukib sanay boshladim, lekin xayol-larim parishon bo'lganligi tufayli tezda hisobdan adashib ketdim va qaytadan xomcho'i qilib ko'rdim.

— O'n beshta.

Alan hushtik chalib yubordi.

— Mayli, nima ham qillardik, — dedi u. — Endi ga-pimga quloq sol: mening vazifam — shu yerda turib eshkini himoya qilishdir; sezyapmanki, olishuv nihoyatda qizg'in bo'ladi. Olishuvda sen ishtirot etishing shart emas. Ehtiyyot bo'lgan, bu tomonga qaratib o'q uzmagin, — faqat meni qulatasan, xolos. Senga o'xshagan orqamidan otadi-gan bitta ittifqdosh ortimda turgandan ko'ra, o'nta dush-manim ro'paramanda turgani ming marta afzal.

Rostdan ham mening qanday mergan ekanimni xudo biladi, dedim.

— Mardonavor gap bo'idi! — dedi u to'iqinlanib. — Har qanday olivjanob dvoryan ham ochiqchasiga gapi-rishga jur'at etavermaydi.

— Ser, orqangizdag'i eshkini nima qilamiz? — deb so'radi. — Tuyqus uni buzib yuborishsa-chi?

— Bunisi endi sening vazifang bo'ladi, — dedi u. — To'pponchalarni o'qlab bo'lgan zahoting, tirojsh ro'pa-rasidagi huv anavi karavot ustiga chiqib olasan. Mabo-

do biror-bir kishi eshikka qo'lini tekkiza — bas, ota-sant! Bu hali hammasi emas. Hozir sendan qanoqa askar chiqishini ko'ramiz. Xo'sh, yana nimani qo'riqlushing lozim?

— Qopqoqni, — deb javob berdim. — Biroq, mis-ter Styuart, ham unisini, ham bunisini qo'riqlashim uchun mening orqamda tag'in bir juft ko'zin bo'lishi darkor; axir qopqoqqa qarab turgan paytim tirkishga orqe o'girib turaman-da.

— Juda to'g'ri, — dedi Alan. — Xo'sh, qulog'ing bormi?

— Haq-post! — deb qichqirdim. — Oyna chil-chil sin-sa, eshitiladi-ku!

— Senda sog' aqlining kurtaklari ko'tinyapti, — dedi Alan ma'yus ohangda.

O' n i n c h i b o b

BOSHQARMA QAMALI

Ayni zamonda timchlik fursati poyoniga yetib qolgan edi. Palubada kutib turgan kishilarning sabr kosasi to'idi: Alan hali gaplarini tugatmasdanoq ostonada targ'a paydo bo'idi.

— To'xta! — deb qichqirdi Alan, qılıchini raqibining ko'ksiga yo'naltitrib.

Darg'a joyida taqqa to'xtadi-yu, qiyofasida biror o'zgarish sezilmadi, aynı chog'da ortiga ham chekinmadi.

— Qilich yalang'ochlanibdi-ku! — dedi u. — Mehmono'stlik kirasi shu ekan-da!

— Siz meni aniq ko'ryapsizmi? — dedi Alan. — Men qirollar avlodidan bo'laman, ismi-sharifim ham qirollar-ga xos. Gerbinga eman tasviri tushurilgan. Qılıchimni ko'ryapsizmi? Bu qılıch shunchalar ko'pchilik bo'mag'ur viglarning kallasini uzganki, mathumlarni sanashga sizning oyoq-qo'lingizdag'i barmoqlar ham yetmaydi. Ser,

qalang'i-qasang'ilarni madadga chorlang-da, hujum qiling! Olishuv qanchalik erta boshlansa, ushbu po'lat ta'mini shunchalik barvaqtatib ko'rasiz!

Darg'a Alanga hech qanday javob bermadi, men tomonga qattolona nigoh tushladi.

— Devid, men sengu hali ko'rsatib qo'yaman! — dedi u.

Uning tovushini eshitdim-u, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqib ketdi.

Birpasdan so'ng u g'oyib bo'ldi.

— Xo'p, endi mahkam bo'l, dovdidrama: hozir musht lashamiz, — dedi Alan.

Birorta murtad yuqori ko'tarilgan qilich ostidan o'tib ketishga harakat qilsa yo'sini to'sish uchun Alan chap qo'lliga xanjarini ushlab oldi. Men bo'lsam, bir quchoq to'pponchani ko'tardim-u, karavot ustiga chiqdim va nafasimni ichimga yutganimcha darchani ochdim: shu yerda tashqarini kuzatib o'tirishim lozim edi. Palubaning bir parchasi ko'rini turardi, biz uchun shuning o'zi kifoysi edi. Dengiz timchib qolgandi, shamol hamon o'sha yo'nalish bo'yicha esmoqda — yelkanlar qilt etmasdi, kemada mozor sukunati hukm surardi, ammo qasam ichishim mumkinki, bo'g'iq shovqin-suron elas-elas quloqqa chalinardi. Biroz vaqt o'tgach, po'lat jarang-jurungi eshitildi, demak, raqiblarga xanjar taqsilanganardi; kimdir qurolini palubaga tushirib yubordi shekilli, so'ngra yana hammayoq suv quygandek jumjut bo'lib qoldi.

Bilmadim, qo'rejyatgan edimmiyo'qmi, ishqilib, yuragim qafasdagagi qushcha misoli tipirchilardi, ko'zlarimi dam-badam yupqa pardas qoplab olardi; mijalarimi tez-tez uqalab qo'ysam-da, xob yana bosib kelaverardi. Ko'nglimda jimitday ham umid uchquni yo'q edi, shutobda hech nimadan tap tortmasdim, butun dunyodan nafratlanardim va o'z hayotimni imkon qadar arzigulik ishaga qurban qilishni istardim, xolos. Esinda, kalima qaytarishga urinib ko'rdim, lekin parishon xayollarimni baribir jamlay olmadim: diqqat-e'tiborim chalg'ib ketaverardi.

Hammasi tezroq boshlanishini istardim; keyin nima bo'lsa bo'lar!

Nihoyat, biz kutgan damlar yetib keldi-yu, bu men uchun baribir kutilmagan hol bo'ldi: tuyqus tupr-tupur qadam tovuslari: baqir-chaqlar, Alanning jangovar da'vati eshitildi va shu zahoti zarba berildi-yu, kindir og'riqqu chidamay ingrab yubordi. O'girilib qarasam, ostonuda Alan mister Shuan bilan qiliqlarini urishirib turishardi.

— O'sha bolani ana shu ablah o'ldirgan! — deb qichqirdim.

— Darchadan ko'zingni uzmul — deb baqirdi Alan va uning qilichi katta yordamchining qormiga g'irch etib kirib ketganimi ko'z qirim bilan ilg'ab qoldim.

Alan o'z vaqtida ogohlantirgan ekan, mundoq qarasam, darcha yondan besh kishi yugurib o'tib ketdi: ular yelkan bog'lanadigan yog'ochni quchoqlab olishgan edi, chamasni, eshkini pachoqlamoqchi edilar. Men bir-ikki marta multiq otib ko'rgan bo'lsam-da, ammo to'pponchani qo'llimga ham olmagan edi: ustiga-ustak, odamga qaratda hech qachon o'q uzmagandim. Shunga qaramay, hozir o'ylab o'tirishga fursat yo'q edi: hayot-mamot masalasi hal bo'layotgandi. Ular yog'ochni sarson qilishib, eshkika urishmoqchi bo'lgan payda men: «Mana, sizlarga» deb qichqirdim-u, to'daga qarrata o'q uzzim. Hartugul, bittasiga o'q tegdi shekilli, dodlagan ko'yi ortiga chekindi, boshqalari esa kalovlanib qolishdi. Es-hushimi yig'ishtirib olguncha osmonga qaratib yana bir marta o'q uzzim: nishonga tegmagan uchinchi o'qdan keyin to'da yog'ochni tashladi-yu, juftakni rostladi.

So'ngra tevarak-atrofimga nigoh tashladim: o'q uzilgandan keyin boshqarma porox tutuniga to'lib ketgan edi, qulqlarim esa bitib qolgandi. Alan esa hamon hech narsa bo'lmaganday beparvo turardi: qilichi dastasigacha qipqizil qonga botgan edi: xuddi g'alaba nashidasini surayotgan jangchiga o'xshardi: haqiqatan ham, u yengilmas pahlavoni eslatardi. Oyoqlari ostida Shuan emaklab turardi, og'zidan timmasdan qon ketardi, holsizlanib tobora yerga

yopishardi; ko'z o'ngimda kimdir uning oyoqlaridan ushlab tashqariga sudradi va boshqarmadan olib chiqib ketdi.

Aftidan, birpasdan so'ng jon taslim qilgan bo'shu kerak.

— Mana, sizga viglardan bittasi! — deb qichqirdi Alan va menga o'girilib, qanday yituqni qo'liga kiritgani nimm so'radi.

Bittasini quladim, o'yashimcha, u darg'a edi, deb javob berdim.

— Men ikkitasini tinchitdim, — dedi u. — Ha, ko'p qon to'kilmabdi, ular yana qaytib kelishadi. Joy=joyimizga boraylik, Devid. Bu xamir uchidian patir, xolos.

Yana o'z postimni egalladim va durchuga ko'z-qulqoq bo'tib turdim, boyu otligan to'pponchalarini qayta o'qladim.

Raqiblarimiz palubada kengash boshlashdi: to'Iqin-larning shovullashiga qaramay ularning ba'zi bir gapso'zlarini eshitib turardim — baland tovushda gaplashishardi-da.

— Manavi Shuan biz boshtagan musicani rasvo qildi! — deb xitob etdi kimdir.

— Endi foydasi yo'q, og'ayni! — deb javob qaytardi boshqasi. — U o'z nasibasini oldi-ku.

Shundan so'ng, odatdagidek, tushunib bo'lmaydigan shivir-shivir boshlandi. Endi ko'proq bir kishi gapirmoqda edi, go'yo u galdagi vazifalar haqida ko'rsatma berardi-yu, boshqalar xuddi buyruq olgan askarlar kabi qisqa-qisqa javob qaytarishardi. Angladimki, ular yangi hujumga tayoragarlik ko'rishardi. Alanga o'z fikrimni bayon etdim.

— Shunday bo'lsa, xudoga shukr! — dedi u. — Agar biz ularning es-hushimi joyiga keltirib qo'ymasak bormi, ikkalamizni ham tinchitishmaydi. Faqt esingda bo'lsin: ular endi hazillashib o'tirishmaydi.

Bu paytda to'ponchalarim jang-u jadalga tayyor bo'lgan edi; biz endi tiq etgan tovusini ham e'tibordan chetda qoldirmay payt poylashtimiz lozim. Oizg'in olishuv paytida qo'rquv haqida o'ylashga fursat topolmagan edim,



lekin hozir ham, hammayoq jumjut bo'llib qolgan chog'da ham xayolimga hech narsa kelmasdi. O'tkir tig' va muzday po'latni yaqqol tusavvur etardim: boshqarma sirtidan ehtiyojkorona qudam tovushlarini-yu kiyim-kechak shitirlashimi payqagan paytim amin bo'ldimki, raqiblar qorong'i tushganidan foydalanihib, qulay joylarni egal-lab olishmoqdu edi. Rostimi aytasam, dodlab yuborishimga ozgina qoldi. Ko'ngilsiz hodisalar Alan turgan tomonda ro'y bermoqda edi; endi jang qilishimga hojat qolmasa kerak, deb o'lay bosladim-u, birdan kimdir boshqarma tomidan naq boshim uzra osilib tushsa bo'ladi!

Botsmanning hushtagi churilladi (shartli imo-ishora nishonasi) va to'dalashib turishgan xanjarli kishilar birdan eshikka o'zlarini uredilar; xuddi shu soniyada yorug'lik tushadigan qopqoq oymalari chil-chil sindi-yu, sochilid ketdi va tuynukkdan bitta dengizchi amal-taqal qilib o'tdi-da, polga sakradi. Hali qaddimi rostlashga ham ulgurmash dan uning orqasiga to'pponchamni tiradim: birdan uni otib tashlardim-u, lekin tirk vujudga qo'llim tekkan zahoti butun borlig'imi qahi-g'azab chulg'ab, tepkini bosishga holim qolmadni. Ayni paytda qanot chiqarib uchib ketish ham qo'lindan kelmasdi, albatta.

U polga sakrab tushgan chog'da qo'lidagi xanjar uchib ketib edi, orqasiga to'pponcha quvuri tiralganimi sezgan mahalda shartta o'girildi-yu, meni mahkam ushlab oldi: boloxonador qilib so'kina boshlidi: shundagina mardligim qo'zib ketdi yoki qo'rquv o'mini shijoat egalladi-yu, qulqoni qomatga keltiradigan darajada chinchinganimicha uning qorniga qarata o'q uzzim. Vahimali tarza ingriddi-yu, polga quladi. Shu payt tuynukkdan oyog'imi ositirrib turgan ikkinchi dengizchi posmansi bilan boshimning uchiga tepdi: darhol bosha to'pponchani qo'limga oldim-u, uning soniga qarata o'q uzzim. U teshikdan sirg'alib o'idi-yu, pastda yotgan sheringining ustiga qop misoli dup etib tushdi. Nishonga urmaslik mumkin emasdi, lekin mo'ijallab o'tirishga ham fursat yo'q edi: to'pponcha quvurini unga tekkizib turib tepkini bosdim, vassalom.

Jasadlardan ko'zimni uzmay yana qancha payt tikilib turardim bilmadim-u, lekin Alanning qichqirg'umini eshitishim bilanoq darrov es-hushimni yig'ib oldim: chamanida, u meni yordamga chorlardi.

U shu paytga qadar eshikka qalqon bo'llib turardi, ammo Alan bitta mal'un bilan olishayotgan chog'da boshoq' casi qilich ostidan emaktab o'tibdi-da, orqasidin quchoqlab olibdi. Alan chap qo'lidagi xanjarli bilan timmasdan raqibning qormiga zarba bernardi-yu, biroq u Alanni sira qo'yib yubormasdi, — xuddi kanuga o'xshab yopishib olgan edi. Boshqarmaga yuna bir kishi yopirilib kirdi. Eshik o'mida ayqash-uyqash qiyofulardan iborat sun'iy devor paydo bo'ldi. Endi biz asfolasofilinga ketdik, deb o'yladim va xanjarimni changallagan ko'yim yon tomon dan to'daga tashlandim. Lekin yordam berishga shoshilmasam ham bo'lardi: niyoyat, Alan raqibini ustidan uloqtirib yubordi: orqasiga tisarilibr turib xuddi yarador ho'kiz misoli bo'kiringancha dushmanlari ustiga o'zini otdi. Ular ikki tomonqa ajrab, tumtaraqay qocha boshlashdi: bechoralar bir-birlariga urilgancha yiqlilib tushishardi. Alanning qilchi esa havoda yalt-yult qillardiyu, pitrakka o'xshab qochoq dushmanlar to'dasiga sanchilardi va po'latning har bir chaqnashiga javob tanqasida yaradorlarning voyvoylashi eshitilardi. Hamon endi kuminiz bitti, deb turardim ichimda. Lekin birdan hujumchilarga sichqonning ini ming tanga bo'llib qoldi: Alan ularni paluba bo'ylab quvlab ketdi — go'yo bo'ri qo'y-qo'zilarni oldiga solib quvlayotganga o'xshardi.

Biroq, u boshqarmani tark etgandan so'ng darhol iziga qaytdi, chunki ehtiyojkorligi jasurligidan qolishmasdi: dengizchilar esa hamon bir-birlarini turkilashgancha, baqirishib-chaqirishib qochib borishardi, xuddi izlaridan Alan yugurib borayotgandek tuyulardi shekilli. Ular shosha-pisha umumiyy xonaga kirishdi-da, tuyruk qopqog'imi yopib olishdi.

Quyruqdag'i boshqarma qassobxonaga o'xshardi: ichkarida uchta jasad yotardi, ostonada bittasi o'lim bilan

olishmoqda edi: men bilan Alan — g'oliblar sog'-salomat edi.

Alan quchog'ini ochgan ko'yi yaqinlashdi.

— Kel, seni bir quchoqlab olay! — dedi u va meni quchoqladi-yu, ikki yonog'imdan cho'lp-cho'lp etkazib o'pib qo'ydi. — Devid, senga xuddi ukamdek mehrim tushib qoldi. Rostini ayt-chi, bahodir jangchiga o'xshaymammi? — dedi u tantanalı ohangda.

So'ngra u tor-mor keltirilgan dushmanlarimiz tomon o'girildi-da, to'rttulasini ham birin-ketin sudrab tashqari ga chiqarib tashladi. Goh qandaydir qo'shiqni eslashga urnardi, aslida esa o'zi qo'shiq to'qimoqchi edi! U xuddi yangi o'yinchoqqa ko'zi tushgan besh yashar bola singari yuzlari qizarib, ko'zları chaqnab ketdi. Keyin stol ustiga o'tirdi-yu, qilichini dirijyor tayoqchasi misoli sikiqtgancha ko'nglidagi turonani izlay boshladi: dastlab o'ziga ishonqiramay kuyladı, oxiri tovushini vadavang qo'ygancha shotland keltlari tilida o'zi to'qigan qo'shiqni aytib yubordi.

Quyida o'sha qo'shiqning mazmunini keltirmoqchiman, lekin uni nazm bilan ifoda etolmayman, chunki men she'r to'qishga usta emasman: lekin inson bolasi tushunadigan tilda bayon etishga harakat qilaman. U keyinchalik ham tez-tez xirgoysi qilib turardi, hatto o'sha qo'shiq mashhur bo'lib ketdi: qisqasi, uni bir necha marta eshitishga muyassar bo'lganman va turlicha talqin qilinganiga ham o'zin guvohman.

Bu qo'shiq Alanning qilichi haqda:

Uni degrez o'g'il charxagan.

Gulxan o'z bag'ida toblagan,

Endi Alan Brek ikida chaqnamoqda ul.

Son-sanoqsiz edi yovning ko'zları,

Har bir nigoh nayza yoki joh.

Qullarning son-sanoqsiz qo'llari taipinaveradi.

Qilich esa tanho, turaveradi.

Tog'da o'ymoqlaydi sang'ish bug'ular,

Ular ham son-sanoqsiz, tog' esa tanho.

Sarg'ish bug'ular ham ketarlar obas,
Tog' esa qo'r to'kib turaveradi.

Hey, o'irkko z lochinlar,
Archagulli yashil qirlardan,

Orollardan uchib kelingiz,

Bu yerda o'laksalar munazir sligat

Ilk g'alabani qo'lga kiritgan paytimiz Alan tomonidan yaratilgan (so'zini ham, kuyuni ham o'zi to'qigan) ushbu qo'shiqda kaminaning xizmatlari munosib bisholangan deb bo'lmaydi: axir, men ham u bilan yelkamayelka turib kurashganman-ku! O'sha kurash payti mister Shuan va yana besh dengizchi bandalikni bajo keltidi: ba'zilar til tortmay o'ldi, boshqarlar og'ir yarador bo'idi, o'shalardan ikkitasi — boshqarmaga tuyunkidan tushgan kimsalarni o'z qo'llarim bilan narigi dunyoga ravona qildim. Bunday tashqari, yana to'rt kishi yaralangan edi, eng kamida o'shalarning bittasini kamina safdan chiqardim. Ko'rinib turibdiki, umuman aytganda, dushmanimizni tor-mor etishda munosib hissa qo'shamgan va Alan to'qigan qo'shiqdan joy olishta haqqim bor edi. Sir emaski, shoirlar avvalo she'mning qofiyasi xususida qayg'uradilar, lekin Alan o'zaro suhbat chog'ida (qofiyador tarzda junyla tuzmasa ham) doimo xizmatlarimi yuksak baholardi.

Biroq o'sha paytlarda menga nisbatan qandaydir addolatsizlik qilinayotganini xayolinga keltirmasdim. To'g'ri, shotland shevasida aytilgan so'zlerning ma'nosini tu-shummasdim. Sertashvish damlar, qizg'in olishuvlar natijasida boshimni qashlashga ham fursatim yetmasdi: ustiga-ustak, qo'im qonga botgamini eslasam beixtiyor vujudimni vahima bosardi, ur-yiqitlar poyoniga yetganim. Ko'krak qafasim tobora torayib borayotgandek tuyulardi, hansirab-hansirab zo'rg'a naftas olardim: o'z qo'im bilan otib o'ldirgan anavi ikki kishini eslasam aloq-chaloq tush ko'rayotganday sandiraqlay boshlardim. O'zimga

nima bo'lganini to'la-to'kis idrok etolmasdim: birdan yosh bola misoli ho'ngrab yubordim.

Alan yelkanga qoqdi-da, dovyuraksan, azamat yigit-san, sen ozgina mizg'ib olishing lozim, dedi.

— Birinchi bo'lib o'zim qorovullik qilaman, — dedi u. — Devid, boshidan oxrigacha menga pand berma-ding. Seni butun boshi, Epin tog'lariga ham almashtir-mayman. E-e, Epin nima bo'libdi! Bredalbenga almash-tirmasman!

Polga joy soldim, u bo'lsa beliga qilichimi taqqan-cha, qo'tida to'pponcha tutib birinchi smenada qoro-vul turdi: devorda osig'lil vaqt o'chagich (darg'aniki) bo'yicha uch soat postni tark etmasligi lozim edi. Keyin u meni uyg'otdi, men ham uch soat turib berdim: nav-batchiligid poyoniga yetguncha osoyishita tong otdi; qiyalama to'iqinlar kemanı ohista tebratardi, darg'a bosh-qarmasi poliga to'kilgan qon halqobi u yoqdan bu yoqqa borib-kelardi: tomg'a taqir-tuqur etib yomg'ir yog'a boshladi. Navbatchilikda turgan vaqtinda hech kim bosh ko'tarmadi, ruuning taraq-turuq etishidan sezdimki, hat-to shturval ham o'z holiga taslab qo'yilgan edi. Ke-yin ma'lum bo'lishicha, ular orassida o'lgan va yarador bo'lganlar anchagini ekan, qolganlar esa ochiq-oydin no-rozilik bildirisha boshlashibdi va darg'a bilan mister Riak xuddi men bilan Alan kabi navbatma-navbat posbonlik qilishibdi (kema noxosdan qirg'oqqa chiqib qolmasligini istashardi). Shukrki, tun osoyishitalik bilan o'idi, yomg'ir yog'a boshlagan zahoti shamol ham tindi. Kema atrofida chir aylangan ko'yı balliqchi quşlarning yangroq tovu-shidan bildimki, to'iqin «Vasiyatni Shotlandiya sohiliga yoki Gebrid orollarining birorita qirg'og'i tomonga surib ketgan edi. Nihoyat, boshqarma tuyugidan boshimni chi-qarib qaradim: bortting o'ng tomonida Skay tog'ning ul-kan qoyalar salobat to'kib turardi, yanada narida esa sirli Ram oroli yastanib yotardi.

O' n b i r i n c h i b o b

DARG'A TAQDIRGA TAN BIERDI

Ertalabki soat oltiarda biz Alan ikkalamiz nonush-ta qilgani o'tirdik. Boshqarma poliga oyinn sinqlari so-chiilib yotardi va qon bilan bulg'angan edi — diishlati manzara: unga ko'zim tusghan zahoti ishtiham bo'g'ilib, tomq'imdan ovqat o'tmay qoldi. Lekin, umuman olganda, avvolimiz yomon emasdi, balki atomat edi: darg'a bilan uning yordamchilarini kayutasiidan haydab chiqur-ganimizdan so'ng kemudagi barcha spirtli ichimliklar zapasi (vinolar ham, konyaklar ham), ziravor sepib tay-yorlangan sabzavot qoqilari-yu oppoq undan hozirlangan qotgan kulchalar kabi lazzatlil oziq-ovqatlar ixtiyorimizga o'tib qoldi. Shularning o'ziyoq dillarimizni shod etardi. Achinarisi shunda ediki, Shotlandiyaning ikkita yutoq-qan o'g'li (marhum mister Shuan bu hisobga kirmaydi) tashqarida — barcha noz-ne'matlardan benasib bo'lib o'tirishardi va o'zlarini jimidam ham battar yomon ko'radian narsani, ya'ni sovuq suvni ichishga majbur edilar.

— Ishonaver, tez orada ular tavbasiga tayanishadi, — dedi Alan. — Urishqoq odamni insosga keltirish mumkin, lekin ichkilikboz odam ikki dunyoda ham insosga kelmay-di — ichmasa turolmaydi.

Biz juda inoq edik. Alan nihoyatda mehrbon edi: ustolda turgan pichoqni oldi-yu, mundiriga qadalgan kumush tugmachadan bittasini kesib berdi.

— Bular otamdan — Dunkan Styuartdan metros, — dedi u. — Endi o'shalardan birini senga beraman, o'tgan kunkardan esdalik sifatida asrab qo'ygin. Qayoqqa bo-rishingdan qat'i nazar ushbu tugmani ko'rsatsang bas, darhol atrofingda Alan Brekning do'stleri hozi-ru nozir bo'lishadi.

Jiddiy qiyofada so'zlardi, beixtiyor uni Buyuk Karl deb o'yash mumkin edi, go'yo qo'l ostida son-sanoqsiz qo'shin bitta ishorasiga mahtal bo'lib turardi: men esam,

rostini aysam, dovyurakligiga qoyil qolardim-u, ammo shuhraparastligidan kulgim qistardi — arang o'zimni tutib qolardim, chunki «piq» etib kulib yuborsam bormi, xudo ko'rsatmasin-u, olamshumul janjal boshlanishi tur-

gan gap.

Ovqatlanib bo'lqanimizdan keyin Alan darg'aning sandig'ini titkilab cho'ika topdi-da, mundirini egnidan yechib, sinciklab ko'zdan kechirdi va erinmasdan dog'larni tozalay boshladi. Menimcha, bu faqat ayollarga xos fazilat edi. To'g'ri, boshqa mundiri yo'q edi. Qolaversa, agar gaplari rost bo'lsa, bu mundir qiroga tegishli edi, demak, uni sidirib-siyupalash ham ulug' martaba hisoblanardi. Shuning uchunmikan, kesib olgan tugmacha o'rnidagi har bitta ipni diqqat bilan sug'urib olayotganiga ko'zim tushdi-yu, sovg'asi bebaho ekaniga imon keltirdim.

Mister Riak palubada turgancha bizni chaqirib, yarashish uchun muzokara boshlasmi taklif etgan paytda Alan hamon cho'tkani qo'ldan qo'yimagan edi. Boshqarma tomiga chiqdim-da, tuynuk yoniga o'tirgan ko'yim mardonavor qiyofada (cyna sinqlariga ko'zim tushib, yuragim orqasiga tortib ketayotganiga qaramasdan) unga to'pponcha o'qtalib, beriroq kelib so'lashni buyurdim. U boshqarma yoniga keldi-da, arqonga suyandi: iyagi ton bilan barobar edi, shu tarzda bir necha daqiqalar birimizga lom-mim demay tikilib turdir. Ko'rinishdan mister Riak jang maydonida unchaliq jon koymaganga o'xshurdi, shuning uchun yuzi salgina shilinibdi, xolos. Lekin tun bo'yidam yaradorlar tepasida, dam posbonlikda tik turgani tufayli niroyatda aftodahol, horib-tolgan kishidek ko'rinar edi.

— Xunuk voqeja bo'ldi, — deb ming'irladi bosh chay-qagancha.

— Umi biz boshlaganimiz yo'q, — deb javob berdim.

— Darg'a sening do'sting bilan gaplashmoqchi ekan. Deraza orqali bo'lsa ham mayli.

— Balki yana xiyonat qilmoqchidir, men qayoqdan bilaman?! — deb qichqirdim.

— Aslo unday emas, Devid, — dedi mister Riak. — Rostini aysam, u istugun tuqdirda ham biz barbir odam-larni o'z tomonimizga og'dirib ololmaymiz.

— Shunaqami hal! — dedim jo'rttunga.

— Senga bundan boshqa gaplarni hom aytunom, — deb davom etdi u. — Gap fuqat dengizchilardi emas, gap o'zimda. Mening bo'lurim bo'ldi, Devid. — Miyig'ida kulib qo'ydi. — Biz bir narsani istaymiz xolon: u bizga tegmasin.

Shundan keyin Alan bilan mashhahashib oldim va muzokara boshlashga rozi bo'ldik: ikkala tomon ham harbiy harakatlarni to'xtatish mujburiyatni o'z zimmasiga oldi. Biroq mister Riakning vakolati shu bilangina cheklanmad: yalinib-yolvorib bir qultum ichkkilik berishimni so'ray boshladi, xira pashshadek g'ing'irlayverdi, rahmimi keltiradigan tarzda ilgari yaxshilik qilganini botbot eslatdi: oxiri tunuka krujkanı yarimlatib konyak quyib berdim-u, qutuldum. U ozginasini ichdi-da, qolgan qismini darg'a bilan teng baham ko'rish uchun olib ketdi.

Shartnomaga ko'ra, birpasdan keyin boshqarma darchalarining bittasi ostiga darg'a yaqinlashdi: u yomg'ir ostida turardi, qo'limi bog'lab bo'yniga osib olgan edi, qiyofasi tund, rang-ro'y'i oppoq, qarimsiqqa o'xshardi: uni yarador qilganim uchun ich-ichimdan afsuslandim.

Alan darg'aning manglayiga to'pponchasini to'g'-riladi.

— Bu zormandani nari oling! — dedi darg'a. — Ser, so'zimda turaman deb kafolat berdim-ku, axir! Yoki meni kalaka qilmoqchimiz?

— Darg'a, baribir gapingizning burdi bo'lmaydi, — deb javob berdi Alan. — Kecha oqshom ham bozordagi chayqovchi xotingga o'xshab rosa qiyshangladiganiz, ko'zlarining suzdingiz: gapingizzdan tonmaslikka va'da berdingiz, boz ustiga, ishonchli bo'lismiz uchun erkakchasiqa qo'l tashlashdik. Keyin nima bo'lqanimi esa o'zingiz bilasiz. Siz bergen va'dalarga la'nattar bo'lsin!

— Qo'ying-e, ser, — dedi darg'a. — So'kinishdan hech qanday foyda chiqmaydi. — Qoyil qolish lozim, darg'aming o'zi shunday nuqsondan xoli edi. — Boshqa gaplarimiz ko'p. Siz kemani kulfatga girifor etdingiz, — dedi u alam bilan. — Kemani qanday boshqarishni ham bilmayman, odamlar yetislimayapti: mening o'ng qo'llim bo'lib qolgan katta yordamchimning qorniga qilichingizni zo'g'otasiqacha botirib olibsiz shekilli, sho'rlik xayrma'zurni ham nasiya qilib narigi dunyoga ravona bo'ldi.

Ser, endi Glazgo bandargohiga qaytishga majburnan, boshqa ilojim yo'q: yangi dengizchilar yollayman, keyin... agar ijozat etsangiz, siz bilan yaxshiroq til topishadigan kishilar ham topiladi.

— Shunaqami? — dedi Alan. — Baxayr, xudo haqqi, mening ham ularga aytadigan gaplarim ko'pli! O'sha shaharda ingliz tilini tushunadigan har qanday kishiga qiziq-qiziq voqealarni so'ylab beraman. Bir tomonda sha'nini bulg'agan o'n beshta dengizchi-yu ikkinchi tomonda — bitta erkak bilan g'o'r o'smir. Tuf-e, sharmandalik!

Xozison qisqichaqa o'xshab qip-qizarib ketdi.

— Yo'q, — deb davom etdi Alan. — Bunaqasi ketmaydi. Istaysizmi-istamaysizmi, shartnomaga binoan, meni qirg'oqda qoldirib ketishingiz lozim.

— To'g'ri, lekin mening katta yordamchim halok bo'ldi, — dedi Xozison. — Qanday o'lganini o'zingiz juda yaxshi bilasiz. Bundan tashqari, ser, briortamiz ham o'sha qirg'oqni bilmaymiz, bu yerlar kema qatnovi uchun nihoyatda xavfi.

— Sizni yo'l tanlash imkoniyatidan mahrum qilmayman, — dedi Alan. — Meni Epin sohiliga tashlab ketingiz mumkin. Ardgur, Marven, Ariseyy yoki Morar sohiliga, xullas, Kempbellar o'ksasidan boshqa istagan joyingizda — vatanim sarhadlaridan o'tuz mil atrofidagi har qanday sohilda qoldirib ketsangiz ham roziman. Bu xiyla katta nishon. Agar yana mo'ljalga urolmasangiz bormi, bir pulga qimmat, jangari dengizchi ekaningizni namoyish qilasiz, xolos. Agar bilmochi bo'lsangiz, biz tomonlar-

da har qanday kambag'al odam ham kechusiyu kunduzi shaloq qayiq bilan bir oroldan boshqasiga bermulol yuzib o'taveradi.

— Ser, qayiq — kema emas, — deb e'tiroz bildirdi darg'a. — U to'nkarrib ketsha ham, suvga cho'kmaydi.

— Unday bo'lsa, ijozat eting, Glazgoni keidik! — dedi Alan. — Jilla qursa, sizning ustingizdan kolith qaytamiz.

— Hozir mening ko'nglumga sushechaqchaqlik sig'maydi, — dedi darg'a. — Ser, mushuk belkoriga oftoba ga chiqmaydi.

— Baxayr, ser, — dedi Alan. — Men ho'kizning qudog'iga tanbur chertishni yomon ko'raman. Agar sohilga eltilib qo'ysangiz o'ttiz tunga, Lox-Lingga olib borib qo'ysangiz — oltmisht tanga beraman.

— Ammo o'zingiz o'ylab ko'ring, ser, bu yerdan, biz hozir turgan joydan Ardnamyorkangachcha bir necha soatlik masofa bor, xolos, — dedi Xozison. — Oltmisht tanga bersangiz sizni o'sha yerga eltilib qo'yaman.

— Sizga qulay bo'lsin deb etigimi to'zitamanni, o'z hayotimni xavf ostida qoldirib, qizil mundirli to'ng'izlarga duch kelamanni-a?! — deb xitob qildi Alan. — Yo'q, ser, oltmisht tanga olishni xohlasangiz, marhamat, avvalo peshonangizzdan ter chiqsin, — meni ona yurtimga eltilib qo'yasiz.

— Ser, shunday qilsam kemani xavf-xatar ostida qoldirgan bo'laman, — dedi darg'a. — Ayni chog'da hayotiningiz tahlikada bo'ladi.

— Istamasangiz, keragi yo'q, — dedi Alan.

Darg'a qoshlarini chimirdi.

— Hech bo'lmasa, bir navi yo'lko'rsatib borasizmi? — Hm-m, qo'limdan kelarmikan? — deb javob berdi Alan. — O'zingiz amin bo'ldingizki, men jangchiman, zinhor-bazinhor dengizchi emasman. Qolaversa, kammani tez-tez o'sha sohillarga eltilib qo'yishardi, o'ylaymanki, qanday qilib qirg'oqqa borishimi bilsam kerak.

Darg'a yana qoshlarini chimirgan ko'yib bosch chayqadi.

— Ser, agar men bu xosiyatsiz safar mobaynida chiqindor bo'l'maganimda borni, o'z kemamni xavf ostida qoldirgandan ko'ra, tanobingizni tortib qo'yishga jon-jon deb rozi bo'lardim, — dedi u. — Mayli, endi siz aytgancha bo'laqolsin. Shamol yo'nalishi o'zgarishi bilan noq yo'lغا tushuman. Yangilishmasam, shamol yo'nalishi o'zgaryapti. Lekin yana bir gapni aytil qo'yishim lozim: agar yo'l-yo'lakay qirol ixtiyoridagi kemaga duch keilib qolsak, ular bizni iskanjaga olishadi — mendan ruxsat so'rab o'tirishmaydi. Bu yerlarda sohil bo'ylab soqchi kemalar izg'ib yurishadi. Ular kimming manfaatini himoya qilishi o'zingizga ma'lum, albatta. Shunday qilib, ser, bitor kor-hol ro'y bersa, pulingizni menga qoldirsangiz durust bo'lardi.

— Darg'a, agar siz kambar bayroqchani — taniqlik belgisini ko'rib qolsangiz, zudlik bilan juftakni rostlashiningiz lozim, — dedi Alan. — Eshitishimga qaraganda, palubada spirtili ichimlik tanqis ekan: xo'sh, ikki paqir suvga bir shisha konyak almashtirsaq qanday bo'larkan-a? Xohlaysizmi?

Shartnomanining oxirgi muddasini ikkala tonon ham sidqidildan ado etdi. Shundan keyin biz Alan bilan boshqarmani tartibga keltirdik: marhumlarni eslatib turgan izlarni yuvib tashladik. Mister Riak bilan darg'a esa ko'ngillari istagan tarzda, ya'ni bir shisha mayni maydalab o'tirishib, rohat-farog'at qilish imkoniyatiga sazovor bo'idilar.

Darvoqe, kunning birinchi yarmida dengiz osoyishta bo'llib, suv betida yuzib yurish juda yoqimli edi: quyosh charaqlab nur sochardi, tevarak-atrofimizni tog'li orollar qurshab olgandi. Shamol kemamizing quyruq tomonidan esayotganini hisobga olib, boshqarma eshiklarini lang ochib qo'ydim va Alan bilan men darg'a g'amlab qo'ygan xusib'o'y tamakidan oldik-da, trubkaga solib chekisha boshladik. Xuddi shu payt bir-birimizga o'zimiz haqda gapirib berdik: suhbatimiz, ayniqsa, men uchun foydali bo'ldi, chunki tez orada qadam qo'yishim lozim bo'lgan

ba'zi bir narsalarga izoh berib o'tishim lozim, ayni paytda o'quvchi huf' qila, xaritaga ko'z tashlib qo'yum hum chakkij bo'lmasdi. Dengizgiga qulin tuman tushgan o'sha mush'um kuni biz Alanning qayylig'ini nuyga g'arq etib yuborgan Kichik Minch bo'g'ozl uzen yuzib horindik. Qirg'indan so'ng, erda tongda Kann orolinig shaxqy tomonida, aniqrog'i, Long-Aylend orollar turkumiga munsub bo'lishi Iriiske bilan Kann oroli o'manda — aronda qoldik. U yerdan to'ppa to'g'li Los-Ining borish uchun Sandoval Mal bo'g'evini keshib o'tish lozim edi. Lekin deng'aning qo'lida dengiz xonisiyo yo'q edi, shuning uchun u kemoni bilan orollar onasiu adishib ketishdan qo'rindi shamol yo'nalishimizga monind tomoniga esayotgani tutlyli Tuysi orolini g'arbliy sohildan aylanib o'tishini afzal deb bildi va ulkan Mal orolinining janubiy qirg'oqlari bo'ylab manzilga yetib olmoqchi bo'ldi.

Kun bo'yli timmasdan shamol esdi, yo'nalishi ham o'zgarmadi; keechga tomon biz Gebrid oroli tevaragida gi to'qinilar diyoriga yetib oldik. Ichkarida sochilib yotgan guruhi-guruhi orollarni chetlab o'tishimiz, ya'ni janubi g'arb tonon burlilishimiz lozim edi: shuning uchun dastlab kemumizing yon toratiga to'iqinlar shatloplab tegardi=yu, denizchahilar dam-badam beriq bordan narig'i bortga boriq urilishardi. Oqshom cho'kkan pallada, Tuysi orolinining etagidan aylanib o'tganimizdan so'ng, yo'nalishimizni shurq tomon o'zgartirdik va to'iqin kernamiz orqasiga kelib urila boshhladi.

O' n i k k i n c h i b o b

MALLA TULKI

Shimoli sharq tomondan shamol ko'tarilgan paytda biz hamon darg'a boshqarmasini tozalash bilan ovora edik. Shamol bulutni haydar ketdi, quyosh ko'rindi. Kezi kelganda, biroz nafasimni rostlab olishim va

tog'li Shotlandiyaning yovvoyi o'lkalari borasida ba'zi bir qimmatli ma'lumotlarni bilib oldim. O'sha zamonalarda, buyuk qo'zg'olon yaqin o'tmish bo'lgan yillarda ar-chagullar mamlakatiga yushirinchcha tashrif buyurayotgan odam u yerda o'zini nimalar kutayotganini bilib qo'ysa ziyon qilmasdi.

Birinchi bo'llib kamina o'mnak ko'rsatdim: boshimga tushgan musibatlar to'g'risida Alanga hikoya qilib berdim. U gaplarimi diqqat-e'tibor bilan tingladi, olivjanob do'stim — ruhoniy Kempbell nomini tilga olgan paytim Alan o'zini idora qilolmay qoldi va qichqira boshladi: o'sha nomni eslatadigan odamlarni ko'rGANI ko'zim yo'q, dedi.

— Sizga nima bo'ldi? — dedim. — U kishi ajoyib in-son, u bilan qo'l berib so'rashishing o'zi faxr-ku!

— Hartugul, Kempbellga qo'limni uzatmagan bo'lardim, — dedi Alan. — Faqat uni peshonasidan otishim mumkin. Menga qolsa, ularni qabila-pabilasi bilan qarchig'aylar kabi qirib tashlagan bo'lardim. Jon berayotgan bo'lsam ham o'shalarning bittasini otib o'ldirish uchun derazamning ostigacha emaklab borardim.

— Rahmingiz kelsin, Alan! — deb qichqirdim. — Kempbellar sizga nima yomonlik qilishdi?

— Mana, eshit bo'immasam, o'zingga ma'lumki, men epinlik Styuartlar avlodidan bo'laman, — dedi. — Kempbellar esa azal-azaldan qavm-qarindoshlarining yomonlik qilishadi, zarar yetkazishadi: doimo makr-hiyta ishlatishib yerlarimizni tortib olishadi: qurol kuchi bilan zo'ravonlik qilisha ham go'rga edi! — Oxirgi so'zlarimi tovushining boricha baqirib aytdi-da, stolga zarb bilan musht tushirdi. Rosti, bu holga unchalik e'tibor bermadim, chunki mag'lubiyatga uchragan kishilar odatda o'zlarini shunaqa tutishini bilardim. — Bundan tashqari ham ko'p ishlar bor, lekin hammasi bir xil yo'sinda amalgal oshiriladi: yolg'on so'zlar, yolg'on qog'ozlar, tovlamachilik — chakana sav-dogarga xos xususiyatlar: ajabki, ishlar qonuniylik niqobi ostiga olinadi va battar g'azabni qo'zg'atadi.

— Sizga o'xshab tugmalarini saxlylik bilan turqata-digan kishi umatty ish borasida biror narsuning fureqiga boranmikan? — deb tambeh berdim.

— Im-m! — dedi u va yana lablariga tabassum yo-qolgan: g'urb oxxonimning ismi sharif Duncan Styo-ari edi: iloyim, mozoming tuprov'i yengil bo'ishit! O'z qavon-qarindoshlari omnidin eng zo'n, Shotlandiyaning ilg'or qilishhozi edi: bu degani edunyodagi eng ilg'oro degan gap bilan burodar! Asit, bilaman ku, u menga be-konga ta'lim berganni yo'q! Ik horha yo'q qagan paytarda Qon Pontda turardi va barha aszoda posbonlar kabi domo orqasidan quoqilardorini ergashtirib yurardi: qurolbondor ega jing-u judalg'ut ning piltamiltig'ini ko'tarib kirodi. Afidun, qirol hazratlari shotland tog'ilklari qanday qilichbozlikka tushishini tomosha qilmoqchi bo'libdi shekili. Otam bilan yana uch kishini tanlab olishibdi via mahoratlarini namoyon etishlari uchun Londonga jo'nutishibdi. Ular saroyda — qirol Georg, qiroliche Karolius, Jallod gerisog Kemberlendskiy va boshqalarning ko'z oldida (olarning hummasini nomma-nom eslonmayman) ikki sout mobaynida qilichbozlik san'atining barcha nozik sirlarini ko'rsatishibdi. Tomosha niyoyasiga yetgach, qirol nechog'li surbet mustabid bo'lishiga qaramay, qilichbozlarni olqishlabdi va har biriga o'z qo'li bilan uch tangudan ularshibdi. Saroydan tashqariga chiqish paytida darvozu qorovulkonasidan o'tishlari lozim ekan: o'sha mahalda otamning miyasiga g'alati fikr kelib qolibdi — u shotland zaminorlaridan birinchi bo'llib shu darvozadan o'tyaptimi, demak, kambag'al darvozabong'a xayr-ehson berib ketishi kerak, toki u kimga qulluq qilganini bir umr esidan chiqarmay yursin. Shunday qilib, darvozabon kaf-tiga bepisandlik bilan qirol bergen uchta tilla tangani tashlab o'tadi: orqasidan kelayotgan uch hamrohi ham xuddi shunday qiladilar. Qanchalik ter to'kkan bo'lishlariga qaramay, ship-shiydam bo'llib ko'chaga qadam qo'yadilar. Ba'zi kishilar qirol darvozaboniga birinchi bo'llib falonchi

tangalarini bergen deydi: boshqa birov esa pistonechi bergen deydi, lekin haqiqatda bu ishni birinchi bo'lib Dunkan Styuart boshlagan — men qilich hamda to'pponcha yordamida gapimning chin ekanni isbotlashga tayyormen.

Otam mana shunaqu zot edi: iloyim, joyi jannada bo'lsin!

— O'ylaymanki, unday zot sizga mo'l-ko'i boylik qoldirmagan bo'lsa kerak, — dedim.

— To'g'ri aytasani, — dedi Alan. — U kishi uyat joyimni yashirib yurishim uchun bir juft ishton qoldirgan, xolos. Boshqa hech vaqo yo'q. Shuning uchun harbiy xizmatga yollandim: ana shu narsa dorilomon kunda sha'nimga dog' bo'lib tushdi, agar qizil mundirli to'ng'izlarning qo'liga tushganimda bormi, naq onanni ko'rsatishardi.

— Yo'g'e?! — deb xitob qildim. — Axir, siz inglizlar qo'shimi safida xizmat qilgansiz-ku!

— Hamma gap shunda, — dedi Alan. — endi men Prestonpans^{*} ostonalariha haqiqat uchun kurashayotgan jangchilar tomoniga o'tib ketdim deb, o'zinga taskin beraman, xolos.

Bunday dunyoqarash bilan aslo murosa qilolmasdim: jang paytida qochoqlik qilgan odam o'z nomiga dog' tushiradi. Yosh bo'iishimga qaramay, bu haqda tovushimni chiqarmay lom-mim demasligim lozim ekaniga aqlim yetardi.

— Ha-al! — dedim. — Axir, buning uchun qatl etadilar-ku!

— Ha, agar Alan ularning qo'liga tushsa bormi, pacha-kilashib o'tirishmaydi — sharta dorga osadilar! To'g'ri, cho'ntagimda Farangiston qiroli imzo chekkan sipoji unvonining hujati bor: hartugul, arzimas bo'lsa-da, lekin himoya vositasi hisoblanadi.

— Unchaltik ishommayman, — dedim.

— Mening ko'nglimda ham ishtiboh yo'q emas, — dedi Alan quruqqina ohangda.

— Yo'xudo! — deb yubordim beishtiyor. — Siz axir ashaddiy g'ahyonchi, qochoq, farangi qirolining malayı ekansiz-ku, yana nimadan umidvor bo'lib, Shotlandiyaga boryapsiz? Tuedir bilan hazillashmag'da!

— Vo-o! — dedi Alan. — Men qitq oltinchi yildan beri har yilli u yoqqu qaytib boraman.

— Sizni nima mujbur qildi?

— Bilmanni, judayam sog'ini kechman, — dedi u. — De'sharomi, yurtumi sog'innan. Ta'rif yo'q, Farnington dilbar manifikat, lekin awohogullar muskaniga, bug'ular go'shangi horim kelaverdi. Yo'l-yo'lakay bekordan bekor sang'ib yurmayman, ish topiladi. Yosh-yalanglarni furgang qiroli xizmatiga yollayman. Majburiy xizmat, bildigimi? Shunday yo'sinda oz-moz pal tapa-man. Lekin bu yoqqu kelishimning asosiy sababi shuki, yo'lboshchim Ardshilning topshirig'ini bajaraman.

— Memimcha, sizning yo'lboshchingizning ismi Epin bo'lu kerak, — dedim.

— To'g'ri, lekin Ardshil — qabila yo'lboshchisi, — deb izoh berdi Alan, ummo gapiga ishonqiramadim. — O'zing tuningga o'ylab ko'rgin, Devid: nash-nasabi toza — qirol avlodidan, umr bo'yisi egar ustida yurgan zot hozir quashshoq ahvolda yashuyapti. Furangilar shahrida musofirlikda umrguzaronlik qilyapti. O'sha odam, ya'ni birinchi di vatidän so'ng to'rt yuzta jasur qilichbozni atrofida to'play olgan odam (o'z ko'zim bilan ko'rgamman!) endi bozordan moy xarid qilyapti va karam yaprog'iga o'rabi uyiga ko'tarib ketyapti. Bu hol faqat kishiga alam qilmaydi, ayni chog'da butun qabilani isnodga qoldiradi. Epinga kindik qoni to'kilgan bolalari — so'nmas umidari bor: ular musofirlikda ilm olishlari, qilichbozlik san'atini egallashlari lozim. Shunaqa. Epinlik ijara-dorlar qirol Georgga foydaning ma'lum qismini berishga majbur bo'lyaptilar, lekin ularning yuragi butun, o'z yo'lboshchilariga sodiq: shu tarqa — kuchli muhabbat tufayli va sal-pal tazyiq qilingan (ba'zan do'q-po'pisa qilishga ham to'g'ri keladi), bechora kambag'allar tirmoqlab

* 1745-yil 21-sentabr kuni Prestonpans ostonalariha shotlandlar ingliz qo'shimi tor-nor keltirgan edi.

yiqqan-terganlating bir bo'lagini Ardshilga beradilar. Men esam, Devid, o'sha ulushni egasiga eltib beradigan vositachiman, xolos.

U belidagi kamariga shapatillab qo'ydi: tilla tangalar

jiring-jiring tovush chiqrdi.

— Xalq ikki hokimga soliq to'layaptimi? — deb so'radin hayratlanib.

— Shunday, Devid. Ikkalasiga ham to'layapti.

— Nahotki? Hech jahonda ikkiyoqlama soliq ham bo'ladimi?

— Bo'lar ekan, Devid, — deb javob berdi Alan. — Anavi darg'avachchaga yolg'on gapirgan edim, lekin senga rostini aytaman. Kerakli ulushimni osongina undirib olayotganimidan o'zim ham hayroman. Bu borada Glenlar avlodidan bo'lmish Jeymsning (bizning qarindoshimiz, u rahmatli otamming do'sti edi), boshqacha aytganda, Ardshilning tug'ishgan ukasi Jeyms Stuartning sa'yharakatlarini alohida ta'kidlamoq zatur, albatta. Barcha tashkiliy masalalar o'shaming zimmasisda, pulni ham uning o'zi to'playdi.

Keyinchalik dorga osilgach, nomi tillarda doston bo'lib ketgan Jeyms Stuart haqida ilk bor o'shanda eshitgan edim. Biroq notanish kishi nomiga deyarli e'tibor bermagandim: kambag'al tog'iklarning tantiligiga ichimdan qoyil qolib o'tirardim.

— Oliyjanoblikni qarang-a! — deb xitob qildim. — Mayli, men vig yoki o'shangaga o'xshash toifaga mansub bo'lsam ham, komil ishonch bilan aytamanki, bu g'irt oliyjanoblik!

— To'g'ri, — dedi Alan. — Sen vigsan, ammo jentelmensan, shuning uchun hamma narsaga aqling yetadi. Agar anavi padarla'nat Kempbellar qabilasidan bo'lganingga bormi, bunday gapni eshitigan zahoting tishlaringni g'ichirlatarding, xolos. Mabodo Malla Tulk... — Alan shu so'zlarini aytdi-yu, tilni tishladi, tishlarini qayradi. Men umrimda ko'p g'azabnok qiyofalarini ko'rgaman, lekin ularning biortasi ham Alan Malla Tulkini eslagan paytidagidek zahar sachratmasdi.

Nat-pul huyqidim-u, qiziqwchanligim baribir ustun heldi.

— Malla Tulk kim o'zi? — deb so'radim.

— Kim bo'lardi? — deb qichqirdi Alan. — Yaxshi, qarunga aytumun. Kullonden ostondarida shothand qabilalarning jangchilari tor-mor keltirildi, huqiqot topildi, otar emi ahmoldagi nolzoda zotor — kolilar ixtiyoriga topshirdi. Ardshil suidlari zaharlongan bug'udek top'darga qochib chiqib ketishiga maljor bo'ldi — xotimi, bolon-chonqisi bilan bigolikda qochdi. Hiz ularni kemisiga chiqqels obunumiyechni emi sunimiz og'zimiziga keldi. Yo'lboshchilimiz o'monda yashirinib yurgan kezlarda yamonus inglizlar uni hayoddan mahrum etolmudilar, lekin azalby huquqlarini poymol etdilar. Undan hokimiyatni, yer-mulkni, o'tiz asrdan beri qurol-yaroq' ko'tarib yurdigan qobiladosh og'a-inlari qo'liдан qilichini torlib oldilar, egnihridagi kiyim-boshlarini yirtib tashladilar shunday qilib, endi qalin jun ro'mol o'rab yurish ham jinoyat hisoblanadi, shotlandlarga o'xshab yubkakiyib yurganining uchungina zindonga tashlashlari munkin. Ulur fuqit bir narsuning uddasidan chiqolmadilar: qabilalarning o'z yo'lboshchiliringa bo'lgan muhabbatini otib o'Idhrohmadir. Manavi tangalar — guvohdir. Endi shahunda yangi qiyofalar paydo bo'ladi: Kempbell, Gle-nurdun chiqqan malla Kolin...

— Malla Tulk deganda siz o'shami nazarda tutyapsizmi? — deb so'radim.

— Eh, biror kishi o'sha tulkining dumini kesib kelsa borni! — dedi Alan tishlarini g'ijirlatib. — Ha, o'sha ablah! U o'yingga qo'shildi, qiroq Georg uni Epinning bosh-qaruvchisi lavozimiga tayinladi. Dastlabki paytari o'zini xokisor ko'rsatib, Sheymus (ya'ni, yo'lboshchimizning vakolatlari vakili Jeyms Glen) bilan og'iz-burun o'pisib yurdi. Keyinchalik asta-sekin boyta aytgan hodisani payqab qoladi: epinlik kambag'allar, oddiy dehqonlar, ijurachilar, yoyandozlar dengiz ortida umrguzaronlik qila-yotgan Ardshil va uning baxtiqaro bolalariga o'z nasibala-

rinning ma'lum bo'lagini jo'nattayotganini biliq oladi. Sen
buni nima deb atading-a?

— Olivjanoblik, dedim, Alan.

— Viglardan unchatalik fiarq qilmaydigan senday odam shunday desa-yat! — deb xitob etdi Alan. — Lekin bu gap Kolin Roy qulog'iga yetib borgach, tomirlarida gunayrotgan kempbellona harom qon miyasiga tepadi. U to'kin dasturxon tevaragida ham tishlarimi qayrab o'tiradi. Nahot! Styuart bir burda nonni bemanol yeb o'tirsya-yu, hech narsa qilomasa?! Uh, sariq iblis, hali qo'limga tusharsan-u, o'shanda dodingni xudoga aytsan! — Alan hovurini bosmoqchi bo'ilib, tilmi tishladi. — Xo'sh, Devid, sening nazaringda, keyin u nima qildi? Barcha fermalar ijara ga beriladi, dedi. Aslida esa, niyati qora: «Birpasda yangi ijarrachilar topaman, ular savdo-sotiq jahasida barcha Styuartlar-u, Makollar-u Makroblarni yer tishlatadi, deydi o'zicha; Devid, ularning hammasi qabiladoshlarimizdir. Keyin Ardshil istasa-istamasu Farangiston ko'chalarida gadoyto'rvasini yelkasiga osib yurishga majbur bo'ladidi.

— Xo'sh, keyin-chi? — deb so'radim.
Alan allaqachon o'chib qolgan trubkasini bir chetga qo'ydi-da, kaftlarini tizzalariga tiradi.

— Keyimmi? — dedi u o'smoqchilab. — Umr bo'yi bosh qotirsang ham keyin nima bo'lganini tassavvur etol-maysan! So'ngra ikkiyoqlama soliq (birini majburiyat bo'yicha qiroq Georgga, ikkinchisini odamgarchilik yuzasidan Ardshilga) to'laydigan Styuartlar, Makkolinlar, Makroblar birgalikda Malavoydan misli ko'rilmagan pora so'radir. Bunday mablag' butun Scotlandiyani egallab olgan Kempbellarning tushiga ham kirmaydi! U Klayding nomini ro'kach qilib kirmagan eshigi, bosh suqmagan tesnigi qolmadi, Edinburggacha bordi: yalindi-yolbordi, ko'zyosh to'kdi: Kempbell malla ko'ppagi Styuartni xomtalash qilishini istasangiz, marhamatingizni da-riq tutmang, yordam bering!

— Alan, bu hayratomuz, ajoyib tarix ekan, — de-

dim. — Eh ihmola, men vigdirman, lekin o'shu ablarning yakson bo'lganidan nihoyatda xursandmuan.

— Yakeon bo'lgan? — deb so'zimni ilib oldi Alan. — Kimni aytyapsan? Kempbellarni yashi bilmas ekan, boz untiga, Malli Tulk'i huqqa tawvuya hum ega emasun. Toki tog' yonbag'ida uning qonligi bo'yalmas ekan, u yakun bo'lmaydi. Do'stim Devid, agar bir-ikki kun bo'nh vug'ini bo'lgonda borin, unga ovchilik qanaq qo'bo'linini ko'rnib qo'yordim! Archogullar manlakatida — Shohlandiyada u Jon anglydigan birotta kandik ham topilmay qolordi!

— Do'stim Alan, shunchalik darg'azab bo'lishdun nima tuyda bor? — dedim. — Bu gaplar jo'yali emas, mo'min bandalar bunday qilmaydilar. Quruq gaplariningizni! Tukki deb aytayotgan maxluqqa hech qanaqa ziyon-zadumat yetkazmaydi, bekorga xunob bo'lyapsiz. Voqealari bima-bir so'zlab bering, vassalom. Keyin u nima qildi?

— Devid, o'z vaqtida tunbeh berding, — dedi Alan. — Darhusiqat, nechinurlisi shundaki, unga gap bilan zarar yetkazib bo'lmaydi! Agar amo'min bandalar degan iborangi hisobiga olmagunda (chunki «amo'min bandalar» deganda butunlay bosliq narsuni tushunaman) barcha gaplaringga to'la-to'kis qo'shilaman.

— Fikr-mulohazalar o'z yo'liga, ammo butparastlar din qasoskorlikni taqiqlaydi — buni hamma biladi.

— Ha-ya, yaqqol ko'rinish turibdi, Kempbell seni tumoman yo'ldan ozdirib tashlabdi! — dedi u. — Agar archagullar to'pi ortida qo'liga qurol ushlagan birorta aza-mat poylab yotmasa borni, Kempbellga o'xshagan isqirt-lur bu dunyoda o'zleri bilgan noma'qulchiligidini qilishardi! Shunday bo'lsa-da, bu gaplarining ishga aloqasi yo'q. Xul-las, keyin u nima qildi?

— Balli! Shuni aytib bering! — dedim.

— Devid, senga malol kelmasin-u, lekin u eng jirkanch yo'llar bilan bo'lsa ham sodda odamlardan qutulmoq g'amini yedi. Faqat Ardshil och qolsa bas: asosiy mud-

daosi shu edi. Musofirni moddiy jihattan ta'minlayotgan kishilarni pul bilan yenga olmadimi, demak, yolg'on-yashiriq usullar yordamida siqib suvini ichadi. U qonunshunoslardan ko'mak so'raydi, qog'oz-pog'ozlarni to'g'rileydi-da, qizil mundirlilarga odam jo'nataadi! Shunday qilib, bechorularni kindik qoni to'kligan, bolaligi o'tgan aziz go'shalardan quvib chiqaradi, begona yurtlariga haydab yuboradi. Xo'sh, ularning o'mini kimlar egalashdi? Chuvrindi gadoyvachchalar! Endi qiroq Georg xayr-ehsosni hammonda oladi! Endi beshala panjasini og'ziga tiqmay qo'ya qolsin: shundoq ham malla Kolining tashvishlari boshidan oshib-toshib yotibdi! Ardshilga zarar yetkazdimi bas, endi uning ko'ngli to'q! Xudidi yosh bolaning qo'lidan qo'g'irchog'ini tortib olgandek, yo'lboshchimning nasibasini qiyidi: u to o'z uyiga — Glenurga yetguncha xursandligidan o'yinga tushib ketadi.

— Izojat bersangiz-u, bir og'iz gapirsam! — dedim. — Ishonchingiz komil bo'lsinki, agar soliq kamaytirilgani rost bo'lsa, demak, bu hukumatimiz marhamatidan nishonadir. Kempbell aybdor emas, unga shunaqa buyruq berilgan. Aytaylik, ertaga Kolinni gumdon qildingiz, lekin bundan biror foyda chiqarmikan? Siz hali boshingizni qashlasnga ulgurmay turib, o'mida yangi ishboshi paydo bo'ladi.

— To'g'ri, — dedi Alan. — Jang chog'ida sendan azamatroq yigit bo'lmaydi, lekin boshqa paytlari tungan-bitganing vig!

Daf'atan, u beg'araz gapirayotgandek tuyulardi, lekin bepisand gap ohangidan qahr-g'azab sezilib turardi. Shuning uchun suhbat mavzusini o'zgartirishni lozim topdim. Men hayratlanayotganimni yashirib o'turdim.

— Shimoliy Shotlandiya xuddi qamal qilingan shahar misoli askarlar-u soqchilarga to'lib yotgan bo'lsa da, har yili bu yoqqa bermalol kelib-ketayotganimiz, qo'iga tushirib olishmayorgani nihoyatda ajablanarli, — dedim.

— Hu hol men o'ylaganchalik murakkab emis, — deb jawob berdi Alan. — Bilasamni, o'z yo'llingi yaxshi bil-sung kitoya: tog' yonbag'irlari yaydoq — agar bir joyga soqchi qo'yishsa, boshqa joydan chap berib o'tib ketveraun. Qolaversa, archazar — eng zo'r mududkor. Hartomonda do'st-yorlarning uylari, molsxonlari, pichan g'urumlari bor. Boz ustiga, shumuvoyq uskarlari soqchilarga to'lib yotibdi, degan gap axtuna, ao'z o'yini, kolos. Bitta nukravachha fuqat o'st stipning izini to'ldirib turadi. Shunday paytdar bo'lganki, hotto narig'i qur'eqda qorovollar izig ib yuriqigan chog'larda hum baliq ovla-jonnum: shumuvoyq katta galnohi ilmuringaomunki, asti qu'yaveran. Soqchidän besh-olti quadam naridagi arachazor to'pi ontida o'huardim, e-e, o'shanda undan niyoyatda ta'sirchan hushnak chalishni o'rganib olganim-chi! Mana bunday! — Alan qandaydir qo'shiq kuyuni hushbekda chalda boshladi. — Bundan tashqari, hozir qireq oltin-ehi yildugichalik qyinchiliklar yo'q, — deb davom etdi Alan. — Ayish mumkinki, tog'larda tinchlik hukm surmoha. Buni hech ajablandigan joyi yo'q, chunki Kip-taydan to Rat burunigacha na birorta piltumitliq, na bitora qilich topiladi. Albitta, kimdir tomsga bosilgan poxol ostiga qurol-purolini yashirib qo'ygan bo'ishi mumkin. Devid, men faqut bir narsani bilishni istardim: bunday holat quchongacha davom etarkan? Bir qarashda, bu uzoq davom etmaydi: toki Ardshil kabi insoljar muhojirlikda azob chekar ekan, toki Malla Tulki singari yaramas maxluqlar mayparastlikka mukkasidan ketib, kambag'allarni qonqora qaqshtatar ekan, oxiri xalqning sabr kosasi to'ladi. Biroq, xalqning sabr kosasi qachon to'lajagini hech kim aniq aytib berolmaydi. Yo'qsa, malla Kolinni jafokash Epinim bo'ylab otda sayt-u sayohat qilib yurganini qanday izohlash mumkin? Nahotki, shartta peshonasidan otib tashlaydigan bitta dovyurak chiqmasa?

Alan so'zlashdan to'xtadi-yu, teran o'yga toldi va ion-mim demasdan, qayg'uli qiyofada uzoq o'tirdi. Do'stim haqida aytilgan batcha gap-so'zlarga qo'-

shimcha qilib quyidagilarni ilova qilmochiman: u xilma-xil musiqä asboblarini, aymiqsa, sibizg'ani qoyillatib chalardi: o'z ona tilida ajoyib she'lar yozgan mashhur shoir edi; farangi va ingliz tillarida yaratilgan ko'plab kitoblarni mutolaa qilgandi; nishonga bexato uradigan mergan, ustasi farang baliq ovchi edi; sevimi qilichni jonidan ham aziz biladigan ajoyib qilichbozu rapirachi edi. Ayni chog'da kamchiliklari ham kaftdagidek yaqqol ko'rini turardi, ularni birma-bir sanab berishim mumkin. To'g'ri, darg'a boshqarmasidagi olishuvdan so'ng u (menga nisbatan) bolalaracha arazgo'yligini-yu janjal-kashligini deyarli yig'ishtirib qo'ydi. Faqat nima uchun bunday o'zgarish ro'y berganini aniq aytolmayman: balki men tubanlashmagandiman, ehtimol, dovyurakligiga guvoh bo'lqandirman? Negaki, Alan Brek boshqalarning jasoratini qanchalik yuk sak qadrmasin, eng awvalo, o'zining — Alan Brekning jasoratiga tan berardi.

O' n u ch i n ch i b o b

KEMA HALOKATI

Quyruqdagi boshqarma eshigini kimdir taqillatgan va birozzdan keyin ichkariga Xozison mo'talagan chog'da vaqt allamahal bo'igan edi (agar yilning hozingi mavsumini e'tiborga olsak, hali qorong'i tushmagandi).

— Ey, bu yoqqa chiqinglar! — dedi u. — Bir qarab ko'ringlar-chi, sizlar kemanı huv anavi joydan olib o'tasizlarimi-yo'qmi?

— Yana ko'zboyloqchilik qilmoqchimisiz? — deb so'radi Alan.

— Ko'zboyloqchilikka yo'l bo'lsin! — deb qichqirdi darg'a. — Shundoq ham bosh-ketimni yo'qotib qo'ydim-ku, kema halokat yoqasida turibdi!

Uning tashvishmand qiyofasiyu kema haqida jon kuydirib gapirayotganidan amin bo'ldikki, darg'a bu gal mut-

laqo sumimiy edi: Alan ikkovimiz pand yeb qolishdan cho'chimny palubuga chiqdik.

Suyukni qaqshatudigan izg'irin esardi, buhutliz osmon shafqadan turahuyotgan zarrin shu'lugu burkanigan edi va oyni chog'da ko'kda to'lin oy balqib turardi. Izg'irin kemuning yon tomonidan uilardi: chunki Mal oroli etoklari ni jumbi g'arb tomondan iyulmish o'tish mo'ljathammoqda edi; orol-tog' va ulug'vor cho'qqlari bulut bug'riga san-chilib turgan Ben-Mor kema tumshug'ining chap turafiga yastubib yotordi. Shu mol u Vaynayot yo'malishiga nisbutan xiylo noqslay tomonidan enayotigan bo'lsa-da, kema il'urbiy to'qinilar zabit istida zit titrab, ba'zan tumshug'i suvga hotib-hotib katta tezlikda olg'u yuzlib borardi.

Asini olganda, bu oqshom dengiz saffari uchun xavfli emaudi. Shuning uchun ulkan po'rtana kemani birdan ko'ntub yoborgan paytda darg'a qo'li bilan qayqqadir ishora qilgancha vahimali tarzda qichqirganini eshidim-u, biroz hayron bo'ldim.

— Quranglar-al! — deb xitob qildi u.

Shu mol yulab-yulqab o'tuyotgan bort oldida — oydinda dengizdun favvoraga o'xshusht bir narsa havoga ko'urilishi-yu, birdan uzoqdun bo'g'iq shov'shuw eshi-tildi.

— Sizingchu bu nima? — deb so'radi darg'a hasratli ohungda.

— To'iqinlar suv ostidagi qoyaga borib urilyapti, — dedi Alan. — Endi xatari joy qayerda ekamini bilib oldingiz. Yana nimadan norozi bo'lyapsiz?

— Bilib oldim, abatta, — dedi Xozison. — Afuski, suvosti qoyasi yolg'iz bo'lmaydi-da...

Darhaqiqat, u so'zlarimi yakunlashga ulgurmasdan dengizning xiyol janubiy tomonidan yana bitta favora ko'tarildi.

— Ko'rdingizmi? — dedi Xozison. — Ana xolos! Agar qoyalar mayjud ekamini bilgaminda, qo'llimda deniz xaritasi bo'lganida bormi, hech bo'lmasa Shuan tirik qolganda edi, olmish tanga uchun, hatto olti yuz

tanga evaziga ham kema bilan bunday toshloqda tavakkalchilik qilmasdim! Ser, yanglishmasam, yo'l ko'rsatib borish kafolatini zimmangizga olgan edingiz, endi nima deysiz?

— Menimcha, bular Torren qoyalari deb ataladi, — dedi Alan.

— Hali ko'pmi?

— Ser, sal insof qiling, axir, men lotsman emasman, — dedi Alan. — Nazarimda, yigirma chaqirimgacha hala-do'ngalak bo'lsa kerak.

Mister Riak bilan darg'a bir-birlariga qarab olishdi.

— Lekin qayerdadir bexavotir yo'lak bordir axir? — deb so'radi darg'a.

— Shubhasiz, — dedi Alan. — Biroq qayerda o'sha yo'lak? Aniq aytolmayman-u, qirg'oqqa yaqin joylar bezavotir bo'lsa kerak.

— Shunaqami? — dedi Xozison. — Unday bo'lsa, mister Riak, shamolga teskariroq yo'nalishdan borishimiz lozim. Ser, Malni aylanib o'tayotgan paytimiz iloji boricha qirg'oqqa yaqinroq yurilsin. To'g'ri, qirg'oq bizni baribir shamoldan to'sib turadi, shamolga betkay tomon esa toshloqdan iborat. Qolaversa, endi orqaga chekinib bo'lmaydi, asta-sekin olg'a siljiyveramiz.

U boshqaruvchiga buyruq berdi va Riakni kema burnidagi machtaning kuzatish supachasiga jo'natdi. Darg'a bilan yordamchisini qo'shib hisoblaganda palubada ishga yaroqli (ishga jaib etilgan) faqat beshtagina ekipaj a'zosi bor edi. Shuning uchun, yuqorida ta'kidlaganimindek, machta ustiga chiqib o'tirish vazifasi mister Riak zimmersiga tushdi va endi u kuzatuvchilik qilardi: dam-badam oldinda nimalarni ko'rayotgani haqida ovozining boricha baqrib axborot berardi.

— Janub tomonda qoyalar tiqilib yotibdi, — deb ogoh-lantirdi va birozdan keyin: — Haqqatan ham, qirg'oqqa yaqin joylar bexavotirga o'xshaydi, — dedi.

— Xo'sh, ser, ko'rsatmangiz bo'yicha harakat qilişga urinib ko'ramiz, — deb Kozison Alanga murojaat etdi. —

Tasavvur qilishimcha, ko'r musiqachiga ham xuddi shu tarzda ishonch bildirish mumkin. Xudojoyo xudovando, haq bo'lib chiqing-da!

— Yo rabbim! — deb qulog'imga shivirladi Alan. — Shoshma, shu gapni qayerda eshitigan edim-a? I-e, mayli, baribir taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi.

Qirg'oqqa yaqinlashib borganumiz suri demqiz tubidan bo'rib chiqqan qoyalar ham ko'payib ketdi; ular yo'limiz ustida tez-tez paydo bo'lib qolardi-yu, mister Riak, qirg'oqqa yaqinlashib kerak, deb qichqinardi. Gohida o'z vaqtida xavfdan xabardor bo'lib qolardik: masalan, bita qoya ustiga xarita yoyiladigan taxtachuga tegay-tegay deb o'tib ketdi: unga po'tana kelib urilgan chog'da mayda tomchiar palubaga yomg'ir misoli yog'ildi va biz boshdan oyog shallabbo bo'ldik.

Oydin kecha edi, barcha xavf-xatar kaftdagiday yaq qol ko'riniib turardi: shuning uchun ko'z o'ngimizda ro'y berayotgan hodisalar yanada vahimaliroq tuyulardi. Men darg'aming qiyofasini aniq-ravshan ko'rib turardim: u boshqaruvchi yonida dam chap oyog'iga-dam o'ng oyog'iga og'irilgini tashlagan ko'y'i goh-goh barmoqlariga kuh-kuhlar edi, lekin diqqat-e'tibori bir nuqtaga jamlangandi, dengizzdan ko'zlarini uzmasdi, qoyadek sobit edi. Olishuv paytida na u, na mister Riak jasorat ko'rsatgandi, ammo men ishonch hosil qildimki, jasorat bobida teng keledigan inson yo'q ekan: bu hol ularning qadr-qimmatini xiyla ko'tarib yuborardi, albatta. Boz ustiga, Alan bo'zday oqarib ketgan edi.

— Oh-oh-oh, Devid, shu abvolda o'lib ketishni aslo istamayman! — deb g'udranib qo'ydi u.

— Alan, sizga nima bo'ldi?! — deb xitob qildim. — Ishtoningizni ho'llab qo'ydingizmi-a?

— Yo'g'e, — dedi u qurib qolgan lablarini yalab. — Ko'rib turibsan-ku, itday o'lib ketamiz shekilli...

Bu paytda suvosti qoyalariga urilmashlik uchun yo'nalihimizni tez-tez o'zgartirib, hamon shamolga yondosh holatda va qirg'oqdan unchalik uzoqlashmasdan Ayon

orolini aylanib o'tdik-da, Mal sohili bo'ylab olg'a yuzaverdi. Burun etaklariga borib urilayotgan to'lqinlar niyatda kuchli edi: kemani xuddi payraha misoli u yoqdandan bu yoqqa itqitib tashlardi. Rulni ikkita dengizchi boshqarib borardi, ba'zan Xozison ham o'z ixtiyori bilan ularga yordamlashib turardi, lekin uchta g'o'lابiday erkak butun og'irligini dastak ustiga tashlasa-da, u go'yo tirik jonzot kabi qarshilik ko'rsatardi, rulchilarni orqaga uloqrib yuborardi: g'alati manzara! Bu hol shundoq ham qalitsib o'lib turgan vaziyatni yanada chigallashishardi, albatta Ammo baxtimizga, mana, bir necha chaqirimdan so'ng suvosti qoyalari ta'qibidan xalos bo'ldik. Kuzatuv machtasida o'tirgan mister Riak birdan, yo'naliшимиз top-toza, deb xabar berdi.

— Siz haq bo'lib chiqdingiz, — dedi Xozison Alanaga. — Ser, hisob-kitob qiladigan payt kelgan paytda men buni unutmayan: siz kemani asrab qoldingiz.

Imonim komilki, bu so'zlarini chin dildan aytayotgan edi va albatta so'zining ustidan chiqardi: «Vasiyat» darg'a uchun benihoya aziz edi. Biroq bular mening shunchaki taxminim, xolos. Chunki hammasi u aygandan boshqa tomonga o'zgarib ketdi.

— Qarshimizza ulkan qoya turibdi! — deb qichqirdi birdan mister Riak. — Shamol essayotgan tarafda suvosti qoyasi bor!

Shu tobd qirg'oqqa zarb bilan urilgan po'rtana kema ustiga shalop etib tushdi-yu, yelkanlar puchayib qoldi. «Vasiyat» bizzakday shamolga yuzma-yuz turdi-yu, tuyqus suvosti qoyasiga zarb bilan urildi va hammamiz palubaga ustma-ust yiqildik, mister Riakning esa machtadan uchib ketishiغا bir bahya qoldi.

Birpasda o'mindan sapchib turdim. Kemamiz to'qnashib ketgan suvosti qoyasi Mallning janubi-g'arb etaklarida bo'lib, borming chap tomonidan qorayib ko'rinish turgan mo'jazgina Irreyd orolchasidan unchalik uzoq emasdi. To'lqinlar goh kemaga urardi, gohida esa bechorani qoyaga olib borib urardi, biz qanday qilib uning

ahjog'i chiqquyotganimi eshitib turardik: buning ustiga, yelkonhar timmsiz shaloplardi, shamol chiyilordi, oydindisa po'rtama ko'pkilanib har yonga sachhardi, xavf-satani hisetib turardik — ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerok, boshim gir-gir aylanardi, hartugul, es-hushim joyida omadi, ko'z o'ngimda ro'y berayotgan hodisalarini tuzukroq idrok etolmasdim.

Ko'p o'tmay, mister Riak bilan Dengizchilar qayiqlar tevaragida o'ralashib yurishganini ilg'ab qoldim-u, aql-hushim o'zimda bo'lmusa-da, ulangi yordam berishga shoshildim; ishga qo'l urgan chog'inda birdan miyam tiniqlashdi. Bizning vazifaniz xiyli musokul edi, chunki qayiqlar palubuning o'rta qism sahniga mahkamlangandi va har xil lush-lushlar bilan bog'lab tashlangandi; palubani esa ofutli po'rtanalar timmsiz chayqaltirardi-yu, ishimizni tashlab tez-tez arqonlarga yopishib olardik, ledin imkon tug'ilgan zahoti o'lib-tirilib g'imirlay boshlardik.

Ayni zamonda kema tunshug'idagi tuyruk qop-qog'idan palubaga chiqib olgan yaradolar ham qo'l-laridan kelgancha ko'maklashmoqqa kirishdilar: karavotlarda bemajol yotgan yaradolar bo'lsa: «Bizni qutqaringlar!» deyishib yalinib-yolvorardilar-u, bundan ko'nglim buzillardi.

Darg'a bir chetda serrayib turardi. Nazzarimda, aqdan ozib qolganga o'xshardi. U machtalar bog'langan yo'g'on arqomni ushlab olgan edi, o'zi bilan gaplashardi, to'lqinlar kemani qoyaga eltil urg'an paytlarda har gal ingrab yuborardi. «Vasiyat» uning uchun umr yo'ldoshi ham farzand edi: Xozison baxtiqaro Ransomga har kuni azob berishayotganimi ko'rib tursa-da, pinak buzmasi, lekin kema boshiga kulfat tushgan paytda, ko'rinish turardiki, darg'a suyumi farzandining azob-uqubatlariga teng sherk bo'layotgan edi.

Esimda, biz qayiqlar bilan ovora bo'lib turgan paytimiz qirg'oqqa nigoh tashladim-u, Alandan bu o'lsa haqidagi so'radim. U, men uchun bundan ham battarroq joy

bo'lishi dargumon, chunki bu yerlar Kempbellarga qarshli, deb javob berdi.

Yaradorlardan biriga to'lqinlarga ko'z-quloq bo'lib turish va agar biron kor-hol ro'y berib qolsa, zudlik bilan xabar berish vazifasi topshirildi. Nihoyat, biz qayiqni suvga tushirishiga hozirlik ko'rayotgan chog'imizda birdan uning vahimali chinqirig'i eshitilib qoldi: «Xudo haqqi, eshitib bo'linglari!» Bildikki, mana hozir qandaydir dahshatti hodisa ro'y beradi va oxiri o'ylaganim bo'ldi: bahaybat po'rtana bostirib keldi-da, kemani pat misoli ko'tarib turib otib yubordi. Hayronman, ogohlantirish sadosini kechroq eshitib qolgan ekanmanni yoki arqomni mahkamroq ush-lamaganim uchunmi, ishqilib, kema tuyqus qiyshaygan mahalda bort to'sig'idan uchib keldim-u, dengizga quladim. Xuddi toshga o'xshab suv ostiga cho'ka boshladim: boz ustiga, ancha-muncha suv ham yutib yubordim, keyin suv sathiga chiqdim va oyga ko'zim tushdi-yu, yana boshim bilan suvga botib ketdim. Aytishlaricha, uchinchchi marta ham suvga cho'kib ketsang bormi, keyin umuman yorug' dunyoni ko'rmaysan. Agar o'sha gap rost bo'lsa, demak, men boshqalarga o'xshamas ekanman: chunki kamina necha marta cho'kib, necha marta suv sathiga yuzib chiqqanimm ham bilmayman — sanoqda yanglishib ketdim. Bu vaqt mobaynida niroyatda sillam quridi, urilib-surildim, nafasim bo'g'ildi va oxiri dengiz tubiga g'arq bo'la boshladim; shu qadar esankirab qolibmanki, hatto qo'rquv nima ekanini ham unutib yuboribman!

Bir zamон qarasam, qandaydir yog'och bo'lagiga yopishayapman-u, suv sathida turishim xiyla yengillashib qoldi. Keyin to'satdan osoyishta suvda paydo bo'ldim. Ma'lum bo'lishicha, zapas langarga yopishib turgan ekanman: mundoq qarasam, kemadan niroyatda yiroqlashib ketibman. Ajablardim. Albatta, darhol baqira boshladim, ammo tovushimni birov eshitishi amrimahol edi. «Vasiyat» hamon suv yuzasida turardi: qayiqni suvga tushirgan-tushirmaganlarini bilolmadim: masofa uzoq edi, men pastda edim — kema ustidagi vajlarni ilg'ab bo'lmasdi.

Kemudagilani yordamga chaqriayotgan paytinda o'zim bilan kemu orasida ulkan po'rtanular yetib kelmaydig'an yo'lkak borligini ilg'ab oldim: oyindida bu yerdagi ko'pk ko'pirib, atrofga pufakechalar suchroyotgan oppoq ko'pk ko'pirib, atrofga pufakechalar suchroyotgan ni hom yaqqol ko'rinish turardi. Goh solein yo'ink xuddi ilomning dumji singari bir tomonga burali, gophida hech qanday iz qoldirmay to'g'ilhamardi-yu, birdan ko'pirib ketordi. Hu ne sehr ekandiliga sin aqdim boyar qilmasdi va butun vujudimi baixtyor qo'rejuev chalg'ab olordi. Hozir aniq bilanunki, u qing'oq bo'yida kuchi oqim, atuyilgan to'lqino edi u meni oqizib ketordi, ayovsiz ravishda har tomonja olib yubordi va, niroyat, o'z armagidun zerikdi shekildi, kominni huun zupas langur bilan birgalikda qing'oqqa itqinib tushladi.

Bu yerda g'ir etgan shabada yo'q bo'lsa-da, sovuqda qotib qolish hech gap emasdi. Irreyd sohili qo'l uzat-su yetadigan joyda edi, oy yorug'ida archagullar qorayib ko'rinaridi, qoyalarda esa yonuvuchi tog' jinslari charaqlab nur taratardi.

«Nima bo'pti? — dedim o'zimcha. — Ozgina qoldiku, nahoitki, yuzib borolmasam?»

Yuzishni yaxshi bilmasdim: Essen-Uoter daryosi biz tomonlarga kelgan payda chumchuqning to'pig'ini ham ko'molmasdi. Lekin langarni ikki qo'llab ushlaganimcha oyoqlarim bilan suvni tepkilay boshlagan chog'imda olg'a silijotganimm sezib qoldim. Bu niroyatda mushkul mashg'ulot bo'lib, imillab oldinga qarab ketardim: shunga qaramay, bir soatcha shalop-shulup qilganidan so'ng ikki burun oralig'ida qumloq ko'rfa zaga kirib dirdim va tepaliklar qurshovidagi qumloq ko'rfa zaga kirib bordim. Ko'rfa zaga kirib, to'iqin shovullamasdi; oppoq oydin kecha, umrimda bunchalik huvillagan, kimsasiz ovloq joyni uchratmag'an edim. Shunga qaramay, bu quruqlik edi. Niroyat, sohilga yaqin masofa qolgach, langarni chog'imdan bo'shatib yubordim va qulochkashlab suzib ketdim: qing'oqqa yetgan chog'imda vujudim ko'proq charchoq olgan edimi yoki mammuniyatmi — buni aniq

aytolmayman. Harholda, ikkalasi ham shu tobdə «mehmonim» edi: shu kechaga qadar dunyoda bunaqa charchoq ham bor ekanini bilməsdim, ayni chog'da yaratğan egamdan benihoya mammun edim va undan mammun bo'lishinga yetarılı asosim ham bor edi.

O' n t o' r t i n c h i b o b

MO'JAZ OROL

Shunday qilib, qirg'oqqa qadam qo'ydim va o'z sarguzashtlarimning eng ayançlı sahifasını ochdim. Yam kecha edi. Tog'lar sohilini shamoldan to'sib turgan bo'lsa-da, ammosov uq qishimi qaqsatib yuborardi. Yerga o'tirishga yuragim bellamadi, muzlab qolishdan cho'chidim: buning o'miga oyoq kiyimimni yechdim-da, o'lar holatda horib-tolganimga qaramasdan, qumloqda sarpoychan u yoqdan bu yoqqa yura boshladim: sal-pal badanım qizirmikan degan umidda ko'kraklarimga shapshap urib qo'yardim. Yaqin atrofıdan na odam bolasining tovushi, na uy hayvonlarining bo'kirkani eshitilardi: ayanan tong otayotgan bo'lsa ham birorta xo'roz qichqirma-di: uzoq-uzoqlarda to'lqinlar hamon qoyalarga zarb bilan urilar edi-yu, yana boshimdandan kechirgan xavf-xatarlar esingga tushardi; dengiz sohilida bemahal kezayotganım, bu joylar inson oyog'i yetmagan ovloq ekanini o'ylasam yuragim orqasiga tortib ketardi.

Tog'lar orti bo'zaryotgan pallada boshmog'imni kiydim-u, balandlikka o'rìay boshladim: umrimda bu qadar mashaqqatlari g'ovni sira ham yengib o'tmagan edim: ba'zan ortimga cheknardim-da, ulkan granit palaxsalar orasidan o'tib ketardim yoki biridan narigisiga sakradim. Cho'qqiga omon-eson yetib borgan paytimda rasmana tong otdi. Kemaning izi ham ko'rinnasdi, hoynahoy, u qoya ustidan sing'alib tushib, g'arq bo'lib ketgan bo'lsa kerak. Tevarak-atrofıda qayiq ham yo'q edi. De-

ngizda ko'zim yetgan sarhadlarda na yelkan, na quruqlık va na birorta tirk jon-u boshpana bor.

Hamrohlarim boshiga tushgan kofut haqida o'ylashning o'zi dahshati edi, bo'm-bo'ish bo'shiqliqa termilib turish yanada dahshatlı tuyulardı. Qolaversa, o'zimning g'am-tashvishim o'zimiga yetib ortardi: kiyimlarim jiqla ho'l, o'lardek charchuganman, qorin ochgandi, ichaklarim surmey chalardı. Janubiy sohil bo'yub sharqtomon yo'l oldim: birorta boshpanugu duch kelishdan, uyga kirib isinib olmoqdan umidvor edi. Ehlimol, baxt-chiqadi, kiyimlarimni quritib olaman-ku, deb o'ylardim.

Birozzdan so'ng kichik qo'itiqchaga duch keldim, utorgina ko'rffazga ham o'xshardi: quruqlikdan niroyatda chuqr ko'rinardi, undan o'tish uchun tagimda qayig'im bo'Imagani tufayli ortga qaytib, havzani aylanib o'tishdan o'zga choram qolmadi. Hamon olg'a siljish mashaqqatli edi: aslini olganda, nafaqat Irreyd, balki unga tutashib ketgan Mall oroli bo'lagi — Ross deb ataluvchi orol ham butunlay ulkan granit qoyalaridan iborat edi: qoyalar oralig'ida esa archagullar g'uj-g'uj bo'lib o'sib yotardi. O'ylaganimdek, dastlab qo'itiqcha torayib bordi, lekin birmuncha vaqtidan keyin, ajabki, yana kengaya boshladidi. Tashvishlanib, ensanni qashlab qo'ydim. Nega bunday bo'layotganiga aslo aqim yetmasdi. Nihoyat, yo'limtag'in balandlikka ko'tarila boshladı-yu, birdan ko'zim yarq etib ochildi: kamina tentirab yurgan yer mo'jazzina tashlandiq orol bo'lib, har tomonidan dengizning sho'suvi qurshab olgan edi.

Ko'pdan buyon quyosh chiqishini kutayotgan bo'lsamda, lekin hademay qalin tuman tushdi va shivalab yomg'ir yog'a boshladi: xullas, ahvolimga maymunlar yig'lardı. Yomg'ir ostida qalt-qalt titrab turaverdim, nima qilişimni bilməsdim. Oxiri qo'itiqni kechib o'tsam-chi, degan fikrga keldim. Yana sudralib izimga qaytdim va qo'ltiqning tor joyidan suvgaga tushdim. Biroq qirg'oqdan

uch qadamcha uzoqlashgan paytymda birdan o'mbaq oshib ketdim: agar bir yo'la narigi dunyoga ravona bo'lmaq esan, bu mening oqiligidan nishona emas, balki Xudovandning inoyatidir. Yana battarraq shalab-bo bo'ldim desum, kulgili bo'lardi. Chunki ust-boshim shundoq ham jiqli ho'l edi: suvga yiqilib tushganimdan keyin sovuq suyak-suyagimdan o'tib ketdi, umidim puchga chiqdi, kayfiyatim tushdi. Shundan keyin birdan yog'ochni eslab qoldim: unga osiib baloyi qazodan quylgan edim. Shundoq bo'lqach, torgina qo'ltiqchadan ham bemalol yuzib o'tsam kerak, axir. Shu maqsadda orolchaning qoq o'rtasidan tepalik sari dadil yo'l oldim: o'sha yog'ochni topib, bu yoqqa keltirmoqchi bo'ldim. Yo'l olis, mashaqqatl edi: agar umidim menga madadkor bo'lmaqanda bormi, holdan toyib yiqilib qolardim va bemu ni sa'y-harakatlardan darhol voz kechardim. Dengizning sho'r suvini ichganim uchunnum yoki istumam ko'tarilayotganidanmi chanqoq yurak-bag'rimni o'rib yubordi-yu, yo'l-yo'lakay botqoqlik yoqasida to'xtadimda, loyqa suvdan ichib oldim.

Nihoyat, oyoqlarimni arang sudrab o'zim tark etgan ko'rfa zaga yetib bordim va bir qarashdayoq sezdimki, langar ancha nariga oqib ketibdi. Uchinchini marta suvga tushdim... Suv osti sip-siliq qumloq tekislik edi, ichkariga qarab qiyalab borardi: bo'yninga qadar suvga botqunimcha, mayin to'lqinlar yuzimga urilguncha olg'a yurdim. Oyog'im suv tubiga yetmay qolguncha yurib bordim-u, to'xtadim, yana ichkariroq borishga yuragim dov bermandi. Langar-yog'och esa mendan yigirma qadamcha narida, suv yuzasida tebranib turardi. Oyoqlarim yerdan uzilguncha sabot-matonat vujudimni tark etmagan edi, lekin oxirgi zarbaga dosh berolmadim — izimga qaytdim-da, qumloq sohilga o'zimni tashlab, ho'ngrab yubordim.

Orolda o'kazgan vaqtimni esasam, hozir ham yurakbag'rim ezilib ketadi: shuning uchun voqealar tafsilotiga bat afsil to'xtolib o'tirmayman. Oldi-qochdi kitoblar ni o'qisangiz, kema halokatiga uchrangan odamlarning

cho'ntaklari zaruriy asbob-anjomlargu liq to'la bo'ladi yoki dengiz to'lqinlari hayot uchun birinchi navbatda kerak bo'ladiqan vajlar solingan sandiqni «buyurtma bo'yicha» qirg'oqqa chiqarib tushlaydi. Lekin kamina g'oyibdan keladigan xayr-ehsondan buhranund bo'lmadim — peshonamga yozilgani boshqa ekan-di. Cho'ntagimda ozgina pul bilan Alan hadya etg'on kumush tugma bor edi, xolos. Qolaversa, dengizchil muhotatidan ham benasib edim, chunki bolaligim dengiz sohilida kechmagandi.

To'g'ri, bir paytlar dengiz mollyuskalarini tunovul qilsa bo'ladi, deb eshitgandim: oroldagi suvosti qoyalarida mo'l-ko'l «ozuqalar»ni qo'lga kiridim, lekin tajribasizligim tufayli yegulik qismimi ajratib ololmay rosa ovora bo'ldim. Bilmasdimki, bu borada uddaburonlik talab qilinardi. Orolda kichkina shilliqturrlar yashar ekan: Shotlandiyada ularni «tasqara» deb atashardi; inglizlar esa, menimcha, «minorcha» deyishadi. Yemishim ana shunaqa «oziq-ovqatlar»u «tasqaralar»dan iborat edi, ularni tiriklayin, muzday holatda yutib yuborardim: nihoyatda ochligim tufayli bunday «taomlar» dastlabki paytlari mazali tuyulardi.

Ehtimol, hozir ularni ovlaydigan mavsum emasdi, balki kamina qo'noq bo'lgan orolning suvida biror-bir cha-toqlik bor edi, chamamda. Ishqilib, nima bo'lganda ham, «tasqar»ning dastlabki qismimi pok-pokiza tushirib ulgurmasisidan ko'nglim ayniy boshladi: ichak-chavog'im og'zimdan otlib chiqib ketay derdi. Shundan so'ng ancha paytgacha qimirlamay yotib qoldim: na o'lik ekanim, na tirkilim ma'lum edi. O'sha ozuqani ikkinchi mar-ta (bosqqa yegulik yo'q edi-da) sinovdan o'tkazish xiyla muvaafaqiyatli kechdi va darmonga kirib qoldim. Ummuman, orolda yashagan paytymda ovqatlanganimdan keyin nima bo'lishimi baribir bitolmasdim: bir gal hech narsa bo'lmasdi, bosqqa safar esa hammasi chappasiga ketardi, lekin qaysi mollyuska mijozinga yoqayotganini aniqlab olishga sira ham o'rganolmadim.

Kun bo'yи xuddi paqirlab quyayotganday sharillab yong'ir yog'dи, orol uvada misoli suvga bo'kib qoldi: qu

rug joyni izlab topish amri mahol edi; kechasi bir-biriga tegib turgan ikkita tosh ostidi uxlardim, oyoqlarim esa bot-

qoqqa botib, ivib ketgan edi.

Ertasi kuni orolni uzunasiغا ham, ko'ndalangiga ham kezib chiqdim. Lekin biror joyda, jilla qursa, tashlandiq boshpanaga duch kelmadim: chor atrof qip-qizil toshloq edi, hayot nishonasi yo'q, faqt men ovlay olmaydigan yovvoyi parrandalaru olisdag'i qoyalarga in qo'yan ba-liqli qushilar charx urib yurardi, xolos. Shunga qaramay, ko'rfazmning shimoliy qismida, aniqrog'i, Irreydни Ross orolidan ajratib turgan bo'g'ozdan ko'rfaza o'tiladigan joyda (ayni chog'dа shu yerdan Ayon bo'g'oziga o'tilardi) yashashga munosibroq boshpana topdim: aslida, bunday yaydoqliki «boshpana» deb atashning o'ziyoq kishiga alam qilardi. Albatta, bu joyni bekorga tanlamagan edim. Orolning shu qismida kichkinagina kulba bor edi, katalakka o'xshardi: nazarimda, orolga tashrif buyurgan baliqchilar shu yerda tunab qolishardi: ilma-teshik tomi allaqachon qulab tushgan edi, shuning uchun kulbaning foydasini tegmasdi hisob — undan ko'ra, xarsangtosh ostida yotganim tuzuk edi. Ammo boshqa tomondan qulayligi bor edi: chig'anqlar bu yerda to'lib-toshib yotardi, to'ldiqn orqaga qaytishi bilanoq yarim kunga yetadigan oziq-ovqat «mabsulotlarini to'plab olardim. O'zo'zidan ravshanki, bu hol ayni muddao edi. Lekin haqiqiy sabab jiddiyroq: orolda yakk'a-yolg'iz ekanimdan iztirob che-kardim, bunga sira ko'nikolmasdim va qochoqqa o'xshab chor tarafga termilaverib sira charchamasdim: odamzod qorasini ko'rishdan umidvor edim, ham qo'rqardim. Xulas, ko'rfaz tomondag'i qoya usliga chiqilsa, olis-olislardan ulug'vor ko'hna ibodatxona hamda Ayondagi imorat larning tomlari ko'zga chalnardi. Narigi qanotta, Ross pasttekisliklarida esa jarlikdag'i qandaydir qo'rg'onidan er-talab va oqshom chog'fari ko'kka tutun o'rлardi. A'zoyi badanim muzlab, boshdan oyox ho'l bo'lib, yolg'izlikdan



gangib qolgan kezlarim olisdag'i tutundan ko'z uzmasdim: lov-lov gulxan yonayotgan o'choq atrofida do'stoma subbat qurib o'tirishgan odamlarni eslasam, beixiyor yuragim hapriqib ketardi. Ayondagi imoratlar tomiga orziqib termillardim. Inson zoti istiqomat qilayotgan boshpanalar ko'rinishi, huzur-hulovut nishonasi o'zimming boshimga tushgan kulfatni yanada teranroq anglab yetishimga undasa-da, lekin ko'nglimdagi umid uchqunlarning alan-ga olishiga ham yordam berardi: shilliqliqlarini ishtaha bilan yutardim-u, tezda me'damga urardi: o'lik qoyalar-u yowvoysi qushlar, yomg'iru muzday dengiz qurshovida g'am-g'ussaga botsam-da 'hayotdan umidimni uzmasdim. «Umidimni uzmasdim», dedim. Darhaqiqat, o'z vatanim sohilida, oddiy ko'zga ham ibodatxonqa qo'ng'iroqlari va inson yashayotgan uydan tarelayotgan tutun ko'riniq turgan joyda itday o'lib ketishimi sira tasavvur etolmasdim. Ikkinchisi sutka o'tib borardi: qorong'i tushgancha yana-tag'in sergaklik bilan atrofga nazar tashladim, lekin bo'g'ozda na birorta qayiq. Ross orolida na birorta yo'lovchi ko'rindi — menga yordan beradigan jonzot yo'q edi. Hamon yomg'ir yog'ardi. Suvga tushgan sich-qonday jiqliha ho'l ahvolda o'ringa cho'zildim: tomog'im og'riy boshlaadi, biroq yaqin qo'shnilarimga — Ayon oroli aholisiga «xayri kech!» tilash imkoniyatiga ega bo'lganimdan mammun edim, shu narsa menga taskin berardi.

Ajoyib kunlarning birida ikkinchi Karl, dunyoning boshqa joylaridan ko'ra Angliya sharoitida yilning ko'proq qismini ochiq havoda o'tkazish mumkin, degan edi. Agar qiroj bo'lsang, saroya yo'lingga intizor bo'lib turishsa va har diamda egningga quq-quruq ust-bosh kiydirilsa, mulohaza yuritishning ham gashti o'zgacha bo'ladi. Ko'riniq turibdiki, bu la'nat ororda men tortgan azob uqubatlar oldida u Vusterdan juftakni rostagan paytdagi ko'rgilik holva ekan! Ayni yoz bo'lishiga qaramay, bir kechayu bir kunduz timilsiz yomg'ir yog'di: faqat kechga tomon havo ochildi.

O'sha kun taassurotlarga boy bo'ldi. Ertulab surg'ish tusli, shoxdor erkak bug'uni uchratdim: u orolning eng baland joyida, yomg'ir ostida turardi, asta-sekin qo'nalg'anda qaddimni rostlashim bilan bug'u kamina-ni ko'rib qoldi shekilli, orolning qurama-qarshi tononiga yo'rtib ketdi. Ubo'g'ozdan yuzib o'igan bo'shu kerak, deb o'yaldim. Tirik jonzot nima uchun Irreydega kelganligi sira ham aqlim bovar qilmasdi.

Anchadan so'ng, toshdan toshga sakrab yurgan paytimda (yemish qidirardim) nimadir jurnglab kodi-yu, cho'chib tushdim: qoya ustiga tanga tushdi-du, dengiz to-monga yumalab ketdi. «Vasiyat» dengizchilari pullarimni qaytarib berishgan chog'da uchdan bir qismimi va otam-dan meros bo'lib qolgan hamyonimni ham olib qolishgan edi: o'sha kundan beri tilla tangalarimni cho'ntagimga solib, tugmamni qadab yurardim. Ma'hum bo'lishicha, cho'ntagim yirtilib ketibdi: shosha-pisha cho'ntagimga yopishdim. Lekin kechikkun edim! Kuinsferri kechuvini tark etayotganimda men ellik fum puli bor boyvachcha edim, hozir esa yonimda bor-yo'g'i ikkita tilla tanga-yu kumush shilling qolgan edi, xolos.

Shundan so'ng yanada ma'yus bo'lib qoldim, ahvolim chatiq edi. Usi-boshim, ayniqsa, paypoqlarim ilma-teshik bo'lib ketgan, badanim ko'riniq turardi: muttasil namgar-chilikda yurib qo'llarim shalvirab qoldi, tomog'im sirqirab og'rit, madorim borgan sari qurib borardi. Men tanovul qilishga majbur bo'lganim jirkanch narsalar me'danga shu darajada urdiki, ularga ko'zim tushishi bilanoq ko'nglim ayniy boshlardi.

Biroq eng yomon ko'rgulik hali oldinda edi.

Irreyd orolining shimali g'arb tomonida xiyla baland qoya bor, o'shaning ustiga tez-tez chiqib turardim: chun-ki uning tepasida tep-teks maydoncha bo'lib, u yerdan Saund-of-Mall kaftagiday yaqol ko'rinaridi. Ochig'ini aytasam, men bir joyda uzoq ushlanib qolmasdim, faqat tunardim-u, yana orol bo'ylab tentiray boshlardim: hech qayerda qo'nim topmasdim: yomg'irda bekordan bek-

ga daydib yuraverganim tufayli o'lar holatga yetardim. Xullas, quyosh ko'rinishi bilanoq isinib olish uchun o'sha qoya ustiga cho'zldim. Quyosh taftining bunchalik qadr-don ekamini so'z bilan ta'riflab bo'lmasa kerak! Jonindan to'yib turgan paytimda dilinda xalos bo'lisminga umid uyg'ondi va yana dengiz bilan Rossni qiziqib tomosha qila boshladim. Men yotgan qoyanning janub tomonidan orolning bir qismi dengizga bo'rtib kirgan edi: ufq taraf to'siilib turardi va o'sha yoqdan kema yonginamdan o'tib qolsa uni payqamasligim hech gap emasdi.

Tuyqus, g'oyibdan tushgandek, orolning ayman o'sha burchagidan yelkani tarang baliqchi qayiq (unda ikkiti baliqchi bor edi) otlib chiqdi-yu, zudlik bilan Ayon tomon yo'l oldi. Men kuchimming boricha qichqirdim va tiz cho'kkanimcha qo'llarimni cho'zib, ittijo qildim. Ular bunday yaqin masofadan tovushimni eshitmasliklari mumkin emasdi: hatto ularning sochlari qanaqa rangda ekanini ham aniq ajratta oldim: shubbasiz, meni ko'rishdi, shuning uchun kulgi aralash, gellar tilida bir nimalar deb baqirishdi. Ammo yassi qayiq yo'nalishini bir qarich ham o'zgartirmadi va shuvillaganacha yonimdan Ayon tomonga o'tib ketdi.

O'z ko'zlarimga, odamlarning bunchalar bag'ritoshligiga ishonmasdim. Toshdan toshga sakrab, qirg'oq bo'ylab yugurdim, ularning orqasidan yalinchoq ohanga chinqiraverdim: hatto tovushimni eshitmaydigan masofaga uzoqlashgan payida ham qo'llarimni silkitib yordunga chaqiraverdim. Qayiq ko'zga ko'rinnay ketgandan keyin, mana, endi, yuragim tors yorilib ketsa kerak, deb o'yladim. Sarson-sargardon yurgan kezlarim faqat ikki marta ko'zyoshlarimni tiya olmaganman, xolos. Birinchchi marta — langar-yog'ochni boy bergen paytima, ikkinchi marta — mana hozir, baliqchilar meni zor-zor qaqqhatib ketgan damlarda beixtiyor ho'ngrab yubordim. Bu safar shunchaki ko'zyosh to'kmadim, balki sammab-sannab, so'kinib yig'lardim: xuddi injiq bolalarga o'xshab timoqlarim bilan yerni yundalardim, yuzimni maysalarga

burkab olgan edim. Agar qotillikka mayl bildirganimda o'sha ikkala baliqchi ertulabgacha tirk qolmasdi. Qolaversa, o'zim ham tez orda ana shu orolda Jon tashim qilib qo'ya qolardim.

Qahr-g'azabim so'ngach, qomimming g'amini yey-digan payt yaqinlashib qolgandi, lekin ishtoham g'ippa bo'g'ilgan edi: oxiri baribir ochlik ustunlik qildi. Rostini aytasam, och qolsam yaxshi bo'lindi: chunki lu'nuti mol-lyuskan yana zaharlandim. Dastlabki galldingidek azob-uqubatni tag'in boshimdan kechirdim: tomonog'im lo'q-lo'q og'tir, zo'rg'a yutinardim, badanim uvishur, bezgakdn tishlarim takilliardim; shotlund tilida ham, ingliz tilida ham aniq nomi bo'lмаган — yurakni xun qilib yuboradigan g'am-g'uissa, sirqovlanish dardi butun vujudimni chulg'ab oldi. Bu dunyodan qo'llimi yuvib, qo'itig'imga urdim. Doribaqoga ravona bo'lisminga ishonchim komil edi: o'zimni yaratganning ixtiyoriga topshirib, xayolan hamma bilan va har bir kishi bilan xayr-xo'shlashdim, hat-to amakimdan, anavi yovuz niyatli baliqchilardan ham rozi-rizzlik so'radim, xullas, adoyi tamom bo'ldim deb o'yladim. Biroq sira kutilmaganda ko'zlarim yarq etib ochilib ketdi: oydin kecha ertaga charog'on kun bo'lishidan darak berardi, us-boshim ham deyarli qurib qolgandi, qisqasi, orolga qadam qo'yganimdan beri bunalik to'kis baxtga tuyassar bo'lмаган edim. Ana shunday shinir xayollar og'ushida uyquga ketdim.

Ertasi kuni (bema'ni hayotim boshlangandan keyingi to'rinchchi kun) niroyatda bema'jol ekanimni his etdim. Shukrki, tepamda quyosh nur sochar, havo musafetto va top-toza edi: ko'zlarimni chirt yumib yutib yuborgan mollyuskalar ham menga ozor yetkazmadim. Ruhim xiyla tetiklashdi.

Qoya ustiga qaytib chiqqan paytim (odatda, ovqatla-nib bo'lismim bilanoq darhol tepaga ko'tarialardim) Saund bo'ylab bitta qayiq yuzib kelayorganini ko'rib qoldim. Yanglishmasam, u to'ppa-to'g'ri men tomon kelardi. Bir-dan qalbimni ham qo'rquiv, ham qandaydir umid chulg'ab

oldi: ehtimol, o'sha kishilar o'zlarining toshbag'irrigi uchun afsuslanishib yordam bergani kelishayotgandir? Ammo xuddi kechagidek umidim puchga chiqsa, bunday kulfatga dosh berolmasligim aniq edi. Men dengizga orqanni o'girdim-da, ichimda uch yuzgacha samaganu nimcha o'sha tomonga qayrilib ham qaramadim. Qayiq hamon orol tonon yaqinlashib kelardi. Keyingi gal ilojnining boricha imillab minggacha sanadim, yuragim esa qinidan chiqib ketay derdi. Ha, hech qanday shubhaga o'rinnolmad! Qayiq to'ppa-to'g'ri Irreyd sari yo'l olgan edi! O'zimni ortiq tutib tulolmadim: sohilga yugurib tushdimda, suvdan chiqib turgan qoyalardan-qoyalarga sakrab, oxirgi tosh-supaga borib turdim. Mo'jiza tufayli suvga qulab tushmadim, g'arq bo'lib ketishim ham hech gap emasdi: to'xtagan chog'imda tizzalarim qaltilar, og'zim qurib qolgan edi, dengizning sho'r suvi bilan og'zimni chayib olishga majbur bo'ldim, aks holda, tovushim chiqmasdi.

Bu vaqida qayiq ancha yaqinlashib qolgan edi: u kechagi qayiq bo'lib, ichida o'sha kishilar o'tirishardi. Ular ni sochlaridan tanidim: birining sochi sarg'ish-malla, boshqasiniki qatrondek qop-qora edi. Endi qayiqda uchinchi odam ham bor edi: afidän, u muhtaram zotga o'xshardi.

Men bilan bermalol gapplashadigan masofaga yaqinlashgach, yelkanni yig'ishtirib oldilar-da, qayiqni o'z holiga qo'ydilar. Yalinib-yolvorishminga qaramay, beriroq keshishmad. Eng dahshatlisi shundaki, uchinchi odam menga boshdan oyoq razm solib, sherkilariqa bir nimalar dedi-yu, qornini changallab xaxolay boshladi. Keyin qayiq ustida qaddimi g'oz tutib uzundan uzun nutq so'zldi: so'zlarini no'xatdek sochib tashladi, qo'lini arra-arra qildi. Unga, gellar tilmi tushunmayman, dedim-u baloga qoldim: jahli chiqib ketdi. Chamanda, u inglizcha gapiryapman deb o'ylandi. So'zlariga diqqat bilan qulq soldim-u, bir necha marta «nama» deganini ilg'ab oldim. Hamma so'zlar gelcha edi: menga qolsa, bu til xitoychadan deyarli farq qilmasdi.

— Nima, — deb takrorladim, hech bo'lmusa bitta so'zni tushunganimmа angatish maqsadida?

— Ha-ha, — deb ilib ketdi u. — Ha-ha. — Sherklari ga gerdayib nazar tashladi, go'yo: «Ko'rdllaringmi, men englizcha bilaman demaganmidim», deb maqammamoqchi bo'lardi. So'ngra gellar tilida yamada tumtaroq ohungda bidiray boshladi.

Keyingi gal ham bitta so'zni ilg'ab qoldim: «qaytish». Shu tobda to'satdan miyanga bir fikr keldi. Uning nima uchun boyadon beri Ross tomonga imo-ishora qilayotganini endi tushunib yetgandim.

— Siz, to'lqin qachon qaytudi demoqchimisiz? — dedim-u, yana nafasimni ichimga yutdim.

— Ha-ha, — dedi u. — To'lqinning qaytishi.

Uning gap-so'zlariga quloq solmay qo'ydim: maslahatga muhtoj zot piqir-piqir kula boshladi, so'ng xaxolab yubordi. Kamina esa toshdan toshga sakrab, boyta kelgan yo'lindan izimga qaytdim: sohilga chiqib olganimidan so'ng orolni o'rtalab tiraqaylab qochdim — umrimda bu qadar tez yugurmagan bo'lsam kerak. Taxminan yarim soatlardan so'ng qo'ltiqchaga yetib borib qarasam uning o'mida kichkinagini ariqcha paydo bo'libdi. Men shi-mimni tizzamgacha qaytarib narigi qirg'oqqa o'tib oldim va Ross oroli bo'ylab g'olibona yugurib ketdim.

Sohilda yashaydigan bola Irreyd orolida bir kun ham qolmaydi, chunki u bor-yo'g'i «suvinning pasayishi nati-jasida hosil bo'ladigan do'nglik» edi, bundan tashqari, har oyning juft kunlarining birinchi choragida sayr etish uchun Ross orolidan quruqlik orqali yoki kechuvdan o'tish mumkin. Vassalom. Ko'rfazda o'tirib to'lqinning kelishi ni va qaytishini kuzatganimda, hatto to'lqinning qaytishi ni poylab yotgan chog'larim (chig'anoqlarni yig'ishtirib olish uchun qulay fursat kelishini kutardim-da), o'zim ham Irreyd oroli sirini bilib olardim va ozodlikka chiqardim. Afsuski, achchiq taqdirimdan nolib o'tiraveribman, kallami ishlatish haqida o'ylab ko'rmabman. Shuning uchun baliqchilar daftan gap nimada ekanni tushu-

nishmadi. Yanada hayratlularli joyi shundaki, ular oxir-oqibatda meni ahmoqqa o'xshab o'zimni-o'zim adashtirib o'tirganimni anglab yetishibdi va erinmasdan izlariga qayrib kelishibdi. Bu ororda deyarli yuz soat och-nahor yashadim,sovqotdim. Agar baliqchilar bo'lmaganda, suyaklarim o'sha yerda chirib ketishi mumkin edi va bunda faqat o'zimning kaltabnligim sabab bo'tardi. Shundoq ham bema'nlik qilganim qimmatga tushdi: o'tgan kunlar mobaynida tortgan azoblarimni-ku qo'ya turaylik, hozirgi holatim ham ayanchli edi: usi-boshlarimga qarab meni gadoy-padoy deb o'ylash mumkin edi, oyoqlarimni arang sudrardim, tomog'im sirq-sirq og'riди.

Dunyoda ablahlarni ham ko'rdim, ahmoqlarni ham uchratdim: bu ikki toifaga mansub kimsalar bijib yotibdi. O'ylaymanki, qachon bo'lmasin har qaysi odam o'z qilmishiga yarasha jazosini tortadi: harholda, ahmoqlar salilgariroq o'z «ulushlarim»ni olsalar kerak.

O' n b e sh i n ch i b o b

«KUMUSH TUGMACHALI O'SMIR»

MALL OROLIDA

Ross orolida, boshqacha qilib ayganda, Mall orolinining o'zim qadam qo'ygan qismida ham narigi tomondagidek yo'lsizlikka duch keldim: chor atrof bo'tqoqlik, butazoru xarsangtoshlardan iborat. Ehtimol, bu joylarni yaxshi biladigan odam o'ziga yo'l topar-u, lekin mening bilish qobiliyatimdan boshqa yo'l boshlovchim ham, Ben-Mor cho'qqilaridan boshqa ishorat qozig'im ham yo'q edi.

Orolida turgan chog'imda tez-tez orziqib termilib qo'yadigan tutun buruqsiyotgan tonon borishga harakat qildim va nechog'li horib-tolganima, yo'lsizlik azoblariga qaramay, kechki soat oltillarda jarlik tubidagi uymi topib bordim. Uy pasqangina bo'lsa-da, ammo uzun edi: devor-

lari toshdan tiklingan tomiga chim bosilgandi: tashqurida, ottohshuvodda bitta mo'ysafid tamaki cheklb o'tirndi.
— U ingliz tilini buzib gapirdi: tushuntirishicha, halokatgu uchragan yo'ldoshlarim onon-ejon sahilga chiq qib olishibdi-da, mun shu boshpaneda bir kun melmon bo'lshibdi.

— Ular ornsida bushang kiyigon bitin jumoh ham bor-midi? — deb so'radi.

Mo'ysafid, ularning hummasi dag'al planli kiyogni edi, lekin birinchi bo'lib kelgan kishi style ornsa ko'rindi, nuychaosimon shimi hor edi, boniqular esa dengizchilar ishtonda edilar, deb javols berdi.

— Ha, ha, albatta, shlyapusiga pat qudalgan bo'lsa kerak-a? — dedim.

— Yo'g'-e, — deb e'tiroz bildirdi mo'ysafid, — yo'lovchi suddi sen kabi yalangbosh edi.

Dustlab, Alun shlyapasini yo'qotib qo'ygamikan, qimmatli boish kiyimni avaylab, qo'ltig'iga tiqib olgan bo'lishi ham mumkin degan qarorgu keldim. Beixtiyor kulgin qistadi: demak, do'stim sog'-satomat ekan, demak u humon o'ziga bino qo'yishini kandu qilinabdi.

Shu poyt subhuddoshim kutilminganda peshonasiga shapatildi-da, e-c, jin ursin, sen anavi, haligi kumush tug-machali o'smir bo'lsang kerak-a, deb so'radi.

— Ha, nimaydi? — dedim pinak buzmay.
— Hech nima, — dedi mo'ysafid. — Unday bo'lsa, zudlik bilan Toros orqali do'stingga yetib olishing lozim.

U boshimga ne kunlar tushganini so'rab-surishirdi, men esam ko'rgan-kechirganlarimni hikoya qilib berdim. Janubiy Shotlandiyada ro'y bergen bunday hodisa har qanday odamning kulgisini qistatardi, albatta. Ammo keksa jentelmen (u bag'oyat odobli bo'lgani va ohori to'kilgan ust-bosh kiyib olgani uchun shunday deyapman) so'zarimni oxirgacha qunt bilan eshitdi, goh-goh bosh chayqab, hamdardlik bildirib turdi. Gapimni tugatganim-dun so'ng, qo'tig'imdan oldi-da, o'zining faqirona kul-

basiga (bu boshpanani «fiqirona kulba» deb atasam ham haqim ketmasdi) boshlab kirdi va meni xuddi gersog misoli ulug'lab kampiriga tanishtirdi — go'yo kampirisho qirolichcha edilar.

Mehrbon buviginum oldinga zog'ora non bilan muzzday kaklik go'shti qo'ydi-yu, yelkalarimni silab-siypalab, atrofimdu parvona bo'la boshladi, ul zoti mukarrama ingiliz tilini mutlaqo bilmashi: keksa jentelmen ham kamipridan qolishmaslikka harakat qillardı, u mayga sharbat qo'shdi-da, shiringina ichimlik tayyorlab berdi. Men bo'isam, ovqatimni pok-pokiza tushirayotib ham, uning orqasidan punsh ichayotib ham iqbolim bunchalar baland ekaniga aslo ishommasdim: tezak tutunidan qorayib ketgan, panjaradek ilma-teshik bu vayrona ko'zimga qasredeko'tinardi.

Punshni ichib olganimdan keyin a'zoyi badanimdan g'ar-g'ar ter chiqib ketdi va shirin-shirin esmay boshladim: dijkash uy egalari meni o'ringa yotqizishdi-yu, so'ngra bezovta qilishmad: ertasi kuni yo'iga otlanayotgan paytim choshgoh bo'lib qolgan edi, tomog'im sal-pal og'ritdi, xolos. To'yib ovqattanganimdan, xushxabar eshitganimdan keyin g'am-g'usssalar ham vujudimni tark etgan, ko'nglim ravshan tortgan edi. Xudoning zorini qilsam-da, keksa jentelmen pul olishni aslo istamadi, boz ustiga, boshimni issiqsovruqdan atrashim uchun eski shapskasini qo'yinimga solib qo'ydi: rostini aytsam, qo'nalg'adan xiyla uzoqlashgan zahotim yo'l chetidagi buloqchada sovg'ani obdon yuvib oldim. Ichimda esa: «Agar tog'liliklarning hammasi shunaqa mehr-oqibatl bo'lishsa, yurtdoshlarim ham ozmoz yovvoyilashsalar ziyon qilmasdi», deb o'ylardim.

Alhol, kechikib yo'nga tushgamim yetmagandek, adashib ham qoldim, yanglishmasam, vaqtimning teng yarmi zoye ketdi. To'g'ri, ko'pgina odamlarni uchratdim: ba'zilar o'zlarining bir tutamgina, hatto jo'jalarini boqishinga ham yetmaydigan laxtak yerida uymalanishardi: boshqalar esa pak-pakana, jaydar siqru eshaklarini yaylov-larda o'tlatib yurishardi. Qo'zg'olon ko'tarilgan yildan

beri tog'liliklarga chopon kiyib yurish qonun bo'yicha taqilangan edi: tubjoy aholis yettiyot begona salq kiyim-kechaklarini kiyib yurishga matkum etilgandi; hozir ularning olt-quroq tashqi ko'rinishi kishidi g'olati tunsurot qoldirardi. Ba'zi binovlur yelkasingin plush yoki ro'dapo chakmon tashhab olib, yahang'och yurardi, ishtonlarini esa bo'yinturuq mirolli yelkunlari ko'tarib yurishardi: boshqalar quroq motolardan kampirilarning quroni to'shakloriga o'shishadi ahsolandeha ro'mol qilib olishgandi hamuzgacha tog'liliklarga son yurkalani yechmagani kishilar ham uch-ravdi. Faqit yubkuning o'tasiga ikki-uch joyidan burma solishigan va xuddi gollandlarning shahvoriga o'shshutib olishgani edi. Bunday hijlu mayranglari uchun tanbeh beriladi, jizolamadi: qon-qurdoshlik, urug'chilik udumlarini barbos etish maqundida qonun kuchaytirilgan bo'lsa-da, lekin ovloq orolda kishilarni jazzolaydigan ishqivozlar kam topilardi, chaqimchi muttahamlar esa yagonda bir uchradidi, xolos.

Ko'rganlarim bo'yicha xulosa chiqaradigan bo'lsam, bu joylarda odamlar dabsatlari darajada qashshoq turmush kechirishundi: quroqchilarning xurujloriga barham borilmagan edi, yo'lboshchillar yashirinib yurishardi: olib qishloqlardagi egri-bugri yo'l yoqularida tilanchilar g'ijg'ij edi. Ayni chog'da bu joylar bilan bizning yurtimiz o'russida qiyoslab bo'lmaydigan tafovut bor ekan: bizda tilanchilar (hukumat tomonidan xat-hujjat berib qo'yilgan bo'lsa-da) niyoyatda xushmuomala, itoatgo'y: agar unga kumush tanga hadya etsang bormi, albatta, mis tanga qaytim beradi. Tog'lilik tilanchi bo'lsa, o'z g'ururini o'rtaga qo'yib tamagirlik qildi; xayr-ehson so'raydi — tamakingni bir hidlab ko'rayin, deydi-yu, ammo qaytarib bermaydi.

Albatta, mayda-chuyda tafsilotlarga to'xtalib o'tirish kaminaning vazifasiga kirmaydi, lekin yo'lda shularga alabsib qoldim-da. Bu yerlarda kamdan kam kishilargina ingliz tilini tushunishlari meni hayron qoldirardi: biladigan kimsalar ham (tilanchi og'aynilarimiz bundan mustasno,

albatta) yordam berishni unchilik xushlamasdi. Manzilim Toros ekanini bilardim, qo'lim bilan ishora qilib: «U yoq-dami?» deb so'rardim. Ular yo'l ko'rsatib qo'yish o'miga, bir-birlari bilan gellar tilida ming'ir-ming'ir qilishardi-yu, nima balolarni uzoq muhokama etishardi, men esam qu-loqlarinni ding qilib turaverardim. Shuning uchun aslida to'g'ri yo'naliш bo'yicha yurayotgan bo'lsam ham, lekin tez-tez adashib ketganim unchalik ajablanari emas.

Nihoyat, keechki saat sakkizlarda (charchaganim-dan zo'rg'a oyoqda turardim) bitta yolg'iz uyga duch keldim: xonadon sohibidan boshpana so'rardim, lekin rad javobi oldim. O'z vaqtida pulning quadrati (ayniq-sa, mana shunday qashshoq o'ikalarda) esimga tushib goldi-yu, tila tangalarimdan birimi xonadon sohibiga ko'rsatdim. U shu paytgacha imo-ishoralar bilan meni ostosadan haydayotgan va o'zimi ingliz tilini tushunmayotgan qilib ko'rsatayotgan bo'lsa-da, birdan tili chiqib goldi: buzilgan talaffuzda, besh shiling evaziga bir kecha tunab qolishga va ertasi kuni Torosgacha kuzatib qo'yishga rozi ekanini bildirdi.

O'sha kechhasi xavotirlanib uxladim, to'nab ketishlaridan qo'rqedim, ammo bekorga tashvish chekkan ekan-man: uy egasi o'g'ri emasdi, faqat ibodatxonadagi sich-qonlar kabi och edi, xolos. Albatta, muttahamlikda shay-tonga ham saboq berardi. Bu yerdagi hamma qashshoq hayot kechirardi: ertalab biz tila tangani maydalash uchun besh chaqirim joyga — mahalliy boyning uyiga (mez-bonning iborasi) yayov bordik. Ehtimol, Mallda bunday kishilarni «boy» deb atashar, lekin bizning janubda istihola qilishardi: chunki yigimata kumush tanga berish uchun u bor bisotini, uyini ag'dar-to'ntar qilib tashladi: boz ustiga, qo'shniidan tovon undirib oldi. Yigirma birinchisi shillingni boy o'ziga olib qoldi va bunchalik yirik «o'lik mob»ni — bitta tila tangani asrab o'tirishga qurbim yetmaydi, dedi. Ayni zamonda u bag'oyst xush-chaqchaq, nazzatli edi: bizni oila a'zolari qatorida tushlik qilishga taklif etdi va ajoyib chinni kosada punsh tay-

yordi: muttahum yo'lboshlovchimning og'zi ichkilikka tekkiach, ochilib ketdi-yu, o'midan turishni esidun ham chiqurib yubordi. Tobora fig'onim folakkasi chiqordi: madid so'rub boyvachchinga iltijo qildim (uning iami-sharifi Gector Maklin edi) — u bizning oldi-herdimiziga guyoh bo'lgan — besh shilling berayorganimni ko'rgandi. Broq Maklin ham allaqachon tomonini ho'llab olgan bo'lib, o'zini humrat qildigan jentehmen dastursonga bir kosa punah qo'yilgandan keyin o'midan turib ketan, uyat bo'indi, deb sudomeng zorini qila boshladi shundey qilib, yokobinchilarning qudah so'zlarini, getcha qo'shiqlarni tinglodig'u majburi bo'ldim. Nihoyat, ulitichilik poyoniga yotpachi, birov karivoqqa, boshquisi enu pichan g'uramiga o'zini tappin tappin oldi-yu, uyquga ketdi.

Mall oroli bo'ylib dayydib yurganimming to'rtinchini kuni ertalib halla saat besh bo'lmashdanoq o'minimizdan tur-dik, ammo kazzob yo'lboshlovchi ko'zini ochar-ochmas dardhol shishunga yopishdi: bir evini qilib, uni uydan sudrab chiqqunimcha uch sont vaqtim ketdi: bundan topgan foy-dum shu bo'ldiki, u yangi ishkallikni boshladi.

Biz Mayklining uyi ro'parasidagi archeagular o'sib yotgan ko'kalamanzorja tushganimizcha humma ish ko'-ngildipidek edi: fuqat yo'lboshlovchi tez-tez olazarak bo'lib orqasiga qarib qo'yardi, undan buning sababini so'rasun, tishlarining oqini ko'rsatib, turjayib qo'ydi. Bir-roq uyning derazalari ko'rinnay ketib tepalikdan oshib o'nyoganimizda u Torosga borish uchun to'g'riga yurish lozimligini, yo'ldan adashmaslikning eng yaxshi kafolati — huv anavi cho'qqini (qaysi cho'qqi ekanini ko'rsatdi) ko'zdan qochirmslik ekanini obdon tushuntira boshladi.

— E-e, yonimda siz borsizz-ku, menga nima g'am? — dedim.

Piximi yorgan firibgar gellar tilida zdulik bilan, ing-lizcha tushunmayman, dedi pinagini buzmay.

— Shunaqami hali, yaxshi yigit! — dedim. — Siz ingliz tilini qay darajada tushunishingizni bilaman: goh

tilingiz chiqib qoladi, goh soqov bo'lib qolasiz. Niňma qil-sak sizga zabol bitar ekan-a? Aytmaysizmi? Balki, yana pul kerakdir?

— Yana besh shilling bersang, shaxsan o'zim manzi-lingga eltit qo'yaman, — deb javob berdi u.

Biroz o'ylab turdim-da, ikki shilling taklif edim, u harislik bilan darrov rozi bo'ldi va o'zining iborasiga ko'ra, «baxt uchun» pulni qo'liga berishimi talab qidi. Bilardimki, unga nimaiki baxt keltirsa, mening peshonamga sho'rva bo'lib to'kilardi.

Ikki shilling unga ikki chaqirim yo'l bosishi uchun ham yetmadi: so'qmoq chetiga chiqdi-da, oyoqlaridan qo'pol boshmoqlarini yechdi — go'yo bamaylixtir dam olishga hozirianardi.

Fig'onimdan dud chiqib ketdi.

— Ha, yaramas! — dedim. — Yana ingliz tilini unutib qo'ydingmi?

— Xuddi shunday, — dedi pinak buzmay.

Shundan keyin toqatim toq bo'lib surbetning quloq-chakkasiga tarsaki tortib yubormoqchi bo'ldim, u esa juldurvoqi choponining ichki cho'ntagidan pichog'ini sug'urib oldi-da, o'zini orqaga tashlab, xuddi yovvoyi mushukday engashgancha menga ko'zlarimi olaytrib tikilib qoldi. G'azabim jo'shib ketganidan o'zimni tutolmay unga tashlandim: pichoq ushlagan qo'llini urib yuborib, o'ng qo'llim bilan tumshug'iga tushirdim. Men yosh bo'lismunga qaramay, xyla kuchli edim, ustiga us-tak, g'azabimni jitovlay olmasdim; u bo'lsa nimjingga edi — bir zarbadan keyin to'ntarilib tushdi. Baxtinga, yiqilayotgan chog'da pichog'i uchib ketdi. Pichoqni va boshmog'ini oldim-u, unga ta'zim bajo keltirdim. So'ngra yalangoyoq, qurolsiz yo'boshlovchimni qoldirib to'g'riga ketaverdim. Miyig'imda kulib borardim, chunki uchiga chiqqan muttahamdan qutulganimga ishonchim komil edi va bunga yetarli asoslarim ham yo'q emasdi. Birinchidan, u endi sariq chaqa ham undirib ololmasligini yaxshi bilardi: ikkinchidan, o'lkada bunday boshmoqni bir necha

tiyiniga so'tish mumkin edi. Qolaversa, qonun bo'yicha u yonida pichoq (usluni olganda, bu xanjur edi) olib yurishga haqsiz edi.

Taxminan yarim soatlardan so'ng yirtiq-yamoq klyimali bir kishiga yetib oldim: u ildam odimlardiyu, lekin yo'llini hassasi bilan paypaslab borardi. Uning ikki ko'zi hum ojiz edi, qonunshunoslikdan saboq berar ekan. Biq qureshda undan gumonstrashha hech qanday asos yo'q edi. Biroq qiyofasi meniga shubholi tuyulaverdi: tushqi ko'rinishi yawsillikdan davak bermasi, o'tuketg'an hiylakor, fitnachi-ga o'xshardi. Biq yonna-yon keta boohlidik va men tez onda cho'magidun to'pponchanning po'lut dastasi ko'rinib turganini payqub qoldim. Bunday mitohni ko'tarib yurgan kishi dasthah ellit fuit sterling jarima to'lashga hukm eti-lardi, so'ngro esa mustamlaka o'kalarga surgun qilinardi. Umuman, qonun-qoidalardan va'zxonlik qiladigan domla-ning qurollangan holda yurishi kishini ajablantirardi.

Boshimga bitgan kulfat — yo'boshlovchim haqida gapirib berdim: men xiyla mag'rur edim, shuning uchun g'unurim aql-idrokindan ustunlik qildi. «Besh shilling» deyishim bilanoq hamrohim tovushining boricha «ohlo» urib yubordi-yu, keyingi ikki shilling borasida indamuy qo'yin qolishni muqsidiga muvofiq deb topdim va yo'ldoshim mening yuzlarim lavlagiday qizarib ketganini ko'muyotganidan ich-ichimdan quvondim.

— Nima, ortiqcha haq to'lab yuboribmanmi? — deb so'rudim tutilib.

— Bo'lnamas-chi! — dedi u vahima aralash. — Azizim, bir qultum araq quyib bersang, o'zimoq seni Torosga kuzatib qo'yaman. Boz ustiga, kaminadek bilimdon insoning suhabatidan bahra olasan.

Ko'r qanday qilib yo'boshlovchi bo'lishi mumkin, deb e'tiroz bildirdim: bunga javoban u xaxolab yubordi va toki qo'llimda hassam bor ekan, ko'zlarim lochinlikidan ham o'tkirdir, dedi.

— Hartugul, Mall orolida men bilmaydigan joy yo'q, — deb qo'shib qo'ydi u. — Bu yerdag'i har bir tosh,

har tup archagul bolaligimdan buyon yod bo'lib ketgan. Mana, o'zing qara-chi! — dedi ishonch bilan chap va o'ng tomondagi yermi taqillattar ekan. — Huv anavi pastlikda irmoq sharqirab oqyapti: irmoq tepalikdan boshlanadi, tepalikning eng ustida bittu xarsangtosh osilib turibdi: tepalikning poyidan Torosga eltdiyan yo'l o'tadi, shu yo'l bo'ylab ko'pincha poda haydaladi: yo'l obdon shibbalangan supurgigullar o'rtasidagi ulvatni ko'm-ko'm maysa qoplagan.

U zig'irddek ham xatoga yo'l qo'yagananini tan olishga majbur bo'ldim: taajublanganimni yashirolmadim.

— Ha-a, bu nima? — dedi. — Qaror e'lon qilin-gandan keyin o'lkada qurol-yarg' ko'rinnay qoldi de-sam, ishommayasan. Men esam, zo'r mengan edim! Shunaqayam zo'r edimki! — deb qichqirdi-da, miyig'ida kulgancha qo'shimcha qildi: — Aytaylik, mabodo senda to'pponcha topilsa hoziroq qanaqa otishimni ko'rsatib qo'yardim.

To'pponchan yo'q, dedim va undan uzoqroq yura boshladim. Eh, agar u cho'ntagida to'pponchasi bor-ligi yaqqol sezilib turganini, to'pponchasing dastasi quyoshda yaltilrayotganini bilganda edi! Baxtinga hech narsani bilmas, o'zimcha hammasi maxfiy, yashirin deb o'ylardi. Xullas, g'ofil banda yolg'on gapirishda davom etardi.

So'ngra hiylakorlik bilan meni qayerda tug'ilgansan, boy-badavlatmisan, besh shillinglik tangamni mayda-lab bermaysamni deb avray boshladi. Uning aytishicha, shotlandcha charm hamyonida puli bor emish. O'zi esa tobora menga yaqinlashishga intilar, men bo'lsam, un-dan uzoqlashardim. Bu payida biz poda haydaladigan yo'iga chiqib olgan edik: tepalikdan oshib o'tilsa, Torsoga borilardi. Qizig'i shundaki, yo'lda ketayotib xuddi shotlandcha raqs tushgandek tez-tez o'rminmizni almash-tiraverdi. Ustunlik men tomonda edi, ko'zboyloqchilik o'yini yoqib goldi, kayfim chog' bo'idi; biroq qonun-shunosning xunobi oshib ketdi, oxiri gel tilida bo'ralib

so'kina boshladi, hatto hassasi bilan oyog'inga sol-moqchi ham bo'ldi.

Shundan so'ng unga, haqiqatan ham, cho'ntagimda to'pponchan bor; sizza ham qurol bor, albatta. Agor hozi-roq orqangizga qaytmasangiz, o'ylab o'tirmasdan penho-nungizdan otib tashlayman, dedim.

U darhol muloyim tortib qoldi, ko'nglimi ovlashga kirishdi, lekin bekorga ovoni bo'layotgonini sezdi-yu, yana bir marta gel tilida bo'ralab so'kindi-da, jutifikni rostladi. Uning orqasidan qurab turdim: katta-katta qadam tashlagancha botqoqzorni archagullar oralab, hassasi-to'qillatib ketib borridi: nihoyat, tepalikdan burildi-yu, jarlikka tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shundan keyingina yo'linda davom etdim: yovuz niyathi yo'ldoshimdan — olimvachchadan qutulganimga xursand edim. Umuman ol-ganda, bu kun omadsiz bo'ldi, ammo anavilarga o'xshash firibgarlar bosqqa duch kelishmadи.

Torosda, Saund-of-Mal ko'rfazida derazalari Marven-ga qaragan mehmonxonasi bor bo'lib, uning xo'jayimi ham Maklinlar urug'idan ekan. Afidian, mo'tabar zottlardan shekilli. Biz tomonlarda ham mehmonxonasi egasi hummatli kishi hisoblanardi, lekin tog'li Shotlandiyadu bunday kishiga havus bilan qurashunkan. Chunki mehmondo'slikni joyiga qo'yankun. Qolaversa, bu mashq'ulotning o'ziga yarashu gashti borga o'xshaydi. Qahvaxona egasi ingliz tilida bennulol gapiriar ekan: mening savodim yomon emas-hagini bilgach, dastlab fransuz tilidan biliim qanaqa ekan-ni sinab ko'rdi va osongina kamini o'sal qildi: keyin lotinchaga o'tdi, bu sohada kim kimni dog'da qoldirgani aytolmayman. Harholda, ajoyib musohaba bizni dar-hol do'slashirib qo'ydi: keyin uning yonida punsh ichib o'tirdim: aniqrog'i, u punsh ichib o'tirdi, men tomosha qildim va oxiri kayf aralash yekamga boshini qo'ydi-da, ko'zyoshini to'ka boshladi.

Kezi kelganda, Alanning tugmachasini ko'rsatdim-u, jo'rttaga sinab ko'rdim: ma'lum bo'ldiki, u bunaqa narsani umuman bilmas ekan. Boz ustiga, Ardshilning qarindosh-

O' n o l t i n c h i b o b

"KUMUSH TUGMACHALI O'SMIK"

MARVEN OROLIDA

urug'lariniyu do'st-yordarini jinidan ham battar yomon ko'rarkan: ichkilikdan es-hushini yo'qotmasdan avval u menga qabilaning bittu vakiitiga bag'ishlab o'zi yozgan haqorathnomasini o'qib berdi; mazmuni niyoyatda zaborli bo'lsa-da, ammo lotinchha sayqlal berilgan, mungli rubobiy she'r edi.

Keyin yo'lida uehratganim qonunshunos haqida gapi-rib berdim. U bosh chayqagancha, baxting bor ekan, oson qutulibsan, dedi.

— O'sha odam niyoyatda xavfi, — deb izoh berdi. — Uning nomi Dunkan Makkey: tovush chiqqan joyni uzoq masofada turib aniq nishonga oladi: bir necha marta qaroqchilikda ayblangan, bir paytlar qotillikka ham qo'l urgan.

— Yana-tag'in uyalmay-netmay «qonunshunoosman» deydi-ya! — dedim.

— Nega uyalsin, axir, rostdan ham qonunshunos-ku! — deb e'tiroz bildirdi Maklin. — Dyuartlik Maklin ko'rga rahmi kelganidan shunaqa unvon hadya etgan. Afuski, bu narsa ham bechoraga naf keltirmadi, — deb qo'shimcha qildi qahvaxona sohibi. — Sira tinib-tinchimaydi, doimo daydib yuradi: yoshlar toat-iбodatni risoladagidek ijro etyaptilarmiyo'qmi, tekshirib turish lozim, deb yuradi. Shu narsa bu miskin kimsaga taskin beradi...

Nihoyat, qahvaxona egasi ichkilikka to'yib olgach, meni karavot tepasiga boshlab bordi va bamaylixotir uxlagani yotdim. To'rt kun mobaynida Irreyddan Torsogacha bo'lgan yo'ni unchalik qiyalmamasdan bosib o'tdim: agar to'g'ri yo'ldan yurilsa, ellik mil: bekorga sarson-sargardon bo'lganimmi ham hisobga olsak, yuz mil atrofida masofani bosib o'tdim — bepoyon, mashaqatlarga to'la Mall orolining o'tasidan kesib chiqdim. Bunday uzoq safardan so'ng o'zimmi ilgarigiga nisbatan xiyla tetik his etardim.

Torosdan Kinloksalinga — quruqlikka doimo parom qatnab turadi. Saundning hur ikki sohilidagi yetir Mak-inlarning quadrati qabilasi tusarrufida bo'llib, men bilan birga paromiga chiqqan odamlarning deyarli hummasi o'sha qabila a'zolari edi. Biroq paromchuning ismi-sharifi Niy'l Roy Makrob edi: Mukroblar esa Alun Brek mansub qabila turkibiga kirishardi. Durhaqiqat, kechuvga ham kamani shaxsan uning o'zi kuzatib qo'ydi: endi Niy'l Roy bilan yuzma-yuz o'tirib gaplashishga intiq edim. Parom yo'lovchilarga liq to'la edi, juda sekinlik bilan olg'a sil-jidik. Ravshanki, gavjum joyda xoli qolishning sirayam iloji yo'q edi. Qilt etgan shabada yo'q, sho'rlik kemaming jiozchlari niyoyatda nochor: chap tomondag'i borda faqat bittagina eshkak mayjud edi, xolos. Lekin eshkakchilar chin dildan harakat qilishardi; boz ustiga, yo'lovchilar navbat bilan ularning o'miga o'tirishtardi, boshqalar jo'rovoz bo'ilishib gel tilida qo'shiq xirgoysi qilishardi. Kechuvning o'ziga xos gashti bor edi: dengizchilarning qo'shiqlari yangrar, dengizing sho'rikta'mi dimoqqa urilar, tetiklik va birodarlik kayfiyat hukm surardi, havo musaffo, kishi ajib manzaraga qarab to'ymasdi!

Shunga qaramay, bir hodisa dilimizni xushton qildi. Lokalining quyiilish joyida ulkan kemaga duch keldik: u langar tashlab turardi: dastlab, qirolikning soqchi kema-lridan bo'lsa kerak deb o'yladim — yakobinchilar farangilar bilan aloqa qilmasligi uchun, yaqinlashganimizdan so'ng u savdogarlarning kemasi ekanligi ma'lum bo'idi, taajublanarli joyi shunda edi, nafaqat palubada, hat-to sohilda ham olomon gavjum edi va sohil bilan kema o'rasisda eshkakli qayqlar timsiz qatnardi. Yana biroz oldinga borganimizdan keyin motam kuyi qulog'imizga

chalindi: palubadagi, qing'oddag'i odamlar bir-birlarining yekkalariga boshlarini qo'yishgancha o'z dardlarini ayrib-aytib yig'lashardi. Beixtiyor bizning ko'zlarimizda ham yosh mittiladi. Shundagina bu Amerikadagi mustamaka o'lkalarga surgun qilinuyotgan mahbuslar solingan kema ekamini anglab yetdim.

Kemagu yondashgan paytimiz quvg'inga uchragan kimsalar kemuning bort to'sig'idan engashib, ho'ng-ho'ng yig'lashgancha paromdagi hamrohlarining qo'llarini uza-tishdi: yoru do'stilar bir-birlarining diydoriga to'ymasdilar. Bu hol yana qancha davom etishi mumkinligini bilmayman: nazarimda, vaqt o'tayorgani hech kimning esiga kelmasdi: oxiri darg'a bort to'sig'i oldiga o'tdi-da, oh-vohlardan, to's-to' polondon es-hushini yo'qotar holatga yetganiga qaramasdan (bu tabiiyidir!), bizzan yo'limizda davom etishimizni o'tinib so'radi.

Niy'l darhol kemadan nari ketdi-yu, xirgoyichilarimiz g'amgin qo'shiq boshlab yuborishdi, uni quvg'inga uch-ragan kishilar ilib olishdi, so'ngra sohilda turgan kuzatuv-chilar ham jo'rovoz bo'lishib qo'shiq ayta boshladilar — go'yo marhumni so'nggi manzilga kuzatish marosimi avjida edi. Paromdag'i erkaklaru ayollar, engashgancha chovxoda eshayotgan eshkakchilarining yuzlaridan shash-qator yoshlar oqardi. Beixtiyor o'pkam to'idi. Ayniqsa, qo'shiq ohangi qattiq ta'sir etdi (uning nomi «Abadulabab kechirgil, Loxaber» edi).

Kinlokalin sohilda Niy'l Royni bir chetga tortdim-da, siz Epinda tug'ilgan bo'lsangiz kerak-a, deb so'radim.

— Xo'sh, nima bo'pti? — dedi u.

— Men bitta odamni qidirib yuribman. Nazarimda, siz o'sha odam to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlardan xabardor bo'lsangiz kerak, — dedim. — Uning ismi-sharifi Alan Brek Styuart. — Negadir darg'aga tugmachani ko'rsatish o'miga cho'ntagiga shilling solib qo'yimoqchi bo'ldim. U ortiga chekindi.

— Bu haqorat, — dedi u. — Yigit kishiga bunaqa muomala qilmaslik kerak. Siz nomini tilga olgan inson

javonligistonda yuribdi. Agar u shu yerda bo'lgan taqdirda ham hamyon-hamyon pulni uning harom tukligiyum almashtirmagan bo'lardim.

Qo'pol xatolik o'tganini payqab qoldim-u, fursutni boy bermasdan, darhol tabarruk tugmachani ko'taudim.

— Ha-a, ana, — dedi u. — Gipi shundim boshlash kerak edi-da! Xo'sh, huqiqatun ham kumush tugmacha-li o'smir bo'lsang, xotirjam bo'l — seni kerakli manzil-ga omon-eson elib qo'yish choraini ko'numan. Xufa bo'lmagin-u, senga ochiq-oydin aylib qo'yishim kerak, bundan buyon o'sha Alan Brekning nomini atra tilga olmaysan — keyin haligi bermu'nilikni quyta takrorlamagin, ya'ni tog'lik jentelemen cho'ntagiga pulid pulingni tiqishti-rishga urinma.

Mushkul ahvolda qoldim: axir o'zini asl yigitman deb yurgan (aynan shunday edi) kishini aftidan bilib bo'lmaydi-ku! Ayni paytda Niy'l pachakilashib o'tirismi unchaliq xushlamasdi — zimmasiga yuklatilgan vazifani lezroq ado etsa-yu, bir tashvishdan qutulsa: u zudlik bilan yo'l-yo'riq ko'rsata boshladи. Men shu yerdagi, Kin-loxalindagi qo'narjoyda tunab qolishim lozim edi: ertasi kuni esa Marvendan Ardgurgacha bo'lgan masofani bosib o'tishim va Kleymorda Jon ismli kimsadan bir kerak (albatta, uni ogohlantirib qo'yishgan ekan): uchinchi kuni Korran va Ballaxulish ko'fazlaridan o'tganimdan so'ng, Epinning Dyuroro muzofotidagi Jeyms Glenning yer-mulkiga qanday borish mumkinligini so'rab-surishtirmog'im zarur edi. Ko'rinib turibdiki, yana ikkita ko'rfazni kechib o'tishim kerak: quruqlik atrofini dengiz qurshab olgan bo'lib, torgina qo'ltiqchalar tog'larning poyiga borib taqlardi. Bunday o'kalarni mudofaa qilish oson-u, lekin yayov kezib chiqish mushkul, tabiat shaf-qatsiz, jilov nimaligini bilmaydi: fojeiy holatlarga har qadamda duch kelish mumkin.

Niy'dan zarur maslahatlarini ham eshitdim: yo'l-po'ida begona odamlar bilan gaplashmaganim, viglaru,

kempbellar-u qizil mundirlilardan uzoqroq yurmog'im, agar askarlarni ko'rib qolsam, darhol yo'l chetiga chiqib, butazor orasida yashinrinib o'tirishim ketak ekan, «aks hol-da, bu xalqdan yaxshilik kutib bo'lmaydi», dedi. Bir so'z bilan aytgunda, o'zimni xudi quroqchi yoki yakobinchilarning ayg'oqchisi kabi (aftidan, Niy'l meni josus deb bilardi) tutishim lozim edi.

Kinlokalindagi musofirxonanun dunyodagi eng rasvo tashlandiq joy ekan: bunday joyda faqat cho'choqa boqish mumkin edi: tutun buruqsib yotar, burganining hisobi yo'q edi. Yotoqda kamgap tog'ilklar ham uchhardi, abatta. Bunday joyda tunash menga alam qildi va Niy'lga dag'al muomala qilganim uchun o'zimdan o'pkalay boshladi. Nazarimda, bundan battar bo'lishi mumkin emasdi. Lekin tez orada bundan-da battar ahvol bo'lishi mumkin ekaniga amin bo'idim: kelganimga yarim saat bo'lar-bo'lmas (bu vaqt ichida eshik kesakisiga suyanib turdim, ko'zlarim sira ham tezak tutuniga ko'nikolmasdi), momaqaldoq guldiradi-yu, birdan sel bosib keldi, musofirxona hovlisi-da ko'lmak paydo bo'ldi va biz turgan uyning bir qismi-dan sharqirab «kanhory» oqib o'ta boshladi. U zamonlarda butun Shotlandiyada ko'ngildagidek mehmonxonani uch-ratib bo'lmassi, ammo ostona dan o'ringacha to'piqidan suv kechib borish — men uchun yovvoyiliik alomatidan boshqa narsa emasdi.

Ertasi kuni yo'lga chiqqanindan so'ng ko'p o'tmasdan girdig'um, miqtigina yoshi ulug' kishiga yetib oldim: u maymoqlanib asta ketib borardi: qandaydir kitobcha-dan ko'z uzmas, ba'zi joylarini tirmog'i bilan chizib ham qo'yardi: o'zi ruhomiy larga o'xshab odmigina kiyungan, ust-boshi yarashib turardi. Ma'lum bo'lishicha, bu kishi din peshvolaridan ekan, lekin Malla yo'liida uchragan ko'r qoridan mutlaq farq qilarkan: yo'lovchi chakana odam emasdi: Edinburgdagagi «Kristianlik ta'limotini tarqatu-chilar» jamiyatining ishonchli vakillaridan biri edi: uning zimmasisiga olis Shimoliy Shotlandiyada Injil g'oyalarini to'g'risida va 'z o'qish vazifasi yuklatilgandi. Ismi Xender-

lend bo'lib, men sog'ingan jamubliklar shevassida so'zlardi. Bundan tashqari, bizni faqat yurtdoshlik tuyg'usi bog'lab turmagan ekan, shaxsiy manfaatlarmiz ham tutushdi. Gap shundaki, mehribon ustozim — essendilik ruhoniy bo'sh paytlarida ba'zi bir diniy qo'shiqlarni ilohiyotga oid risolalarini gellar tiliga tarjima qilardi; Xenderlend esa ulardan foydalanar, buni yuksak qudlardi. Yo'lda uni aynan o'sha risolalaridan birini mutolaa qilib ketayotgan paytda uchratqan edim.

Biz darhol hamroh bo'lishga qoror qildik: boz usagi, ikkalamiz ham Kingerloqgacha borishimiz lozim edi. U har bir darvish bilan ham, ishchi-xizmatchi bilan ham erimmasdan subhattachardi: ular nimalar xususida so'zlashayotganini tushunmasdim, albatta, lekin bu o'lkada mister Xenderlendning izzat-hurmatga sazovor ekan ko'rinib turardi. Harholda, ko'philik cho'ntagidan suyak tamakidonini chiqarardi-da, uni bir chimdim tamaki bilan siylardi.

O'z ishlari ming ba'zi bir qirralari to'g'risida gapirib berdim. Antiqrog'i, Alanga aloqador jihatlar borasi-da lom-mim demadim: oxirgi manzilim — Ballaxulish, o'sha yerda do'stimni uchratishim lozin, dedim, Oxarn yoki Dyuorming nomlari qulqoja jarangdor eshitiladi: Alanning iziga tushishlari mumkin, deb o'yladim. Kezi kelganda, Xenderlend o'z ishlariyu tanish-bilish odamlar, sehrgar majusiylaru qochoq yakobinchilar, quolsizlantirish va kiyim-kechakni o'zgartirish haqidagi qarorlar, bir qancha g'aroyib rasm-rusmlar haqida to'lib-boshib hikoya qilib berdi. Aftidan, mo'tadil tabiatli kishiga o'xshardi: parlamenti tez-tez so'kar, ayniqsa, beliga qurol osib yuradijan kishilardan ko'ra, tog'ilklar kiyimidagi odamlarni qattiqroq jazolash haqida qaror chiqargani uchun hukumat a'zolarni sira kechirolmasdi.

Teran fikr-mulohazalarini eshitganindan keyin undan Malla Tulki va epinlik ijradorlar haqida so'rab-surishtirdim: o'zimcha, bir musofir bunday masalalarga qiziqlasa, g'alati tuyulmas, deb o'yladim.

Bu juda ham achinarli voqeа, dedi.

— Umuman, hayratomuz hodisa, — deb qo'shib qo'ydi u. — Ijaradorlarning o'zları yarim yalang'och yashaydilar-u, ottiqcha pulni qayyoqdan topishadi ekan-a? Aytmoqchi, mister Belfur, ozgina tumaki topilmaydini?.. Eh, shunaqumi! Mayli, bir ilojni qilarman, kamroq cheksam — o'zinga toyda-ku. Darvoqe, ijaradorlar xususida: albatta, ma'lum ma'noda ularni zo'rflashyapti. Dyurolik Jeyms Styuart (uning Jeyms Glen degan nomi ham bor) qabila yo'lboshchisi Ardshilning tug'isghan ukasi bo'tadi: bu yerda eng ulug' zot o'sha: hech kimi o'z holiga qo'ymaydi. Yana bittasi bor, Alan Brek degan kimsa...

— Ha, ha! — deb yubordim beixtiyor. — U haqda nima deysiz?

— Xohlagan tomoniga qarab esadiqan shamol to'g'risida nima deyish munkin? — dedi Xenderlend. — Xuddi shuning o'zi bugun bir joyda bo'lsa, ertaga boshqa joyda, yo uchib yuradi yoki dom-daraksiz bo'lib ketadi: haqiqiy sayoq. Agar shu toba huv anavi dukkakli o'simliklar ostida bizni kuzatib o'tirgan bo'lsa ham ajab-lammayman. Bo'lishi mumkin-da!.. Mabodo yoningizda tamakingiz yo'qmi?

Men, yo'q, deb javob berdim va ilgari ham bir necha marta so'radingiz-ku, dedim.

— Ha-ya, esim qursin, — dedi uf tortib. — Ajab, tama ki olib yursangiz bitor joyingiz kamayib qolarmiда?.. Men sizga aytasam, Alan Brek degan qushcha — avbosh, taportmas, boz ustiga, hamma biladiki, Jeyms Glenning o'ng qo'li hisoblanadi. U allaqachon o'zinga hukm etilgan: endl yo'qotadigan hech narsasi qolmag'an, agar bitor ta faqr izmiga yurmasa bormi, xanjar bilan shartta qormini yorib tashlashdan ham toymaydi.

— Gaplaringizza qaraganda, mister Xenderlend, haqiqatani ham ish pachavaga o'xshaydi, — dedim. — Hamma tomonni vahima bosib ketibdi: qulog'imni berkitib olgin kelyapti.

— E-e, yo'q! — dedi mister Xenderlend. — Bun-

dan tashqari, muhabbatu tarki dunyoqchilik hum borki, shu jihatdan siz bilan men unga havas qilsak arzydi. Ehti-mol, bu hol xristianlik nuqtayı nazarida gunoh sanolar, lekin insoniy nuqtayı nazzardan qaralsa, bug'oyit suvobdir. Bilişimcha, shuning uchun azamat Alin Breknı hamma joyda hurmat qilishiadi. Aytaylik, mister Belfur, vatani-mizda munofiq va sullohlar yo'qmi? Bijib yotishibdit Ammo ular ibodatxonalarda oldingi qatorodagi o'rindiqda o'zları esa, astida, adashgan bunda bo'lmish kallakesur, qonxo'r Alanning harom tukiga ham urzimaydilar. Yo'q, yo'q, biz tog'liklardan ko'p narsalarni o'rgansak zarar ko'rmasdik... Nima uehun men tog'u toshlarda uzoq vaqt-dan beri mehmon bo'lib yurganimga hayron bo'lyapsiz, to'g'rimi? — dedi u kulimisrab.

— Yo'g'-e, unchalik emas, — deb e'tiroz bildirdim: — Qolaversa, o'zin ham tog'liklarga maftun bo'lib qolgan-man: agar gap tog'liklar xususida bo'lsa, mister Campbell ham tog'li yurtda tug'ilganini unumaslik lozim.

— To'g'ri aytdingiz, — deb javob berdim. — U asl-zodalar avlodidan.

— Darvoqe, u yoqlarda qirolning ishboshchisi nima bolarни boshlab yuribdi? — deb so'radiim.

— O'sha Kolin Kempbellni ayyapsizmi? — dedi Xenderlend. — E-e, arining iniga cho'p tiqyapti!

— Eshitishingga qaraganda, u zo'ravonlik qilib ijara-dorlarni haydamoqchi bo'lgan emish-a?

— Shunday, — deb tasdiqladi Xenderlend. — Xalq iborasi bilan aytganda, paytdan foydalando har kin o'z ulushini yulib ohmoqchi bo'layotgani chatoq, xolos. Jeyms Glen Edinburgga borib Styuartlar qavmidan bo'lgan bitta amaldorni yollab keldi-da, ko'chirishni to'xtatib qo'ydi. O'z-o'zidan ravshanki, ular ko'rshapalakka o'xshab doimo g'ujo' lib yurishadi. Keyin Kolin Kempbell ham tinch yotmadni: moliya muassasi sudida jarayoni o'z foydasiga hal etdi. Aytishlaricha, ertaga iig'or ijaradorlar ko'ch-ko'ronilarini ko'tarishlari lozim ekan. Jeymsning

tumshug'i tagida istiqomat qiladigan Dyurordan boshlashmoqchi shekilli, fikri ojizimcha, bu unchalik oqilonan tadbir emas.

— Qarshilik ko'satishlari deb o'yaysizmi? — deb so'radim.

— Bilasizmi, ular qurotsizlantirilgan, — dedi Xenderlend. — Harholda, hozircha shunday deb hisoblashyapti... Aslida esa, xilvat joylarga ko'plab qurol-yaroqlar yashirib qo'yilgan. Ustiga-ustak, Kolin Kempbell askarlardan yordam so'rangan. Agar hozirgi holatda uning rafiqasi o'mida bo'lganimda uyga qaytib kelmaguncha yuragimni hovuchlab o'tirardim. Epinlik Styuartlar nihoyatda dovyurak xalq.

— Hamma gap shundaki, ular ham chakana emas, — dedi Xenderlend. — Aslida, kalavanning uchi mana shu joyda, Negaki, mabodo Kolin Kempbell Epindagi ishlarni taribga solib qo'ysa-da, yaqin atrofida o'lkada — Kameronlar yer-mulki hisoblangan Mamorda yana hammasini boshidan boshlasnga majbur bo'ladi. Chunki u har ikkala o'lkada qirol tayinlagan ishboshi hisoblanadi, demak, ikki tomondan ham ijadorlarni siqib chiqarmog'i darkor. Bilasizmi, mister Belfur, qo'llarimni ko'ksiga qo'yib aytamanki, agar u biridan qutulgan taqdirda ham, ikkinchisiga borib tutiladi. Bunga imonim komil.

Biz yo'l bo'yli qizg'in suhbatlashib bordik, shu zayl kunning qanday o'rganini ham sezmay qoldik: oxiri mis-ter Xenderlend, menday hamroha duch keganidan mam-nun ekanimi izhor etdi va, ayniqsa, mister Kempbellning do'sti bilan tanishganimdan bag'oyat xursandman, dedi. («Men hech ikkilannay sizni mo'lko' jun yetishtririladiqan Sion o'kamizing yangroq tovushli kuychisi deb atagan bo'lardim», dedi). Birpas nafasimni roslab olishimni, lozim topsam uning uyida bir kecha tunab ketishimni iitmos qildi. U shu yaqin atrofida — Kingerlox-dan sal narida yashar ekan. Rostimi aytsam, ich-ichimdan quvonib ketdim: kleymorlik Jonga yalinishi unchalik xuslumasdim. Ustiga-ustak, ikki marta omadim chopma-

gandan keyin (dastlab, yo'lboshlovchi chuv tushirib ketdi, so'ngra jentelmen-paromchidan ham yoruq'lik chiqmadi) ko'nglimda har qanday tog'itkka nisbatan shubhu paydo bo'lgan edi. Biz mister Xenderlend bilan gapni bir joyga qo'yidik-da, kechga tomon Lox-Linn sohilida quqqiyib turgan bir kulba yoniga bordik. Argur tog'larining berigi qanotida oqshom cho'kkani, tekin chup qanotiga — Epin tomoniga hamon quyosh nur sochib turordi. Ko'ffaz sokin, xuddi ko'iga o'xshard; suv sathida fuqit baliqchi qushlar charx urib uchib yurishardi. Bu yerlarda qandaydir mudhish tantana sodir bo'layotgandek tuyutardi.

Ostonaga qadam qo'yur-qo'ymasimizdan, mister Xenderlend kamminani hayratda qoldirib (shukrki, tog'liklarning muomala tarziga ko'nirma hosil qilgan edim), uyalmaynetmay mehmonni eshikka qisib qo'ydi-yu, o'zini xonaga urdi: sopol tamakidomni, suyak qoshiqchani qo'liga olib, jonholatda burunlarining teshiklariga tamaki tiqa boshladidi. Keyin maza qilib, ketma-ket chuchkuraverdi. Nihoyat, huzurdan taltaygan ko'yijiyab menga qaradi:

— Ont ichib qo'yganman, — deb izoh berdi u. — Agar yo'iga tamaki ko'tarib chiqsam, xudo ursin deb, qasam ichganman. Bu og'ir, albatta, keyin aziyat tortayotgan kishilar, faqat jun yetishirayotgan chorvadorlar emas, xristianlik e'tiqodi uchun jafo chekayotgan jamiki bandalar yodga tushadi-yu, zorlanayotganidan uyalib ketaman.

Tamaddi qilib bo'lismiz bilanoq (mehribon uy sohibining eng totli taomi bo'tqayu zardobga qorilgan qatiq ekan), u qiyofasiga jiddiy tus berdi-da, mister Kempbell oldidagi burchim tufayli sening parvardigori olamga qanchalik sodiq ekaningni tekshirib ko'rishga majburman, deb e'lon qildi. Tamaki hodisasidan so'ng sharaqlab kilib yuborishdan arang o'zimni tiyib o'tirardim; biroq u gap boshladi-yu, ko'p o'tmay ko'zlarimda yosh g'itilladi. Odadida, inson qalbi ikki holatda birpasma erib ketadi: samimiy mehribonlik va mo'min-qobilikkha ro'para kelsak bas, darhol inon-ixtiyorimizni boy beramiz: bizning qahri

qattiq zamonitorimizda, sovuqqonu manmansiragan odamlar bunday fazilat kamyob javhardir: ayni chog'da mister Xenderlend timsolidu samimiyyatu mo'min-qobililik jonlangan edi. Shu paytgacha ko'rgan-kechirgan sarguzashtlarim mobaynida ko'pincha o'lib-tirilib o'z shu'n-shavkatimmi himoya qilgan bo'lam-da, uning gap-so'zlarini tinglab tez orada soddadil, kambag'al mo'ysafid qarshisida tiz cho'ldim: shunday ulug' zot yomida o'tirganimdan boshim osmonga yetdi, ko'nglim charog'on bo'ldi.

Uyquga ketishimidan avval u uyining torfdan qurilgan devori kindigida saqlanadigan oz-moz pulidan olti pens sanab berdi, yo'l-po'lda asqotib qolar, dedi: bunday insoni yiy muruvvatga qanday javob qaytirisini bilmasdum. Shu qadar o'timib iltimos qildiki, qo'lini qaytarsam — beobchilik bo'lardi, oxiri oldim: albatte, bu bilan ro'zg'ori yana g'ariblangan edi.

O' n y e t t i n c h i b o b

MALLA TULKINING O'LIMI

10)

Ertasi kuni mister Xenderlend Lox-Linning narigi sohiliga kechki tomon o'z qayig'ida baliq oviga jo'naydigan bir kishini izlab topdi. Qayiqchi o'z qavmidan bo'lgani tufayli mister Xenderlend uni bitta yo'lovchini birga olib ketishga ko'ndirdi: shunday qilib, kun bo'yisi yo'l azobidan qutuldum va kechuvdan o'tish uchun paromchiga to'laydigan kira haqi ham yonimnga qoldi.

Qirg'oqni tark etgan paytimizza tush bo'ilb qolgan edi: havo tund, bulutli edi, goh-gohida quyosh mo'ralab qo'yadi, xolos. Bu joylar ham dengiz kabi chuqr bo'lsada, suv sathida birorta to'lqin ko'rinnasdi: bir hovuch suv olib ichib ko'rdim: suvning haqiqatan ham sho'r ekaniga hech ishongim kelmasdi. Ikki tomonda ulug'vor, g'adirbudur, yalaq' och tog'lar qo'r to'kib turardi: bulut soya tashlab turgan mahalda qop-qora, vahimali ko'rinar, qu-

yosh nur sochib turgan chog'larda esa butun bag'ini kumush jilg'alar chulg'ab olganimi ko'rish mumkin edi. Epin Xenderlend timsolidu samimiyyatu mo'min-qobililik jonlangan edi. Shu paytgacha ko'rgan-kechirgan sarguzashtlarim mobaynida ko'pincha o'lib-tirilib o'z shu'n-shavkatimmi himoya qilgan bo'lam-da, uning gap-so'zlarini tinglab tez orada soddadil, kambag'al mo'ysafid qarshisida tiz cho'ldim: shunday ulug' zot yomida o'tirganimdan boshim osmonga yetdi, ko'nglim charog'on bo'ldi.

Yo'l davomida diqqatga sazovor bitor hodisa ro'y berdeganlari shafqatsiz o'ika bo'lib, nimasi yurakdan urib qolishigayu Alan nega usiz yashay olmasligiga sira hum aqlim bovar qilmasdi...

Yo'l davomida suvga yaqin joyda quyosh nuriha yul-yul tov-

mordan — suvga yaqin joyda quyosh nuriha yul-yul tov-

lanayotgan qirmizi rang lop etib ko'rindi-yu, yunu g'oyib

bo'ldi. Qirimziliga qurugundi, u askarlar mundirini esla-

tardi: undan yashin tarabayotgandek tuyular, go'yo yaroq po'lat yuzasiga nur tushardi-yu, aksi quytardi.

Men qayiqchidan, bu nima, deb so'radim. Hartugul, Fort Vilyamdan kelgan qizil mundirlar Epinda mol-mulki musodara qilingan ijara dorlar to'polonini bostirish uchun ketishayotgan bo'lsa kerak, dedi u. Rostini aytasam, bu manzara ko'nglimga g'ul'g'ula solib qo'ydi: bilmadim. Alan to'g'risida o'ylayotgamim uchun shunday bo'ldimi yoki qandaydir yomon ish ro'y berajagini yuragim sezib turarmidi, ishqilib, qiroq Georg askarlarini ikkinchi marta ko'rayotgan bo'lam ham, ulardan yaxshilik chiqmasligiga ishonchim komil edi.

Nihoyat, Lox-Linning quyilish joyiga yaqinlashgan vaqtimizda, qayiqchidan qirg'oqda qoldirib ketishini so'radim. Baliqchi halol odam edi, din peshvosiga sizni Ballauxulishga eltilib qo'yaman deb va'da bergenman deb, dastlab, iltimosinga unamay turdi: lekin va'dalashgan pinhoniy uchrashuv manzilimdan yiroqlashib ketayotgan uchun so'zimda qattiq turib oldim: oxiri Alanning ona yurti Epinda, Litter sohili (bu joylarning boshqacha nomi ham qulog'imga chalingan edi: Litter qarоqchizori) etaklarida qayiqdan tushib qoldim.

Ko'rfa zaga engashib turgan qoyador tog' yonbag'irlari qayinazor o'mondan iborat edi. Nishablikni ko'm-ko'k po'panak qoplagandi, qirquloqlar o'sib yotar, to'qay oralab shimaldan janubga tomon yolg'izoyiq so'qmoq o'tgandi. So'qmoq chetiga chiqdim-da, chashma qaynab

turgan joyda to'xtadim va birpas nafasimni rostlab, mister Xenderlend berib yuborgan zog'ora nomni suvga botirib yeb olishga hamda endigi ishlarimni puxta rejalashtirishga ahd qildim.

A'zoyi badanimni pashta chaqib tashlabdi, tashvishlar ham hol-jonimga qo'ymasdi. Nima qilmoq kerak? Alan bilan nima uchun aloqa qilyapman? Axir, u qonun oldida javob berishi kerak: bugun odam o'idirmagan bo'isa, qo'rqib-pisib o'tirgandan ko'ra, janub tomonlarga ketib qolgamim yaxshi emassi: Vaqti-soati kelib mister Kempbellmi, mister Xenderlendmi o'zboshimchalik qilganimni bilib qolishsa, ko'zlariga qanday qarayaman?! Ular men ga, darvish ekansan, deyishmaydimi, axir! Xullas, qalbin shubha-yu gumanlar girdobida qoldi.

O'y surib o'tirgan paytimda birdan to'qay tomondan odamlarning tovushi va ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitila boshlabdi. Tez orada burilishda to'itta yo'llovchi ko'rindi. O'sha joyda so'qmoq shu qadar torrayib ketgan ediki, ular oting jilovidan ushlagancha yetaklab keli shardi. Oldinda jingatak malla sochli norg'ul kishi kelardi: aftidan, amaldorga o'xshardi, yuzlari bo'g'riqib ketgan, shlyapasini qo'lliga ushlab olgancha dam-badam silkitib qo'yar va hansirab-hansirab zo'rg'a nafas olardi: Qopqora kiyimga va boshidagi oppoq yasama sochiga qarganda, ishboshi ikinchi bo'lib shaxdam odim tashlardi. Keyin katak gulli, yoqasiga zarrin uqa qadalgan kiyimli xizmatkor kelardi; demak, uning xo'jayini tog'lik aslzdalaridan ekan; chunki sholandcha katak gulli kiyimda yurish qonun bilan taqiqlangan edi: xo'jayin yo qonumi sariq chaqaga olmaydi, yoki u boyonlar orasida juda katta izzat-ikromga sazovor edi. Agar men bunday masalalarning nozik jihatlaridan xabardor bo'lganimda, jiylakning rangiga qarab Argayllar timsolini, boshqacha aytganda, Kempbellar nishonasini tamigan bo'lardim. Ot egariga xurjun tashlab qo'yilgandi, egarning qoshiga esa (sayr-sayohatga ishqiboz mahalliy aholi orasida shunaqa odat

rasm bo'lgandi) to'rvaga tang'ib bog'langan, to'rvaga punsh tayyorlash uchun ishlatiladigan norinj to'ldirib olingandi.

To'rinchi odam masalasiga kelsak, ilgari unga o'xshagan kimsalarni ko'p uchratganman va birpasda u sud ijrochisi ekanini ilg'ab oldim.

Ularga ko'zim tushgan zahotiyoy negadir (o'zim ham bilmayman) sarguzashtlarim yo'naliшини о'згариш масликка qaror qildim: men o'tirgan joyga yuqinlashgan chog'larida mayssadan turdim-da, oldidagisidun Oxunga qanday borsa bo'ladi, deb so'radmin.

U joyida taqqa to'xtadi-yu, boshindan oyog'imgacha sinchiklab razm solib, so'ngra ishboshiga o'girildi.

— Mango, ikkita halol qaroqchiga duch kelishdan ham ortiqroq yaxshi alomat bo'lmasa kerak! — derdi.

— Xo'sh, o'zlaringga ma'lum ish bo'yicha Dyuroga ketayotsam, birdan qirqquloqlar orasidan navnihol bitta o'smir chiqib Oxarnga yo'lingiz tushmaydimi, deya so'rabsarsa, bu yog'i qanday bo'ldi.

— Glenur, hazilning o'rni emas, — deb javob berishi shadi. Oldinda jingatak malla nazar tashlashdi, qolgan ikkitasi narinoq tushdi.

— Xo'sh, Oxarnda nima ishing bor, yigitcha? — deb so'radi laqabi Malla Tulki bo'lgan glenurlik Kolin Roy Kempbell: men aynan o'shani savolga tutgandim.

— Bitta odanni ko'rmoqchiman, — deb javob berdim.

— Jeyms Glen bo'lsa kerak, — deb ming'irladi Glenur va yana sud ijrochisiga murojaat etdi: — Ko'rinib turibdiki, o'z odamlarini to'plamoqchi ekan.

— Nima bo'lganda ham ortimizdan askarlar yetib keli shini shu yerda kutib turganimiz ma'qul, — deb javob berdi sherigi.

— Meni deb sarosimaga tushib qolganga o'xshaysizlar, — dedim. — Unday bo'lsa, eshitib qo'yinglar: men uning ham, sizning ham odamingiz emasman: qiroq Georgning oddiy, halol fuqarosiman: hech kimdan qazim yo'q, birovdan qo'rriadigan joyim ham yo'q.

— Yomon gap emas, — deb ma'qulladi ishboshi. —

Faqat ijozat etsalar-u, bitta savol bersam: halol fuqaro o'z yurtidan olislarda nima qilib yuribdi, nima uchun Ardshilarning birodarini qidiriyapsiz? Agar xabarining bo'lsa, bu yerlarda kamina hukmrondir. Ya'ni, ana shu o'lkalarga qirol tomonidan tuyinlangan ishboshi bo'laman, orqamda esa o'lab askarlarim bor.

— Eshitganiman! — dedim zardali ohangda. — Butun o'ika bo'y lab sizning qanaqa qaltis joylarda uyalaringiz borligi to'g'risida mishmish tarqalgan.

U hamon menga tikilib turar, go'yo biror qarorga keliшга ikkilanardi.

— Nachora, — dedi niroyat. — Tiling zahar ekan, lekin men to'g'riso'z odamlarni yaxshi ko'raman. Agar boshqa kuni Jeyms Styuartning uyiga qaysi yo'idan borsa bo'ladi deb so'raganingda, seni aldar o'tirmasdim, hatto ortingdan oq yo'l tilab qoldardim. Lekin bugun... Mango, nima deysan? — U yana sud ijrochisiga o'girildi.

Biroq, xuddi shu toba — u boshini o'girayotgan da-da tepadan, qoyadani o'q tovushi yangradi-yu, o'qning aks sadosi timmay turib Glenur tap etib so'qmoqqa quladi.

— Sen! — deb ihrab yubordi u. — Meni yeyishdi!

Ijrochi uni quchog'iga oldi-yu, xiyol ko'tarib turaverdi, xizmatkor esa qo'llari horib-tolganiga qaramasdan uning ustiga engashgancha qotib qoldi. Yarador qo'rquv aralash goh unisiga, goh bunisiga tikilardi: oxiri odamning yurak-bag'rini ezib yuboradigan g'alati tovushda tilga kirdi:

— Qochinglar, Men endl odam bo'lmayman.

U chakmonining tugmalarini yechib tashlamoqchi bo'ldi: aftidan, yarasini ushlab ko'rmoqchi edi, lekin barmoqlari majolsizligidan faqatgina tugmalarini silab siyapaldi, xolos. Chuqur nafas oldi-yu, boshi yelkasiga shilq etib tushdi.

Sud ijrochisi lom-mim demadi, ammo rangi murday oqanib, yonoq suyaklari bo'rtib ketdi: xizmatkor yosh boladek ho'ngrab yubordi. U boshlariga mushlab sannab

yig'lardi: mening esa, qo'rquvdan tilim kallmuga ketmay goldi, g'o'dayganimcha ulardan ko'z uzmay turaverdim.

Nihoyat, ijrochi jasadni so'qmoqdagi qon hulqob bo'lib qolgan joyga yotqizdi-da, arang quddini rostladi. Nazzarimda, uning xuddi shu harakati yurak-bug'ini o'rtab yubordi, chunki turishi bilan men: «Qotil! Qotil! ushlangar!» deya faryod ko'targanimcha qoya tomon yugurib ketdim.

Hammasi bir nafasda ro'y berdi: dastlabki qoyadan oshib o'tgan paytimda ro'parimdu yana bittin yaydoq qoya namoyon bo'ldi, qotil esa hali uzoqqu ketmugun ekan. U temir tugmalni qop-qora chakmon kiygan norg'ul kishi bo'lib, qo'ida quvuri uzun ov miltig'i bor edi.

— Bu yoqqa kelinglar! — deb qichqirdim. — Ana u!

Qotil shosha-pisha orqasiga qaradi-yu, qocha boshladi. U bir soniyada qayinzorga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Birozzdan keyin o'rmonning yuqori qismida qorasidagi rindi: uning maymunday epchillik bilan cho'qqiga ko'tarilayotgani ko'rini turardi; qotil qoya ortiga o'tib ketdi-yu, uni boshqa ko'madim.

Bu vaqt ichida men ham bir joyda to'xtab turmadim, albatta. Xiyla balandlikka ko'tarildim, lekin pastdan char qirib qolishdi: «To'xtal!» deyishdi. Shu payt qayinzorning yuqori chekkasiiga yetib borgandim; orqanga o'girilgan mahalda o'rmonning ochiq joyi baralla ko'z o'ngimda namoyon bo'ldi.

Xizmatkor bilan sud ijrochisi so'qmoq ustida turi shardi: baqirrib-chaqirishgancha qo'llarini silkitshardi va meni orqaga qaytishga undashardi. Ularning chap tomonida, to'qayning etak qismida piltamiliqlarni oldindagi o'qtalgan ko'yi askarlar birin-ketin qoyaga o'rimalab chiqishardi.

— Nima uchun orqamga qaytishim kerak? — deb qichqirdim jahlim chiqib. — Undan ko'ra, o'zlarin bu yoqqa chiqinglar!

— Anavi bolani kim qo'iga tushisa, o'n fuit mu-kofot! — deb chinqirdi xizmatkor. — U qotining

hamtovog'i. Bizni gapga solib, chalg'itib turish uchun ataylab bu yoqqa jo'natilgan.

Shu so'zlarini eshitishim bilanoq (u askarlarga qarab qichqirayotgan bo'lsa ham, so'zlarini aniq-tiniq eshitdim) qo'rqqanimidan yurag'in tovonimga tushib ketdi. Agar hayoting xavf ostida qolsa, najor yo'lli topilishi mumkin: bиро'ла huyoldan mahrum bo'lsang-u, nomingha ham dog' tushsa, dodingni birov tinglamaydi. Qolaversa, hech kutilmagan paytda malomatga qoldim, butunlay esankirab, es-hushimni yo'qotib qo'ydim: go'yo quyosh charaqlab turgan osmonda momaqaldiroq gulduraganday bo'ldi.

Askarlar zanjir misoli olg'a silijy boshlashdi, ba'zilari yo'immi to'sib chiqish uchun yugurib ketishdi, boshqalarini esa piltamiltiqlarini yelkalaridan tushinishib, nishonga olishdi; men joyimda qilt etmasdan turaverdim. Shu payt yonginamandan:

— Daraxt orqasiga o'tib, o'zingni buyoqqa tashla! — degan tovush eshitildi.

Nima qilayotganimmi anglamasdan daraxt orqasiga o'tib, pastga sidirilib tushganimni bilaman: birdan piltiq o'qlari qayin shoxlari orasidan shuv-shuv etib o'tib ketdi.

Ikki qadamcha narida, qo'lida qarmoq tutgan Alan daraxt orqasida yashirinib turardi. U men bilan salomlashmad (hozir mulozamat qilib o'tiradigan payt emasdi): «Orqamdan yugur!» deb qo'ydi, xolos. U g'adir-budir tepatiklar bo'y lab Ballaxlish tomon chopib ketdi, men xuddi qo'zichoqday unga ergashdim.

Biz qayinzor orakab yugurib borardik: ba'zan tumshug'imiz yerga tekkudek engashganimizcha qoyalari ustidagi do'nigliklardan oshib o'tardik, ba'zan to'rt oyoqlab emaklab archagullar orasiga kirib ketardik. Orqal oldimizga qaramay yugurardik, yuragim ko'krak qafasimni yorib chiqib ketadigan alfozda dukurlar, umuman, yuragim yorilib ketishi ham hech gap emasdi: hatto boshimni qashlashga fursat yo'q edi, bir-ikki og'iz gapiray desam, o'pkam og'zimga tiqilib so'zlay olmasdim. Alan har safar

qaddini rostlab, orqasiga nazar tashlayotganda ko'zlarimni pirpiratganimcha unga qarab qo'yardin-a, bunga javoban olsdan, albaita g'azablangan askarlarning so'knishlari eshitillardi.

Taxminan chorak soat vaqt o'tgach, Alan archangullar ustiga yetib yelkasi osha menga qaradi.

— Endi hazil tugadi, — dedi chuqur nafis olarkan. — Agar yashashni istasang, men nimu qilsam sen ham shuni takrorlagin.

Keyin avvalgidan ham ming karra ehtiyojkor bo'lib, boy a kelgan yo'limizdan zudlik bilan nishablikka tusha boshladik, faqt sal yuqoriroq tomondan yurdik. Niroyat, Alanni dastlab ko'rgan joyimga yetganimizdan so'ng, u Litter sohilidagi to'qayda bitta qayin ostiga tappa o'zini tashladi-yu, yuzini qirqulolqlarga burkagancha harsillab nafas ola boshлади.

Mening qovurg'alarim mayaqlanib ketganga o'xshar, ko'z oldim jimirlar, og'zimdan go'yo otash purkardim, chanqoqdan yuragim yonib ketaman derdi, xullas, men ham tap etib uning yoniga yiqlidim.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

TO'QAYDAGI SUHBAT

Birinchi bo'lib Alan o'ziga keldi: o'midan turida, qayinzor yoqasiga borib, oislarni ko'zdan kechirdi, so'ngra ortiga qaytib, joyiga o'tirdi.

— Uf, isib ketdik-ku, Devid, — dedi.

Men javob bermadim, hatto boshimni ham ko'tarmadim. Ko'z o'ngimda qotillik ro'y berdi: quvnoq, istarasi issiqliq pahlavon birpasda jonsiz jasadga aylandi-qoldi: hamon unga achinardim, lekin chinakamiga kuyinmasdim. Alan jonidan ham baitar yomon ko'radigan odam o'idirildi, Alanning o'zi esa shu yerda, to'qayda yashirinib yotibdi, askarlarga tutqich bermadi. Tepkini

uning barmoqlari bosdimi yoki buyruq undan chiqdimi farqi yo'q. Fahmlashimcha, bu yovvoysi o'lkadagi yagona qonli jinoyatga bevositu aloqador bo'lib, bu hol kishini dahshatga solardi: yuziga qurashga ham yuragim betlasdi: quyosh ayovsiz qizdiriyotgan to'qayda odamxo'r bilan yonna-yon yotgandan ko'ra, o'sha qarg'ish tekkan orolda yakkamoxova o'xshab yomg'irga bo'kib yurgnim, ochlikdan o'lib ketganim yaxshi edi.

— Nima balo, hech nafasingni rostlab ololmayapsan? — deb murojaat etdi.

— Yo'q, — dedim, yuzimmi qirquloloqlar orasiga yashirganimcha. — Yo'q, allaqachon nafasimni rostlab olganman, gapnisim mumkin. Biz endi ajralishimiz lozim. Alan, men sizni yomon ko'rib qoldim: yurish-turishlarin g'atali ko'rinyapti, xuddodan qo'rmas ekan-siz: qisqasi, biz endi ajralishimiz kerak.

— Devid, hech qanday sababsiz, bekordan bekorga ajrashib ketolmasak kerak, — dedi Alan jiddiy ohangda. — Agar nomimga dog' bo'lib tushadigan biror narsa ma'lum bo'lsa, eski do'stligimiz hurmati rostini ayfishing lozim: shunaqa-shunaqa deb, agar tanish-bilishlarim yoq may qolgan bo'lsa, men sendan o'pkalashim lozim: bu axir haqorat-ku.

— Alan, bu gaplarning nima keragi bor? — dedim. — Juda yaxshii bilasizki, so'qmoqda anavi Kempbell qoniga qorishib yotibdi.

— Ubiroz sukul saqlab turdi-da, so'ng tilga kirdi:
— Bir kishi va oliyanob millat haqidagi cho'pchakni eshitmagannisan?

— Men uni nasihatomuz ertak aytmoqchi shekilli, deb o'yladim.

— Ijozat bersangiz, mister Belfur, baribir aytib beraman, — dedi Alan. — Kunlardan bir kuni bitta odam dengiz o'ttasidagi qoyaga itqitib tashlanibdi: o'chakishgandek o'sha joy oliyanob millatning sevimi

maskani ekan: ular Irlandiyaga ketayotgan chog'larida doimo qoya ustida hordiq chiqarishardi. O'sha qoyanining nomi Skerrivor bo'lib, u kemamiz halokatgen uchragan joydan unchalik olis emas. Shunday qilib, bechorn odum: «Eh, o'imim oldidan o'z bolamni bir marta ko'ram edim, dunyodan bearmon keturdim!» deyu dod solib yig'lay boshlabdi. Uning yurak-bug'ri ezliyorganli oliyjanob millat qirolining qulog'iga yetib boribdi va rahmdil qirol yer ostidagi xazinani qo'riliuydigun budbushara, sersoqol mitti kishiga firmon beribdi: «Uchib borib bolakayni qopchiqqa solib keltinglar va anavi sho'rpeshonu ux-layotgan payda yoniga yotqizib qo'yinglar!» Odam uyqu-dan uyg'onsa, yonginasida qopchiq turgannish, qopchiqning ichida esa bir narsa qimirlarmish. Aksiga olgandek, u o'zing soyasidan ham cho'chiydigan janoblar toifasidan ekan: xullas, tag'in biror kor-hol ro'y bermasin deb, qopchiqning og'zini ochishdan avval ehtiyyot shart, xanjarni qopchiqqa bir tiqib olibdi: keyin qopchiqni munday ochib qarasa, bolakay o'lib yotgammish... Nazarimda, mister Belfur, siz o'sha odanga qarindoshga o'xshaysiz.

— Demak, bu ishda sizning qo'lingiz yo'qmi? — deb shartta o'mindan turib ketdim.

— Avvalambor, mister Belfur, eski do'stligimiz hurmati, birovni astlasofilinga jo'natmoqchi bo'lgan yovuz niyatlari kishi qarmoqni yelkasisga tashlab olib sayr etib yurmaydi, qilich yoki militiq ko'tarib yuradi. Qolaversa, qabiladoshlarini malomatga qoldirmaslik uchun bunday ishni ona yurtidan olsiroq joyda amalga oshiradi, — dedi Alan.

— Ha, bu gap to'g'ri!

— Endi, — deb davom etdi Alan xanjarini qinidan sug'urib, keyin uni tantanavor ko'ksiga bosdi, — men mana shu muqaddas tig' hurmati qasam ichib aytamanki, tushimda ham, hushimda ham mutlaqo qotillikkha aloqador emasman!

— Xudoga shukr! — deb xitob qildim va unga qo'llimi uzatdim.

Alan qo'limga qayrilib ham qaramadi.

— Muni qara-ya, bitta Kempbellning ishi shunchalik muhim ekan-da! — dedi. — Daf'atan kamyob hodisaga o'xshamaydi-ku!

— Hadeb meni ayblayerish ham unchilik to'g'ri emas-da! — dedim. — Kemada nimalar deganiningizni bir eslab ko'ring, axir! Hartugul, xudoga shukrki, vasvasa bilan qilmish o'rtasida juda katta tafovut bor. Har kim ham vasvasaning komiga tushib qolavermaydi, lekin, Alan, sovuqqonlik bilan bitta insomni jomidan judo qiliish har kimming qo'liidan kelavermaydi!.. — Nafasim bo'g'ilib, so'zlashdan to'xtab qoldim. — Mabodo xabaringiz yo'qmi, bu ishni kim qildiykin-a? — deb qo'shib qo'ydim birpasdan keyin. — O'sha davangirday yigitni (qop-qora chakmonli) tanimaysizmi?

— Chakmonning rangi qora ekaniga kafolat berolmayman, — deb javob berdi Alan mug'ambirlik qilib. — Nazingimda, chakmon ko'k tusli edi.

— Ko'k bo'ladi, qora bo'ladi — buning ahamiyati yo'q, lekin siz o'sha odamni tanidizingizmi?

— Vijdoman aytasam, qasam icholmayman, — dedi Alan. — Shubhaisiz, u yonimdan o'tib ketdi: hamma balo shundaki, bilasanni, xuddi o'sha dama boshmog'imming bog'ichini bog'layotgan edim.

— Unday bo'lsa, balki uni tanimasdim, deb qasam icharsiz-a? — dedim jahlim chiqib. Bir tomonidan, uning vaj-karsonidan kulgim qistardi.

— Bunday ham qilolmayman, — deb javob berdi u. — Eh, Devid, bilasanni, xotiramning mazasi yo'q: Hamma narsani esimdan chiqarib yo'yaveraman.

— Lekin men ba'zi narsalarни aniq ko'rdim, — dedim. — Siz jo'rttaga o'zingiz bilan meni ularga yaqqol ko'rsatdingiz, askarlarni chalg'itish uchun shunday qildingiz.

— Bo'lishi mumkin, — deb fikrimga qo'shildi Alan. — Mening o'minda boshqa bir insofi inson bo'lganida ham shunday qildi. Bu yerdə bizning hech qanday aybimiz yo'q.

— Ha, bizzdan bekorga shubhalanishyapti: vaholanki, bahonalarni qalashshtirib tashlashimiz mumkin! — dedim qizishib. — Haq odam aybdorga nisbatan qondiydir us-tunlikka ega bo'ladi!

— Devid, haq odam o'ziga taqalayotgan byjni sud-da rad etish imkoniyatiga ega; o'ylyymunki, o'q uz-gan davangir uchun changalzordan bohqin pinoh yo'q. Agar sen o'z qo'lingni bulg'amagan bo'hanga, demak, qo'llari unchilik toza bo'lman odamlar haqidagi ko'proq g'anxo'rlik qilishing lozim. Shundagini olyjanob xristian bo'lasan. Negaki, agarda hammasi teskarri bo'lgunda borni, aytaylik, o'sha aft-bashurasiga tuzukkina nazar solishga ham ulgurmagan davanger bizning o'mimizda, biz uning o'mida bo'lsak (axir shunday bo'lshi ham mumkin edi-dal), ya'ni u askarlarini chalg'itganida, niyoyatda minnador bo'lardik!

Mana shunaqa, munozara boshlanib qolsa, Alan ikki oyog'imi bitta etikka tiqib turaveradi. Ammo u soddadilik bilan vaysar, haqligiga rostdan ham ishonardi, zimmasi-dagi burchni ado etish uchun o'z hayotini qurban etishga ham rozi bo'lardi. Men miq etmasdim. Beixtiyor mister Xenderlending so'zlarini esladim: «Biz ana shu yowvoyi tog'liklardan o'mak olsak savob bo'lur edi». Nima ham derdim, o'zinga yarasha saboq oldim. Alanning g'urur va burch haqidagi tasavvurlari telba-teskari edi: o'shalar uchun o'ylamay-netmay o'zini o'tga-cho'qqa uraverdi. — Alan, olivjanob xristian xususida sizchaliq tasavvurga egaman deyolmayman-u, ammo so'zlarining shundoq ham olivjanoblik sezilib turibdi, — dedim. — Shuning uchun yana bir bor sizga qo'limni uzataman. U ikkala qo'lini menga uzatdi va agar barcha ta'nashummlaringni eshitganidan keyin ham yarashayotgan bo'lsam, bilginki, kamani sehrlab qo'yibsan, deb to'ng'illadi. So'ng qiyofasi turdashdi: fursatni qo'ldan boy bermay, zudlik bilan juftakni rostlashimiz darkor: hozir Epinning tit-pitini chiqarib tashlashadi. Yo'lda duch kelgan har bir kimsani so'roqqa tutishadi: men shundoq

ham qochoqman, sen bo'lsang, istaysamni-istamaysamni, qotillikka aloqadorsan, dedi u.

— Vo-o! — deb pishqirib yubordim ataylab jahlini chiqarish uchun. — Men vatanimning odil sudidan qo'r mayman.

— Vatan seniki bo'lsa koshkiydi! Xuddi bu yerda — Styurtlar yurtida kimdir seni sud qiladigandek gapirasani-a!

— Qayerda sud qiliqlarining unchaliq ahamiyati yo'q hammayoq Shotlandiya-ku! — dedim.

— Do'stim, ba'zan senga qarab turib tushunolmay qolaman, — dedi Alan. — Axir sen Kempbell o'ldirilganini hisobga olgin-da. Demak, Invererida — Kembellar inida sud bo'adi, o'n besh bosh Kempbell esa qasamyod qilgan hakamlar qatorida o'tiradi, sudya o'rindig'iga esa Kembellarning Kempbelli — gersog o'ligini tashlab oladi. Devid, boyta odil sud, dedingmi? Tog' so'qmog'ida hali Glenur qay yo'sinda o'limga mahkum etilgan bo'lsa, odil sud ham xuddi o'shandek tartibda ish ko'radi.

Rostini aytsam, bu gaplar kamminani unchaliq qanoat-lantirmadi, agarda Alan haq bo'lganda, men bunga to'latto'kis qanoat hosil qillardim: o'ylashimcha, u ba'zan ko'pitrib yuboradi: masalan, sud maslahatchilaridan faqat o'n bittasi Kembellar edi, xolos. To'g'ri, boshqa to'rtasi ham so'zsiz gersogga bo'ysunardi. Umuman, siridin muhim bo'lib ko'rindigan bu narsalar deyarli ahamiyatsiz edi. Shunga qaramay, gersog Argalskiy masalasida Alan bilan rosa talashib-tortishdim: «Axir, u aqli raso akobir, halol odam, bekorga vig emas-kul» dedim.

— Buni qara-ya! — dedi Alan miyig'ida kulib. — Uning vig ekani to'g'ri, bunga hech kim shubhalamaydi, lekin u o'z qabilasining bahodir yo'lboshchisi ekani ni ham esdan chiqarmaslik lozim. Qabiladoshlari nima deyishadi: Kempbellni otib o'ldirishsa-yu, olyi sud raisi qabilalarining yo'lboshchisi bo'lishiga qaramasdan, birov dorga osilmasa? Men bir necha marta iqror bo'lganmanki,

teklikdik yashaydigan uholi negadir yaxshi-yomoni ajrata olmaydi.

O'zimni tutolmasdan xaxolab yubordim! Alan ham menga qo'shilishib qahqaba otayotganini ko'rib hayron bo'ldim.

— Yo'q, yo'q. Devildi. — dedi. — Hozir tog'da turib-miz, agar men adutlarni rostish kerko, deman, alin ham paynalgan solib o'tirmagan onqa-oldingan qaromay qochar-vej! Dihannan, tog'u tashlarda, o'monda amil saqlanmaydi, o'chidan o'lishi hech kops emas, ammo qizil munditillar o'qiga uchunlig yoki qarmonqa tushib qolsang, undan ham batir bo'indi.

Undan, endi quoqqa qarab qocharmiz, deb so'radim. «Jambu tomonidan», dedi. Rostini ayuganda, tezroq uya quyidh borib, amukim bilin hisob-kitobni o'miga qo'yishni juda hum istardim. Shuning uchun Alan bilan birga yo'lgatuhilashun voz kecha olmadim. Bundan tashqari, odilona sud bo'lishi haqidagi xontama bo'lmoxlik ahmoqqa xos xususiyat edi: Alanning so'zları shubhaga o'rinn qoldirmondi. Hadiksirab qoldim: Alan haq bo'lsa, meni sog'qo'yishmaydi. Agar quy yo'sinda o'lishni istaysan, deb so'rnasli, hech qanday imkonim qolmag'an tuzdiridagina, dorgan o'sin qolninglar, deb javob berardim. Bir paytlar daydi attordan mo'juz kitobcha sotib olgandim; unda manzuma va manzumaga ishlangan rasmlar chop etilgandi: jirkanch qurilmani (domi) ilk bora o'shanda ko'rganman — ko'z o'ngimda mudhish manzara namoyon bo'idi-yu, odil sudga bo'lgan ishonchimga raxna tushdi.

— Alan, endi bo'lar ish bo'ldi, — dedim. — Siz bilan ketaman.

— Oldindan aytib qo'yay, bu senga o'yinchaoq emas, — dedi Alan. — Doimo och-nahor yurasan, na parto'shak, na ko'pa bor. Kakliklar bilan o'rin talashib yotasan, ovchidan hurkkan bug'uday hayot kechirishsan: qo'ldan qurolingni qo'y may uxtaysan. Ha, og'ayni, xavf-xatardan forig' bo'guncha bir necha chaqirim mobaynida mashaqqatga dosh berish lozim. Oldindan ham-

masini o'rgatib qo'yaman, chunki men bunaqa hayotning ipidan ignasigacha bilaman. Yana qanday yo'l bor, deb so'raydig'an bo'lsang: ochig'i, boshqa hech qanday yo'l yo'q. Yo orqamdan ovloq so'qmoqlar bo'ylab ketasan, yoki dor ostiga ravona bo'lasan.

— Bitu yo'lni tanlash qiyin emas, — dedim va shartnomamizni qo'l siqishib mustahkamladik.

— Ana endi qizil mundirilarga bir ko'z tashlab qo'yaylik-chi! — Alan meni o'mmoning shimoli sharq chekkasiga yetaklab bordi.

Daraxtlar ortidan qarashimiz bilan ko'z o'ngimizda ko'rfa zga tik tushgan ulkan qoya namoyon bo'ldi. Atrofda xarsangtoshlar yastanib yotar, yakkam-dukkan archagul-laru egri-bugri qayin nihollari bor edi. Huv, olisda — Bal-laxulish tomondagi yonbag'irda dam yuqoriga, dam past-ga, goh tepalikka, goh jarlikka qarab o'rhayotgan mittigina qizil ibislardan tobora kamayib borardi. Baqir-chaqirlar tinib qolgan, demak, askarlar holdan toygan bo'lsalar ajab emas, lekin ular hamon bizning izmizdan kelishardi, hoy-nahoy, qochoqlarga yetib olishga ishonchlari komil shekilli.

Alan miyig'ida kulinsiragan ko'yi ularni kuzatib turdi.

— Ana xolos, — dedi u. — Chuv tushib qolganliklari anglab yetgunlariga qadar yigitlarning tinkasi qurib ketadi! Bundan chiqdiki, Devid, tag in birpas nafasimizni roslab olishimiz mumkin: o'tirib tamaddi qilamiz, suvdan bir-ikki qultum suv ichamiz. Keyin Oxarn tomon yo'l olamiz, qarindoshim Jeyms Glenning xonadoniga tashrif buyuramiz-u, ust-boshlarimmi, qurolimmi va yo'l xarjiga pul-mul olamiz-da, hayyo-huyt deb, boshimiz oq-qan tomonga qarab ketamiz.

Biz maysalar ustiga o'tirib ovqatlandik, suv ichidik: kimsasiz, yovvoyi, azim tog'lar ortiga botayotgan qu-yosh ko'rinish turardi: do'stim bilan ana shu o'lkada sarsari kezmog'im lozim. O'rgan kunlar mobaynida ko'rgan-kechirganlarimiz haqida qisman dovonda o'tirgan

chog'lmizda, qisman Oxarnga ketayotgan paytimizda bir-birimizga gapirib berdik; Alanning surguzashidan eng muhim, diqquga sazovor o'rinalarini quyida bayon etmoqchiman.

Shunday qilib, meni itqitib tashlagan to'lqin orqaga qaytar-qaytmas u bort to'sig'i yoniga yugurib boradi-da, alang-jalang qilib meni qidra boshlaydi. Gidobda joholatda qo'larmi shatop-shalup qileyotganimni ham va so'nig'i danda langara yopishib ollanimni ham elas-elash ko'rib qoldi. Xuddi shu nara ko'ngilida unid uyg'otadi, om'on-ezon quruqlika chiqib olishimiga ishonadi va qayruh horu, o'zidan keyin albatta bitor nishona qoldirib ketishga ahd qiladi, men esa oxibada Epin yeriga chiqib oldim.

Oxiri komudagi qayiqni suvga tushirishib ikki-uch kishi unga o'tirib olishga ham ulguradi: xuddi shu chog'da oldingisidan ham ulkanroq to'lqin yopirilib keladiyu, kemuni qoya ustidan yulqib oladi: agar kema xarsang qirniga sanchillib qolmaganda, suvga g'arq bo'lib ketardi. Kema qoyaga tumshug'i bilan uriladi-yu, quyrul qismi suvga botib ketadi. Quyrul qismi havoda muallaq qoladiyu, tumshug'i dengiziga sanchilladi va oldingi tomonda-gi tuyukdandan kema ichkarisiga bir tegrimon suv sharillab kira boshlaydi.

So'ng'a shunaqa bir hodisa ro'y beradiki, gapirayotib Alanning hum rangi bo'zarib ketdi. Umumiy xonada ikkitin og'ir yarador karavotda yotgan ekan, tuyukdandan suv otlib kirayotganini ko'rib, ular kemamiz cho'kib ketidi, deb o'ylashadi va dod-faryod ko'tara boshlashadi, palubada turgan dengizchilar ziddik bilan qayiqqa sakrab tushadilar-u, eshkaklarni bosib olishadi. Biroq ular ikki yuz quloch uzozlashmasdanoq yana bahaybat to'lqin bostirib keladi-yu, kemani qoyaga qapishib turgan joyidan tortib oladi va kema yelkanlarini pufakdek shishirib quv-lashmachoq o'ynayotgandek qayiq ortidan shitob bilan yo'liga tushadi, ammo asta suvga cho'kaveradi: go'yoki suv ostida qandaydir ko'zga ko'rinnas qudratli qo'l uni

suv qa'riga tortayotgandek chuoqurroq botadi va nihoyat cho'kib, Daysetning «Vasiyat» kemasi ustida haybatli to'qinlar birlashib ketadi.

Qayiq to qirg'oqqa yetgunchea eshkakechilar lom-mim deyishmaydi, yaradolarning o'lim oldidagi dod-faryodi hammaning til-jag'iga kishan solib qo'ygan edi. Ammo qurulikka yetay deganda Xozison birdan sergak tortadi va Alanni ushlanglar, deb farmon beradi. Aftidan, farmon dengizchilariga unchalik yoqmaydi, ular nima qilishlari ni bilmasdan bir joyda depsimib turaveradilar: Xozison esa quturib ketadi: «Alan endi yolg'iz, uning puli juda ko'p, mana shu yuvuqsizing kasofati tufayli kema g'arq bo'idi, og'a-inilarimiz halokatga uchradi: hammasi uchun bиро'ла qasos oladigan va katta boylikni qo'liga kiritadi gan fursat keldi» deb bo'kiradi. Ular yetti kishi edi, boz ustiga, Alan suyanishga yaqin atrofda birorta xarsang ham ko'rinnasdi: dengizchilar asta-sekin tarqalishib, uni qurshay boshlaydilar.

— Xuddi shu payt haligi sarg'imtir pakanavoy bor edi-ku... xah, oti nimaydi-ya, xullas, o'sha oldinga chiqdi, — deb hikoyasini davom ettirdi Alan.

— Uning ismi Riak, — dedim.

— Ha, ha, Riak! Sira ishongim kelmaydi, o'sha mening yonimni oldi; dengizchillardan, jazodan qo'rqlmay-sizlarmi, deb so'radi. Keyin: «Unday bo'lsa, men mana shu tog'lik bilan yelkama-yelka turib sizlarga qarshi kurashaman, jin ursin!» dedi. Bilasanni, o'sha sariq popushak unchalik yomon odam emas ekan, — dedi Alan. — Hali vijdonini yo'qotmagan ekan.

— U menga ham baholi qudrat yaxshi muomala qilar-di, — dedim.

— Alanga ham yomonlik qilmadi, — dedi og'aynim. — Qolaversa, u tabiatan kamnaga o'xshar ekan! Bilasanni, Devid, kema halokati va anavi baxtiqarolarning dod-faryodi uning yurak-bag'rini kuydirib yubordi. O'ylashimcha, hamma jumboq mana shu yerda bo'lsa kerak.

— Ehtimol, — dedim. — Dastlab, pulga u ham bosh-qalardan kam ko'z olaytirmagan edi. Xozisonga nima bo'ldi?

— Menimeha, jini qo'zib qoldi. Lekin pokunavoy menga: «Qocht!» dedi-yu, jutifikoi rosladim. Yuqt so-hilda ularning to'dalashib turganini ko'rib qoldim, xolos. Nazarimdu, har xil dunyoqurashlar to'qushib qolgandi.

— Ya'ni, buni quanday tushumni bo'ladil?

— Muhibbahuв hoshlandi, — deb tushuntirdi Alan. — Ko'z o'niginda hittai qoppa o'shilab gurs etib yiqildi. Afuski, tomonha qilib o'turuqiga vaqtin yo'q edi. Xabarini bo'lin, Mall orolning nurigi tomonida Kembellar qabilasi yashaydi, bizning quirindoshlarimizga esa Kembellar jamouti munosib enas. Aks holda, hech quyoqqu qochib o'tirmasdim, seni o'zim izlab topardim va pakanavoyga ham yordam berardim, albatta (qiziqki, Alan zo'r berib mister Riakning bo'yи pastligini tu'kidlardи-yu, lekin o'zining undan salgina baland ekani ni mutlaqo e'tborga olmasdi). Shunday qilib, oyog'imga zo'r berdim, — deb davom etdi Alan. — Yo'lda uchragan odunga, huv unavi sohilda halokatga yo'liqgan kema yotibdi, deb e'lon qilaverdim. Og'aynichalish, buni eshitib ular menga qijo ham boqishmasdi! E-e, bir-birini quvib, qirg'oq tomonga yugurishganini bir ko'rsang edi! Borib ko'rishsaki, bekorga hapillashgan ekan, mayli, Kembellar qavmiga bunaqa «musobaqa» ziyon qilmaydi. Menimcha, xudoyim o'sha qabilani mazaxlash uchun ataylab kemanini sindirib, o'tin qilib o'tirmadi-yu, butuni cha cho'ktirib yubordi. Faqat bu hol senga zarar yetkazdi, xolos. Agar sohilga loaqal payrasha oqib chiqqanini ko'rgankaridayam, butun qirg'oqni elakkdan o'tkazishardi, — dedim.

QO'RQUV MASKANI

Biz olg'a intilayotgan paytimizda kech kirib qoldi. Kunduzi osmonni uvada misoli titilib ketgan bulut qoplagandi, oqshom cho'kkandan so'ng esa qora bulut bosib keldi-yu, yoz fasli bo'lishiga qaramasdan, atrof zimziyo bo'lib qoldi. Tog'ning g'adir-budir nishabligi bo'ylab ketib borardik; Alan oldinda turrimay ilgarilar, men uning yo'ldan adashmayotganiga hayron qolardim.

Nihoyat, kechki soat o'n yarimlarda pastlikka tusha boshladic: poyimizda vodiy yastanib yotar, gulxan jolasi ko'zga tashlanardi. Konadon eshiklari ochilib-yopilganda o'choqdagi olov yoki sham shu'lasi ko'riniq qolar, uy atrofida, qo'rg'on hovlisida esa boshhari uzra mash'ala ko'tarib olishgan besh-olti kishi yelib-yugurishardi.

— Nima balo, Jeyms aqlidan ozib qolmadimikan, ishqilib? — dedi Alan. — Agar hozir askarlar bo'lsa uning holiga maymumlar yig'lardi. Menimeha, u yo'lg'a pistirma qo'ygan bo'lsa kerak; biz kelgan yo'ini Jeyms juda yaxshi biladi, lekin askarlar zinhor-bazinhor topolmaydi.

Shundan keyin Alan uch marta shartli hushtak chaldi: dastlabki hushtak tovushi yangrashi bilan barcha olov atrofidagilar qotib qolgandek bo'ldi, go'yo mash'alachilarni qo'rquv yerga mixlab qo'ygandek edi; hushtak uchinchi bor chalinganda yana g'imir-g'imir boshlendi. Biz shu taripa qo'rg'on aholisini imchilantirdik-da, nishablik dan tushdik va darvoza oldida (qo'rg'on badavlat dehqonlarning xo'jaligini eslatardi) ellik yoshlar atrofidagi ko'rksamgina, novcha kishi yo'limiza peshvoz chiqdi-yu, gellar tilida Alanga bir nimalar dedi.

— Jeyms Styuart, shotland tilida gapirishingni illimos qilaman, — dedi Alan. — Chunki bitta mehmon boshlab kelyapman, u bizning tilimizni tushumaydi. — U qo'itig' imdan oldi-da, qo'shimcha qildi: — Manavi yigitchani nazarda tuyayapman; yosh mulkdor, pastlikda

yashaydi, mulkdor, menimcha uning yet-mulkini eslamaganimiz nu'qul, aks holda egasining mazusi qochib qolishi mumkin.

Jeyms Glen men tonon o'girildi-da, qoyillatiib ta'zim bujo keltirdi va darhol Alaniga murojaat etdi:

— Bay-bay-bay, ko'rg'ilkoi qara-yal! — deb xitob qildi. — Endi boshlimizga kulfat yog'iлад! — U burmoqlarining boyinlarini qisirlardi.

— Duydiyo qluvermal! — dedi Alan. — Bir yomonning bir yassishi bo'lad! Xudoga shukr, Kolon Roy adyoj tumom bo'ldi!

— Shundayku-ya, lekin xudo haqqi, uni turlitigan odamning boshididan tilha sochardim! Yov qo'chsa, botir ko'puynidi, deydi. Biroq endi bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi. Seningcha, kim jazolanadi? Qotililik Epinda ro'y berdi, demak, Epin javobgar bo'lishi lozim. Alan, o'zing o'ylab ko'rigin axir, men ayoymand kishiman.

Subbat mobaynida xizmatkorlarni tomosha qilib turdim: ba'zilar tomg'a narvon qo'yishdi-yu, pichan g'arami ichindun miliq, qlichek kabi quroq-yatrog'larni chiqarib olishdi; boshqular esa bularni quyoqlargadir tashib ketishdi; vodiy ichkarisidan eshitilayotgan dastuli so'qularning tovushidan bildimki, ulur quroq-yatrog'ni yer ostiga ko'mishardi. Har kim jonini jabboru berib ishlardi-yu, lekin hech qanday tutibgar rioya etishmasdi: goh ikki kishi bitta qurolga yopishardi, gohida boshi uzra mash'al ko'tarib yurganlar bir-biri bilan to'qnashib ketardi. Alan bilan gaplashayotgan Jeyms ba'zan suhbatni bo'lardi-da, baland tovushda qandyadir ko'rsatmalar berardi, ammo buyruqlar ko'ngildagidek jarilmassi. Mash'ala yoritib turgan kishilarning qiyofalaridan g'ala-g'ovur ularni xiyla esankiratib qo'ygamni sezish mumkin edi; biror tovushini ko'tarib gapirmasdi, lekin pichir-pichirlar ham tashvishli, qahri eshitilardi.

Shu payt oqsoch uydan tugunchami, bo'xchami ko'tarib chiqdi-yu, unga ko'zi tushgan Alan birpasda kailovlanib qoldi (o'sha holatni eslasam, hanuzgacha kulgin qistaydi).

— Anavi qizning qo'lidagi narsa nima? — deb so'radi taraddudlanib.

— Alan, uyni tartibga solyapmiz, — deb javob berdi Jeyms biroz qo'rquv, ayni chog'da xushomadgo'ylik ohangida. — Endi Epuni boshdan oxtirigacha titib tashlashadi; g'animizni yeb qo'ymasak, arzimagan narsaga ham ting'alishlari hech gap emas. Tushunasan-ku, miltiq bilan qilichlarni torf koniga ko'mib qo'ymasak bo'lmaydi; anavi qizning qo'lidagi tugunchada farangicha kiyimkechaklarining bor. Menimcha, uni ham ko'mib qo'ysak yomon bo'lmasdi.

— Farangicha kiyimlarim ham yer ostiga ko'miladimi? — deb baqirib yubordi Alan. — Aslo hojati yo'q! — Oqsoch qo'tidan tugunchani yulqib oldi-da, kiyimlarini almashtirib chiqish uchun omor sati yo'l oldi.

Men uning qarindoshi bilan yolg'iz qoldim. Jeyms mulozamat ko'rsatib kamini oshxonaga boshlab kirdi, stolga o'tqazdi, o'zi ham yonimdan joy oldi va har xil kulgili voqealarini gapirib berib, zeriktirmay o'tirdi. Biroq ko'p o'tmasdan tashvishga tushib qoldi. Meni ham unutib timoqlarini g'ajiy boshladи; goh huzurida mehmon borligi esiga tushib qolardi-yu, zo'raki jilmayib qo'yardi va birikki og'iz so'z qotar, so'ngra butun vujudini yana qo'rquv egallardi. Rafiqasi o'choq ro'parasida o'tirgancha, yuzini kaftlari bilan to'sib yig'lar, katta o'g'li cho'kka tushib polda yotgan qog'oz uyumlarini titkilar, ba'zi birlarini tanlab, uni o'choqqa tashlar, kuyib kul bo'lguncha kuzatib turardi; yig'layverib qovoqlari shishib ketgan oqsoch o'zini qayyoqqa qo'yishni bilmasdi va burchakka borib ohistagini piq-piq yig'lardi; dam-badam eshkidan birrov mo'ralardiyu, endi nima qilamiz, deb so'rardi.

Oxiri Jeymsning toqati toq bo'ldi, joyida o'tirolmay goldi va beodobchilik qilayotgani uchun uzr so'radi-da, mendan xonani aylanib yurishiga ruxsat so'radi.

— Ser, bilib turibman, sariq chaqaga ham qimmat suhbattoshman, — dedi u. — Baribir xayolimga o'sha baxtsiz hodisadan boshqa hech narsa kelmayapti; shuning

oqibatida qanchadan qancha begunoh kishilarning boshiga bulo yog'iudi, axir!

Bir ozdan so'ng o'g'li boshqa qog'ozlumi yoqayotgani puyqab qoldi-yu, sabr kosasi toshdi; Jeymsning ahvoliga nazar tashlash ham azob edi. U yigitchaning yuziga bir-ikki marta tarsaki tortib yubordi.

— He-e onangni... temnik! — deb qichqirdi u. — Nima, otangni dorga osdimmoqeheimisan? — Xonuda mehnmon o'tirganini ham umidi-yu, xumordan chiqquncha o'g'lini gel tilida rosa so'kdi. Yigitcha miq etmasdi, lekin adoro so'zi eshitilishi bilan osonudon sohibasi yuzini qo'llari ostiga yashirib ho'ngrab yubordi.

Bunday holatni ko'rish, bunday gaplarni eshitish begoni odunga nihoyatda og'ir edi; Alan qaytib kelganda o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim, o'zining farangicha kiyim-boshida olifta ko'rindi, ammo insof bilan ayvangan, kiyimini bashhang deb bo'lmasdi; g'ijimlanib, to'zib ketgan edi-da! Keyin menga navbat keldi: xo'jayinining o'g'illaridun bittasi kamini oshxonadan tashqariga boshlab chiqib, kiyimlarimi almashtirib olishimni so'radi (aslida, allaqachon shunday qilishim lozim edi); menga tog'liklur kiyudigan bug'u terisidun tikilgan bir juft boshmoq berdi; dastlab, bunday oyooq klyymida yurish xiyla noqulaydekkuyildi, lekin biroz yurib ko'rghanidan so'ng amin bo'ldimki, bu juda zo'r moyafzal ekan.

Oshxonaga qaytib kirmsam, nazarimda, Alan o'z rejasini aytil ulgurgan edi; harholda, sukul alomatida sezdimki, birga yo'iga tushamiz, allaqachon safar tadorigi ko'rildandi. Bizza qilichu ikkitadan to'pponcha berishdi. Qilichbozlikka uquvim yo'qligini yashirib o'tirmadim. O'shimcha tarzda anchamuncha o'q, bir chipta xalta-suli yormasi, temir lagancha, suvdomi to'dirib ajoyib farangi mayidan quyib berishdi. Xullas, yo'iga chiqishga tap-tayyor edik. To'g'ri, pul unchalik mo'l topilmadi. Cho'ntagimda ikki tangaga yaqin pul qolgan edi; Alanning tilla to'la kamari esa boshqa bir choppardan berib yuborilgandi, Ardhilning ishonchli vakiida bor-yo'g'i o'n

yetti pens qolgandi, xolos. Ma'lum bo'lishicha, Jeyms ijadorlarning har xil yumushlari tufayli Edinburgga tez-tez qatnab turarkan va ko'pgina chiqindor bo'lib qaytar ekan: shuning uchun amal-tuqal qilib zo'rg'a uch shillingu besh yarim pens to'plab berdi. Boz ustiga, pulning ko'pgina qismi mis chaqulardan iborat edi.

— Yetmaydi, — dedi Alan.

— Sen shu yaqin atrofdagi ishonchli joyda yashirinib yotishing lozim, — dedi Jeyms. — Keyin xabar qilar-san. Alan, gapim malol kelmasin-u, lekin shoshilishing kerak. Qandaydir ikki-uch tanga uchun imrinsilab o'tirsang bo'lmaydi, g'animat fursatni boy berishing mumkin. Agar shu yerda ekanningi sezib qolishsa, xudo ko'rsatmasin-u, lekin yuragim sezayapti-da, birpasma tintuv boshlana-di va hamma aybni senga ag'darishadi. Mabodo qo'lgan qarindoshamiz, bu yerlarda mehnmon bo'lgan paytingda yashirib qo'yardim. Agar meni qo'lgan olishsa... — U tilini tishladi-yu, rangi oqarib ketdi va timog'mi g'ajiy boshladi. — Agar meni qo'lgan olishsa, biznikilarga juda og'ir bo'ladi, — deb gapini yakunladi.

— Epinning qora kunlari boshlanadi, — dedi Alan.

— Buni o'ylashning o'zi dahsat! — dedi Jeyms. — Bay-bay-bay, Alan, biz xotinlarga o'xshab valaqlashib o'tiribmiz-a! — U kafbi bilan devorga urib qo'yganida butun uy zirillab ketdi.

— To'g'ri-da, nima bo'pit? — dedi Alan. — Mana, pastlikda yashaydigan do'stim ham shu haqda gapirgan edi. — U men tomonga ishora qildi. — Afsuski, uning gaplariga quloq solmagan ekannan.

— Bilasanni, Alan, mabodo meni qamoqqa olishsa, unda pul kerak bo'ladi, — dedi Jeyms bosiq ohangda. — O'shanda nimalar deganimi-yu, sen nimalar deganini eslab qolishadi va ish ikkalamiz uchun ham chappasiga ketadi, fahmlayapsam? Fahmlayotgan bo'lsang, yaxshilab o'ylab ko'r, o'z qo'llim bilan asosiy belgilaring xususida izohat taylorlashga, boshing evaziga mukofot va'da qilish-

ga majbur bo'lajugimni nahot tushunmayotgan bo'lsang? Ha, ha, qochib qayyoqa ham borardim! Qudron do'stga qo'l ko'turish oson emas, lekin o'sha dabsatlari buxtsizlik uchun javob beradigan bo'lsam, do'sti aziz, o'zimni himoya qilishga majbur bo'laman. Tushundingmi?

U bu so'zlarini iltijo ohangida, Alanning munduri yoq-sidan mahkam ushlab olgan ko'y'i irod etdi.

— Ha, — dedi Alan. — Hammisini tuhomomin.

— Alan, bu yerlurdan tezroq jo'na... Ha, ha, Shotlan-diyaga qo'ch... O'zing qo'ch, tunishningi ham ergashtirib qo'ch. Chunki jumubly o'ikaladun kelgan tunishningning asosiy belgilari xususida hujjat tuyyorlash ham zimmanga tushadi. Alan, axir buni tushumasun, to'g'rimi? Tushumanan, degin axir!

Menga shunday tuyuldimi yoki haqiqatan ham Alan ning g'azabi jo'shib ketdimi?

— Jeyms, axir buning qanday aloqasi bor? — dedi yalinechoq ohangida, boshini orqasiga tashlab. — Axir uni bu yoqqa men boshlab keldim-ku! Meni sotqinda chiqarib qo'ydingmi!

— Shoshma, Alan, o'zing o'ylab ko'r! — deb xitob qildi Jeyms. — Haqiqatning ko'ziga tik qara! Uning asosiy belgilari borasida baribir hujjat tuziladi; buni Mango Campbell jon-jon deb yozib beradi. Xo'sh, o'sha qog'ozni men yozib bersam nima bo'pit? Qolaversa, oilam bor, axir, Alan. — Ikkalasi birpas jum qolishdi. — Alan, sudni Kembellar bichib-to'qishadi, — deb yakunladi.

— Xudoga shukrki, jilla qursa, do'stinning ismimi birov bilmaydi, — dedi Alan o'ychan.

— Bilo maydi ham, Alan! Ishonmasang, kallamni olishing mumkin! — deb baqirdi Jeyms. U go'yo mening ismimi biladiganday, endi o'z manfaatiga qarshi gapirayotgandek edi. — Lekin uning qanday kiyimda ekannini, tashqi ko'rinishimi, yoshimi va boshqa belgilarini aytmasdan ilojim yo'q. Yoki boshqa yo'li bormi?

— Senga qarab turib, yoqamni ushlayapman, — dedi Alan g'azabini yashirmsadan. — Nima balo, bu yigitchani

o'zing hadya etgan sovg'a-salolmlarga burkagan holda xarob etmoqchimisan? Dastlab, kiyim-kechak berding, endi sotmoqchimisan?

— Nimalar deyapsan axir, Alan! — dedi Jeyms. — Yo'q, yo'q, men ustidan yechib tashlagan kiyimlarni nazarda tutdim-ku... Mangoning ko'zi tushgan ust-boshini ayaman-da.

Menimcha, bu kishining irodasi singan, ko'ziga ko'ringan har qanday xas-xashakka osilishga ham tayyor turardi; aftidan, doimo tergov jarayoni xayoldan nari ketmas, dushmanlarining qontalash qiyofalari-yu, dor ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lardi.

— Xo'sh, janob, nima deysan? — deb Alan kamina ga murojaat etdi. — Or-nomusim sening himoyachingdir; agar rozi bo'lnasang, hech narsa ro'y bermaydi, zimmadagi burchimni ado etaman.

— Nima ham derdim, — deb javob berdim. — Sizlar nima haqda munozara qilayotganlaring menga qorong'i. Agar oqilona fikr yuritadigan bo'lsak, faqat o'q uzgan odamninga shu tarzda ayplash lozim. O'zingiz aytayotgan hujjatarni, mayli, tayyorlab bering; aybdorni qo'nga tushirsin, lekin halol, aybsiz odamlarga xalaqit berishmasinda.

Alan bilan Jeyns Glen gaplarimni eshitib dahshatga tushishdi, biri qo'yib-biri olib baqira boshlashdi; tilingni tiyঃ sang bo'lardi, deyishdi; axir bu ko'z ko'rib, quloq eshitimy digan ish bo'ladi-ku, Kameronlar nima deb o'ylashadi (shunday qilib, taxminim tasdiqlandi: mamorlik Kamerlordan biri qotil edi), nega tushumaysan axir, o'sha davangimi tutib olishlari mumkin-ku?...

— Ko'riniq turbidiki, bu gaplar xayolingga ham kelmagan ekan! — deyishdi keyin jo'r bo'lishib. Ular shu qadar qizg'in, jiddiy ohangda gapirishardiki, birdan hafsalan pir bo'idi va munozara qilib o'tinrish befoyda ekani angjab qoldim.

— Bo'pti, bo'pti! — deb qo'l sitdadim. — Mening ustindan, Alanning ustidan va agarda lozim bo'lsa, qiroq

Georgning ustidan ham hujjat tayyorlayvering! Uchalamiz ham beaybmiz: yanglishmasam, faqat shu narsu kerak shekilli? Ser, nima bo'lganda ham men Alanning do'sitman:

agar uning qarindosh-urug'lariiga yordam berish lozim bo'lsa, hech qanday xavf-xatardan qo'rquymaymun, — dedim Jeymsga yuzlanib, u hovuridan tushgandan keyin.

Yaxshilikcha rozilik bildirib qo'yta qolganim tuzuk, deb o'yladim. Aftidan, Alanning ichini mushuk tutalayapti; qolaversa, ostona hatlab tushquriga chiqishim bilan baribir o'sha la'nat hujjat tuyyorniundi: mendan so'rab o'turishmaydi, Amno nohaq bo'lub chiqdim: chunki so'zimni tugatar-tugatmas missis Styurt o'rindiidan sapchib turdi-yu, ko'zlarida yosh, yugurib yonimizga keldi va dastlab meni, so'ngra Alanni quchog'iga bosdi; oilasiga nisbatan mehribonlik qilayotganimiz uchun minmatdorlik izhor etdi, duo qildi.

— Alan, sen haqingda gapirib o'tirmayman, chunki shunday qilish muqaddas burching edi, — dedi aylol. — Lekin mana bu yigitchanning yo'rig'i boshqa: u biznikiga keldi-yu, boshimizga kulfat tushganini ko'rdi; qarasaki, hokimi muttaq bo'lmish oilamiz boshlig'i tilyog'lamalik qiliyapti, tavbasiga tayanib turibdi. Ha, o'g'lim, sizning yo'rig'ingiz boshqa. Afuski, ismi-sharifingizni bilmayman, ammo yuzingizni ko'rib turibman; toki tirik ekanman, qiyofangizni aslo unutmayman, haqingizga duo qilaman.

U shunday deb meni o'pib-o'pib qo'ydi-yu, yana yum-yum yig'lay boshлади. Nima qilarimni bilmay sarosimaga tushib qoldim.

— Obbo, yetar endi, — dedi Alan qo'pol qilib. — Iyul oyida tun shu qadar qisqa bo'ladi; qanday o'tib ketganimi ham bilmay qolasan; ertaga Epinda shunaqangi to's-to'polon ko'tariladiki, asti qo'yaverasiz; hammayoqni otliq askarlar bosib ketadi, «kruaxan»lar* qulogni qomatga

* «Kruaxan» — Kempbellarning jangovar chaqirig'i (muallif izohi).

keltiradi, qizil mundirlilar oyoqlurimi qo'llariga olishib yu-gurishadi, xullas, biz tezroq tuyog'imizni shiqillatishimiz darkor.

Biz xayrashib sharqiy yo'nalihsiga qarab yo'iga tush-dik: goh tepalikka ko'turilur, goh pastga tushardik. Atrof nimqorong'i, sokin tun hukmron edi.

Y i g i r m a n c h i b o b

SIRLI SO'QMOQ BO'YLAB

QOYALAR

Dam yo'rg'alab yurardik, dam o'pkamizni qo'ltiqlab yuguradlik; tong yaqinlashgan sari ildamroq qadam fash-lar edik. Daf'atan bu joylar kimsasizdek tuyulardi, ammo tepaliklar orasidagi xilvatgohlarda pastqam kulbalar tiqu-lib yotardi; yigimaga yaqin ana shunday uy-joylarni ortda qoldirdik. Bunday faqirona uylarga yaqinlashgan paytimiz har gal Alan meni bir cheeda qoldirardi-da, o'zi bori devorlarni oshib o'tar va odamlar bilan deraza orqali ikki-uch og'iz gaplashardi. Tog'liliklarda har bir yangilik shu tarzda tarqatiladi: bu benihoya muqaddas burch hisob-lanardiki, hatto o'imidan qochib borayotgan Alan ham uni ado etishni majburiyat deb bilardi, aym chog'da bu hol boshqalar tomonidan ham bekamu ko'st ijo etilar-di; shuning uchun ham biz bezovta qilgan kulbalarning ko'philigiga qotillik haqidagi xabar allaqachon yetib kel-gan edi. Darvoqe, xiyla olis masofadan bo'lsa ham begona tildagi uzuq-yuluq so'zlar ohangida odamlarning yangilik-dan hayratlanish o'miga ko'proq vahimaga tushib qolish-larini payqardim.

Jadai harakat qilgan bo'lsak-da, o'zimiz istagan paytgacha panaroq joyga yetib bora olmadik: ikki tomoni pur-viqr qoyalardan iborat jarlik tubida yurgan chog'imizda tong otdi; poyimizda hayqirib, ko'piplashib soy oqardi.

Tog'lar yaydoq, na ko'm-ko'k maysa, na biton-bir da-raxt ko'rindi. Qirol Vilgelm zamoniда qirg'inburot jang bo'igan Glenkov vodysi shu yerlar emusmikan, deb o'lay boshladi. Safar taftislari masulsiiga kel-sak, tumtarloq tasavvurga ega bo'ldim, xolos: quyerdidir to'g'riga qarab yurdik, boshqa joyda qondaydir to'siqni aylanib o'tdik; atrofini yaxshilab ko'zdan kechirishga fursat yo'q edi. Qolaversa, asosan kechusi yo'l bondik. Ba'zi joylarning nomlarini so'rardim-u, gelcha bu nomlar bir-pasda esindan chiqib ketardi.

Shunday qilib, xosiyatsiz jarikkka yetgan paytimizda tong otdi. Alan qoshlarini chimirdi.

— Bu joy biz uchun xiyla noqulay, — dedi. — Boz ustiga, shu atrofsa qorovul qo'yilgan bo'lsa ham kerak. Soyni ikkiga ajratib turgan qoya oldiga yetganimizda u chaqqonroq harakat qila boshladi. Suv oqimi torgina o'zandan shu qadar hayqirib o'tardiki, beixitiyor tizzalaringa titroq kirdi; dara ustini suv to'zoni bulut misoli qop-lab olgan. Alan o'ngu so'liga qaramasdan, to'ppa-to'g'ri suv o'rtasida turgan tosh ustiga sakrab o'tib oldi; tosh kichkina bo'lib, narigi tomoniga yumalab ketish hech gap emasdi. Men ham chamalab o'turmasdan, uning orqasidan o'zimni otdim: Alan meni ushlab qoldi.

Shu tariqa ko'pik sachrayverib sip-silliq bo'lib qol-gan tosh ustida ikkovimiz yonna-yon turib qoldik; na-rigi qirg'oqqa sakraylik desak, tevaragimizdan suv shov-vullab o'tardi. Bundan yuragim orqaga tortib ketdi-yu, qo'rqnanimidan kaflarim bilan ko'zlarimni to'sib oldim. Alan yelkamdan ushlab siltay boshladi; uning lablari qimayotganini ko'rib turardim, xolos. Ammo nima demirayotganini ko'rib turardim, xolos. Ammona yuzi qizarib ketganini,depsinayotganini ilg'ab qoldim. Demak, g'azabi qo'zibdi. Ayni paytda shiddatkor oqimga ko'zim tushdi-yu, yana yuragim yorilgudek bo'lib, ko'zlarimni chirt yumib oldim: yuzimga suv zarrachalari urilardi. Shu tobda Alan suvdonning og'zini lablarimga mahkam

bosdi-da, zo'r lab menga konyak ichindi; to'rt-besh qul-tum «obi zamzam» ichinga kirishi bilan tomirlarimda qon gupurib ketdi. Keyin u qo'llarini og'ziga karnay qil-gancha qulog'imga: «Xohlasang — g'arq bo'lib ketgin, xohlasang — dorgu osilgin!» deb qechqirdi. So'ngra ters burildi-yu, bor kuchi bilan o'zanning narigi tomoniga sak-radi va omon-eson sohilga o'tib oldi.

Tosh ustida yolg'iz qoldim. Konyak ta'sir etib, qulqlarim shang'ilay boshladi. Do'stinning jasorati xayolidan nari ketmasdi; agar hozir zudlik bilan sakramassam, keyin hech qachon tavakkal qilishga jur'atim yetmasligiga ishonchim komil edi. Odatta, achchig'im chiqib turganda hech narsadan tap tortmasdim: shu tobda yuragim dov bermayotganiga qaramasdan sal engashib shaxd bilan oldinga tashlandim. O'ylaganimdek, qo'lim arang qoyaga yetdi-yu, surpanib ketdi, jonholatda yana qoyaga yopishdim, lekin tag'in qo'llarim sidirilib ketdi; meni girdob o'z qa'riga torta boshladi; shu payt Alan sochimdan changu gallab oldi, so'ng yoqamidan mahkam tutdi-da, qirg'oqqa tortib chiqardi.

U lom-mim demasdan jonining boricha qochish-ga tushdi, men ham noiloj o'mindan tura solib ortidan yugurdim. Ilgari tezda charchab qolardim, hozir esa lat yeganman; boz ustiga, qo'rquvdan so'ng hamon o'zimni o'nglab ololmagandim va kayfim ham tarqamagan edi. Turtinib-surtinib yugura boshladim-u, biqinimda sanchiq paydo bo'ldi. Past-balad qoyalar oralab borayotgan Alan purviqor qoya ostida to'xtaganida birdan quvonib ketdim. Ro'paramizzagi ulkan cho'qqini «qoya» deb o'ylaganim, aslida, cho'qilar bir-biriga birlashib ketgan qo'shaloq qoya ekam; balandligi yigirma futcha kelardi, bir qarashda ustiga chiqib bo'lmaydiganday tuyular-di. Hartugul, Alanning to'itta qo'li bor, deyish mumkin edi. Shunga qaramasdan, u qoyaga tirmashib chiqmoqchi bo'lgan chog'da ikki marta epiplomadi: uchinchi galgi urinishida yelkamga chiqdi-da, bor kuchi bilan siltandi-yu, yuqoriga osilib qoldi; o'mrovim sinib ketgan bo'isa kerak,

deb o'yladim. Xullas, u tipirchilay-tipirchilay qoya tepsiga chiqib oldi va charm kamaringin bir uchini menga uzatdi; kamarga osildim-u, baxtinga qoydu ikita churucha borligimi ko'rib qoldim va o'shangu oyog'inni tiradim-da, bir amallab yuqoriga chiqdim. I'nqit shundun keyingina nima uchun bu yoqqu chiqqanumizni angladim; egizak qoyalarning bir-biriga tutashgan qismida kosa misoli chuqurlik mavjud edi va uning ichiga uch, hatto to'rt kishi yotib olsa ham pastdan ko'rinni.

O'tgan vaqt mobaynida Alan bitor og'iz ham gapinadi: jazavaga tushganini sezdirmusdin, bosiqqlik bilan harakat qilardi; fatokating oyoq ostida turganligi ayon edi. Hatto omon-eson qoya ustiga chiqib olganimizdan keyin ham qovog'idan qor yog'ardi, nimagadir xavotirlanardi, miq etmasdi. U yonboshlab tevarak-atrofga nazar soldi. Allaqaqhon tong yorishib ketgan edi; daraning qoyador devorlati yaqqol ko'rini turardi; xarsangtoshlar qalashib yotgan jarlikda o'zini har yonga urib, ko'piklanib soy oqardi. Biror joyda o'choqdan o'rlayotgan tutun ham, tirik jon ham ko'zga tashlammasdi, faqat o'laksaxo'r burgularning yoqimsiz tovushlari qulqoqha chalimib qolardi, xolos. Shundan keyingina Alanning lablarida xanda paydo bo'ldi.

— Harholda, endi hayordan umidimizni uzmasak bo'ladi, — deb ming'irladi. So'ng menga mug'ambirona nigoh tashlab qo'shimcha qildi: — Sen bo'lsang, og'ayni, sakrashni bilmas ekansan. — Nazarimda, yuzim qizariib ketdi shekilli, darhol gapini davom ettirdi: — O'h-ho! Umuman olganda, sendan bundan ortig'imi talab qilib bo'lmaydi. Odam qo'rquyotgan payrida ortiga chekinmadi — bas, demak, u sinovdan muvaffaqiyatl o'tibdi. Buning ustiga, anavi suvgaga qaragan chog'imda hatto mening ham boshim aylanib ketdi. Sen esa kechirarli.

— Lekin o'zim qovun tushirdim.

— Nima uchun? — deb so'radim.

timda sinalmagan yo'idan ketdim, oqibatda kunduz kuni qoramiz ko'rmasligi lozim bo'lgan joyga keilib qoldik; mana endi xavfli, behalovat joyda hurpayib yotibmiz. Ikkinchidan, tog'ma-tog' oqchib yurishning havosini ol-gan menday odam suv olmay yo'lga chiqqanimga nima deysan? Endi shu juzramada to kechgacha bir qultum suv ichmasdan «shababdatab» yotaverasan. Yonimizda faqat konyak bor, xolos. Ehtimol, shunga ham ota go'ri qozixonami, deb o'layotgan bo'lsang kerak; lekin, Devid, hali qorong'i tushmasanoq boshqacha diydyo qila boshlaysan.

Uning ko'z oldida past ketgim kelmadni va agar suv-domni bo'shatib bersa, tezda qoyadan tushib, soydan suv olib kelishga taylor ekanimmi aytdim.

— Obizamzamni uvol qilishdan nima foyda bor? — deb e'tiroz bildirdi Alan. — Boyagina konyak asqotdi-ku, agar shu narsa bo'lmaganda hozir ham o'sha toshning us-tida ku-kulab o'tiraverarding. Bundan tashqari, juda ziy-rak yigitisan-ku, hoynahoy, e'tibor bergen bo'lsang kerak: Alan Brek Styuart xuddi birovga o'chakishgandek shax-dam qadamilar tashlab sayr etdi.

— Sizimi?! — deb xitob qildim. — Axir bamisol oyog'i kuygan tovuqday zir yugurdingiz-ku!

— Rosidan-a? Unda bilginki, vaqt nihoyatda tig'iz bo'lgan ekan. Valaqlashganimiz yetar, endi biroz uxla, hozircha men pojloqchilik qilib turaman.

Yalintirib o'tirmadim. Cho'qqi oralig'i yupqagina zax tuproq bilan qoplangan bo'lib, xuddi o'sha joylarda qirq-qulqolar ko'kargan edi — astagine maysa ustiga yonbosh-ladim; ko'zim ilinayotganda ham burgtullar tovushi timmagandi.

Kimdir ayamasdan kaminani turkilay boshlagan payt-da, chamasi, soat ertalabki to'qqizlar bo'lgan edi; Alan kaffi bilan og'zimni mahkam berkitib turganini sezib qol-dim.

— Sekinrog'-ey! — deb shivirildi. — Xurraq otma-gin-da!

— Mumkin emasni? — deb so'radim, uning xavotirli, tund qiyofasiga hayrat aralash tikilar ekanman. U toshloq chetiga bordi-da, ehtiyojkorlik bilan pastga qaradi va meni ham astagna imlab yong'a chorladi.

Quyosh tikkaga kelib qolgan, issiq zabtiga ola bosh-lagandi. Ko'z o'ngimizda vodi yastunib yotardi. Oqim bo'ylab taxminan yarim chaqirimcha yugor tonon yuril-sa, naq qizil mundirlarning lashkargohi ustidan chiqqilardi; o'rtada lovullab gulxan yonardi, kimdir eplab-seplab ovqat pishirardi. Sal naridagi cho'qqi ustida, deyarli bizz-ning ro'paramizada soqchi turardi; miltig'i uchidagi mayza quyosh nurida yalt-yult tovlaniardi. Soy sohiliga ba'zi joy-larda zichroq, boshqa joylarda siyrakroq tarzda soqchilar terib tashlangandi, birovi huv anavi cho'qqida g'o'dayib turusa, boshqalari jarlkda nari borishib-beri kelishardi. Vodiyning ichkarisida, qoyalar xiyla pastlashgan joylar-da soqchilar zanjiri otliqlarga ulanib ketgandi, ularning uyoq-bu yoqqa borib-kelishayotganini bemalol ko'rib turar-dik. Soyning quyqi qismimi piyoda askarlar qo'riqlashardi; davroqe, ikki oqim birlashib, o'zan xiyla kengayib ketgan joyda soqchilar yakkam-dukkam bo'lib, faqat sayozroq kechuvniyu yoyilmanni nazorat qilishardi, xolos.

Ularga bir qur nazar soldim-u, darhol o'zimni pana-ga tortdim. Bu joylar subhidam chog'ida huvillab yotgan kimsasiz vodi yekaniga sira ham ishonib bo'lmasdi; hozir hammayoq qurol-yarog'lar jilvasidanu askarlar kiyimidan lolqizg'aldoqqa o'xshab qolgan edi.

— Devid, aynan mana shu narsadan cho'chigan edim; o'ylaganimdek, ular soy bo'yiga askarlarni to'kib tash-lashibdi, — dedi Alan. — Ikti soatdan beri chumoliday o'malab kelishyapti. Oh, do'stim, ammo uyquni qoyilla-tar ekansan! Kelib-kelib topgan joyimizni qara-ya! Agar nishablikka ko'tarilib durbindan qarashsa, bizni bemalol ko'rishadi; mabodo kechgacha vodiya o'tiraverishsa, bir ilojni qilib qutulib ketsak, ajab emas. Soyning quyqi qis-mida soqchilar unchalik qalin emas. Oqshom cho'ksin-chi, keyin omadimizni sinab ko'ramiz; nasib etsa birpasda narigi tomonga o'tib ketamiz.

— Hozır nıma qılamız? — deb so'radım.

— Hozırcha shu yerdə jizz'anak bo'lib yotavera-mız, — dedi u.

Aslini olganda, mana shu «jizz'anak» so'zi tong ot-gandan beri biz tortğan azob-uqubat timsoliga o'xshardi. To'g'risi, qoyaning yalang'och gumbazida tunuka tova-da qovurilayotgan qatlama kabi qapishib yotardik; quyosh ayovsiz olov purkar, xarsang niroyatda qizib ketg'an edi, zo'rg'a dosh berardik; qirqquloq qoplagan ensizgina joy-dá esa faqt bir kishi jon saqlashi mumkin, xolos. Xuddi triklayin gulxanda kuydirilgan ulug' e'tiqod sohibi si-ngari navbatma-navbat qizib turgan qoya ustiga yonbosh-lardik; xayolimni ajabtovur mulohaza chulg'ab olgan edi; shu o'lkada bir necha kun mobaynida ikki bora shaftqatsiz sinovga duchor bo'ldim — dastlab, orolda souvuqda muzz-lab qolishimga bir bahya qolgan bo'isa, endi jaziramada terlab-pishib o'tiribman. Juda g'alati-a?

Bir qultum ham suvimiz yo'q edi. Bunday paytda konyakdan yomonroq biror narsa bo'lmasa kerak; lekin baribir uni tuproqqa ko'mib oz-moz sovutardik-da, so'nge ko'kraklarimizni ho'llab olardik va xiyla yengil tortardik.

Askarlar kun bo'yı vodiy tubida kuymalanishib yu-rishti; goh qorovullar almashitirlardi, gohida soqchilar gala-gala bo'lischib qoyalarni aylanib chiqishardi. Tevarakda qoyalalar shu qadar ko'p ediki, ular orasidan odam bolasini izlab topgandan ko'ra, pichan g'aramidan ignani qidirib topish osonroq edi; albatta, bu samarasiz ish bo'lgani uchun ham askarlar unchalik jonlarini koyitishmasdi. Ba'zan ular archagullar to'piga nayza sanchib ko'rishganida a'zoyi badanimidan sovuq ter chiqib ketardi. So'ng'ra negadir askarlar bizning qoyamiz poyida u yoq-dan bu yoqqa borib kela boshladilar-u, nafasımız ichimiz-ga tushib keidi.

Mana shu joyda ilk marta haqiqiy inglizcha nutqni eshitdim: bitta xizmatchi yo'lyo'lakay qoyamizni quyosh nuri tushayotgan tomonidan shapatiladi-yu, so'kinganicha

darhol qo'llini tortib oldi. «Kuydiramanan deydi-yat» deb to'ng'illadi. Askarning shevasidan hayratlandim: u shinsiz yakrang tovushda so'zlardi, boz usiga, ingliz ba'zi to-vushlarmi «yutib» yuborardi. Ilgari Ransom quy yo'sinda gapirganini eshitgan edim, ammo kichik dengizchi qochi-rimlarni har xil qalang'i-qasang'ilardan o'rganib olgin edi va, umuman, so'zlarini ataylab buzib talefuz etardi. Menimcha, Ransom o'yinqaroqlik qilib telbu-toşkari jumla tuzardi. Mana endi kap-katta odam hum xuddi o'shanday yo'sinda so'zlarga baribir ko'nikma hosil qilolnidim; hatto grammaticasini ham risoladagidek o'rgana olmudim shekilli, ziyrak o'quvchi ushbu xotiralarimidan anchamuncha quisur topishi mumkin.

Kun benihoya imillab o'tar, saat sayin ahvolimiz og'irlashardi, «dod» deb yuboray derdik; quyosh ayovsiz olov purkagani sayin xarsang tobora qizib borardi. Bar-cha mashaqqatlarga chidashe to'g'ri keldi: bosh aylanar, ko'ngil aymir, xuddi shamollab qolgandek bo'g'inlar lo'q-lo'q sanchirdi. Ichimda shotlandcha dimiy qo'shiqdagi ikki misrani tezz-tez takrorlardim:

*Kechalari oyommomo yiqolmaydi,
Kunuzlari oftob urmaydi...*

Darhaqiqat, o'sha kuni bizga parvardigori olamning rahmi keldimi, ishqilib, oftob urmadı.

Nihoyat, kunduzgi soat ikkilarda toqatimiz tuga-di, endi faqt azob-uqubatlarga bardosh berib qolmas-dan, aymen paytda nafs bolasini ham yengmog'imiz darkor edi. Quyosh g'arba tomon og'di, sharqqa — askarlarga ko'rinnmaydig'an tomonqa qoyamizning kaltagini soyasi tushdi.

— Bir boshga — bir o'lim, odam ikki marta o'-maydi! — dedi Alan va chuqurcha chetiga bordi-da, sal-qin tomondan yerga sidirilib tushdi.

Men ham darhol uning orqasidan pastga sirg'alib tushdim-u, birdan uzelasiga cho'zilib qoldim; oftoba

yotaverib madorim qurib qolgan edi, oyoqda turolmasdim. Xuddi a'zoyi badunimiz urib tashlanganga o'xshab yerda ikki soatcha holsizlanib yoldik; agar birorta askar bu tononlarda sayr etishni istiyor etib qolsa, bizga duch kelib qolishi turgan gap edi. Biror birorta jonzot qadam bosmadi, hammusi narigi tonondan o'tishardi; qoya hozir ham bizgu qulqon bo'lib turardi.

Asta-sekin quvvat to'pladik; bu paytda askarlar soyga yaqinroq tomon siljishgandi. Alan, endi bo'lar ish bo'ldi, qani, yo'iga tushmaymizmi, deb taklif etdi. Men faqat bir narsadan qo'rquqardim: nima bo'lsa bo'lar-u, yana qoyaga qaytib chiqmasak, bas; shunday qilib, darhol yo'lga hozirlandik, birin-ketin qoyalarning panasiga o'taverdik; soya joylarda yerga qapishgudek bo'lib emaklardik, boshqa yerdan esa yuragimizni hovuchlab yugurib-yelib o'tib olar edik.

Aftidan, soyining quyi qismini tintuv qilib chiqqan askarlar issiqdan lohas bo'lishi, o'zlarini o'tga urishni istashmasdi; soqchilar postida ham mudrab turishardi, fahat sohilini qo'rqlashardi, xolos. Biz bo'lsak hamon yerbag'irlab ulardan uzoqlashar va jarlikning quyi tononiga qochib borardik. To'g'ri, bunaqa uqubatli mashg'ulotni tushimda ham ko'rmanan edim. Qo'llarda, oyodqarda, yelkalarda yuzlab ko'z bo'lishi lozim edi, aks holda har tomonga sochib tashlangan soqchilar qoyalari orasida yoki o'nqir-cho'nqirarda sharhamizni sezib qolishlari hech gap emasdi. Ochiq maydonlarda ephillikning o'zi kamlik qiladi, ayni paytda topqirlik ham taqozo ettiladi: atrofdagi har bir tepalikning, har qanday pana joyning xavfisizligiga, oyoq qo'yayotgan har bir toshning mustahkamligiga ishonching komil bo'lmog'i darkor bo'lib qolganiga qaramay qilt etgan shabada esmas, kichik toshcha yumalab ketsa ham sokinlikda xuddi to'pponcha ofilgandek aksado berar, tepaliklar qoyalari larzaga kelardi.

Sekin siljishimizga qaramay quyosh botguncha xyla masofani bosib o'tdik. Taassutki, soqchilar hamon ko'rindigan joylarda tentirab yurishardi. Birdan

yo'limizda shunday narsaga duch keldikki, hash-pash deguncha ko'nglimizdag'i g'ulg'ula tarqalib ketdi; bu tezoqrar, chuqur anhor bo'lib, quyiroqda tog'dan tushu-yotgan jilg'a bilan qo'shilib ketardi. Uni ko'rgan zahotimiz tappa-tappa yerga yotdik-da, boshimizni suvgu tiqib chanqog'imizni qondirishga kirishdik. Tanumizni yuylarib yuborgan shifobaxsh oqim epkinimi yoki suvning mo'ko'lligidan xushbaxtlikni, xullas, quysi biti ko'proq huzur berganini aniq aytolmayman.

Qirg'oqlar qurshovida qancha vaqt ko'kragini zax-ga bosib yotganimizni bilmaymiz; qancha suv ichmuylik chanqog'imiz qonmasdi, ko'kraklarimizga suv sepi, bilaklarimiz muzday bo'lib qolguncha qo'llarimizni oqimga tutib turaverdik. Nihoyat, xuddi onadan qayta tug'ilgandek, un solingen xaltachani oldik-da, tunuka laganchada atala hozirlashga kirishdik. Bu bor-yo'gi suli unining sovuq suv bilan qorishmasi bo'lib, och qoringa achchiq satimsqoday gap edi. Gulxan yoyqishning iloji bo'lmagandan keyin o'rmonu qoyalari bag'rida yashirinib yurgan kishilarning birdan bir najot vositasi — bu atalandir.

G'ira-shira qorong'i tusha boshlashi bilan yana yo'lga otlandik: dastlab ehtiyoqkorlik bilan qadam tashlagan bo'lsak ham, tez orada qaddimizni rostlab jadal harakat qila boshladik. Ilonizi so'qmoq bo'ylab borardik, sirtmoq kabi aylanma yo'llardan, jarlik yoqasidan o'tdik. Ufqda qora bulut paydo bo'ldi, zim-ziyo tun cho'kdi. Men unchalik charchamagan bo'lsam-da, ammo yuragimni hovuchlab qadam tashlardim; jarlikka uchib ketish hech gapmasdi, qayoqqa ketayotganimizni xayolimga ham keltirolmashdim.

Mana, oy ko'rindi, biz bo'lsak hamon ilgarilab borardik; oy allamahalgacha bulut ortida yashirinib turdi-yu, birdan jamolini ko'rsaganida, qop-qora tog'ning o'rka-ch-o'rka-ch qoyalari yog'duga burkandi; huv pastlikdag'i deningiz ko'rfazi oydinda toviana boshladi. O'sha manzaraga ko'zim tushgan zahoti hayratlanib joyimda taqqa to'xtab

goldim: nihoyatda yüksäklikka chiqib ketgan ekamiz, go'yo bulut ustida yurgandek bo'lardik (menda xuddi shunday taassurot qoldi); Alan esa to'g'ri yo'ldan keta-yotgamizni tekshirishga kirishdi. Aftidan, u mammun vushimizni dushman eshitmasdi, shuning uchun tunning qolgan paytidä o'zini ovutish maqsadida har xil maqonda hushtak chalib yurdi: uning hushtagidan goh jaungovar kuy, goh sho'x-shodon, g'amgin, raqsbor ohanglar taraldiki, beixtiyor qadamharimiz ham ildamlashib ketardi. Go'yo janubdag'i yurtinining nafasi dimog'imga urilganday bo'lardi va uyimmi — tinch-totuv hayotni qo'msab qoldim, sarguzashtlar jonimga tekkanini his etardim; atrofimizni qurshab turgan huvillagan qudratl, qoram-tir tog'lar bag'rida Alanning hushtagi kishida g'alati tuyg'ular uyg'otardi.

Y i g i r m a b i r i n c h i b o b

SIRLI SO'QMOQ BO'YLAB

KORINAK JARLIGI

Iyul oyi boshlarida tun qisqa bo'ladi, lekin biz manzila yetib borgan paytda hali tong otmagan edi: atrofda purviyor qoyalari yastanib yotar, o'rtadan jilg'a oqib o'tar, yon tomondagi qoya ostida mo'jazgina g'or bor ekan. Siyrak qayinazor sal o'tmay o'z o'mini qarag'ayzorga bo'shatib berardi. Jilg'ada baliq serob edi; daraxtzorgov kaptarlar makoni ekan, qiyalikda chong'uldoqlaru kakkulardan sayrardi. Etak tomonda jilg'a biroz dimlanib, ko'rfa zosil qilib o'tadigan joy Epin chegarasi bo'lib, narigi tarafdan Mamor yerlari boshlanardi. Yuqorida bu manzara kishiga ajib ko'rinardi; tizzalarimi quchoqlab o'tirganimcha pastlikdan ko'zimni uzmasdim, miriqib tomosha qillardim.

Tog'dagi tor dara — Korinak jarligi deb ataladi; u xiyla balandlikda va dengizga yaqin joylashgani uchun ushti tez-tez bulut qoplab turardi. Bu ajoyib muskanda besh kun yashirinib yolgan bo'lsak-da, lekin vaqtning qonday o'tib ketganimi bilmay qoldik.

G'or ichida ostimizga supurgigullarni to'shab, usit-mizga esa Alanning plashini yopinib yotordik. Osmanni bulut qoplagan paytlarda darmning burilishiagi sharshara yaqnroq joyda gulxan yoqardik-da, suli unidan bo'tqa pishirardik, sayozroq kechuvdan tutib keltirilgan mayda-chuyda baliqlarni kabob qillardik, bahonuda isinib ham oлardik. Aytmochi, baliq ovi asosiy ermagimiz, muhim yumushimiz edi: xaltachadagi umimizni qora kunlarga asrab qo'yib, yarim yalang'och holda kun bo'y'i jilg'ani paypaslab qo'l bilan baliq ushlashting gashti o'zgacha. Ayniqsa, kim ko'proq baliq tutish bo'yicha musobaqa o'ynashning zavqiga nima yetsin! Biz ushlagan eng katta baliqdan ham xushbo'y, xushta'm (oz-moz sho'rtakroq qilinsa bormi!) taom bo'limasa kerak.

Qo'llimiz bo'shadi deguncha Alan meni qilichbozlikka o'rgatardi; qilichni mahkanroq ushlay olmasam, fig'oni falakka chiqib ketardi. Albatta, u benazir qilichboz edi, bunga hech qanday shubha yo'q. Ammo bunchalik kuyib-pishishga baliq ovalsh musobaqasida u ko'pincha mendan ortda qolishi sabab bo'lardi. Mashg'ulot paytda sal narsaga ham jahli chiqib ketib, o'zini tutolmas, bo'ralab shunaqayam so'kardiki, xijolatdan qizarib ketardim; boz ustiga, sira ham ayamasdan qilichbozlik qilardi, doimo uning qorminga tig' sanchishidan xavotirilardim. U meni tirqiatib quvlamoqchi bo'lar, lekin kamina sabot bilan barcha hujumlargacha bardosh berardim, mashq'ulotlardan kerakli saboq olardim; komil ishonch bilan o'zimni himoya qilishni o'rganardim, odatda, shuning o'zi yetari bo'lardi. Ustozim xatti-harakatlarindan mutlaqo qoniqmasa ham, ammo o'zimdan unchalik no-rozi emasdim.

Ayni chog'da, asosiy tashvishimiz esimizdan chiqmasdi, nimaiki bo'lsa, xavf-xatardan omon-eson o'tib olish yo'llarini qidirardik.

— Qizil mundirilar bizni Korinak jarligidan izlash lozimligini anglab yetgularicha ko'p vaqt o'tadi, — dedi Alan dastlabki kuni ertalab. — Endi Jeymsga xabar berishimiz darkor: murhamat qilib, pul topib bersin.

— Qanday qilib xabar beramiz? — dedim. — Bu yerda yolg'izmiz, boshqa joyga ko'chib o'tish hozircha xayolimizga ham kelgani yo'q. Agar siz sehr-jodu yo'li bilan chopar-qushchani chorlab, o'shaning qanoqiga xabarnoma bog'lab uchirib yuborsangiz bo'lar-u, lekin bunga ham ishonmayman.

— Shunaqami? — dedi Alan. — Devid, kallani ishlatish kerak.

U asta-sekin so'na boshlagan gulxanga tikilgan ko'yi o'yga toldi; keyin ikkita payrahani qo'liga oldi-yu, ularni qo'shuv alomati singari bir-birining ustiga mingashtirib bog'ladi va to'rt uchini qoraytirib kuydirdi. Oxiri ikkilanib menga nigoh tashlab qo'ydi.

— Anavi tugmachani vaqtinchha berib turmaysanmi? — deb so'radi Alan. — Aslida, sovg'a qaytarib olinmaydi, ammo yana bitta tugmamni kesib olishga ko'zim qiymayapti.

Unga tugmachani uzatdim; tugmachani qo'shuv alomati mahkamlangan plashining etagiga qadab qo'ydi va o'sha joyga qayin, qarag'ay shoxchasin ham bog'ladi-da, o'z ishidan mammun bo'lib menga qaradi.

— Mana shunaqa, — dedi. — Korinakdan uncha olis bo'Imagan joyda Kolisneykon degan qishloq bor. U yerdan menin do'starim ko'p; ba'zilariga hayotimni ham ishonib topshirishim mumkin. Devid, bilasanni, boshimiz uchun mukofot belgilashadi; Jeymsning shaxsan o'zi mukofot tayinlaydi. Kempbellar ham qo'l qovushitrib o'tirishmaydi, Styuartlarni yer bilan yakson qilish uchun bor-budlarini ayashmaydi. Agar shunday bo'Imaganada hech ikkilanmasdan o'z oyog'im bilan Kolisneykonga

tashrif buyurardim va istihola qilib o'tirmay hayotimni arzon-garov qo'lqop missoli o'sha odamlar istiyoriga topshirardim.

— Hozir ularning ko'ziga ko'rinnmagumni ma'qul,

dedi Alan. — Ichiqora odamlar hamma joydan topladi; dahshatlisi shundaki, irodasiz kishilar ham uchrab turadi. Shuning uchun qorong'i tushishi bilan bir ilojini qilib o'sha maskanga boraman-da, manu bu o'zim yuangan matohimni epinlik nisifikor* quadronim Jon Brek Makkonusning derazasidan oshirib tashlab kelaman.

— Juda soz, — dedim. — Lekin bu matoh nima ekanini anglay olarmikan?

— Hm-m, afsus, u ziyrak emas, — deb bosh chayqab qo'ydi u. — Qo'llarimni ko'ksimga qo'yib aytishim mumkinki, fahm-farosatsiz! Men shartli ravishda quydagilarni ramziy ma'noda aks ettingandim: qo'shuv alomati — otash tusli xochni eslatadi, ya'ni bu bizning qabilamiz nishonasidir. Albatta, butun qabilani oyoqqa turg'izish shart emas, u ana shu ma'nomi anglamog'i lozim; chunki tanqlik belgisi uning derazasida turbidi, lekin og'zaki hech qanday buyruq berilmagan. Shuning uchun o'zicha o'yaydi: «Qabilani oyoqqa turg'azish kerak emas, ammo bir gap borga o'xshaydi». Keyin tugmachanga ko'zi tushib qoladi. Aniqrog'i, bu meniki emas, Dunkan Styuartniki. Innaykeyin yana o'yaydi: «Dunkanning o'g'li o'monda yashirinib yuribdi, men unga kerak bo'lib qolibman».

— Ehtimol, — dedim. — Mayli, shunaqa bo'ldi, deylik. Lekin bu yerdan Fortgacha o'rmonning poyoni yo'qku!

— To'g'ri, — dedi Alan. — Bundan tashqari, Jon Brek qayin va qarag'ay shoxchasin ham ko'rib qoladi-

* N i s f i k o r — boy zamindordan so'qimga boqish uchun mol-qo'y oladigan ijador shunday nom bilan yuritildi; foysda esa o'riada — xo'jayin bilan teppa-teng baham ko'riladi (muallif izohi).

yil, agar aql-hushi joyida bo'lsa (men bunga ishomaman, albattra): «Alan qayinu qarang'aylar o'sib yotgan o'rmonda yashirinib yuribdi», deb o'yaydi. O'zicha: «O'lakimizda bunday o'rmonlar sanoqli, bir-ikki marta u yoqdan bu yoqqa yurilsa — bas, topiladi», deydi. Qarabsanki, bizning huzurimizga — Korinakka qadam ranjida qiladi. Devid, agar u kelmasa, menga desa izi qurib ketsin; demak, sariq chaqaga qimmat ekan!

— Ha, do'stim, puxta o'ylangan reja tuzibsiz! — dedim zaharxanda aralash. — Ehtimol, unga bir-ikki og'iz xat yozib qo'ya qolgan ma'quldir-a?

— Shos qo'rg'omining sohibqironi, mister Belfur, boshingiz tillolarga barobar! — dedi Alan masxaraomuz ohangda. — To'g'ri, menga qolsa, xat yozib qo'ya qolganim durust edi, ammo Jon Brek qanday o'qiydi? Buning uchun ikki-uch yil maktabga qattab, savod chiqarishi lozim; ungacha roqatimiz toq bo'lsa kerak.

O'sha kechasi u otash tusli xochimi nisifikor derazasidan tashlab keldi. Alan xiyla tashvishli qiyofada qaytdi: qishloq itlari tashlanib qolishibdi, odamlar ko'chalarga yugurib chiqishibdi, hatto osmonga qaratib piltamiliqlardan o'q ham uzishibdi; ustiga-ustak, kimmingdir darvozasidean askar mo'ralaganday bo'libdi. Shuning uchun ertasi kuni o'rmon chekkasiga borib pisib yotdik; agar Jon Brek tashrif buyursa, unga yo'l ko'rsatib qo'yamiz, mabodo qizil mundirlilar paydo bo'lishsa, zudlik bilan juftakni rostlab qolamiz, deb kelishib oldik.

Choshgoh mahali quyosh mo'l-ko'l olov purkayotgan yaydoq qoya bo'yab bitta odam kelayotganini ko'rib qoldik; u qo'lini peshonasiga «ayvon» qilgancha biz tomonga sinchkov nazar tashhardi. Alan unga qaragan zahoti yo'lovchi biroz yo'nalishini o'zgartirib, biz tomonga bir necha qadam qo'ydi. Alan yana hushtak chalgach, yo'lovchi yonginamizda paydo bo'idi.

Bu paxmoq sochli, sersoql, qirq yoshlar atrofida badbashara kishi bo'lib, yuzi chechakdan o'ydim-chuquq, esipastga o'xshardi, badjahlli yaqqol ko'rinish turardi.

U ingliz tilida zo're'a gapiradi: Alan mening oldindida unga bir og'iz ham gel tilida so'zlashga yo'l qo'yimdi, beodobchilik bo'ldi, dedi. Ehtimol, yo'qlab kelgan kishi begona tilda so'zlashayotgani uchun o'zini noqslay his etayotgandir; menimcha, u jon-dildan yordum berishni aslo istamasdi, uchrashuvga faqat qo'rqanidun kelgani shundoq ko'rinish turardi.

Alan Jeymsga yetkazilishi lozim bo'lgan gapni og'zaki aytmoxchi bo'ldi-yu, ammo nisifikor quloiq solalni ham istamadi. «Meni esimdan chiqurib qo'yad», dedi chiyilla-gan tovushda. Ya'ni, aytudigan gapningi yo yozib bergen, yoki qo'limni yuvib qo'itig'imga artamun-u, ketavveramun, demoqchi bo'hardi.

Endi Alan esankirab qolsa kerak, deb o'ylagandim, axir bunday ovloq joyda qalam-qog'ozni qayoqdan topsin. Biroq Alan u yoq-bu-yoqqa zir-zir yugurdila, o'rmonga kirib kaptarning patini topib chiqdi, uehini o'tkirledi va xaltachasidan ozgina porox olib, uni chashma suvigara lashtirdi; siyohga o'xshash suyuqlik tayyor bo'ldi; so'ngra farangicha kiyimi yoqasidan harbiy unvonini bildiradigan yorliqning bir bo'lagini yirtib oldi-yu (shu kiyimining cho'ntagida tumorini asrardi, dordan faqat shu tumorgina saqlab qoladi, deb o'yardi), cho'nqayib o'tirgan ko'y'i quydagi jumlalarni qoraladi:

«Mehribon qarindoshim!
Ilifitingmi darig' tutmagin: ushbu nomani eltg'an kishidan oz-moz pul berib yuborgin; qayerga yetkazishni uning o'zi biladi.

Seni sevguvchi amakivachchang

A. S.»

Nomani nisifikorga topshirdi; chopar va'dani quyuqqi-na qildi-da, shosha-pisha tog' etaklariga qarab yo'l oldi. Ikki kungacha daragi bo'lmadi; uchinchchi kuni soat beshharda o'rmon ichkarisidan hushtak tovushi eshitilib qoldi; Alan unga javob qaytardi-yu, ko'p o'tmay jilg'a yo-

qasida nisifikor paydo bo'ldi va bizning qayerda ekanimizni bilolmay atrofqa alang-jalang nazar tashladi. U avvalgi safariday odamovi ko'rinnasdi; aftidan, niyoyatda qaltsi topshiriqni ko'ngildagidek ado etgani uchun o'zida yo'q xursand edi.

Undan mahalliy yangiliklarni bilib oldik: ma'lum bo'lishicha, butun o'lkada qizil mundirlilar g'ij-g'ij bo'lib yetgan emish; xudoning bergen kuni kimmingdir uyidan qurol topishayotgammish, kambag'allarning boshiga yana kulfat yog'iadigan ko'rindi; Jeyms Glen bilan mulozimlarni Fort Filayamga olib ketishibdi va zindonga tashlashibdi; ular qotillikda ayblanayotgan emish. Hamma tomonaga, marhumni Alan Brek otib o'ldirgan, degan mishmish tarqatishibdi; ikkalamizni qo'lga tushirish haqida farmon e'lon qilinibdi, yuz funit miqdorida mukofot belgilanibdi.

Shunday qilib, ishlar rasvo edi; nisifikor missis Styurtdan keltingan nomi ham benihoya g'uussador ekan. Jeymsning xotini Alandan dushman qo'liga taslim bo'lmashikni o'tinib so'rardi, agar askarlar ushlab olissha bormi, u ham, Jeyms ham xarob bo'lishadi. Birovlardan qaz olib, o'zida qolgan-qutganimi yig'ishtirib shu pulni yuboribdi; iloyim, pul kamlik qilmasin! Nihoyat, xatga qo'shimcha tarzda bizning asosiy belgilarimiz qayd etilgan qog'ozni ham jo'natibdi.

G'oyatda qiziqib qog'ozni ko'zdan kechirdik; rostini aytganda, ko'nglimizga g'ulg'ula tushdi, kishi xuddi shunday tuyg'u bilan ko'zguga yoki dushman miltig'ining quvriga qaraydi: o'zimi aniq nishonga olayotganiga ishonch hosil qiladi. Alan to'g'risida quyidagilar ta'kidlangan edi: «Bo'yil past, yuzi cho'tir, niyoyatda harakatchan, o'ttiz besh yoshlarda yoki shu yoshlar atrofidagi kishi, pat qadalgan shlyapa kiyib yuradi, egnida ohori to'kilgan zar uqali farangicha chakmoni bor: ko'kimdir movudtan tilgan, tugmalar kurnush; kamzuli qizg'ish tusli, ishtoni tizzasidan keladi, dag'al jun matodan tikilgan». Men haqimda esa: «Baland bo'yli, baquvvat, o'n sakkiz yoshlarda, xiyla eski, ko'kish tusli chakmon kiyib olgan,

boshida sharti ketib, parti qolgan tog'lliklar qilpog'i bor, kamzuli qo'lda to'qilgan, ko'kimdir ishtoni tizzasidan keliadi, paypog'i yo'q, shaharliklar kiyadigan boshmog'i bor, burni ingichka, pasttekishlikda yashaydigan odamlarga o'xshab gapiradi, soqoli hali chiqmagani degan belgililar qayd etilgan edi.

Alan ust-boshini yaxshilab eslab qolganlari va miridan-sirigacha batafsil tasvirlaganlari uchun mammun bo'ldi, faqat «ohori to'kilgan» degan so'zni o'qigach, bir-oz tumayibroq zar uqasiga ko'z qirini tushlab qo'ydi. Men esam, agar o'sha la'nati uydirmuga ishonudigan bo'lsam, demak, juldurvoqi kiyimda ekanman. Ust-boshimni vaqtida almashtirib olganim bois xursand bo'ldim.

— Alan, kiyimlaringizni almashtirib olishingiz lo-

zim, — dedim.

— Safsata, o'lsam ham almashtirmayman! — dedi Alan. — Agar Farangistonga qaytib borsam, qalpoqda juda chiroyli ko'rinsam kerak!

Bu so'zlarни eshitganimidan so'ng ko'nglimda g'aroyib fikr tug'ildi: xonimona kiyim-boshli Alandan ajralib ketsam, qo'lga tushishdan zarracha ham qo'rqib o'tirmasdim — xohlagan tomonimga boraveraman, yashirinib yotishga hojat qolmasdi. Aytaylik, yolg'iz ketayotgan chog'inda ham ushlab olishsayam hech qanday jinoyat belgilarini topisha olmaydi; xudo ko'rsatmasin-u, biroq qotillikda ayblanayotgan kishi bilan birgalikda qo'lga tushsam borimi, ish jiddiy tus olib ketishi turgan gap. Alanga rahmin kelgani uchun bu haqda gapirib o'tirmadim, ammol ko'nglimming bir chetida g'ubor qoldi.

O'zimcha xomaki reja tuzib bo'lgan paytimda nisifikor qo'ynidan yashil hamyon chiqard; ichida to'rtta tilla tanga va yana bir tanga atrofida mayda pul bor edi. Rostini aytasam, cho'ntagimda saikam besh tanga bor edi. Alan besh tanga bilan Farangistonga yetib olishi darkor; men esam chorakam ikki tanga bilan bor-yo'g'i Kuinsferriga yetib borsam bas, vassalom. Shunday qilib, agar to'g'ri mulohaza yuritib ko'rsak, Alandan ajralsam nafaqat o'z

yo'linda tinchgina ketardim, balki cho'ntagimga ham foyda bo'lardi.

Afsuski, halol o'rtog'im bunaqa gaplarni xayoliga ham keltirmasdi. U mening tayanchim, yordamchim, himoyachim ekaniga chin dildan ishonardi. Xo'sh, dardimni ichinga yutmasdan, o'zimcha yorug' jahonga la'nattlar o'qimusdan, taqdirimga tan bermasdan boshqa na ilojim bor edi?

— Ozroq ekan-u, bir evini qilaman, — dedi Alan ham-yonni cho'miagiga solar ekan. — Jon Brek, endi tugman-chamni qaytarib bersang-da, biz manavi jentelmen bilan yo'iga tushsak!

Baracha tog'iiklar singari hamyonimi oldiga osib ol-gan nisfikor (u dengizchilar ishtonimi kiyib olgandi va, umuman, kiyimlari pasttekisliklarda yashaydigan kishilar-nikidan unchilik farq qilmasdi) birpas u yoq-bu yog'ini paypasladi-da, shubhali tarzda ko'zlarini pirpirata boshla-di, so'ng tilga kirdi.

— O'yaydiki, u yo'qotilgan. — Chamasi u: «O'yplashimcha, tugmani yo'qotib qo'yibman shekilli», demoqchi bo'ldi.

— Bu qanaqasi? — deb o'shqirdi Alan. — Sen hali otamdan qolgan tugmachamni yo'qotib qo'ydingmi? Unday bo'lsa, gapimni eshitib qo'y: sen umringda bundan ham og'irroq gunohga botmagansan, tushundingmi?

Shundan keyin Alan kaflarini tizzalariga tiragan ko'yimiyig'ida kuldii-yu, nisfikorga tikildi; uning ko'zlarida savdoyilarga xos uchqun chaqnardi, bu hol yaxshilidkan nishona emasdi, albattra.

Nisfikor insofli kishilar toifasidan edimi yoki dastlab, bizni haqillatmoqchi bo'ilib, ovloq go'shada ikki kishiga qarshi yolg'iz o'zi ekanligidan darhol es-hushimi yig'ib olib ahididan qaytdimi, ishqilib, ko'p o'tmay tugmacha birdan topildi va uni Alanga berdi.

— Nima ham derdim, bu Makkollarning or-nomusi belgisi, — dedi Alan. — Tugmachami qaytarib beraman va undan voz kechishsga rozi bo'lganining uchun minnatdar-

lik bildirmann. Bu hol sadoqatlid do'stim ekamingni yana bir marfa iabottildi. — Shundan so'ng u nisfikor bilan ni-hoyntda samimiy xayrlashdi. — Menga juda katta yoxshi-lik qilding. — dedi Alan. — Hutto boshing ketishi mun-kin ekanligidan ham qo'rqib o'tirmadling; endi har qanday odunga seni diyonatli nis'on deb ta'riffayunn.

Nihoyat, nisfikor yo'liga ravona bo'ldi. Alan ikkala-miz hum lash-lashlarimizni bit bo'g' chug'a tugdik-da, sirli so'qmoq bo'ylab munzil tomon ravona bo'ldik.

V I A T R I M A I K K I N C H I B O B

S U R I S O'QMOQ B O'YLAB

AUCHAGULLI TASHLANDIQ MAKON

Yetti son mobaynida mashaqqatl yo'ni bosib o'tdik va eru tongda tog' tizmalari etaklariga yetib bordik. Oldimizda g'adbi-budur yassi tekislik yastanib yotardi; endi ana shu dovomi bosib o'tishimiz lozim edi. Endi gina chiqqan quyosh manglayimiza nuyza sanchardi; tutun singari yupqa bulut torf konlari ustini qoplab ol-gandi; Alanning gaplari quranganda, bu yoqqa yigirma-ta otliqlar eskadroni bostirib kelgan taqdirda ham ularni payquqay qolishimiz mumkin edi. Shuning uchun tuman ko'rilishini poylab o'tirdik; qiyalikdag'i daraga tushdik-da, atula tayyorladik, kengashib oldik.

— Devid, bu joy bexosiyat, — deb gap boshladi Alan. — Qorong'i tushguncha biqinib o'tiraveramizmi yoki tavakkal qilib yo'nga otlanamizmi?

— Men nima deyishim mumkin? — dedim. — O'lardek charchadim, lekin oldimizda turgan masofani bosib o'tganimizdan keyin dam oladigan bo'isak, yana shuncha yo'lyurishim mumkin.

— Hamma gap shundaki, qalqis masofani bosib o'tsak, faqat yarim yo'ni ortda qoldirgan bo'lamiz, xolos, —

dedi Alan. — Vaziyat quyidagicha: Epin zaminiga qadam qo'ysak, xarob bo'iishimiz aniq. Jamub esa butunicha Kempbellar tasarrufida, u yoqqqa tumshug'imizni tigmaganimiz ma'qil. Shimol tomon ketsak — befoyda: axir, sen Kunsferriga, men bo'sham Farangistonga borishimiz darkor. To'g'ri, sharqqa yurishimiz mumkin.

— Sharq bo'lsa sharq-da! — dedim dadillashib.

Ichimda esa boshqacha o'ylardim: «Eh, do'stim, sen istagan tomonqa qarat ketsang bo'lmaydim; men ham xohlagan tomonqa ketardim — shunda ikkalamiga ham yaxshi bo'lardi-kuv».

— Xo'p, lekin bilasammi, sharq tomon botqoqlikdan iborat, — dedi Alan. — U yoqqa qadam qo'ysang — bas, keyin peshonangdan ko'raverasan: tap-taqir, loaqla bir tup guyoh uchramaydi, tep-tegis, yashirinadigan joy yo'q. Agar biorota tepatikka qizil mundirililar tasodifan chiqib qolishsa bormi, o'n chaqirrim olislikdan ham binni ko'rib qolishlari mumkin; boz ustiga, ular otiq, birpasda yetib olishadi. Devrid, rasvo joy, to'g'risini aytsam, kechasiqa qaraganda bu yerda kunduzi o'tirish xavfliroq.

— Alan, endi mening mulohazalarimi tinglang, — dedim. — Epin biz uchun halokat demakdir; pulimiz ham, unimiz ham ko'p emas; ular qanchalik uzoq vaqt qidirishsa, tobora izimizga yaqinlashib kelaveradilar; tavakkal qilmasdan ilojimiz yo'q, kafolat berishim mumkinki, madorim qurib, yiqilib qolgunimcha yuraveraman.

Alanning yuzlari yorishib ketdi.

— Ba'zan sen viglar singari shu qadar qo'rkoq bo'lib, safdoshlikka mutlaqo yaramaysan; boshqa paytlarda esa birdan jangarilging tutib ketadi-yu, xuddi tug'ishgan ukamga o'xshab qolasan, — dedi.

Tuman tarqalib ketdi. Ko'z o'ngimizda dengiz misoli huvilagan yer namoyon bo'ldi; faqat kakliklari qizqushlar sayrardi, olsilda — sharq tomonda asta-sekin keta-yotgan bug'ular to'dasi elas-elash ko'rinib turardi. Tashlandiq yerda yakkam-dukkam archagul uchrab qolardi;

ba'zi joylarda o'pqonlar, katta-kattu yoriqlar, torf qazib olingan chuqurlar ko'zga tashlanardi; ba'zan hummayoq qop-qonyylb kaylib yotardi, bir yerdagi yong'indan jizg'umagi chiqib ketgan qarag'aylarning tanlari ustmasht qolashib qolgan edi. Dunyoda bundan ham oyanchli-roq manzara topilmusa kerak, amma qizil mundillarning qornai ko'rinnusdi; blizgi manu shunisi mahmoq edi, albattra.

Shunday qilib, sharq yo'naliishiga qarat muahudqat-ki, aylamu yo'lini baolib o'tildiga kirdidik. Atofimizni tog' tizmlari qoshish olgan bo'lib, har daqiqida bizni ko'rib qolishlari mumkin edi; shuning uchun chuqurliklarni yuriishga, chuqurliklar bohqqa tomonqa burilib ketsa, ochiq maydon bo'ylab engashib-emaklab ketishga majbur bo'lardik. Ko'pincha xuddi bug'uni poylagan ovchilarday bir archagul to'pidan boshqasining ostiga emaklab o'iganimizcha yarim soat vaqtimiz ketardi. Kun battar isidi, suvdondagi suvimir birlashta tugadi; yarim yo'lini emaklab to'rt buklib, engashib o'tishga majburiyimizni bilganimda bunday do'zak azobidagi safarni boshlamagan bo'lardim.

Mushaqqatli masofani bosib o'iganimizdan so'ng bir oz nafus rostlab yana yo'lega tushardik — shu tarzda er-tulabki vingini o'tkazlik; peshin mahali archagullar qalin o'sgan joyda birpas mizg'ib olish uchun cho'zildik. Birinchchi bo'lib Alan poyloqchilik qildi: nazarimda, endiginna ko'zimni yumishim bilanoq u biqinimga turrib-turrib uyg'otdi va navbatchilikni menga topshirdi. Soatimiz yo'q edi; vaqtini aniq belgilash uchun Alan archagul novdasi ni yerga suqib qo'ydi: archagullar to'ping soyasi sharq tomondag'i belgiga yetgan chog'da uni uyg'otishim lozim edi. Shu qadar holdan toygan edimki, birdaniga o'n ikki soat uslashga jon-jon deb rozi bo'lardim; ko'zlarim o'z-o'zidan yumiilib, vujudim uvadaga o'xshab ilvirab turardi; issiq ta'sirida archagullardan taralyotgan ajib tarovat ham, yovvoyi asalarilarning g'o'ng'illashi ham qulog'imga alla tovushi misoli eshitildi-yu, shirakayf

kishiga o'xshab o'tirgan joyinda munkib-munkib keta-yotganimmi o'zim bilmay qolardim.

Oxirgi gal rostakamiga uxlab qolibman. Ko'zimni oetsam, quyosh ufqqa og'ayotgandi, archagul novdasiga ko'zim tushgan zahoti qichqirib yuborishdan arang o'zimni tiyib qoldim, xullas, do'stimga pand bergen edim. Sharmandalik ham shunchalik bo'lar-da, qaniydi shu toba da yer yorilsa-yu, kirib ketsam! Ayni chog'da boshqa bir manzarada o'takam yorilayozdi: ne tongki, g'aflatda yotgan paytimizda otliqlar otryadi botqoqlikka tushib olish-gan edi; ular yarim doira shaklida janubi sharq tomon-dan ustimizga bostirib kelishardi; archagullar qalin o'sgan joylarda bir necha maria orqalariga qaytishardi-da, qulay tomondan aylanib o'tishardi.

Alanni uyg'otdim: boshini ko'tarishi bilan dastlab ot-liqlarga, so'ngra archagul novdasiga — beliga qaradi, qu-yosha ko'z tashlab qo'ydi va qosqlarini chimirgan ko'yixavotiru po'pisa ma'nosida bir qur menga ham nigohimi qadadi; shu xolos, mendan gina-kudurat qilib o'tirmadi.

— Endi nima qilamiz? — deb so'radmin.

Alan. — Huv anavi tepalikni ko'ryapsamni? — U shimali-sharq tomondagi yolg'iz qaqqayib turgan tepalikka ishora qildi.

— Ko'ryapman.

— O'sha yoqqa qarab yuramiz, — dedi. — Uning nomi Ben-Elder; yovvoyi, qatron tog'; g'adir-budur, o'ydim-chuuqr joylari juda ko'p. Agar ertalabgacha o'sha joyga yetib olsak, — bas, marra bizniki!

— Alan, u yoqqa borish uchun askarlarning yo'lini kesib o'tishimiz lozim-ku! — deb xitob qildim.

— Boshqa ilojimiz yo'q, — dedi. — Agar ortimizga gaytarishib, Epinga kiritib olishsa bormi, ikkalamiz ham asfalsofilinga ketamiz! Shuning uchun, do'stim Devid, zinhor-bazinhor imillama!

U chaqqonlik bilan emaktagancha yo'l boshladi. Buning ustiga, u doimo chuqurchalar bo'ylab jiipang-

lab harakat qillardiki, uzoqdan bizni ko'rish amrimahol edi. Maysalar tag-tugi bilan kuyib kul bo'lgan edi yoki yong'in bir yamlab o'tib ketgandi: biz deyarli burnimizni yerga tekkiezib yurganimiz uchunum, tutun singori mayin, dimoqni achishtiradican kul yuz-ko'zharimizga urlardi. Suvimizni allaqachon ichib tugatqandik: to'rt oyodlab yugurayotgan paytingdu birpusda churchab qolam, madoring quriydi, vujuding uvuda misoli hiliwmydi va o'z og'irdigingini ko'turolmuy qo'llaring simb ketar darjaga yetadi. Vloqt=vuqt bilan qilinov archagullar ostida birpas cho'zlib olardik, nufusimiz roshndik; shox-shabbolar orasidan otliqlarni ko'zdan kechirardik. Nazarimda, ular izimizni topishu olmagan edi: hurholda, bitta vvvod (unikrog'i, yurimta vvvod bo'lsa kerak) ikki chaqiringga yoyulgancha yo'lida uehragan archagullar to'pining tilli-pitsini chiqarib, hamon ilk yo'naliishi bo'yicha olga siljirdi. Xayriyatki, o'z vaqtida uyg'onibman, agar yana biroz g'afat bosib yotgamimda bormi, yovga chap berib ketolmusdik: ularning oldiga tushib qochishdan bo'lak iloq qolmasdi. Hozir ham arzimagan tasodif tufayli fosh bo'lib qolishimiz chitmoldan xoli emasdi; ba'zan archagullar orasidun putr-putur etib kakliklar uehgunda joyyimizda turushudek qotib qolardik, hatto natus olisiga hum qo'rquardik.

A'zoyi badanim sirq-sirq og'rindi, niroyatda holdan toypgan edim, hansirab-hansirab zo'rg'a nafas olardim, qo'llarim tilinib ketgan edi, ko'zlarimga chang-to'zon to'lib tomog'im g'ippa bo'g'ilgandi, xullas, it azobida qiyalganindan ko'ra, Jon-jon deb taslim bo'lishga rozi edim! Faqat Alanning hayotiga zomin bo'imaslik uchun uning emin-erkin harakat qilishiga plashi xalaqit berardi) qizarib, keyin bo'zara boshladi; har nafas olganda o'pkasi hushtak chalib yuborardi yoki shir-shir etardi; birpas dam olish maqsadida to'xtagan paytlarimiz u o'z kuzatishla rini aytish uchun qulog'imga shivirardi, tovushi xuddi qurshovga tushib qolgan yirtiqchingning xirillashiga o'xshab

eshitilardi. Biroq ruhan bardam, tetik, harakatchan bu insomning bardoshiga beixtiyor qoyil qolardim.

Nihoyat, oqshom cho'ka boshlagan chog'da burg'u tovushimi eshitib to'xtadik; vvvod askarlari bir joyga to'planishardi. Birozdan so'ng ular o'tin terishib gulkhan yoqishdi va tashlandiq yerning o'rtaida tunash uchun joy hozirlashta kishidilar.

Shundan so'ng Alanga, yotib, uxbab olaylik, deb yalnib-yolvordim.

— Bu kech uxlashni xayolingga ham keltirma! — dedi Alan. — Endi anavi otliqlar (tarrakday qotib yotganida paydo bo'lishgan edi) tashlandiq maydon tevaragidagi barcha tepaliklarni egallab olishdi; Epindan birorta tirk jonzonini tashqariga chiqarishmaydi; faqat qanotli quşlar gina ularning ustidan uchib o'tadi, xolos. Hozirgina dushman changalidan qutuldik, nahotki, g'alabamizni qo'ldan ishonechli joyda kutib olishimiz lozim.

— Alan, irodamga har qanday kishi havas qilsa arzidi, lekin kuchim qolmadi. Ozgina madorim bo'lganida in-damay ketaverardim; istasangiz — qasam ichishim mumkin, ilojim yo'ql — dedim.

— Nachora, bo'pti, seni yelkamga mindirib ola-

man, — dedi Alan.
Uning yuziga tikildiim, tag'in ustimidan kulayotgan bo'lmasin, deb o'yladim. Alanning qiyofasi jiddiy edi. Do'stinning holatini ko'rib, o'zim uyalib keidim.

— Juda soz, qani bo'lmasam, yo'l boshang! — dedim. — Ketdik!

U menga ilkis nazar solib, go'yo: «Otangga balli, Devid!» demoqchi bo'ldi va g'ayrat bilan yana olg'a intildi. Xufonda salqin tushdi. Atrof xiyla zimiston edi. Osimon bulutsiz. Bu joylar shimaliy o'ika hisoblanganidan iyul kechalari chiroqsiz kitob o'qish mumkin edi. Hartungul, qish faslining yarim kechalari zimiston bo'lsa kerak. Qalingina shudringdan tashlandiq maydon xuddi yong'ir

yoqqandek suvgu bo'kdi; darhol uyqum ochilib ketdi. Na-fusimizni rostlash uchun to'xtagan paytimizda tabiat al-iuqachon meni o'ziga mahliyo qilib qo'ygan edi: kecha benihoya so'lim, huv narida qir-adirlar yustubib yotardi, ortimizda lov-lov yonayotgan gulxan maydonning otashiga chulg'ungan yuragiga o'xshardi. Nega endi o'zimni izobilab, tupoqqa belanib, qurt mioliq biltong'lab yurishim kerak ekan degan o'ydan g'azabim qo'zib ketdi.

Ba'zi kitoblarni o'qib, uni yozganlar umrida hech charchamug'umnikan, deb o'yinayman. Churchaq qanqa bo'lishini yetkaza bilg'anlari o'quveli esnab o'tirmasdi. Hozir o'lmishim hum, kelujum ham meni mutlaqo tashvishlantirmasdi; hatto bu dunyodu Devild Belfur nomli yig'icha borlig'i esimdan chiqib ketgan edi; o'zim haqimda o'ylamusdim; har qadam tashlayotganimda yuragimni hovuchlab turardim, har qadamim oxingisi bo'lsa kerak deb o'ylardim va ana shu azob-uqubatlarning bevosita subabchisi bo'lmish Alanni ko'rarga ko'zim, otarga o'qim yo'q edi. Alan harbiy sohani tanlab yanglishmagandi; qo'mondonlarning asosiy vazifasi — boshqalarni olg'a boshlashdan, hech kimi ortga chekintirmaslikdan, birovlarning irodusini sindirishdan iborat: hech kim bilan hisoblashmaydilar! vaholinki, boshqalar ketuyotgan joyida o'zini tappa tashlashi, loqaydlik bilan ko'ksini o'qqa tutib berishi mumkin. Men ham tuzukkina askar bo'lishim mumkin edi; yo'l davomida, itoat etmasam osmon uzlib tusharmidi, deb o'yladim-u, ammo toki kuch-quvvatim bor ekan, o'lishga har doim ulguraman, hozir bo'y sunishga majburman, deb o'zimni ishontirardim.

Tong yorishgandan so'ng dahshatl xavf-xatar ortda qolgan edi: qurt-qumrsqalarday o'rmalamay odam qatorida yurishimiz mumkin edi. Xudoyim-ey, hozir bizni oshna-oq'aynilarimiz ham tanimasi: qari-qartanglar misoli bukchayib, tetapoya bolaga o'xshab maymoqlanib qolgandik, rang-ro'yimiz murdanikidek oqarib ketgan edi! Ikkalamiz ham miq etmay, tillarimizni tishlaganimiz ko'y to'g'riga tikilib borardik: zo'r-bazo'r qadam bosardik;

archagullar orasida esa kakliklar chiyllashardi. Sharq tomon asta-sekin yorishmoqda edi.

Alanga ham oson bo'lmadi. Albatta, uning yuziga sinchiklab nazar solganimdan so'ng shunday xulosaga kelganim yo'q; o'zim urang oyoqda turardim, qayrilib qarshga ham holim qolmugan edi; lekin u ham charchoq tu-fayli garangsib, men kabi qayoqa qarab ketayotganimizni ham unutib qo'ygan edi — aks holda, ko'rsichqonga o'xshab pistirmaga tushib qolganimizni bilmasmidik!

Bu voqeя quyidagicha sodir bo'ldi. Alan ikkalamiz archagullar qoplagan tepalikka ko'tarilardik; u oldinda, men ikki qadamcha orqaroqda borardim; xuddi qo'shaloq daydi sozandaga o'xshardik; birdan archagullar shatir-shutir etdi-yu, shox-shabbalar orasidan qandaydir juldiroq voqi to'rt kishi otlib chiqdi va ko'z ochib-yumgungunimizcha ikkalamizni ham shartta taglariga bosib olishdi-da, kekir-dagimiza xanjar qadashdi.

Menga qolsa, baribir edi: tortayotgan azoblarim o'zinga yetib ortardi, qynoqlar menga chumoli chaq-qanchalik ham ta'sir etmasdi; hatto bo'yning qadolib turgan xanjardan ham qo'rmasdim; bir joyda qimirla-may yotganimidan xursand edim. Ustindan bosib turgan juldurovoqiga qaradim: yuzlari ostoba qoraygan, ko'zları chaqnoq, lekin men parvoyi falak edim. Ular gellar tilida Alan bilan nimalarnidir shivvashib gaplashishayotgani meni mutlaqo qiziqiturnasdi.

Keyin xanjarlarini qinlariga tiqib qo'yishdi, bizni qurolsizlantirdilar va bir-birimizga qaratishgancha archagullar ustiga o'tqazib qo'yishdi.

— Bular Klun Makfersonning poyloqchilari ekan, — deb meni Alan xabardon qilib qo'ydi. — Oma-dimiz keldi. Endi kamina tashrif buyurganim xususida yo'lboshchilariga axborot berishguncha ularning ixtiyorida bo'lamiz. Shu xolos.

Vuriklar qabilasining yo'lboshchisi Klun Makferson bundan olti yil muqaddam ro'y bergen buyuk qo'zg'oloning rahbarlaridan bo'lgani uchun uning boshi

evaziga juda katta mukofot va'da qilingandi; u allaqachon ishaddiy yakobinchilarining rahnamolari qatorida Farangistonga jo'nab ketgan bo'lsa kerak, deb yurmedim. Alan-ning so'zlarini eshitganimidan so'ng ko'zlarim yurq etib ochilib ketganday bo'ldi.

— Shunaqami hali, — deb ming'irladim. — Demak, Klun hozirgacha shu yerda yurgan ekan-dar?

— Bo'lmamasam-chi! — deb tasdiqladi Alan. — Avvalgidek o'z yer-mulkidan bir qadam ham alijigani yo'q; qabilasi yedirib-ichiriyapti. Hatto qiroq Georg ham unga havas qilsa arziyi.

Yana bir nechta savol bermoqchi edi, lekin Alan meni gapirgani qo'yindi.

— Negadir charhabman shekilli, — dedi. — Ozgina misz'ib olSAM yomon bo'lmasedi. U gapni qisqa qildi-yu, yuzimi qalingina archagullar ustiga qo'ydi va birpasda uxlat-qoldi.

Men bunday orombaxsh uyqumi faqat orzu qilishim mumkin edi. Yoz fasilda maysalor orasida chigirkilar chirillashini eshitgannamiz? Xullas, ko'zlarimi yumi-shimni bilaman, butun badanimda — qorninda ham, belinda ham, eng dakhatlisi, hatto boshindan ham chigirkalar chirillay boshlardi. Darrov uyqum qochib ketardi, u yonboshimdan bu yonboshimga ag'darilardim, o'tirib ko'rardim, yana yotib olardim va ko'zni qamashtiradigan osmonga uyqusirab tikillardim, chakalakzorni ko'zdan kechirardim; beixiyor Klunning yuvsiz poyloqchilari ga nigohim tushib qolardi: ular tepalik ustida chordona qurishib o'tirgan ko'yи gellar tilida bir nimalar to'g'risida o'zaro valqashardi.

Ko'ngildagidek dam ololmadim, bu orada chopar iziga qaytib keldi; Klun mehmonlarni mammuniyat bilan kutib oladi, dedi u. Biz darhol o'mrimizdan turib, yo'lda otlanishimiz lozim edi. Alan uyqudan yuzi xiyla timiqib, tetikkashib uyg'ondi, qorni niroyatda och edi; aftidan, chopar quyq ziyofat mehmonlarga muntazir ekanni eslatib qo'ydi shekili, Alan tashakkur aytdi. Men ovqat to'g'risidagi

gapni eshitsam — bas, darrov ko'nglim aynirdi. Ilgari vujudim o'zimga og'irlik qilardi, zil-zambildek tuyular-di, endi qushday yengil bo'lib qoldim-u, baribir qadam tashlashga qiynalardim. Gi'yo o'rgimchak tolasi singari oldinga uzalib borardim, oyog'im ostidagi zamin bulutga o'xshardi, tog'lur pardek yengil bo'lib ko'rindari, shabada meni tog' jilg'asi kabi oldiga solib haydab borardi, goh u yoqqa, goh bu yoqqa eltib urardi. Nazarimda, nochor, notavon odamga o'xshardim, negadir yig'lagim kelardi.

Alan menga nazar soldi-yu, darhol xo'mrayib oldi; sezzimki, jahli chiqdi. G'ayrishuuriy ravishda, yosh bolaga o'xshab titrab-qaqshayotganim uchun dilim xuf-ton bo'ldi. Yana esimda qolgani shuki, birdan lablarim-ga xanda yugurdi va o'zimni qanchalik zo'rasam ham, og'zimming tanobini tortib qo'ya olmadim; boz ustiga, hozir kuladigan payt emasdi. Biroq ajoyib do'stim faqat yaxshilik qilishni istardi; birpasdan keyin Klunning ikkita yugurdagi qo'ilig'imdan olishdi-da, oyog'inni yerga tek-kizishmay (shunday tuyulgan edi, xolos, aslida, ular meni bir maronda boshqarib ketishmoqda) sudrab ketishdi. Biz qing'ir-qiyishiq, g'ira-shira jarliklaru xandaqlar bo'ylab shafqatsiz Ben-Elder tog'larining yuragi tomon borardik.

V i g i r m a u c h i n c h i b o b

QO'NALG'A

Nihoyat, serdaraxt yonbag'ir poyiga yetib bordik: o'lmas qoyalar jar yoqasida turardi, qoyalar ustini daraxt qoplagan edi.

— Bu yoqqa yuringlar, — dedi kuzatuvchilardan bit-tasi va toqqa ko'tarila boshladik.

Daraxtlar xuddi machta arqonlariga o'mganlarini tirab turgan dengizchilar kabi qoyalarga qapishib o'sgan edi; tanasi pillapoyalarning ko'ndalang pog'onalariga o'xshar-di — biz daraxtlarni ushlab-ushlab yuqoriga o'rillardik.

Yonbug'irlik tepasi shu qadar qalim o'monkor ediki, hatto tungudek joyga ham soya tushmasdi; tepalki chetida g'alati boshpana mavjud bo'lib, o'lkada uni Yopiq Qaz-noq deb atashardi. Daraxtlarning tevarungi o'nligun che-tuning orasiga yog'och qoziq qoqilgandi; maydonchuga tuproq sepiilib, hovli misoli tep-tegis qilingandi. O'rriadagi duraxt boshpanaming ustuni vazifasini bujaradi. Chetan-luring tashqarisidan kigiz qoplangan edi. Bu inshoot sirt-dan o'tovga o'xshardi: nishablikdag'i chungalzor qo'ynida joylashgan qo'lbola imorat bayyni do'lana shoxidagi ari uyasi singari jur yoqasida osilib turardi.

Ichkariga olti kishi zo'rg'a sig'ardi. Qoyaning bo'rik joyiga mohillik bilan o'choq qurilgan edi; ko'kis tutun qoyaga qapishgan ko'yi o'rhardi va pastlikdan deyarli ko'zga tashlammasdi.

Bu Klunning yashirin maskanlaridan bittasi edi, xolos. Unga qarashli yer-mulking boshqa joylarida ham g'orlar, yerto'lalar mayjud bo'lib, poyloqchilarning ma'lumotlari asosida askarlarning bostirib ketayotgani ni yoki orqaga qaytib ketayotganimi e'tiborga olardi-yu, o'zi lozim topgan maskanga ko'chib o'tardi. Bir joyda muqim yashamaganini va qabilalohilisining yo'lboshchiga sadoqati tufayli Kluu shu paygacha dushmanga tutqich bermadi; boshqalar vatanni tark etib jomini saqlab qol-di yoki qo'iga tushirib qatl etildi; u vatanida yana besh yil istiqomat qildi, nihoyat, qo'mondon qat'yan talab etgandan keyingina Farangistonga jo'nab ketdi. Ko'p o'tmasdan o'sha yerda vafot etdi; ajab hol — Ben-Elderagi Qaznoq sog'inchi uning yurak-bag'ini kuydi-rib yuborgan bo'lsa ajab emas.

Ostonaga qadam qo'ygan chog'da u qoyaga yondosh qurilgan o'choq oldida ovqat pishirayotgan xizmatkorining xatti-harakatlarini kuzatib o'tirardi. Kiyimlari odmini edи, boshida tunlari kiyiladigan to'qima qalpoq bor edi; quloloqgacha bostirib olgandi va g'alvirak toshdan yasalgan mundshtukida tamaki chekardi. Shunga qara-may o'zini xuddi podsholardek tutardi; bizni kutib olish

uchun nechog'li ulug'vorchik bilan o'midan qo'zg'alganini ko'rgan odam bunga darhol ishonch hosil qillardı.

— E-e, mister Styuart! — dedi u. — Ser, xush ke libsiz! Sizni va hozirchi ismi-shurifimi o'zim bilmagan do'stingizni ko'rganimdan benihoya mammunman!

— Klun, ahvolingiz qatalay? — dedi Alan. — Ser, umid qilamanki, a'lo darajada bo'lsa kerak. Sizni sog'-salomat ko'rib turganimdan xursandman! Tamishib qo'ying, bu yigit mening do'stim — Shos qo'rg'onining egasi bo'imish mister Devid Belfur.

Odatda, yolg'iz qolgan paytlarimizda Alan mening yer-mulkimni mazaxlab tilga olardi, ammo begona odamlar huzurida unvonimni udaychi misoli tantanavor ohanga e'lon qillardı.

— Jentelmenlar, ichkariga kiringlar, marhamat! — dedi Klun. — Qani, uyg'a marhamat qilsinlar! Albatta, kamina hozir saroyda istiqomat qilayotganim yo'q; ko'rib turibsizlarki, boshpanamiz xarobgina, lekin biznikiga shahzoda ham tashrif buyurganlar. Mister Styuart, kimni nazarda tutayotganimni payqagan bo'lsangiz kerak-a.. Ko'rishganimiz sharofatiga tomoqlarimizi ho'llab olamiz; cho'loq xizmatkorim issiq ovqatni pishirgach tushlik qilamiz va jentelmenlar kabi qartada kuchimizni sinashib ko'ramiz. Bu yerda odamning yuragi siqilib ketadi, — dedi u qadahlarga konyak quyar ekan. — Do'stlarim bilan kam uchrashaman; barmoqlarimni o'ynab o'tiraveraman, o'rgan kunlarni eslayman, ajoyib kelajakni o'ylayman: nazarinda, yorqin kelajak ostonamizda turibdu. Kelinglar, sulolamiz tiklanishi uchun ichamiz!

Shundan so'ng qadahlarimizni urishtirdik-da, bo'shatdik. Rostini aytasam, qiroq Georgga hech qanday yomonlikni ravo ko'rmasdim, lekin u hozir davramizda bo'lganda bor-qozonimga tushgandan keyin darrov o'zimni yengil his eta boshladim va bir chekkada subbatga quloq solib o'tirdim; ko'z oldimni yupqagina tuman qoplab, ko'nqlimdag'i bedavvo qo'rquv, g'am-g'ussa g'oyib bo'lgan edi.

Darhuqiquit, bu joy yovvoyilar maskani edi, xo'jayimiz ham jaydari odanga o'xshardi. Klun Mak-ferson ko'pdan beri yashirinib yurgani uchunni, ikir-chikirarga o'ralashib qolgan qandaydir qariqizni eshlardı. Doimo bir joyda o'tirardi, o'sha o'rindiqqa boshqa biror kimsaning o'tirishi qat'iyin tuqiqlungen edi; Quz-noqdagi jamiki buyumlar qo'nalg'a sohibining didiga mos ravishda joylashtirilgan bo'llib, ularni qo'zg'atish zinhor-bazimhor mumkin emasdi; xilmi-xil tuomlarni juda yaxshi ko'rardi, hatto biz bilan ko'rishayotgan mahaldo ham ko'z qiri bilan tez-tez o'choq tomonga nigoj tushlib qo'yurdi; issiq ovqatdan ko'zini uzmasdi.

Anglashimchu, zim-ziyo kechalar u xotini va uchto'itta yaqin do'stleri bilan uchrashib turardi, ular Klunni ko'rgani kelishardi; hayotining asosiy qismimi yolg'izlikda va faqat o'zining poyoqchilariyu Qaznoqa yonidan jiimaydig'an xizmatkor bilan muloqota bo'lardi. Har kuni ertalab uning huzuriga tashrif buyurgan sartarosh yo'lboshchining soqolini olayotgan paytda o'lkadagi barsha yangiliklarni aytilib berar, Klun jon qulog'i bilan tinglardı. Sartaroshni savollarga ko'mib, ikir-chikirlarni ham so'rab-surishtrishdan erinmasdi, yosh bola misoli hadeb tixirlik qilaverardi. Ba'zi bir javoblarni eshitib yumatlab qolguncha xaxolayverardi; sartarosh allaqachon ketib qolgan bo'lsa ham, u qormini changallab qahqaha uraverardi. Afidan, savollari unchaliq oldi-qochdi bo'imasi; yermulkidan mahrum etilgan barcha shotland zamindorlari kabi (bu haqda parliamentning qarori e'lon qilingan edi) hayordan uzilib qolgan bo'lsa-da, qadimiy rasm-rusmlarga ko'ra qabilada hamon qozilik vazifasini ado etardi. Odamlar har xil munozarali masalalarini hal etish maqsadida huzuriga kelishardi; ular Oliy sud hukmi bilan hisoblashmasliklari mumkin edi, ammo qoqchin yo'lboshchining bir og'iz so'zidan keyin barcha gina-kuduratlarni eslaridan chiqarishardi-yu, itoatkorlik bilan aytilgan jariman berishardi. Ko'pincha g'azabi jo'shib hokimi mutlaq podsho singari hammayoqning to's-to' polonimi chiqarib tashlar-

di; bunday paytlarda xizmatkorlar xuddi qattiqqo'l otalari qarshisida turgandek yelkalarini qisishib, miq etishmasdi. U ichkariga kirgan hur bir kishi bilan risoladagidek salmlashar, so'ngra ularning ikkalasi ham harbiy xizmatchilar misoli barmoqlurini bosh kiyimlari ostiga tekkitib qo'yishardi. Xullasi kalom, tog'larda yashaydigan qabilaning kundalik hayotini, turmush tarzini bevosita kuza-tish imkoniyatiga ega bo'ldim; sirdan jinoiy javobgarlikka tortilgan qabila yo'lboshchisi edi; yer-mulki tortib olingandi; butun o'ika bo'ylab harbiy qo'shilimlar uni qidirardi, ba'zan boshpanasiga niyoyatda yaqinlashib ham qolishardi; ayini paytda cho'ntagida hemiri bo'lgan juldurvoqi xizmatkor (u har kuni kaltak yerd, so'kish eshitardi) sotqinlik qilib, birdaniga boyib ketishi mumkin edi.

Dastlabki kuni qovurdoq tayyor bo'llishi bilanoq Klun shaxsan o'zi limonni siqb (to'kin-sochin hayat kechinar-di), ovqat ustiga sharbatini tomizdi-da, bizni dasturxon atrofiga taklif etdi.

— Xuddi shunday ovqat bilan (faqat limon sharbatini yo'q edi) xuddi shu qo'nalg'ada qirol janobi oliylarini mehmon qilgan edim, — dedi mezbon. — U paytlarda go'sht eng noyob taom hisoblanardi, ziravorlarni orzu qillardik, xolos. Umuman aytganda, qirq oltinchi yili mening yerarimda limondan ko'ra otliq askarlar ko'proq edi.

Qovurdoq mazali bo'lgan-bo'lganini aniq aytolmayman, unga ko'zm tungan zahoti ko'nglim aynib, zo'r-bazo'r uch-to'rt tishlam go'sht yedim-da, qo'limni ardim. Klun ovqat chog'ida shahzoda Charli*ni qanday ziyofat qilganini so'zlab berdi; suhbatsohlarning qiyofalarini tasvirladi va o'midan turib, kim qayerda o'tirganini ko'rsatib berdi. Aytishicha, shahzoda niyoyatda o'ktam, ehtirosli, batartib qitollasining munosib o'rnbosari edi, donishmandlik bobida faqat Sulaymon podshodan ke-

yin turardi, xotos. Bundan tashqari, biliishimcha, Qaznoqda umrguzaronlik qila boshlangandan beri ichkilikka ruju qo'yibdi. Hozirgi mishmishlarga ishonadigan bo'lsak, uni odamlar safidan chiqarib tashlagan nuqson nishonlari o'sha paytlardayoq paydo bo'lgan edi.

Ovqatlanib bo'lganimizdan keyin Klun rangi o'ng'h, siyqasi chiqib ketgan qurtasini olib chiylay boshladidi: bunday isqirt qurtani puma-pastjam joylurdugina qo'iga ushslash mumkin. Shunga quramay, bizga qimor o'ynashni taklif etdi-yu, ko'zlar chuqay boshladi. Iqor bo'lmog'im lozimki, azaldum qurta o'yinini nomunosib mashg'ulotlardan biri deb bildim; otum rahmatining nasihatlari bo'yicha, xudojo'y kishi, boz ustiga, agar u halol yigit bo'lsa, o'z boyligini harom ishlarga sarflamasligi darkor, bironving moliga ko'z olaytirish ham insofdan emas, qimor esa ayman haromxo'rlikning yorqin namunasidir. To'g'ri, jiddiy sabablarni ro kach qilib o'tirmasdan, charchaganimni bahona qilib qo'ya qolishim mumkin edi, ammo nayrang ishlatish qo'limdan kelmasdi. Shuning uchun ham qisqichbaqadem qip-qizarib ketdim shekilli, bi-roq so'zimdan adashmadim: o'zim yaxshi o'ynashni bilmayman, birovlarning o'yniga qozilik qilib o'tirish esa kaminaga yarrashmaydi, dedim.

Klun qartani chiyashdan to'xtadi-da:

— Bu nima degan gap? — dedi. — Klun Maksfer-sonnинг uyida viglarga o'xshash oqbilak qayoqdan bino bo'lib goldi?

— Men mister Belfur uchun boshim bilan javob berishga tayyorman, — dedi Alan. — U halol, vijdonli yigit, qolaversa, sizdan iltimos qilardimki, bu gaplarni kim aytotgamini ham yodingizda tutsangiz yomon bo'lmasdi. Men ham qirollar avlodidanman, — dedi-yu, Alan shlyapasin epechilik bilan biroz yuqori ko'tarib qo'ydi. — Shuning uchun men ham, mening do'starim ham har doim o'zlariga munosib insonlar qurshovida bo'ladi. Jentel-men shunchaki charchagan, uysusi kelyapti. Agar qarta o'ynagisi kelmayotgan bo'lsa, buning bizga hech qanday

* Charli (Karl Styuart) II — lakovning nabirasi, Shotlandiya toj-taxting «navqiron da'yogari».

og'irliği tushmaydi. Ser, men o'zingiz tanlagan o'yin bo'yicha kuch sinashmoqqa tayyormen.

— Ser, o'zingizga ma'lumki, bu faqirona kulbanda har qanday jentelmen o'z xohisiga qarab ish qiladi. Agarda do'stingiz boshi bilan yurishni ixtiyor etgan bo'lsalar, murhamat qilsinlar! — deb javob berdi Klun. — Mabodo hummatli do'stingizgami, sizgami yoki boshqa birovgami bu yerning havosi yoqmayotgan bo'lsa, jon-jon deb tashqarini birgalikda sayr etib keliishga tayyormen.

Ana xolos, ikkita qadrdon do'st mening aybim tufayli bir-birini so'yishi kamlik qilib turgan edi o'ziyam!

— Ser, Alan to'g'ri aytdi, men rostdan ham juda toliqidim, — dedim. — Boz ustiga, ehtimol, sizning ham o'g'illaringiz bo'lsa kerak; shuning uchun otamga bergen va'damni, sir bo'lsa-da, oshkor etib qo'yishim mumkin.

— Yo'q-yo'q, kerak emas, gapirmang endi! — dedi Klun va Qaznoq chetidagi archagullar pichani to'shalgan joyini ko'rsatdi.

Shunga qaramay, ta'bi tirriq bo'lgani yaqqol ko'rinish turardi: goh-goh menga tumtayib qarab qo'yardi va bir nimalar deb po'ng'illardı. Aslida, injiqligim va gapso'zlarim erkin quşddek hayot kechiradigan tog'lik yakobinchilar davrasiga mos tushmasdi, erish tuyulardi.

Konyak ichib, bug'u go'shti yeb olganimdan so'ng negadir o'zimni xiyla og'irlashib qolgandek his eta boshladim; archagul pichaniga bosh qo'yishim bilan qandaydir mudroq holatga tushib qoldim. Qaznoqa yashagan kunlar davomida sira ham o'zimga kelolmadim. Ba'zan ko'zlarim yarq etib ochilgandek bo'lardi-yu, atrofimda nimalar ro'y berayotganini g'ira-shira idrok etardim, ba'zan esa g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlaru uyqudagagi kishilarning xurraq otishlari qulog'inga chalindardi; devordagi osig'lik turgan jun ro'mollar gohida yerga tushib ketardi, goho o'choqda yonayotgan gulxan shu'asi kabi yoyilib, butun shiftu devorlarni qoplab olardi. Nazarimda, ko'pincha o'zimdan o'zim gapirib yuborardim yoki baqirardim she-

kili. Esimda bor, bir necha marta menga javob qaytarayotganlарini buyrat aralash ilg'ab qoldim; doimo qandaydir alg'ov-dalg'ov tush ko'rmasdim-u, ammo ich-ichimda nimadandir jirkanardim: o'zin kelib qolgan joy ham, orom olib yotgan o'rın ham, devordagi jun ro'mollari tvishlar, o'choqdagi gulxan va hatto o'zin ham o'zimga niroyatda jirkanch bo'lib ko'rindurdi.

Sartaroshni chaqiririshibdi: u tabib okan; monga doridarmon tavsija etishdan avval gel tilida bit nimularni tu-shuntirdi, lekin men bir og'iz se'zini ham tushummadim; tarjima qilib berishlarni so'ragani ham qurbim yetmadi — holim shu darajada xurob edi. Shundoq ham betob ekanimni bilardim, boshqa narsalar esa meni mutlaqo qizqitmasdi.

Sog'ligim yomon bo'lib turgan paytlari atrofimda nimir bo'layottganining unchalik farqiga bormasdim. Faqat bir narsani aniq bilamanki, Klun bilan Alan timmasdan qarat o'ynashardi; dastlab, Alan ancha-muncha yutuqni qo'lgakiritan edi; o'mimda o'tirgan chog'larimda ularning shavqqa to'lib qimor o'ynayotganlariga gavoh bo'lardim: stol ustida bir uyum tanga yalt-yult etib ko'rindi — hartsugul, yuz tanga bo'lmasa-da, lekin oltmisht tanga yig'ilib qolgan edi. Tog' tizmalar ustidagi nishablikda, darraxtlarga suyanib turgan omonat boshpanada bunchalik boylikni uchratish mo'jizadek tuyulardi. O'shanda, Alan o'ylamasdan ish qilyapti, axir, sinalmagan otning sirtidan o'tmaydilar-ku, degan edim o'zimcha. Chunki zangori hamyonida besh furt ham puli yo'q edi-da!

Nazarimda, ikkinchi kuni omad undan yuz o'girdi. Odattagidek, meni tushlik arafasida uyg'otishdi va ov-qatlantirishmoqchi bo'lishdi, lekin yana ovqat yeyishdan bosh tortdim; so'ngra sartarosh berib ketgan qandaydir achchiq dorini ichirishdi. Ochiq esnik tepasidan men yotgan joyga quyosh nuri tushib turardi va bundan o'zimni xiyla besaranjom his etardim. Klun stol atrofida o'tirgan ko'yi qartasini chiylandi. Alan yonimga kelib engashdi, yuzlarini deyarli burnimga taqadi; isitmalab, butun vuju-

dim lov-lov yonib turgani tufaylimi — bilmadim-u, lekin yuzlari niyoyatda beso'naqaydekk o'rindi.

Umenden qarz berib turishimi so'radi.

— Nima uchun? — dedim.

— Shunchaki qarz olmoqchiman, xolos.

— Ammo nima uchun? — deb takroran so'radim. — Tushummayapman.

— Devid, senga nima bo'ldi axir! — dedi Alan. — Nahotki, pulingni mendan qizg'ansang-a, qarz bermay-samni?

Eh, agar es-hushim o'zimda bo'lganda bormi, albat-ta, qizg'anishim lozim ekan! Biroq beso'naqay qiyofadan tezroq qutulishni istardim, xolos. Shu toba menga boshqa hech narsa kerak emasdi, pullarimni unga berdim.

Uchinchi kuni ertalab (Qaznoqda ikki kecha tunaganimizdan so'ng) xiyla yengil tortib uyg'ondim; albatta, a'zoyi badanin hilvirab turardi, majolsiz edim, lekin bulyumlar odatdagidek kattalikda, tabitiy shakilda ko'rnardi. Eng quvonarisi shundaki, ishtaham ochilib ketgan edi; birovning yordamisiz o'mindan turdim va nonushta qilib bo'lganimizdan so'ng, Qaznoqdan tashqariga chiqdimda, o'rmon chetiga borib o'tirdim. Rutubati kun edi, mayingina izg'irin esardi; choshgohgacha junjikib o'tirdim: yomindan Qaznoq tomonga xizmatkorlari ayyq'oqchilar o'tishayotgan paylarda qozovalanib qo'yardim — ular oziq-ovqat bilan ma'lumotlar olib kelishardi. Hozir tevarak-atrof sokin edi, aytish mumkinki, Klun oshkora tarzda hukmronlik qilardi.

Ichkariga qaytib kingan chog'imda Alan ikkalasi qartani bir chetga tashlab qo'yishib, xizmatkomi so'roq qili-shayotgan ekan; qabila boshlig'i orqasiga o'girildi-yu, gel tilida menga nimadir dedi.

— Ser, gel tilida gapirishni bilmayman, — deb javob berdim.

Qarta tufayli oradan gap qochganidan beri men nimai-ki desam, nimaiki ishga qo'l ursam — bas, Klunning jahli-chiqib ketaverdi.

— Unday bo'lsa, azizim, o'zingizdan ko'ra, sizning ismi-sharifingiz farosatiroq ekan, — chunki bu ollyjanob gelcha ismdir, — deb to'ng'lladi u qahr aralash. — Umu-man, gap bunda ham emas. Ayyq'oqchimning shahodut berishicha, janub tomondagi yo'l bexavotir ekan, lekin piyo-da yurishga quvvatingiz yetarmikan?

Qarta hamon stol ustida turardi, lekin tilla tangularning izi ham qolmagan edi, faqat Qaznoq tomonga surib qo'yigan bir uyum xat bitilgan qog'ozlar bor edi, xolos. Qolaversa, Alanning qiyofusi eski mahsi misoli jiyilib ketgandi, u bir nimadan norozidek ko'rnardi; ko'nglimga g'ulg'ula tushib qoldi.

— Butunlay sog'ayib ketdim deyolmayman, — deb javob berdim-u, Alanga nazar tashladim. — Oz-moz pulimiz bor, yo'l xarajatlarimizza yetsa kerak; o'ylaymanki, mushkulimiz oson bo'ldi.

Alan labini tishlagan ko'yig' nighohini yerga qadadi.

— Devid, bor pulimni yutqazib qo'ydim, — dedi u hazin tovushda.

— Mening pulimni ham yutqazdingizmi? — deb so'radim.

— Sening pulingni ham, — dedi u zorlanib. — Nima-ga menga pul berding, axir?! Men qarta o'yashunga tushib ketsam, es-hushimni yo'qotib qo'yaman-ku!

— Bay-bay-bay! — dedi Klun. — Bularning hammasi bema'nilik: faqat sho'xlik qildik, xolos. O'z-o'zidan ravshanki, pullaringni ikki hissa qilib qaytarib beraman; hazar qilmassalaring kifoya. Agar ularni bermasam, nima degan odam bo'laman! Ahvollarining ko'ra-bila turib, oyoqlaringdan chalib yuborsam, jentelmentlar kaminda o'pkalashmaydimi, axir! Bunaqa qilish yaramaydi-ku! — deb tovushining boricha baqirdi Klun qizarib-bo'zargancha va cho'ntagidan tilla tangalarini chiqarib stolga tashlay boshladи.

Alan miq etmasdi, u hamon yer suzib o'tirardi.

— Ser, balki bir daqiqaga tashqariga chiqib kelar-miz-a? — dedim.

— Bajonidil, — deb juvob berdi Klun va orqamdan ergashib tashqariga yo'l oldi. Uning qiyofasi tund edi, zar-dasi qaynab turardi.

— Avvalambor, ser, himmat ko'rsatganingiz uchun sizdan bag'oyat mimmador ekanimni aytilib qo'yishim lo-zim, — dedim.

— Behuda safsat! — deb qichqirdi Klun. — Qandaydir «chimmat-pimmat»ni o'ylab topganini qaranglar... Albatta, yaxshi ish bo'lmadi. Xo'sh, sizningcha, kamina nima qilishi lozim?! Xuddi katalakdag'i qo'chqor misoli Qaznoqda qamalib yotgan bo'lsam, ahyonda yo'qlab keladigan do'stlarim bilan qarta o'ynab ko'ngilxushlik qilishdan boshqa ilojim yo'q-da! Agar ular yutqazib qo'yishsa, gap bo'lishi mumkin emas... — U bir-dan so'zida tutilib qoldi.

— Ana shunaqa! — dedim. — Agar ular yutqazib qo'yishsa, pullarini qaytarib berasiz; agar yutib olishsa bormi, sizning pullaringizni cho'ntaklariga solishadi-yu, indamay juftakni rostlashadi! Boya aytdim, olyijanobli-gingiz uchun yana bir bora ta'zim bajo keltiraman; ser, harholda, bunday ahvolga tushib qolganimidan niyoyatda aziyat chekyapman.

Qisqa muddati sukunat boshlandi; Klun bir gap aytishga shaylandi-yu, lekin lom-nim demadi. Faqat bor-gan sari yuzlari lolqaqizg'aldoqqa o'xshab qizarmoqda edi.

— Men hali yosh bolaman, shuning uchun sizdan maslahat so'rayapman, — dedim. — Pand-nasihatiningizni darig' tutmang. Do'stim halol o'ynab o'z pullarini yut-qazib qo'ydi; daslab esa g'irromchiilik qilmasdan puli-nigizni yutib olgan edi. Men pulimizni qaytarib olishim mumkimi? Shunday qilsam yaxshi bo'ladimi? O'zingiz bilasizki, uyoqqa-buyoqqa tashlasak bari bir g'ururim zaxa yeydi.

— Ha, mister Belfur, menga ham og'ir botyapti, — dedi Klun. — Sizningcha, go'yo kambag'al kishilarni shilib olish uchun tuzoq qo'ygandek bo'lib chiqyapman. Do'stlarimning o'z uyimda haqoratlanishlariga aslo yo'l

qo'ymayman, hal! — U birdan tutaqib ketdi: — Yoki ha-qaratlatib ham qo'ymayman, mana shunaqa!

— Ser, ana, ko'rdingizni, demak, bekoruq aymungan ekanman: qarta — batartib insonlarga yurashmaydigan mashg'ulot. Qolaversa, sizdan maslahat berishingizni kut-yapman.

Kafolat berishim munkinki, agar shu tobdı Klun bitor kishini jimidän ham battar yomon ko'nyoygan bo'lsa, o'sha kimsa — Devid Belfur edi. U menga yeb qo'ygudek nazar soldi; hozir og'zidan yomon so'z chiqib ketishi ham mungkin edi. Biroq u kamining yoshligini hisobga olib, o'zini to'xtatib qoldi shekilli. Ehtimol, adolatparvarlik tuyg'usi g'olib kelgandir.., Ravshanki, hamnamiz uchun haqoratomuz vaziyat vujudga kelgandi, ayniqsa, Klun o'zini kamsitilayotgandek his etardi: ammo u bu holatdan chiqib oldi.

— Mister Belfur, jaydari odamming g'ashini keltiradi-gan darajada so'zamolu sermulozamat ekansiz, lekin yu-ragingizda haqiqiy jentelmen ruhi barhayot. Endi sizga aytadigan chin so'zim shuki, bu pullarni olishingiz mun-kin: o'z o'g'limga ham xuddi shunday maslahat berardim. Qani, qo'lingizni uzating — jonajon do'st bo'laylik!

Y i g i r m a t o ' r t i n c h i b o b

SIRLI SO'QMOQ BO'YLAB

NIZO

Qorong'i tushgandan keyin Alan ikkimizni Lox-Erixt daryosining narigi tomoniga olib o'tishdi-da, sharqiy qirg'oq bo'ylab Lox-Rannox irmog'ining yuqori qismida joylashgan boshqa bir yashirin maskan sari boshlab ketishdi. Bizni Qaznoqdag'i xizmatkorlardan bittasi kuzatib borardi. Bu azamat lash-lushlarimizni hamda Alanning plashini ko'tarib olgan edi va xuddi ustiga pichan g'arami

ortilgan chayir ot singari hadiksirab bitta-bitta qadam bosardi. Yukim ozgina bo'lsa-da, lekin oyog'imni sudrab zo'rg'a yurardim; agar biz halol kurashda kuchimizni sinab ko'radigan bo'lsak, bu yigitni mag'lub etishim aniq edi.

Albatta, yengil yuk bilan odimlash mushkul emas; biroq qalbinni ozodlik tuyg'usi va surur chulg'ab olmaga danda o'mindan qo'zg'alishga ham madorim yetmasdi. Endigna to'shakdan bosh ko'tarib, nochor ahvolda pahlavonlarcha harakat qilishga imkonim bo'lmagan holda Shotlandiyaning kimsasiz, ovloq go'shalaridan o'tishga majbur edim, namgarchilik, ayniqsa, jonga tegardi.

Ancha vaqtgacha o'zaro gapplashmadik, goh yonmayon, gohida tumtayganimizcha ketma-ket yurardik: g'uzabga to'lib, lab-lunjin osilib borardi, kuch-quvvatimni asosan ich-etimni kemirayotgan his-tuyg'ularimni jilovlashga sarflardim; Alan g'azabnok va izza bo'lgan qiyofada yurar, nazارимда, pulimni yutqazib qo'yganidan o'sal edi, bu holni do'stona kayifiyatda qabul qilmaganim uchun g'azabi qo'zib ketgandi. Ajralib ketish lozim degan qarorim xayolimni tark etmay qo'ydi; bu fikr yopishavergani sari o'zimdan nafratlana boshlardim. Undan ko'ra, shartta ortimga o'girilib: «Endi o'zing ketaver, mening oyog'imga qarab yuraman desang, o'zing ham bir baloga girifor bo'lishing mumkin», deb aytishim lozim edi. Shu tarzda olivjanob, so'zamol, himmatli inson ekanimni namoyon etardin. Aslida, jondan aziz ko'radigan do'stingga: «Nihoyatda xavfli vaziyatda turibsam, men unchalik yomon ahvolda emasman, sen bilan do'stlashish ortiqcha dahmanadan boshqa narsa emas; bundan buyog'iga bilganiegini qilgin, har kim o'z aravasini o'zi tortsin», deb aytish uchun ablah bo'lising kerak. Yo'q, bunaqasi ketmeydi: bunday gaplar hatto xayolingdan o'tsa — bas, yuzlaring sholg'omday qizaradi-ku!

Baribir Alan yosh bolaga o'xshardi: yomon joyi shundaki, aldoqchi shumtakaday harakat qildi. Deyari hu-shimdan ketib yotgan paytimda aldab-suldab pulimni oldi

nima-yu, o'g'irladi nima — buning farqi unchalik katta emas; boz ustiga, uning ta'biri bo'yicha «tilanchilik qilib pul so'rab olgan» pastkash yonida, mening pulim evazigu bir kunini o'tkazish ilinjida, vijdoni qiyalmasdan odim tashlayotganiga o'lasamni, kuyasanni! Albatta, borimni o'rtada baham ko'rishga tayyormen: biroq u o'z qilmissi ayman shunday bo'lishi kerak, deb baholyoygan jahlimni chiqarardi.

Xullas, mana shu narsalar xayolimdu nuri ketmasdi, lekin bu fikrlarimni bayon etsam yoki pul haqida so'z ochsam, nomardlik bo'lardi. Shuning uchun g'azabimni ichimga yutib, miq etmasdim; hatto hamrohimga quramisdin; unga zimdan ko'z qirimni tashlab qo'yardim, xolos. Nihoyat, Lox-Erixtning narigi qirg'og'ida, bir tekis-dagi qamishzor botqoqlikdan o'tayotganimizda (yurish unchalik qiyin emasdi) Alanning toqati toq bo'ldi shekilli, to'ppa-to'g'ri ro'paramga kelib to'xtadi.

— Devid, arzimagan ko'ngilsizlik uchun do'stlar arazlashib yurishsa yarashmaydi, — dedi. — Men qilgan ishimga afsusanyapman, yetar endi! Agar ko'ngelingda gaplaring yig'ilib qolgan bo'lsa, tortinmay aytaver.

— Mening ko'nglimdami? — dedim g'ijinib. — Hech narsa yig'ilib qolgani yo'q.

U xafa bo'lib goldi, men ichiqora o'zimcha xursand edim.

— Shoshma, axir, gunohimni bo'yninga oldim-ku, — dedi u titroq tovushda.

— Yo'qsa-chi, albatta, gunohkorsizda, — dedim sovuqqonlik bilan. — Gunohingizni biror marta ham yuziningiga solmaganim uchun rahmat aysangsiz arziydi.

— Bir marta ham yuzimga solmading?! — dedi Alan. — Lekin odamni pichoqsiz so'yding, buni juda yaxshi bilasan. Balki, ajrashib ketarmiz-a? Bir paytlar shunaqda degan eding. Ehtimol, o'sha gapingni hozir ham takrorlarsan? Devid, o'ngu so'l tomonimiz ham tog', archagullar ham ikki kishiga yetib ortadi; ochig'ini aysam, men nokerak joyga tumshug'imni tiqishni yomon ko'raman.

Go'yo birov badanimga nasistar sanchgandek bo'ldi; nazarimda, Alan zimdan xiyonat qilganimni payqab qolgan edi.

— Alan Brek! — deb xitob qildim-u, qahr-g'azabimni to'kib solmoqchi bo'ldim: — Nahotki, og'ir damlarda sizni yolg'iz tashlab ketsam? Shunday deyishga qanday tilingiz bordi? Sha'ninka bunday gap ayishga haqningiz yo'q. Barcha xatti-harakatlarim gaplariningiz yolg'on ekanni isbotlab turibdi. To'g'ri, o'shanda tashlandiq yerda uxlab qolgan edim; lekin o'lardek charchaganim tufayli shunday bo'ldi, buning uchun hadeb peshonamga cherta- verish insofdan emas...

— Iye, u gaplarni xayolinga keltirganim yo'q-ku! — dedi Alan.

— ... Agar o'sha hodisani hisobga olmasak, yana nima qilibmanki, itdu ham battar pastkashlikka borsam? — dedim. — Hech qachon do'stlaringa pand bermagaman va bunday yaramaslikni sizdan boshlash niyatim ham yo'q. Birgalikda juda ko'p narsalarni boshimizdan kechirdik; ehtimol, siz esingizdan chiqarib yuborarsiz, lekin men o'lam ham esimdan chiqarmayman.

— Devid, faqat bir gapni ayтиб qo'ymoqchiman, — deb so'zlay boshladi Alan xotirjamlik bilan. — Sen ha-yotimi saqlab qolgansan, sendan bir umrlik qarzdorman; endi pullarimni ham qaytarib berding. Ko'rib turibsanki, shundoq ham zimmamda og'ir yuk turibdi — qarzdorman; bekordan bekorga yurak-bag'rimni ezavermagin-da.

Bunday so'zlar har qanday odamning ko'nglimi eritib yuboradi, albatta, Men ham xiyla ta'sirlandim. Ahnoqona xarxasha qilayotganimni bilardim; shuning uchun endi na-faqat Alandan, ayni paytda o'zimdan ham nafratlanardim; yana jazzavam tutib qoldi.

— Mendan ko'nglimdag'i gaplarni oshkora ayishimni iltimos qildingiz-a? — dedim. — Nachora, mayli, aytaman. Boya o'zingiz iqror bo'lib, meni noqulay ahvolga tushirib qo'ydingiz: oqibatda g'ururim topaldi, lekin sizdan o'pkalaganim yo'q, bu haqda o'zingiz gap ochdi-

ngiz. Endi bo'lsa, haqorat qilgantari uchun negu suyunib, o'yinga tushmayotganimga hayron bo'lyupsiz! — deya bair qirdim. — Indamasam, birpasdan so'ng oyog'ingiza bosh urishimni, minnatdorchilik izhor etishimni istab qolasi! Alan Brek, boshqalar to'g'risida ham ozg'ini bosh qotir-sangiz bo'lardi! Agar o'zgalarini ko'proq o'yuguningizdu o'zingiz haqingizda kamroq gapirgan bo'ladingiz; sizni hurmat qiladigan odam barcha xo'rliklarga miq etmay chidab bergani uchun rahmat ayтиб, eski gaplarni kavushtir-masdingiz; unga qarshi bosh ko'turmasdingiz. Axir, iqror bo'ldingiz-ku, hamma mashmashu siz tufayli boshlandi; shundoq ekan, nega o'rtada nizo chiqaryapsiz? Sal o'ylab gapiring-da!

— Yaxshi, — dedi Alan. — Endi miq etmayman.

Yana sukunat boshlandi. Maxfiy boshpanaga yetib bordik; ovqatlandik, uyquga yotdik, lekin bir og'iz ham gaplashmadik.

Ertasi kuni tong qorong'isida kuzatuvchi bizni Lox-Rammonning narigi sohiliga o'tkazib qo'ydi va qaysi yo'ldan ketsak bexavotirroq ekanini tushuntirdi. Uning aytishiqa qaraganda, darhol toqqa ko'tarilib, uchta vodiyni — Glen-Layon, Glen-Lokey, Glen-Dokartni aylanib o'tib, Kippenning yonidan, Fort jilg'alar bo'ylab pasttekislikka tushib olsak yaxshi bo'lar ekan. Alan yo'1-yo'riqlardan qoniqmadni, agar o'sha yo'ldan yoursak, uning azaliy dushmanlari bo'lmish glenorlik Kempbellar yurtiga borib qolar ekanmiz. Undan ko'ra, sharq tomon yo'1 olganimiz ma'qul ekan: tez orada atollik Stuwartlar qaramog'ida yerlarga kirib boramiz; ular boshqa bir yo'boshchiga itoat etsalar-da, lekin bitta urug'dan tarqalishgan, ota-bobolari qarindosh bo'lishgan; boz ustiga, manzilimiz ham yaqin qoladi. Lekin bizni kuzatib kelayotgan Klunning eng ilg'or ayg'oqchisi Alanning har bir gapiga asosli ravishda e'tiroz bildinardi, har bir muzoftdagi askarlar miqdorini aytardi va o'z so'zlarini (mening fahmlashimcha) biz faqat Kempbellar yurtida bexavotir yurishimiz mumkin ekanligi xususidagi mulohaza bilan yakunlardi.

Oxir-oqibatda Alan rozi bo'ldi, ammo ich-ichida g'ijinib turganini aslo yashirib o'tirmadi.

— Shotlandiyada bundan ham battar o'lkani topib bo'lmasa kerak, — deb to'ng' illadi. — Hech narsa yo'q, faqat archagullar, quzg'unlari Kempbellar bor, xolos. Umuman, bilishimcha, anchu tujribali kishiga o'xshaysiz; mayli, aytguningizcha bo'la qolsin!

Aytilgan so'z — otilgan o'q: o'sha yo'nalish bo'ylab harakat qila boshladik. Uch kecha yaydoq tog'larda tentirab, sarkash daryo boshlanadigan jilg'alar yoqalab odim-ladik; tez-tez tuman tushardi, izg'irin timmasdi, shivalab yomg'ir yog'ardi, yilt etib quyosh ko'rinnasdi. Kundi duzi namxush archagullar ustiga yumalab mizg'ib olardik, kechhalari esa purviqor qoyalanga o'rma lab chiqardik, palaxsa-palaxsa xarsanglar ustidan o'tardik. Ba'zan yo'limizdan adashib, qalin tumanga duch kelib qolardik va tuman ko'tarilishini kutib o'tirishga majbur bo'lardik. Gulxan yoqishni xayolimizga ham keltirmasdik. Yemishimiz atalayu bir parcha muzdek go'sht edi — Qaznoqda xaltamizni to'idirib berishgandi; xudoga shukrki, suv serob; atrofida jildirab ariqchalar oqardi.

Dolg'ali zamон edi. Rutubatlар kunlar, huvillagan ovloq joylar ko'nglimizga g'ulg'ula solardi. A'zoyi badamim ko'karib ketgandi, sovuqdan tishlarim tinmasdan takil-lardi; tomog'im xuddi orolda yolg'iz qolgan paytimdagidek lo'q-lo'q og'riy boshladi: biqinim tinmasdan san-chardi, bilch-bilch loy joyga yotib orom olayotgan vaqtinda ham o'ngimda ko'rganlarim — dahshatli hodisalar sira xayolimni tark etmasdi: chaqmoq shu'lasida Shos qo'rg'onining minorasi ko'z o'ngimda namoyon bo'lardi, dengizchilar Ransomni qo'llarida ko'tarishib kelishardi. Quyruqdagи Boshqarmada Shuan o'lim talvassasida tipir-chilardi, Colin Kempbell esa qaldirab egnidan chakmoni yechmoqqa urinardi. Ana shunday aloq-chaloq tushko'rayotgan paytimda kimdir meni tutrib uyg'otardi-yu, oqshom mahali balchiqda o'tirganimcha sovuq atalani ichib olardim, yuzlarimmi sovuq yomg'ir tomchilari ayov-

siz savalardi, yoqamdan muzdek suv ichinga kirar, tuman asta-sekin ustimizga bostirib kelaverardi — xuddi qop-qora devorga o'xshardi, ba'zan shabada uni uvadiday titib yuborardi-yu, ko'z o'ngimizda qandaydir qoramir-ko'kish vodi yamoyon bo'lardi; jilg'alar pastga shurqirab oqib yotardi. Tevarak-atrofimizda son-sinoqiz imoqlar jildirardi. Timmsiz yomg'irdan so'ng tog' chushmalari to'lib-toshib ketgan, chuqurchalar ko'lmuq bo'lib qolgandi, imoqlar xuddi sel kelgandek lim-lim to'lib, qirg'oqlarga toshib oqardi. Yarim kechasi vodly tonon-guldurak, gohida g'azabnok tovushi eshitillardi. Shundan keyingina Suv parisi haqidagi ertakning haqiqiy quratin anglab yetidim: naql qilishlaricha, youvuz arvohlar kechuvlarda yig'lab o'tirisharkan yoki qizg'in bazm qilisharkan va yo'lovchilarni aldar-suldab suv qa'riga torib ketarkan. Alan bunday naqllarga butunlay bo'lmasda, uncha-muncha ishonar ekan: u katoliklarga o'xshab cho'qinayotganiga ko'zim tushgan chog'da esxonam chiqib ketishiga bir bahya qolardi.

Uqubatlар safar mobaynida Alan ikkalamiz begonasi-rab yurdik, deyarli gaplashmadik. Aslini olganda, surobim to'g'rilanib qolgan edi; shu sababli o'zimni qisman oqlashim mumkin. Boz ustiga, tabiatan men kek saqlaydigan odamman: xafa qilgan kishini ancha paytgacha aslo kechirmasdik: hozir ham yo'ldoshimdan, ham o'zimdan o'pkalardim. Dastlabki ikki kun davomida u ko'pgapirmadi-yu, chamasi, yordam qo'lini cho'zishga har doim tayyor edi va tez orada gina-kuduratni unutishimdan (bu holni yaqqol ko'rib turardim) umidvor bo'lardi. Bu vaqt mobaynida men sukut saqlab yordamlarini qo'pollik bilan rad etardim, gohida qandaydir toshga yoki butaga qaragandek unga bepisand nazar tashlab qo'yardim.

Ikkinci kechasi, amiqrog'i, uchinchisi kun tongida ship-shiydam nishablikka yetib bordik; odatdagidek, darhol nafasimizni rostlab, tamaddi qilib, uyquga yotishimiz mumkin emasdi. Panaroq joyga yetgunimizcha atrof xyla

yorishib qoldi; hamon yomg'ir yog'ardi; bulutlar ancha balandlikka ko'tarilib ketgan edi. Alan yuzinga qaradiyu, betoqatlanib xo'mrayib oldi.

— Tugunchangni menga bern qol, o'zim ko'tarib olaman, — dedi, Lox-Rannoxda ayg'oqchi bilan xayrashganimizdan so'ng o'ninchi marta murojaat etib.

— Rahmat, bir ilojini qilarman, — deb javob berdim.

Alan tutaqib ketdi.

— O'zingdan ko'r endi, o'lsm ham yordam bermayan, — dedi u. — Devid, men bardoshli odamlar toifasidan emasman.

— Ha-ya, endi bo'lar ish bo'idi, — dedim o'n yoshlardagi bolakaydek o'jarlik bilan.

Alan bir og'iz ham gapirmadi, lekin turqi-atvoriga qarab turib, nima demoqchi ekanini bilib olish mumkin edi. U Quznoqdag'i gunohini butunlay oqlab olgandi: shlyapsini chapdastlik bilan manglayidan sal yuqoriroq ko'tarib qo'ydi-da, qaddini g'oz tutgancha shaxdam odimlay boshladi; hushtak chalib borardi, gohida ko'z qiri bilan menga nazar tashlardi, lablaridan esa zaharxanda arimasdi.

Uchinchchi kechada Belkidderning g'arbiy chekkasidan o'tishimiz lozim edi. Havo ochilib ketdi; ayoz tushib qoldi, badan junjikardi, shimol tomondan esayotgan shamol bulutlarni har tarafga sochib yubordi, yulduzlar yorqinroq chaqnay boshladi. Irmog'lar hamon to'lib-toshib oqmoqda edi, suvning xunuk shovullashi eshitilib turardi, lekin, amin bo'ldimki, Alan endi Suv parisini butunlay yodidan chiqarib yuborgandi; kayfiyat a'lo edi. Men uchun ob-havo juda kech o'zgardi; botqoqda shu qadar uzoq vaqt yumalab yotdimki, hatto egnimdag'i ust-boshlarim ham, Tavrot ta'biri bilan aytganda, «menga qabohatdekt tuyulardiv>; o'lar holatda charchedim, badanima butun joyim qolmagandi, vujudim sinqirab og'rindi, etim uvishar, izg'irin suyak-suyagimdan o'tib ketardi, izg'irin uvillasidan qulqolarim batang bitib qolgan edi. Mana shunaqa og'ir ahvolda turgan paytinda yo'idoshimining zaharxanda kulgilariga ham chiddashim kerak edi. Endi uning tili

biyon bo'lib qoldi; bahona topilishi bilan darrov meni mayna qila boshlardi. Ikki gapining birida «vigvachchuo deb ulug'lardi.

— Ana, ko'ryapsanmi, ko'lmakning suvi qurib qolibi; qani, vigvachchua, ko'zlari ni chirt yumib, sukrab yuborsinlar-chil! — dedi u. — Axir, sen osmoniga sapchishta ustasi furungsan-ku! — Hammaga gaplari tubqirlovchi pichinglaru acheniq kesatiqlardan iborn bo'lardi.

Qaytar dunyo deb shuni aytisalar kerk-di! Aybimga iqror bo'lishga ham toqatin yo'q edi; bu ketishdu uzoq-qolaman-u, egasiz qo'y yoki daydi tulki singari tog'u toshlarda jon beraman, suyaklarim yirtqich hayvoni ki singari oqarib yotaveradi. Nazarimda, alahsiray boshladim; ehtimol, shuning uchunumi oxiratim qo'rquinch tush kabi ko'z o'ngimda yaqqol gavdalananardi; ana shu ovloq joylarda chirib ketsam kerak, deb o'ylardim va so'nggi damlarda ustindra yovvoyi burgutlar o'laksa hildini sezib gir-gir aylanishadi, degan fikr sira xayolimni tark etmasdi. Ana, innaykeyin Alan afsuslanadi, qarzini uza olmaganiha ming-ming pushaymonlur yeydi, ammen allaqachon o'lib ketgan bo'luman: xotirum unga hech qachon tinchlik bermaydi, deb o'zimcha xayol surardim. Savdojiga, alamzada bolaga o'xshardim, eski gina-kuduratlarimni jo'rttaga yangilardim. Undan ko'ra, tiz cho'kib xuddadan madad so'raganim afzal edi, albatta. Alan har gal piching qilgan paytda xayolimda qo'limni yuvib, qo'tig'imga arib qo'yardim. «Semmi, shoshmay tur-chi! — deb o'ylardim. — Shunaqayam zo'r javob hozirlab qo'yamanki, doldingni xudoga ham aytolmay qolasan: o'zimni tap etkazib yerga tashlayman-u, o'lib qolaman; undan so'ng jirtta-jirtta sakrashningi tomosha qilaman! Qasos olish shunaqa bo'ladi, og'aynil! Ichiqoralik, berahmlik qilganing uchun afsus-nadomatlar chekasant!» Borgan sari ahvolim og'irlashardi. Bir safar hatto yiqilib tushdim, oyoqlarim chalishib ketdi; Alan bipasda taraddudlanib qoldi. Sapchib o'mimdan turdim-u, shaxdam

qadam tashlab yana yo'ga tushdim: ko'p o'tmay o'sha hodissa uning yodidan ko'turildi. Ba'zan tandirda o'tirgan odamdek a'zoyi badanim yonardi, ba'zan esa sovuqdan tishlarim takillardi. Biqinimdag'i sanchiqqa toqat qilib bo'lmasdi. Nihoyat, bundan ortiq bir qadam ham yura olmasligimni payqab qoldim va birdan ko'nglimda hammasini Alanga to'kib solish istagi paydo bo'idi: g'azabimni sochib yuboramman-u, birpasda hayot bilan hisob-kitobni bироqlik qilaman. Aymi shu tobdas u «vivgachcha» deb chaqirdi. Men to'xtadim.

— Mister Styuart, yoshingiz jihattan mendan kattasiz, shundoq ekan, qanday muomala qilishni bilishingiz lozim, — dedim, tovushim xuddi tarang tortilgan tor misoli titrardi. — Nahotki, siyosiy e'tiqodimni yuzinga solib, shu yo'sinda ko'zlarimni o'yib olmoqchi bo'lsangiz? Bundan boshqu bama'niroq emmak topilmadimi? Kishilarning dunyoqarashi bir-biriga zid bo'gan hollarda yigit odam o'zini munosib ravishda tutishi kerak; hadeb qiyshanglayversa, uyat bo'jadi. Aks holda, ishonchingiz komil bo'lsinki, sizni tuzlab qo'yishim mumkin, keyin o'tirgani joy topolmay qolasiz!

Alan ro'parama shlyapasin chakkasiga dol qo'ygancha serrayib turardi, qo'llari cho'ntaklarida, boshini bir tomonga qiyshaytirib olgan edi. Yulduzlar shu'lasida aft-basharasini yaqqol ko'rib turardim; miyig'ida kulardi. Gaplarnimni tugatishim bilanoq yakobinchilar qo'shig'i kuyini hushtakda chala boshladi. Bu qo'shiq Prestonpans ostonalariida yakson qilingan general Koupni mazaxlab yaratilgan edi.

*Ey Jonni Koul, halijam oyoqlaring yuryaptimi?
Halijam sening nog'oralarin chalinyaptimi?*

To'satdan o'sha jang paytida Alan qirol tomonida turib urushganini eslab qoldim.

— Mister Styuart, nima uchun aymen mana shu qo'shiqni tanladgingiza? — dedim. — Mabodo siz ham

ular tomonidan, ham bular tomonidan yengilganiningizi eslatib qo'yemoqchi emasmisiz, ishqilib?

Alan birdan hushtak chalishni bas qildi.

— Devid! — deb xitob etdi.

— Bunday xurmacha qiliqlarga chek qo'yish lozim, — dedim. — Shu tobdan e'tiboran mening qirolin, ujoyib do'stilarim — Kempbellar haqida ittifoq bilan gapishga o'rqtib qo'yishim mumkin.

— Men Styuartman... — deb so'z boshladi Alan.

— Ha, bilaman, — deb cho'rt kestdim. — Familiya shu tog'larda o'sha familiyani ko'tarib yurgan bir talay kishilarni uchratdim, endi faqat bir gap aytishim mumkin: agar ular yuvinih olishsa, benihoya savob bo'lardi.

— Agar shunday bo'lsa, afsus qilaman, — dedim. —

Lekin halil gupimni tugatganim yo'q; agar hazilni ko'tara olmasangiz, chin gapni eshitib yuragingiz yorilib ket-sa ajab emas. Jang maydonida kattalardan yengilgansiz, o'chingizni yosh boludan olyapsizmi?! Sizni Kempbellar do'pposalshgan, viglar ham do'pposalshgan, siz bo'lsangiz orqa-oldingizga quramasdan qochishni bilgansiz, xolos. Ular haqida sal iltifot bilan gapirsangiz bo'lardi.

Alan xuddi qoqqan qoziqday qotib qoldi; plashining etaklari shamolda hilpirardi.

— Afsus, — dedi nihoyat. — Lekin ba'zi bir gaplarni aslo unutib bo'lmaydi.

— Sizzdan hech kim umutishni iltimos qilayotgani yo'q, — dedim. — Ijozat bersangiz, yakkama-yakka olishuvga tayyorman!

— Yakkama-yakka olishuvgami? — deb takroran so'radi.

— Ha, ha, yakkama-yakka olishaman! Men mahmada, maqtanchaoq emasman. Hushyor bo'ling, janob! Tag'in biqiningizidan darcha ochib qo'yayin! — Shartta qilchimni qimidan sug'urdim-u, Alanning o'zi menga o'regtaganiday jangovar holatga kirdim.

— Devid! — deb qichqirib yubordi u katovlangan ko'yi iyagini tutamlab. — Xudo haqqi! — dedi-da, qilichi ni qinidan sug'urdı. Ammo qilichim bilan bir marta ham-la qilishga ham ulgurmusimdan, u qilichimi otib yubordi yu, yerga uzala tushib yotib oldi. — Yo'q, yo'q! — dedi qayta-qaytu. — Yo'q, bunday qilolmayman...

Ana shu manzarami ko'rganimdan so'ng birdan g'azabim so'ndi-qoldi; faqat ko'nglimda qandaydir og'riq, afsus-nadomatu bo'shliq qoldi, xolos. O'zimdan ham norozi edim. Agar ayigan so'zlarimni qaytarib olganimda bormi, buning evaziga hech narsamni ayamas-dim. Biroq, aytilgan so'zni qaytarib bo'larmidi? Darhol Alanning mehribonligini, dovyurakligini, meni qo'llab-quvvatlashini, daldalarini, atrofimda parvona bo'lib, og'ir damlarda yolg'iz tashlab qo'ymaganimi esladim; keyin uni haqoratlaganim yodimga tushdi-yu, fidokor do'stimdan bir umga ajralganimni tushundim. Ahvolim yanada yomon-lashdi, biqinim go'yo birov pichoq suqib olayotgandek io'q-lo'q og'rindi. Mana hozir hushimni yo'qotaman-u, yi-qilib qolaman, deb o'yladim.

To'satdan ko'zlarim yaroq etib ochilib ketdi: boyagi so'zlarimni ming marta tavba-tazarru qilganimda ham yuva olmayman; bunday dilsiyohlikni gap-so'zlar bilan ko'ngildan aritib bo'lmaydi. Ha, endi o'zimni oqlab o'tirganimdan foyda yo'q edi, lekin bir og'iz yordam so'rab iltijo etsam, bas, Alan so'zimni yerda qoldirmasdi. Men g'ururimni yengib:

— Alan! — dedim. — Yordam bering! Bo'lmasa, ho-zir o'lib qolaman.

U sapehib o'midan turdi-da, menga sinchiklab nazar tashladi.

— Rost gapiryapman, — dedim. — Tamom bo'ldim. Oh, panaroq joyga eltilib qo'ying — osmonroq jon beray. Tilyog'lamatlik qilib o'tirishga hojat yo'q edi, yalinishchoq tovushimga har qanday bag'ritosh kishi erib ketardi. — Yura olasammi? — deb so'radi Alan. — Yo'q, — dedim. — O'zim yurolmayman. Cha-

minda, bir so'tdan beri oyoqlarim chalishib ketyapti; biqinim lov lov yonyapti, xuddi qizib turgan temuri bo-sihuyotgandek; natfas olishga holim qolmadi. Alan, ugar men o'lib qolsam, rozi bo'lasizmi? Hatto jahlin chiqib turgan paytlarda ham sizni ichimdu yaxshi ko'rurdim.

— Jim bo'l, kerak emas! — deb qicheqilb yubordi Alan. — Bir og'iz ham gapimni! Devid, jomjon do'stim, o'zing bilman-ku... U ho'ngrab yubornaslik uehun na-flini yutti. — Kel, seni opichlab olaman, munun budiyl! — deb davom etdi. — Indi bo'yinmdan mahkum ubila. Jin usan, boshippani qayyerdan topamiz? Shoshuma, axir, Belkiddorga yetib keldik-ku; bu yorda uylar serob, Do'starim ham shu yorda istiqomat qiladilar. Devi, shun-diy yuramni senga ozor yetmyudimi?

— Yo'q, omon-eeson yetib borsak kerak. — Uning qo'lini makhamroq ushlab oldim.

U ho'ngrab yuborishdan arang o'zini tiyib qoldi. — Bilasumi, Devi, men yaramas odamman, vassalom! Fahm-furasat, mehr-oqibat nima ekanimi ham bil-mayman. Bo'lmusun, sen hali suyagi qotmagun yosh bola ekuningni, men bilun toppa-teng yo'l yura olmasliging-ni esimdan chiqqarib qo'yarmidim! Devi, meni kechirgin endi.

— Og'ayni, bu haqda gaplashmaylik! — dedim. — Ik-kalamiz ham yomon odam emasimiz, xo'pmi! Qadrdomim Alan, bir-birimizni shundayligimizcha yaxshi ko'rishimiz lozim! Vay, biqinim! Toqat qilib bo'lmayapti-ku! Nahot-ki, yaqin o'rtada birorta boshpana yo'q?

— Albatta boshpana topib beraman, Devid, — dedi Alan ishonch bilan. — Hozir irmoqning quyi oqimi bo'ylab yuramiz-u, birorta uyga duch kelamiz. Menga quqa, azizim, balki seni opichlab olganim ma'quldir-a?

— Alan, jigarim, axir men sizdan bir bosh novchaman-kut!

— Hechqisi yo'q! — deb xitob qildi Alan. — Ko'pi bilan bir qarich novchasan, xolos. Albatta, meni xudo-yim bo'ydan sal-pal qisib qo'ygan — ko'riniq turibdi, le-

kin... — Birdan ovozi chiqmay qoldi va bir ozdan so'ng davom etdi: — Umuman, o'ylab ko'rsam, sen haqsan.

Rostdan ham, mendan bir bosh novchasan; hatto bir tirsak novcha bo'lsang-da ajab emas!

Yana o'rtada janjal chiqmasligi uchun Alan shosha-pisha so'zidan qaytardi: bunday chog'da beixtiyor kul-gim qistardi. Agar biqinim lo'q-lo'q sanchib turmaganda, qahqaha urib yuborishdan ham toymasdim, albatta. Biroq, kulib yuborsam... ayni paytda ko'zyoshlarimi ham tiyol-may qolardim.

— Alan! — deb murojaat etdim. — Menga nima uchun bunchalar mehbobsiz? Nega bunday ko'mamak bolaga duch kelib qoldingiz?

— Rostini aytasam, o'zim ham bilmayman, — dedi Alan. — Ilgari nizo chiqarisinga o'ch bo'limgan uchun yaxshi ko'rardim; mana endi yanada yoqimtoy ko'rinyapsan!

Y i g i r m a b e s h i n c h i b o b

BELKIDDERDA

Alan yo'limizda daslab uchragan uy eshigini taqillat-di; Shotlandiyaning tog'li viloyatlarida, ayniqsa, Belkid-der yonbag'rida bunday xatti-harakat begona kishilarga qimmatga tushishi mumkin edi. Bu yerda qandaydir biror-ta kuchli qabila hukmronlik qilmasdi; tanazzulga yuz tut-gan jamoalarning qoldiqlari, Kempbellar zulmidan qochib, Fort va Tey daryolarining irmoqlari bo'yalariga ko'chib kelgan (urug'i-yu qabilasining tayini yo'q) odamlar, xul-las, mayda-chuyda to'dalar yer-mulklarini bir-birlaridan tortib olardi. Stuwartlar bilan Maklarenlar ham shu yerlar-da istiqomat qilishardi, ular o'ttasidagi tafovut unchaliq katta emasdi; chunki jangu jadal paytda Maklarenlar ham Alanlarning yo'lboshchisi tug'i ostida birlashardi va Epin qabilasiga singishib ketardilar. Bundan tashqari, ko'hna,

qonun yo'lli bilan tu'qib etilgan, nom-nishonsiz, qasoskor Makgregorlari qabilasining ko'plab a'zolari ham mana shu yerlarda yashardi. Ular azal-azaldan otning quşqasidek ma'hum va mushhur edi; Shotlandiyadagi birorta dushman tonon ham, gurahbozlar ham bu qabilaga ishommasdi. Qibili yo'lboshchisi — makgregorlik Makgregorlarning bevosita muhojir edi; Belkiddederdag'li Makgregorlarning bevosita yetukchisi bo'lmish Jeyma Mor (lob royning to'ng'ich o'g'il) Edinburg qo'rig' onidagi zindonda sud bo'lishini kutib yotardi; ular tog'liklar bilan ham, pasttekkalik aholisi bilan ham, Grenler bilan ham, Maklarenlar bilan ham, Stuwartlar bilan ham it-mushuk edi; o'z-o'zidan ravshan-ki, hatto yo'llyo'lakay tasodifin tonishib qolgan jo'rasini xafsi qilgan kishi-da, shaxsiy dushtumani deb biladigan Alan o'sha dilozor kimsular bilan to'qnashib qolishni aslo istanadi.

Bizning omadimiz bor ekan: bu uy Maklarenlar oliniga qurushli edi; Alanni quchoq oelib kutib olish-di. U faqut Stuwartlar avlodidan bo'lgani uchungina izzat-hurnatga sazovor emasdi, albatta: ayni paytda bu yerlar-dan Alan haqidu juda ko'p afgonular to'qilgan edi. Meni darhol o'ranga yotqizishdi-da, tabibni chaqirib kelishdi; u alvolim nihoyatida yomon ekani aniqladi. Bilmadim, haqiqutun hum mohir shifokor edimi yoki o'zim hali nav-qiron va kuchli bo'lganim tufaylimi, ishqilib, bir hafta to'shakda yotdim, xolos. Oy oxirlarida butunlay sog'ayib ketdim; endi yo'lda oltanishim mumkin edi.

Alanga qanchalik yalintib-yolvorsam ham, meni yolg'iz tashlab ketishga aslo rozi bo'lmadi; rostini ayt-ganda, uning bu yerda qolishi bema'milik edi. Bizning sirimizdan xabardor do'stlarimiz ham o'sha fikri tak-rorladilar, ammo baribir unga gap ta'sir qilmasdi. Kun-duz kunlari u yonbag'irlikdagi o'monda — bitta ulkan daraxtning tomirlari orasidagi xandaq ichida yashirinib yotardi, kechalar hammayoq tinchib qolgan mahallarda meni ko'rgani kelardi. Quvonchim ichimga sig'may ketardi, xonodon sohibasi missis Maklaren aziz mehmon-

ni qayqqqa o'tqazishni bilmay qolardi; Dunkan Du esa (uy egasining ismi sharifi shunaqa edi) mustiqqa shaydosi bo'lib, uning bir juft sibizg'asi bor edi; shuning uchun to men sog'ayib, darmonga kigunimcha xonadonda haqidiy bayramona kayfiyat hukm surdi, ko'pincha erta tongga qadar o'yinab-kulib o'tirardik.

Askarlar bizni bezovta qilishmasdi; faqat bir kuni (de razadan tashqarini kuzatib yotardim) pastlikdan bir nechta otlqlar bilan piyoda askarlar guruhi qayoqqadir o'tib ketishdi, xolos. Eng ajablanarlisi shunda ediki, mahalliy humumat vakillaridan birortasi ham qayeoqdan kelib, qayoqqa ketayotganimni so'rab-surishtirmadi, bemon yotgan xonaga bosh suqib qaramadi; dolg'ali zamonda tog'u toshlarda tentirab yursam, kishilarida ko'proq shubha uyg'otardim, lekin bu yerda hech kim shaxsim bilan qiziqmasdi. Yo'iga tushgunimga qadar Belkudderda va qo'mi-qo'shnilar orasida men haqindu eshitmagan odam qolmadni hisob; bu davrda xonadonga juda ko'p kishilar tashrif buyurishi — tog'iiklarning rasm-rusumiga ko'ta, yangilik albattra bexabar kimsalarga yetkazilardi. Boz ustiga, bizni qo'iga tushirish xususidagi qator ham e'lom qilingan edi. Shunday e'lommadan birini karavotimning oyoq tomoniga — devorga yopishshtirib qo'yishgan edi va o'zimming tashqi ko'rinishim borasidagi yoqimsiz izohotni qayta-qayta o'qishim mumkin edi. E'lonna oxirida boshim uchun tikilgan mukofot ham eslatib o'tilgandi. Shubhasizki, Alan bilan kelganimni ko'rgan kishilar kaminaning kim ekanini aniq bilishardi; bu sirdan unchalik voqif bo'lmagan kimsalar esa o'zlaricha taxmin qilishardi, xolos. Hartugul, kiyim-boshimni almaشتirib olgan bo'lsam-da, o'z qiyofanni, yoshimni o'zgartirishga qodir emasdim; notinch zamonda pasttekistlikda yashaydigan o'n sakkiz yashar yigitcha bu ovloq o'lkaga ko'ngixushlik qilish uchun gina kelmaganini ahmoq ham bilardi; qolaversa, voqeahodisalarni shunchaki taqiqoslab ko'rgan kishi qarorda kim to'g'risida gap ketayotganini ilg'ab olishi mushkul emasdi. Nima bo'lganda ham, kaminani birov bezovta qilma-

di. Boshqa o'kkalorda inson ikki-uchta ishongan do'stiga shini aytadi-yu, ko'zini yumib ochguncha sir fosh bo'lib qolganini o'zi ham sezmay qoladi; tog'lik qabililar orasida ein bitta simi butun muzofot ahlili bildi, ammo yuz yil o'iguncha ham birov og'zidan gullamaydi.

Kunlar qanday o'tganini bilmuy qoldim. Bu payt moyndida menda katta tansurot qoldig'an bitin holdisa haqidin alohibda to'xtildi o'tishim lozin: afhamavly Rob Royning o'g'ilariidan biri bo'lmish Robin Oyle ataylab kamini ziyurni qilgan kelib, bemon ko'nglini bog'oyt shod edi. Kochaniyu kunduzi bu zotni qidirishlardi; u Helftron-dan batog'alg'a yetmongan qizalomi o'g'irishdu ayblanard; govohlik herishlaricha, zo'rlik yo'lli bilan o'sha ojizani xotin qilib olibdi; o'zi suiddi otasining chorborg'ida yurqundeck Itelkudderda bemanol sayr etaverardi. U qo'sh haydayotgan Jeyms Maklarenni otib o'dirgan edi-yu, o'shandan beri o'zaro urush-janjallar timmasdi. Lekin uning uyi xuddi daydi savdogarlar tunaydig'an karvonsa-royga o'xshardi; ashaddiy dushmanlariga ham boshipana beraverardi.

Dunkan bu kishining kim ekanni qulog'imga shipshiddi-yu, xuvotirlanib bir-birimiz bilan ko'z urishshtirib oldik. Ciap shunda ediki, har daqiqada Alan kelib qolib, o'ttuda janjal ko'turilishi ehtiymoldan uzoq emasdi; to'g'ri, Alanni ogohlantirib qo'yishimiz, qandaydir imo-ishorolar qilishimiz mumkin edi, ammo xavf-xatardan qochib yurgan inson bizning sa'y-harakatimizdan albattra shubhalarib qolardi.

Xonaga Makgregor kirib keldi. U o'zini nihoyatda siyo tutardi, odamlarga yuqorida nazar tashlardi: missis Maklaren qarshisida shlyapasini yechdi-yu, ammo Dunkan bilan gaplasha boshtagan chog'da yana shlyapasini kiyib oldi; go'yoki shunday qilig'i bilan o'zining kim ekanni pisanda qilmoqchi bo'lardi. U men yotgan joyga kelib ta'zim bajo keltirdi.

— Ser, eshitishimga qaraganda, nomingiz Belfur ekan, — dedi u.

— Ismi-sharifim Devid Belfur, — dedim. — Ser, xizmatingizga tayyorman.

— Ser, o'zim ham ismi-sharifimni aytishim lozim edi, — dedi Robin. — Negadir keyingi paytlarda sha'nimga har xil bo'htonlur yog'ilyapti. Shuning uchun faqat Jeyms Mor Dramondning tug'ishgan ukasi ekanimi eslatib qo'ysam kifoya qilmasmikan-a? Harholda, Makgregor haqida eshitgan bo'lsangiz kerak, to'g'rimi?

— Eshitgamman, ser, — dedim andak sarosima aralash. — Bundan tashqari, otaxonningiz. Makgregor-Kempbellni ham bilaman. — O'mindan biroz qaddimni ko'tardim-da, unga ta'zim qildim; agar otasi qaroqchi bo'lgani uchun maqtammoqchi bo'lsa, o'pkasini bosib qo'ymoqchi edim.

Menga javoban u ham ta'zim bajo keltirdi.

— Ser, endi gapning indallosiga o'tmoqchiman, — deb davom etdi. — Qirq beshinchchi yili akam gregorlarning bir qismimi uyuştirib, oltita rotaga bosh bo'lib, haq ish uchun kurashga otlandi; ular orasida bitta shikasta-nafs ham bor edi, u qabilamiz safida borardi, akamga doimo ko'z-quloq bo'lib yurardi; Prestonpans ostonalariagi janglarda akamning oyog'i sinadi-yu, adashingiz bo'l mish ollyjanob inson uni jaung maydonidan ko'tarib chiqadi. O'sha zot beytlik Belfurning akasi edi; agar ollyjanob jentelmena uzoq-yaqin qarindosh bo'lsangiz — ayting, men va mening odamlarim har qanday xizmatningizga tayyormiz.

Rostini aytasam, ota-bobolarni qandaydir ko'ppak itchallik ham bilmasdim; to'g'ri, amakim mashhur qarindoshlarim haqida erimmasdan gapirib berardi, ammo u aytg'an zoftlar orasida beytlik Belfur degan kimsa yo'q edi. Shuning uchun qizarib-bo'zarib, unday kishi haqida hech narsa bilmasligimi tan olishga majbur bo'ldim.

Robin bemavrid bezovta qilgani uchun uzuq-yulq uzr so'radi-da, xayr-ma'zurni ham nasiya qilib eshik tomon yo'l oldi; ostonaga yetgan chog'da Dunkanga g'azab bilan huqma tashlaganini eshitib qoldim: «Bezot ekan, hatto o'z otasini ham tanimaydi-ya!» Bu so'zlar qulog'imga cha-

linganidan so'ng niheyatda jahlim chiqdi, o'z yog'inga o'zim qovurdim — hammasiga o'zini aybdor edim. Bir tomonidan kulgim qistardi: qonuniy hukumat ayovsiz tu'qib qilayotgan bu odam (uech yil muqaddam sirtdan osib o'ldirishiga hukm etilgan edi) tunish-bilishlariga aloqador bincha ikir-chikirlami bilardi.

Tuyqusdan u ostoniada Alan bilan yuzmu-yuz kelib qoldi: ikkalasi ham orqiga chekindi-yu, bir-biriga sinchkov nuzar tashhadilar — suddi begona tilerdeki bir-birlarini g'ajib yuborishga ham shuy edilar. Bo'yular past bo'tsa-din, kokkayib turishgan uchun odindog'dan kiylo novcharoq ko'rinishardi. Yonlarida qılıchi osig'liq edi va qorindarini ichlariga tortishib, bir zumda qılıch dastusini uchlab olishga tuyyor turishardi.

— Agar ko'zurim pand bermayotgan bo'lsa, o'zları mister Siyurt bo'ladilar, — dedi Robin.

— Haqiqatan ham shunday bo'isa, o'zları mister Makgregor bo'ladilar shekilli, — deb javob berdi Alan. — Bunday ismi-sharif hech kimni uyaltirmasa kerak.

— Ser, yurtimizga tashrif buyurganiningizni bilmagan edim, — dedi Robin.

— Men esum, shu choqqucha do'stlarim Maklarenlar yurtida yurgan bo'lsam kerak, deb o'ylagan edim, — dedi Alan.

— Hozircha bu mujmal masala, — deb javob qaytardi Robin Oyg. — Munozarali masala. Qolaversa, eshitishim-ga qaraganda, siz har qanday munozarali masalalarini qitlich yordamida hal etishga usta ekansizda?

— Mister Makgregor, mabodo tug'ma garang emassmisiz, ishqilib? Aks holda, boshqa gaplarni ham eshitigan bo'lardingiz, — deb subbatdoshining g'ashiga tegmoqchi bo'idi Alan. — Epinda mendan boshqa ham qılıch ushishni biladigan insonlar bor. Masalan, qarindoshim, yo'lboshchim Ardshil bir necha yil muqaddam aynan adashingiz bo'igan jentelmen bilan jiddiy ravishda gaplashib olishgan edi, lekin oxirgi so'zni Makgregor ayganini negadir eslolmayapman.

— Ser, mening otaxonimni nazarda tutmayapsizmi? — deb so'radi Robin.

— Ehtimol, — dedi Alan. — O'sha jentelmen ham o'z ismining ortiga «Kempbell» degan so'zni shatakkalishga or qilmasdi.

— Unda otam keksayib qolgan edi, — deb e'tiroz bildirdi Robin. — O'sha yakkama-yakka olishev adolati bo'lmagan edi; kuchlar teng emasdi. Ser, biz bir-birimizga munosib raqib bo'lsak kerak.

— Men ham xuddi shunday fikrdaman, — dedi Alan.

Karavotdan oyoqlarimni osilitrib o'tirib oldim. Dunkan esa boyadan beri bu urishqoq xo'roqalar tevaragida parvona bo'lardi-yu, ammo mojaroga aralashishga sira ham qulay fursat topolmasdi. Biroq oxirgi so'zlardan ma'lum bo'ldiki, endi birpas ham ikkilanib turish yaramasdi: Dunkan hayajonlangandan xiyal rangi oqargan ko'y ularning o'tasiga g'ov bo'lib turib oldi.

— Jentelmenlar, men butunlay boshqacha fikrda man, — dedi. — Ko'ryapsizlarni, huv anavi yerda sibizg'alarim turibdi: sizlar esa, jentelmenlar, tanqli sozanda hisoblanasizlar. Ko'pdan buyon ikkalangizdan qaysi biringiz mohir cholg'uchi ekaningiz haqida munozara qilinadi. Hozir esa azzaliy munozaraga chek qo'yiladigan fursat keldi!

— Ser, bilasizmi, — deb gap boshladi Alan nigholini Robindan uzmay; ayini paytda raqibi ham undan ko'zini umay tikilib turardi, — yanglishmasam, o'zim ham shunaqa mishmishlarni eshitgan edim, chammada. Aytishlaricha, ermak uchun musiqa bilan shug'ullanar ekansiz-a?

Biror marta sibizg'a chalgannmisiz?

— Sibizg'a chalish bahsida har qanday Makrimmoning belimi sindirib tashlayman! — deb xitob qildi Robin.

— O'h-o', dadil ekansiz-ku! — deb qo'ydi Alan.

— To'g'ri, dadil gapiraman, doimo to'g'ri so'zlayman, — deb javob berdi Robin. — Hatto dushmanimiga ham yaxshi munosabada bo'laman.

— Huni tekshirib ko'rish oson, — dedi Alan. Dunkan Du eng qimmati boyligi bo'linish bir juft libizg'insini oldi va mehmonlar oldigu turli-tumun nozne'muthami to'kb tashladi: dasturxonda pishgan qo'y sonlari, bir shisha ichimlik (bu eski viskin'i ko'pirtilib — Atolcha usulda tayyorlangan o'tkir araq edi), quymosq, suzgichdan o'tkazilgan xushbo'y uyd (bu ham qut'iy turlib bo'yicha tayyorlandigun tonsiq tuom hisoblaniadi) paydo bo'ldi.

Raqiblar humon bi'bining yodasiga yopishadigan alfozdu edilir; shunga qurumay, itontkorona rivishda bo'odoblik bilan tezak yonuyotgan o'choqning ikki tomoniga o'tirdilar. Maklaren ularni zo'r berib qo'y go'shtidan olishtga unday boshladi; ichimlikni ko'klarga ko'tarib maqtadi, aytishicha, xotini Atoldan kelin bo'lib tushgan ekan va bunday ichimlikni tayorlash bo'yicha o'lkada dong taratgamish. Biroq Robin ichimlikdan parhez qilar kan; chunki ichsa nafasi qisar ekan.

— Ser, mana, o'n soatdan beri kamina tuz ham totganim yo'q; bu hol butun Shotlandiyada tayyorlandigun spirlti ichimliklardan battar nafasini qisishini hisobga olib qo'yishingizni iltimos qilardim, — dedi Alan.

— Mister Styuart, o'zimga beriladigan har qanday imtiozdan yuz o'girmayman, — deb e'tiroz bildirdi Robin. — Yeb-ichavering; men esam sizzan o'mak olaman. Har kim bir parchadan son go'shtini yedi-da, missis Maklaren sog'ligi uchun bir stakandan araq ichishdi, sизu bizlardan so'ng, niroyat, Robin sibizg'ani qo'liga oldi-da, epchillik bilan qandaydir tarona chala boshladi.

— Hm-m, bilar ekansiz, — dedi Alan va raqibidan sibizg'ani olib dastlab o'sha taromani xuddi avvalgidek epchillik bilan chalib berdi, so'ngra sibizg'a imkoniyati darajasida juz'iy o'zgarishlar yasadi; yangroq raqs kuyimi ijo eta boshladi.

Robinning o'yimi ma'qul bo'ldi, lekin Alanning mahorati kaminani hayratda qoldirdi.

— Mister Styuart, unchalik yomon emas, — deb

e'tiroz etdi raqib. — Birroq yangroq kuyingiz mazmunan sayozroq ekan.

— Nima?! — deb qichqirib yubordi Alan. Uning yuzi qizarib ketdi. — Yolg'on gapiriyapsiz!

— Demak, cholg'uchi sifatida o'zingizni mag'lubiyatga uchraguningizni tan olyapsiz, — dedi Robin. — Nazarimda, sibizg'an qilichga almashturishni sabrsizlik bilan kutyapsiz, shundaymi?

— Topib aytdingiz, mister Makgregor, — deb javob berdi Alan. — Shuning uchun hozircha (ma'nodor ohanga ohista so'zladi) boy aytgan so'zimni qaytarib olaman. Dunkandan qattiq iltimos qillardimki, u bizga xolis baho bersa!

— Bas, birovdan iltimos qilihsning sira ham keragi yo'q, — dedi Robin. — Belkidderdagi birorta Maklaren ham o'zingizzdan a'loroq hukm chiqara olmaydi. Chunksi Stuart ekaningiz, e'tiborga olansa, nihoyatda noqobil sibizg'a cholg'uvchisi ekaningiz kunday ravshan bo'ladi-qoladi. Sibizg'an uzzatib yuboring!

Alan iltimosni bajo keltirdi; shundan so'ng Robin Alan ijro etgan sho'xchan kuyularni birin-ketin takrorlay boshladi: ma'lum bo'lishicha, u hammassini to'la-to'kis eslab qolgan ekan.

— Ha, musiqa ilmidan boxabar ekansiz, — deb to'ng'iljadi Alan asabiylashib.

— Mana, endi, mister Stuart, o'zingiz baho bering-chi! — dedi Robin va benihoya uyg'un bir kuyni mohirona ijro etdi: unga xilma-xil jilolar samimiyat baxsh etdi, o'jar xayollariga erk berib yubordi, xullas, o'ynoqi kuy chaldi.

Men esam, musiqani tinglab beixtiyor yoqamni ush-ladim. Alan qoshlarini chimirib o'tirardi; yuzlari lov-lov yonardi, barmoqlarini og'ziga tiqb, tirmoqlarini kemira boshladid; aftidan, o'zini haqratlangandek his etardi.

— Bas qiling! — deb qichqirdi. — Ko'rinish turibdi, soz chalishga usta ekansiz! — U shaxd bilan o'midan turmoqchi bo'ldi.

Lekin Robin tinchlik saqlashni so'rab qo'lini ko'tardi-yu, birdan shotlandcha xalq kuyuni ijro etu boshladi. Kuy dilumi o'rtub yuborardi; bundan tushquri, bu epinlik siyurthor azaldan tilan qo'y may ayrib yurdigan milliy qo'shiqning kuyi bo'lib, Alan uchun nihoyatda qudrdon edi. Ohang yangrashi bilan do'stumming yuzlari yorishib ketdi; kuy avj pardalarga chiqqani suyin joyida jingina o'tira olmay qoldi; cholg'uvchi mustaqani poyoniga yetkazguncha Alanning qiyofasida gina-kuduratdan usar ham qolnadi — u musiqiga maftun bo'lib qolgen edi.

— Robin Oyg, benuzir sibizg'achi eksiz! — dedi. — Siz bilan musobaqalashishgu qodir emasman. Xudo haqqi, ro'molningizing tolusidn ham bebaho iste'dod mujassamdir! To'la ishonchim komil bo'limsa-da, lekin sovuq po'lat munozaramizni boshqacharoq hal etishi mumkin edi, deb o'ylayman. Qoyilmaqom sibizg'a chaladigan insonni qiymalab tashlashga qo'llormaydi!

Shunday qilib, raqiblar yarashdilar; tun bo'y'i ichimlik suvday oxqib kelib turdi, sibizg'a ham qo'ldan qo'lg'a o'taverdi. Robin yo'lga otlamish g'amenti yeyavoyotgan chog'da tong yorishgan edi; uehalamiz ham shirakayf edik.

Y i g i r m a o l t i n c h i b o b

OZODLIK

BIZ FORTDAN OTMOQCHIMIZ

Ma'lumingizkim, salkam bir oy betob bo'lib yotdim va, nihoyat, darmonga kirdim: aytishlariga qaraganda, bemalol safarga otlanishim mumkin ekan. Ayni pishiqchilik, dalalarda bu yilgi issiq obi havoda mo'l-ko'l hosil yetishtilgandi. Pulimiz juda kam qolgandi, shuning uchun tez-roq harakat qilib Rankiler huzuriga yetib bormasak yoki biz borgan chog'da u yordam berishga qodir bo'limsa

borni, oqibatda och-nahor qolishimiz tayin edi. Boz us-tiga, Alanning hisob-kitoblariga ko'ra, izmizdan ta'qib etib kelayotgan askarlar ham endi xiyla hovurlaridan tushib qolishgan bo'sha ajab emasdi; fort sohillari, hatto Sterling-brij — daryodagi asosiy ko'prik ham nomigagina qo'riqlanardi, xolos.

— Harbiy holat paytida sira kutilmagan joylarda paydo bo'lib qolsang, yutasan! — dedi Alan. — Fort — boshimizga bitgan balo. «Tog'liklarga Fortdan keyin yo'llar doimo ochiq turadi», degan maqolni eshitgannisan? Agar imoqlarni aylanib o'tib, Kippen tekisliklariga yoki Belfronga qadam qo'ysak, qo'lga tushishimiz turgan gap. Chunki hammasi shuni kutib o'tirishibdi. Mabodo yo'ini tikkasiga kesib chiqsak-chi? Qilichimni qo'limga olib qasam ichamanki, eski Sterling-brijiga omon-esson o'tib ketamiz.

Shunday qilib, yigirma birinchini avgusiga o'tar kechasi Stratirda yashaydigan Dunkanning qarindoshinkiga — o'sha yerlik Maklaremning uyiga yetib bordik: kun bo'yixlab, oqshom chog'i yana yo'iga otlandik va ertalabga qadar hech qiyalmasdan ketaverdik. Yigirma ikkinchi avgust kuni Yum-Varsk nishabligidagi to'qayda quyosh botishimi kutib yotdik: shu yaqin atrofda bug'u podasi o'tlab yurardi; oftobshuvroqda o'n soat mobaynida maza qilib uxladik — bunchalik huzur-halovatga sira ham duch kelmaganman! Kechasi Allan-Uoter daryosi tomon yo'l oldik va quyi oqim bo'ylab odimladik. Tuyao'rka chadir ustiga chiqqanimizdan so'ng, poyimizda yastanib yotgan Sterling sohilari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ldi; xud-di tuxumquymoqa o'xshardi; tepalikda shahar-qo'rg'on joylashgan, oy nurida ilonizi Fort o'zani yaqol ko'rindurardi.

— Xo'-o'sh, — dedi Alan. — Bilmadim, senga qanday tuyuladi-yu, lekin biz yurtingga qadam qo'yidik — tungi soat birlardayoq tog'lik o'inka chegarasini kesib o'tidik; endi mana shu egri-bugri daryodan nariji sohilga chiqib olsak, — bas, shlyapamizni osmonga irg'itib xursand bo'lishimiz mumkin.

Allan-Uoterning Fortga quyiliishiqa yaqin joyda qumloq orolcha bor ekan: ustini qariziq, otqulq kab'i o'lunlar qoplagan edi; agar odam yotib olsa, ko'rinnasdi. Shu joyda natasimizni rostlab olish uchun to'xtidik: Sterling qo'rg'oni baralla ko'rindib turardi — o'sha tomonidan do'mbiralar sadosi eshitilib moqqa edi; qondaydir harbiy qism jangchilari safga tizilishardi, chumasi Sohilning bir tomonida kun bo'yini dehqonlar timmay maysa o'rishdidi; chalg'i-yu o'roqurning toshiga urilgan tovushi va uzuq yuliq gaplar eshitilib turdi. Biz miq etimadan cho'zilib yotishimiz lozim edi. Issiqqina orolchada ko'm-ko'k may-salarga bosh qo'yib, mizg'ib olsak hum bo'lindi; oziq-ovqatimiz yetarli, muhimi — ozodlikka chiqishimizga ozgina qolgandi.

O'roqchilar ishlarini tugatishgan payda oqshom cho'ka boshladi; sohilga tushdik-da, pana joylardan yurib, dala bo'ylab ko'prikka yaqinlashaverdik. Sterling-brij ko'prigi qo'rg'on joylashgan tepalikdan boshlanardi: ulug'vor, ko'hna, torgina-yu, lekin panjara to'siq yonida minorasi ham bor edi. Tarixda nom qoldirgan joylarga to'ymasdan qaraganim o'z-o'zidan tushunarli bo'lsa kerak, albatta. Qolaversa, Alan ikkalamiz uchun ko'prik — naiot darvozasi edi. Ko'zlagan manzilimiza yetib borgan chog'imizda hali oy chiqmagandi; qo'rg'on devorlari bo'yida, har yer-har yerda gulxan yoqilgandi, pastlikda — shahar xonardonlari derazalaridan shu'la ko'rindi, biroq atrofda sokinlik hukmron edi; hozircha ko'prikka soqchi ham qo'yilmagandi.

Men olg'a intildim, lekin Alan hamon ehtiyoikorlikni unutmagan edi.

— Bir qarashda tinch, suv sepgandek ko'rinyapti, — dedi. — Ehtiyyot shart huv anavi ko'tarma ortiga yashirinib turaylik-chi, nima bo'lar ekan! Chorak soat atrofda goh shivirlashib, goh lommin demasdan yotdik, ammo birorta tirik jon tovushi qulog'imizga chalimnadi, faqat to'qinlar ko'prik tirgovuchlariga shaloplاب urilardi, xolos. Ana, yonimizdan

inqillab-sinqillab, hassisini to'qillatgan ko'yı bitta kam-pir o'ta boshladi; u salgina narida nafasini rostlash uchun to'xtadi-yu, manzili olisligidan, kam quvvatligidan to-vushini chiqarib noldi, keyin oqsoqlangancha ko'prikkak tarilaverdi. Kampirsho bir tutangina bo'llib qolgan edi; shuning uchun tez orada uning qorasini ham ilg'amay qoldik; hali oy chiqmagandi; qulog'imizga so'nib borayotgan qadam tovushlari-yu, hassaning to'qillashi elas-elash chalnardi, xolos. Ba'zan bo'g'iq yo'tal tovushi ham eshitilib qolardi.

— Tamom, narigi sohilga o'tib oldi, — deb shivirla-dim.

— Yo'q, — dedi Alan. — Qadam tovushining aks sa-dosi eshitilyapti, demak, hamon ko'prikkdan tushgan emas.

Shu payt tuyqus kimdir baqirdi:

— Kim kelyapti?

Piltamiltiq qo'ndog'i toshga urilganini aniq eshitidik. Nazarimda, postda turgan askarning ko'zi ilinib qolgan edi, lekin tuyqusdan uyg'onib ketdi; agar sal ilgariroq baxtimizni sinab ko'rganimizda bormi, onad kulib bo-qardi, endi qulay fursat boy berildi.

— Unday usul bizga yaramaydi, — deb shivirladi Alan. — Yo'o'q, Devid.

Shundan so'ng bir og'iz ham gapirmsadan emaklagan ko'yı dala bo'ylab orqa tomonga ketdi; bipasdan keyin oyoqqa qalqdi — endi bizni ko'prikkdan ko'rib bo'lmasdi; sharq tomonga yo'l oldik. U nima uchun bunday qilayot-ganiga sira ham aqlim bovar qilmasdi; qolaversa, shu da-rajada charchagan edimki, biror narsani o'ylashga ham ho-lim qolmagan edi. Aytaylik, bor-yo'g'i uch daqiqa avval ham mister Rankkiler eshigini qanday taqillatishni xayolan tasavvur etardim (xuddi o'z merosini talab etadigan man-zuma qahramoni kabi); endi esa ilgarigidek quvg'inga uchrab, uy-joysiz, begona sohilda tentirab yurardim.

— Xo'sh? — deb so'radim.

— Mana senga «xo'sh», — dedi Alan. — Endi nima qilamiz? Ular men o'ylaganchalik nodon emas ekanlar.

Yo'q, Devi, Fortni hoziacha zabit etmadik; la'natinning suvi qurib, o'midan o't-o'lan o'sib chiqsin!

— Nima uchun sharq tomon borayotimiz? — deb so'radim.

— Shunchaki omadimi sinab ko'rmoqchimon-dal — dedi Alan. — Daryodan o'tib olish nusib etmadimi, endi ko'ramiz — balki, ko'rfa zada biror narsa o'ylab toparmiz.

— Daryoda kechuv bor edi, ko'rfa zada ema unuq joy umuman bo'lmaydi.

— Yo'g'e, kechuv ham, ko'prikk ham huv anavi yerdabor-ku, — deb e'tiroz bildirdi Alan. — Biroq, nima foy-dasi bor, axir atrofida qorovullar to'lib yotishibdi?

— Hech bo'lmasa, daryodan suzib o'tish mumkin-ku, — dedim.

— Agar uddasidan chiqa olsak, nega suzib o'timas-ligimiz lozim ekan?! — dedi norozi ohangda Alan. — Ammo bu ish qo'limizdan kelmasmikan, deb xavotirlana-man. O'zim haqinda gapiradigan bo'lsm, toshga o'xshab birpasda cho'kib ketaman, vassalom!

— Alan, siz bilan munozara qilmochchi emasman, ammo bekordan bekorga o'zimizni o'tdan cho'qqa uryap-miz, xolos, — dedim. — Daryodan o'tish shunchalik qiyin bo'lsa, o'z-o'zidan ravshanki, dengizdan o'tish yanada mushkulroqdir.

— Biroq, yanglishmayotgan bo'lsm, dunyoda qayiq degan matoh ham bor, — dedi Alan.

— Bundan tashqari, dunyoda pul degan zormanda ham bo'ladi-da! — dedim. — Mabodo unisi ham, bunisi ham bo'lmasa, ularni kimdir o'ylab topganidan ne foyda!

— Shunaqami? — dedi Alan.

— Ha, shunaqa, — dedim.

— Devid, ziyraklik bobida sendan mushuk afzal ekan, ishonching ham satiq chaqaga qimmat. Agar kallamni ishlatsam bormi, albatta, biror narsani o'ylab topaman; qayiqni butunlay berishga ko'nishmasa, vaqtinchalik so'-rab olaman; o'g'irlamayman-u, ammo shunday qilamanki, oxiri o'z qo'llari bilan topshirib yuborishadi.

— Bo'imasam-chil! — dedim pishqirib. — Keyin esa, aytaylik, ko'prikan omon-eson o'tib olamiz, hech kim miq etmaydi, ammo qayiqni narigi sohilda qoldirib ketsak, kindir suzib o'tgani ma'lum bo'ladimi, demak, zudlik bilan butun o'lkani paython qilishadimi?..

— Menga qara! — deb o'dag'ayladi Alan. — Agar qayiqni qo'lg'i kirtsam, uni qaytarib olib ketadigan qayiq-chini ham yollayman, bilingmi? Bo'ldi, hadeb bema'ni gaplaring bilan boshimni qotiraverma; men chizzgan chizqdan chiqmasang — bas, Alan g'amimgni yeydi.

Shunday qilib, tun bo'y'i daryoming shimoliy sohila, Klakmanan, Kulrossalmi aylanib o'tdik-da, Laymkils qishlog'i ustidan chiqdir: ertalabki soat o'nlar, och bo'riga o'xshardik, o'tardek charchagan edik. Bu qishloq ko'rfinzing narigi yoqasida — Kuinsferri shah-rining ro'parasidagi sohilda joylashgan edi. Har ikki qirg'oqdag'i va atrofdagi qishloq uylarining mo'ribidan ko'kka tutun o'rlandi. Dalalarda o'rim-yig'im maysumi boshlangan edi, ikki kema langar tashlab turardi, ko'rfazda suzib yurgan ikki qayiqdan biri to-bora qirg'oqqa yaqinlashsa, boshqasi dengiz bo'ylab ketmoqda edi. Odamlarning uy-joylariga, ko'm-ko'k, o'zlashtirilgan qir-adrlariga-yu g'ayratli dala zahmat-kashlariga, zilol suvlarga tikilib to'ymasdim.

Mister Rankilerning uyi hamon janubiy sohilda turardi, men esan shinmolij qirg'oqda g'aribona ahvolda yurdim: ust-boshlarim faqirgina edi, cho'ntagimda arzimas uch shilling pulim bor; boz ustiga, kamini qo'lg'a tushirigan kishiga mukofot berilardi, yagona hamrohimni qonun sirtdan o'ilim jazosiga hukm etgan edi...

— Eh, Alan, o'ylasam yuragim orziqib ketadi-ya! — dedim. — Huv, anavi joyda ko'nglim tusagan narsa mu-hayyo; u yoqqa qushlar uchib borishi mumkin, qayiqlar ham o'sha tomonga suzib ketyapti, xullas, xohlagan jonzotga yo'l ochiq, faqat bitta men borolmayman! Oh, yura-gim yorilib ketmayotganiga hayronman!

Laymkilsda qahvaxonaga kirdik, u boshqu uylardan eshik tepasidagi belgisi bilan ajralib turardi, muloyimgina xizmatkor qizdan pishloq bilan non xarid qildik. Ozuqimizi bo'xchaga tugib oldik-da, qishloq chetidagi — besh yuz qadam naridagi o'monchaga kirib ketdik; o'shu yerda bipas naftasimizni rostlab, tamaddi qilib olishni ma'qul ko'ridik. Yo'l-yo'lakay narigi sohilga njogoh tushhadim-u, sekingina uf tortib qo'ydim; Alan, nuzarimda, temn o'yga tolgan edi. Yarim yo'lg'a yetganimizda tuqqa to'xtadi.

— Bizga oziq-ovqat sotgan qizga sinchiklab razm sol-dingmi? — deb so'radi, bo'xchaga shuppatilagan ko'yil.

— Bo'imasam-chil! — deb javob berdim. — Yaxshi qiz ekan.

— Senga yoqdimi? — deb xitob qildi. — E-e, do'stim Devid, ana shuni ajoyib yangilik desa bo'ladi!

— Xudoyim-ey, nima uchun axir? — deb so'radim. — Bundan nima foyda?

— Bilasammi, endi qayiq topishimiz mumkin, deb umid qilaman, — dedi Alan. Uning ko'zlarida uchqun — tanish shaytonlik nishonasi portardi.

— Buning aksi bo'lsa ham ajablanmayman, — dedim. — Bu seming fikring, — dedi Alan. — Men esan, Devivid, o'sha qizgina seni sevib qolishini aslo istamayman; mayli, sal-pal rahmi kelsin, lekin ro'parasida sholg'omdek qizarish shart emas. Qani, kuyovni bir qur ko'zdan kechirib qo'yayin-chi! — U kamini sinchiklab tomosha qila boshladi. — Ha, yana biroz rang-ro'yingni oqartirsang yomon bo'imasdi, ammo, umuman olganda, pichoqqa illanadigan ko'rinasan: maymoq cholgami-yey, chorborg'dagi qo'g'irchoq qorovulgani-yey quyib qo'yigandek o'xshaysan. Orqangga qayt-da, qahvaxonaga qaytib borib, qayiq undirib kel, yugur!

Miyig'imda kulgamimcha uning izidan orqanga buril-dim.

— Devid Belfur, o'zingga yarasha xushchaqchaq yigitisan, shubhasizki, bunaqa ishlar sen uchun shunchaki ermak, xolos. Boshing tillordan, seni yaxshi ko'raman

(albatta, o'zing ham meni azaldan yaxshi ko'rasan); shuning uchun marhamatingni darig' tutmay, hangomaga jiddiy munosabatda bo'lgin. Bilasian, sevgi — o'yin emas, ammo jazmanlarning yo'rig'i boshqa. To'g'ri, men bitta hazilnamo mashq' ulotni «sahmalashtrirnoqchiman», ammo kosa ostida ninkosa bor — shunga hushyor bo'lgin: xatto qilsang bormi, oqibatda birodaring dorga osilishi hech gap emas. Xullas, marhamatingni ayamay, so'zlarimni qulog'ingga qo'rg'oshinday quyib olgin-da, vaziyatga qarab harakat qilaver.

— Bo'pti, siz aytganchalik bo'la qolsin, — dedim.

Qishloq chetiga yetgan chog'imizda Alan, meni qo'ltiqlab olgin, dedi: butun og'irligimni unga tashlasam, daf'atan qaragan odam, bechora-yey, adoysi tamom bo'libdi-ku, deb o'yashi lozim edi. U qahvaxona eshigini bir tepib ochdi-yu, ostonadan meni deyarli sudrab ichkariga qadam bosdi. Aftidan, xizmatkor qiz tezda optimizga qaytib kelganimizni ko'rishi bilanq (ayna shunday bo'llishini kutgan edik) taraddudlanib qoldi: Alan hech qanday gap-so'zsiz meni yetaklagan ko'yib burchakdagi stulga eltilib o'tqazdi va bir stakan araq berishlarini so'radi: araqni qultum-qultum ichirdi-da, so'ng enaga misoli nomu pishloqni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib yedira boshladidi; bularning hammasini g'amboda qiyofada, ziyaraklik vanihoyada g'amxo'rlik bilan amalga oshirdiki, bu hol har qanday sinchkov tergovchini ham dog'da qoldirishi turgegap edi. Shubhasizki, xizmatkor qiz ham ta'sinchan manzaraga befarq qaray olmadı: bechoravash, so'lg'in yuzli, holdan toygan yigitcha-yu, unga otalarcha mehrbonlik qilayotgan sadoqatli do'st timsoli «sahmalashtririgan» edi. Qiz yonimizga keldi-da, narigi stolga qo'llarini tiragan ko'yibizga tikilib qoldi.

— Unga nima bo'idi? — deb so'radi u yurak yutib. Meni hayron-u lol qoldirib, Alan birdan o'shqira boshladi:

— Nima bo'ladi? — dedi. — Yigitcha iyagining tuklaridan ham ko'proq — yuzlab chaqirim yayov yo'li

bosdi; boz ustiga, issiq to'shak nima ekani niham unutib yubordi — jiqla ho'l archagullarga yumalab uxladi. Siz bo'lsangiz, «nima bo'idi?» deb so'raysiz-at! Nima bo'lsa bo'ldi-da! Yana «nima bo'idi?» emish... — O'zichu nimeladir to'ng'illagancha meni ovqatlantraverdi.

— Nihoyatda yosh ekan, olis yo'lga yarumaydi-da, uzulikib qoladi, — dedi xizmatkor qiz. — Yosh ham gapmi, hali ona sufi og'zidan ketmugan-kul! — dedi Alan boshini ko'tarmusdun.

— Uni otga mindirib yurish kernik edi, — deb qo'shib qo'ydi qiz.

— Otni qayerdan olamun? — deb baqirib yubordi Alan va boshini ko'tardi-da, qizga g'azab bilan tikildi. — Seningcha, o'g'irlik qilishim kerak edimi?

Bunday qo'pol muomaladan so'ng qiz shartta orqasiga burilib, ketib qolsa kerak, deb o'ylagan edim. Darhaqiqat, u ma'lum vaqtgacha lom-mim demadi. Lekin do'stim nima qilayotganini juda yaxshi bilardi; turmush urinishlarida xiyla sodda ko'rinsa ham, hiyl-a-nayranglar o'ylab topish borasida shayyonga dars berardi.

— Ko'rini turibdiki, olivjanob insonlarga o'xshaysizlar, — dedi xizmatkor qiz.

— Xo'sh, nima bo'pti? — dedi Alan biroz muloyim-lashib (menimcha, g'ayrixtiyoriy ravishda shunday qildi); nazarimda, qiz nihoyatda samimiy so'zlardi. — Oliyanoblik birrovning qormini to'yidirgamini, hamyonimi qapaytirganini hech eshitgannisan?

Qiz ham go'yo merosdan mahrum etilgan xonim kabi chuqur uf tortib qo'ydi va:

— Ha-ya, — dedi. — Gaplarining mutlaqo to'g'ri!

Men roldan chiqmay, miq etmay o'tirardim: bir tomondan — uyalardim, boshqa tomonidan — kulgim qishtardi; oxiri toqatim toq bo'ldi va Alanga, endi o'zingizni urintirmay qo'ya qoling, ahvolim tuzuk, dedim. So'zlarim bo'g'zimda tijilib qolganday bo'ldi; yolg'on gapirishni jinindan battar yomon ko'rardim, shunday bo'lsa-da, gapga aralashuvim Alanga qo'l keldi; chunki xizmatkor ka-

minaning xirqiroq tovushimni eshitdi-yu, buni betoblakka yo'ydi.

— Nahotki, birorta ham qarindoshi bo'limasa? — deb so'radi qiz yig'lagudek bo'lib.

— Borlikka bor-u, lekin ularning huzuriga qanday qilib yetib olsin, axir! — deb qichqirdi Alan. — Boybadavlat qurindoshi bor: u ham yumshoq o'rinda uxlashi, lazzatlari taomlar iste'mol qilishi, eng zo'r tabiblar xizmatidan foydalamanishi mumkin, ammo hozircha loy kechib yurishga, daydi it missoli archagullarga yumalab yotishga majbur.

— Nima uchun bunday qilyapti? — deb so'radi qiz.

Alan. — Istaysamni, javob o'rniga hushtakda bitta kuy chalilib beraman?

U stol ustiga engashdi-yu, labini qizning qulog'iga takimsa yo'q» qo'shig' ining boshlanish qismini hayajonlani, ohista chaldi.

— Shunaqami hal! — dedi qiz va yelkasi osha eshikka nigoh tashlab qo'ydi.

— Yo'qsachi, — deb tasdiqladi Alan.

— O'zi juda ham yosh-kul! — dedi qiz xo'rsinib.

«so'yib» ko'rsatdi, — yoshni surishtirib o'tirishmaydi.

— O'h-ho', uvol bo'lib ketadi-ku! — deb yubordi qiz yuzlari qip-qizarib.

— Agar bir ilojini topib ularning changalidan qutulib ketmasak bormi, baribir o'sha mudhish hodisa ro'y beradi, — dedi Alan.

Shundan keyin qizgina shartta orqasiga burildi-yu, yurganicha tashqariga chiqib ketdi va biz yolg'iz qoldik: hamma ish xamridan qil sug'urgandek siliqina ketayogiganidan Alan mammun edi, men bo'Isam o'zimni xud di yosh boladay ermak qilishayotgani va yakobinchid deb atrofimda girtiton bo'iishayotgani uchun ich-ichindan og'rinardim.

— Alan, toqatim toq bo'ldi! — dedim zardam qaynab. — Toqting toq bo'lsa ham chidaysan endi, Devi, — deb e'tiroz bildirdi Alan. — Agar hozir o'yinni buzbub yuborsang, o'z joningni saqlab qolishing mumkin, biroq

Alan Brek boshidan judo bo'ladi.

Bu gapda jon bor edi. Ilojisiz qolganimga chida may ingrab yubordim-u, ammo oh-vohim ham Alanga qo'l keldi; chunki tovushimni xuddi shu tobdagi cho'chqa go'shitidan tayyorlangan ovqat bilan bir shishu koehli araq ko'tarib kelib qolgan xizmatkor qiz batulla eshitib qoldi.

— Voy, bechora-ye! — deb yubordi u ya ovqatni oldimizga qo'yib, mehribonlik bilan yekkalurimni sildi. Keyin, hech tortimmasdan ovqatlanishimizni, bizzan pul aniqrog'i, otasiga qarashli bo'lib, bugun u Pittenkrifga jo'nab ketibdi.

Albatta, uni yalintirib o'firmadik; quruq non bilan pishloq kavshagandan ko'ra, issiq ovqat tanovul qilgan ming marta afzal edi: kolbasaga ko'zimiz tushgan zahoti ispitahamiz ochilib ketdi; lunjalarimni shishirganimizcha ovqatlanayotganimizni tomosha qilardi va peshonasini tirishirgan ko'yi bir nimalarni o'ylardi va ayni paytda farzugining bog'ichini barmoqlariga o'rash bilan mashg'ul edi.

— Yanglishmasam, tilingiz bir qarich ekan, — dedi nihoyat Alanga murojaat etib.

— Lekin kim bilan gaplashish mumkin-u, kim bilan mumkin emasligini bilaman, — deb e'tiroz bildirdi Alan.

— Sizlarni hech qachon sotmayman, ko'nglingiz to'q bo'isin, — dedi qiz.

— Albatta, pastkashlar toifasidan emassan, — dedi Alan. — Senga bir gap aytaman: bizga yordam berishing lozim.

— Nima deyapsiz, axir! — qiz bosh chayqadi. — Bu ish qo'imidan kelmaydi.

— Agar qo'llingdan kelsa-chi? — deb o'smoqchilab so'radi Alan.

Qiz lom-mim demadi.

— Yaxshi qiz, gapimga qulq sol: biz qishloqlaringga yaqinlashayotg'on paytimizda Fayfa — yurtingda qayqlar turganini ko'rdim. O'z ko'zim bilan ikkitasini aniq ko'rdim, aslida undan ham ko'p bo'lsa kerak. Qisqasi, kechasi Lotianga o'tib olishimiz uchun qayiq topilsa va kelishilgan joyga uni keltiradigan eshkakchi tiliga mah-kam inson bo'lsa, og'zidan gullab qo'ymasa, ikki kishi-ning hayoti zavol topmaydi: aks holda, men xavf-xatarga yo'liqaman, u boshidan ajraladi. Agar qayiq topilmasa, demak, cho'nagimizdag'i uch shilling bilan ko'chada qo-lamiz: keyin qayoqqa boramiz, nima qilamiz? Gapimga ishonaver, bo'yimizga sirtmoq solinishimi kutishdan boshaq ilojimiz qolmaydi. Azizam, nahotki, bu yerdan ikkala qo'llimizni burnimizga tiqb chiqib ketsak? Axir, issiq ko'rpaga o'ranib yotgancha quvurlarga, tomlarga tiqirlab yomg'ir tomchilayotgan osoyishita damlarda vij-doming qiyalmasdan o'y surishni istarsan-ku?! To'kin dasturxon atrofida o'tirgan paytingda, o'choqda lov-lov yonayotgan gulxanga termilganingcha ovqatlana boshla-sang, tomog'ingdan luqma o'tarmikan, tiqilib qolmaysan-mi? Manavi bechora esa o'sha paytda isitmatalab, ochlik-dan barmog'ini so'rib o'tirsda yoki allaqanday botqoqlik-da muzlab qolsa nima bo'ladi? U soppa-sog' bo'ladi, xasta bo'ladi, faqat olg'a intilishga majbur; ramaqjon bo'lib tursa-da, ammo baribir, yomg'ir-u qorni pisand et-may olis manzil sari intilaveradi; u sovuq toshlarga bosh qo'ygancha jon berayotgan so'nggi damlarda tepasida bi-rorta ham jigargo'shasi bo'lmaydi: tepasida faqat men bilan xudo bo'ladi, xolos.

Alanning otashin so'zlar qizni shoshirib qo'ydi; bizga yordam berishni juda istardi-yu, yovuz niyatli kishilarga hamtovoq bo'lib qolishdan qo'rardi, chamasi. Shuning uchun oz bo'lsa-da, haqiqatni aytil, qizning diliidagi gu-monni tarqatib yubormoqchi bo'idim.

— Ferrilik Rankler haqida biror gap eshitgammi-siz? — deb so'radi.

— Qozilik bilan shug'ullanadigan Rankler huqida mi? — dedi qiz. — Bo'lmusam-chi, eshitgamman!

— Eshitgan bo'lsangiz, men o'sha kishining huzuriga ketiyapman, — dedim. — O'zingiz o'ylib ko'ring, badkir-dor kishiga o'xshaymam! Sizga boshqu muhim gaplur-ni aytil qo'yishim mumkin: anglashilmovchilik tuftlyi, taqdir taqozosi bilan shu tobdha huyotim qil ustida tur-gan bo'isa ham, lekin butun Shotlandiyada qiroq Georgia mendan ko'ra sodiqroq inson toplimaydi.

Shundan so'ng qizning yuzlari birdan yorishib ketdi, ammo Alan qovoq-tumshug'ini ositirib oldi.

— Endi bundan ortiq iltimoslarning hojati yo'q, — dedi qiz. — Mister Rankler — taniqli zot.

U tezroq ovqatlanishga undadi; zdilik bilan qishloq tashqarisiga chiqib, sohildagi chakalakzor ga yashirinishi-miz lozim ekan.

— Mendan ko'nglingiz to'q bo'isin, — dedi qiz. — Sizlami narigi sohilga o'tkazib qo'yish uchun biror chora o'ylab topaman.

Endi vacqini zoye ketkazmaslik lozim edi: piphoniy niyatimiz to'la-to'kis amalgal oshdi — bir-birimizning qo'llimizni siqib qo'yidik va kolbasani ham pok-pokiza tushbirdik-da, Laymkilnsdag'i o'sha chakalakzor tomon yo'll oldik. U joyda bir to'p daraxtlar pala-partish o'sib yotardi: yigirma tupcha do'lanayu buta, ora-orada esa shuntol ni-holchalari qaqqayib turardi, xullas, daraxtlar siyrak bo'lib, yo'lovchilar ham, sohildan shu tomonga qaragan kishilar ham bizni bermalol ko'rishi ehtimoldan xoli emasdi. Bir-roq oqshom cho'kishini mana shu joyda kutib o'tirishimiz darkor edi: havo iliqtina; ko'nglimiz ravshan — tez orada barcha azob-uqbubatlardan qutulamiz. Endi kelajakda qila-digan ishlarimizni bafurja maslahatlashib olsak kifoya edi.

Kun bo'y'i diqqatga sazovor bitta hodisa ro'y ber-di: yashirinib o'tirgan chakalakzor tomonga qandaydir daydi sibizg'achi tashrif buyurdi; aftidan, aroqxo'rga

o'xshardi — burni qip-qizil, cho'ntagida bir shisha arog'i ham bor edi; u kela solib dunyodagi jamiki odam zotidan noliy boshladi; Olyy sudning lord-raisi unga yetarli dariajada e'tibor bermabdi. Inkertiting sherifi esa huda-behuda bezovta qilaverar ekan. O'z-o'zidan ravshanki, u bizga shubhalanib quray boshladi; kap-katta ikki erkak kuppa-kunduzi chakalakzorda bekordan bekorga biginib yotishardi. Atrofimizda parvona bo'lib yurgan paytda biz o'zimizni xuddi ignanining ustida o'tirgandek his etdik, har xil savollari bilan jonimizni halqumimiza keltirdi; daf bo'lgandan so'ng esa tezroq bu joylarni tark etishga shoshildik; chunki aroqxo'r gullab qo'yishi hech gap emasdi.

Kun kech bo'ldi, sokin oqshom cho'kdi; kulbalar-da, qishloqda gulxan yoqildi, keyin birin-ketin so'ndi; faqut yarim kechaga yaqin — nima qilishimizni bilmay, bo'lurimiz bo'lib turgan paytda eshkak qilog'ning g'iyqillashi eshitila boshladi. Tashqariga nigoh tashladik va biz tomonga kelayotgan qayiqni ko'rib qoldik: taajjub-ki, qahvaxona sohibasi bo'lmish o'sha qizning o'zi eshkak eshmaqda edi. U sirimizni hatto kuyoviga ham (kuyovi borilgini aniq bilmayman, albatta) ishonib aytmagan edi. U otasining uylashini kutib o'tirgan shekkilli: keyin derazadan oshib tushgan-u, qo'shni sinining qayig'iga o'tirib, bizga yordam berishga oshiqgan edi.

Qanday qilib minnatdorlik bildirishni bilmasdum; davroqe, biz unga qizg'in tashakkur aytganimizdan so'ng o'zini yo'qotib qo'ydi; vaqtimizni zoye ketkazmasdan tezroq yo'lga otlanishimizni iltimos qildi; asosli ravishda ta'kidlashicha, iloji boricha tinchlik saqlashimiz va tezroq harakat qilishimiz lozim edi. Ko'z ochib-yumgunimizcha qiz bizni Lotiansk sohiliiga tushirdi-da, Korriden yaqinida xayr-xo'shlasib, yana Laymkins tomon suzib ketdi — biz bo'lsak minnatdorlik izhor etish uchun bir og'iz ham so'z aytolmasdan qolaverdi.

Qiz ko'zimizga ko'rinnmay ketgandan keyin ham tilimiz kalimaga kelmadidi; rostini ayvganda, bunday oliva-

noblik uchun har qanday so'z g'arib tuyulardi. Alan esa boshini chayqagan ko'yil sohilda uzoq vaqt turib qoldi.

— Yaxshi qiz ekan, — dedi nihoyat. — Devid, u qiz emas, farishta ekan!

Chamanda, oradan bir soatcha vaqt o'tgach, ko'rfazzagi g'orga kirib olganimizdan keyin, endi mud-ray boshlagan chog'inda Alan yana o'sha qizni ko'klarg'a ko'tarib maqtashga kirishdi. Nima ham derdim; u nihoyatda sodda ekan. Unga yolg'on gapirganimidan pushuymon qillardim: go'llig'dan foydalandik — boshimizda charx urayotgan xavf-xatarga uni ham sherik qildik. Ahus, ming afsus!

Y i g i r m a y e t t i n c h i b o b

RANKLER HUZURIDA

Shartlashganimizga ko'ra, ertasi kuni qosh qorayguncha Alan ko'cha-ko'yda aylanib yurishi lozim edi; quyosh botishi bilan Nyuxolls atrofidagi yo'l chetida yashirinib yotadi va men hushtak chalmagunimcha o'midan jilmaydi. Sharli belgi sifatida «Dong'i ketgan Erli xonadoni» qo'shig'im kuyimi taklif etdim, lekin u ko'nmadil: chunki bu qo'shiqni juda ko'philik yoddan biladi, dalada qo'sh haydayotgan birorta dehqon ham o'zicha xirgoyi qilib qolishi hech gap emas, dedi. So'ingra, tog'liklarning bitta qo'shig'ning naqorat qismimi o'rgatib qo'ydi; o'sha taraona hamon yodimda turibdi, o'ylaymanki, o'lgunimcha unutmamas kerak. O'sha ohang esimga tushgan zahoti xayyolim uzoqlarga ketadi: oxirgi kuni taqdirim hal bo'lishi darkor edi. Alan g'or burchagida hushtak chalib, barmoqlari bilan yermi chertib o'tirardi; yuzlari tobora yorishmoqda edi; asta-sekin tong otardi.

Kuinsferring katta ko'chasida shaxdam qadam tashlab ketayotgan paytimda hali quyosh chiqmagan edi. Shaxhar xiyla puxta qurilgandi: uylar juda mustahkam — tosh-

dan barpo etilgandi, tonlari shiferlangan bo'lib, ayvonlari Pibidagi uylarnikiga nisbatan odmiroq ko'rinardi; qolaversa, ko'chalarga ham unchalik zeb berilmagan edi-yu, ammo umumiy manzara oldida juldurvoqi ust-boshlarim niroyatda g'arib tuyulardı.

Tong otdi. Mo'rildurdan tutun o'rlay boshladi, derazalar ochildi, ko'chada odamlar paydo bo'ldi; menin tashvishim, tushkun kayfiyatim yanada ortdi. Nogahon barcha orzu-umidlarim benihoya omonat ekanini sezib qoldim: qo'linda haq-huquqlarimni himoya qilishga yaraydigan ishonchli dalil yo'q edi; hatto o'zim — bu o'zim ekanimi ham isbotlay olmasdim. Arzimas tasodif tufayli hammasi sovun ko'pig'i misoli yorilib ketishi mumkin edi, keyin barcha orzularim xomxayol bo'lub chiqishi hech gap emasdi. Xullas, hozirgi holatim havas qilishga arzimasdi. Ishlar o'ylaganimdek oson ko'chgan taqdirda ham, da'volarim asosli ekani isbotlanishi uchun ma'lum vaqt o'tishi lozim edi; ammo o'sha vaqtga qanday qilib erishardim, axir?! Cho'ntagimda bor-yo'g'i uch shilling pulim bo'lsa; boz ustiga, qonun tomonidan sirtdan olyj jazoga hukm etilgan hamrohimmi yashirinchcha yo'l orqali xorijiy mamlakatga o'tkazib yuborish joiz-ku, jin ursin?! Xudo ko'rsatmasin-u, ishlar chappasiga ketsa bormi, ikkalamiz ham dorga osiliшимiz hech gap emas. Katta ko'chada u yoq-bu yoqqa yura boshladim; o'tgan-ketgan yo'lovchilar menga miyig'ida kulishgancha qarab qo'yishardi yoki birlarini nuqishib, o'zarlo bir nimalar haqida shivir-shivir qilishardi, ba'zan derazalardan ham kamnaga o'grayib nigoh tashlashardi. Qisqasi, tashvishim yanada ko'paydi: qozini bir gapga ishonchitish o'lindan qiyinligi aniq, ayni payida uning huzuriga kirib olish ham oson emasdi.

Shu tobda o'limga rozi edim-ku, ammo olifta shaharlarning birortasi bilan gaplashishga jur'atim yetmasdi; juldurvoqi, kir-chir ust-boshlarim bilan ularga yaqin yo'lagani uyalardim; bitrovdan mister Rankilerdeki ulug' zotning xonadoni qayerda ekani so'rasam-u, basharamga tikilib turgancha tiryayib, lom-min demasdan ketaversa-da

ajab emasdi. Shunday qilib, ko'chada tentirab yuraverdim; ko'channing u boshidan bu boshiga bo'zchining mokisiday borib-kelaverdim, bandargohda ham xiyla vaqt sindirinq lab yurdim; ko'kragim achishib og'rindi, rubim cho'kib, hammasiga qo'l siltab jo'nab ketgim kelardi. Bu orada rasmana tong otdi; yanglishmasam, soit o'ngu yaqinlashdi, maqsadsiz izg'iyverish jominga tegdi-yu, ko'rflazing qarana-qarshi tomonidagi dang'illama imori to'pnarsiga borgan chog'imda shunchaki bir nafis to'xtadim; deraza oynalari top-toza, tokchalarda gultuvuklar qitorlashib turardi, devorlari yangigina oqlungan, ostonida sonidondi, istarasi issiq, upa sepilgan yasama soch va ko'zoynak taqqan kishi ostonada paydo bo'ldi. Tashqi ko'rinishim rasvorq bo'lgani tufayli ko'pchilik yonimidan yuzini teskarli burib o'tib ketishardi; bu zot esa, aksinchala, kamina-sinchiklab razm soldi (keyinchalik iqlor bo'lishicha, bechorahol turq-atvorimni ko'rib hayratlangan ekan) va darhol yonimga keldi-da, bu yerda nima qilib turganimni so'radim.

Kuinsferriga muhim ish yuzasidan keganimmi aytdim va binoz dadillashib, undan mister Rankilerning uylariga qaysi yo'ldan borish mumkin, deb so'radim.

— Hm-m, — dedi u kishi og'zini ochmaya. — Hozirgi na o'sha zotning uyidan chiqdim. G'alati tasodifini qarangi, kamina xuddi siz so'rayotgan kishi bo'ladi.

— Ser, unday bo'lsa, marhamatingizni dariq' tutmang; ijozat bersangiz, bir-ikki og'iz gap aymoqchiman, — dedim.

— Men nomingizni bilmayman-ku, — deb e'tiroz bildirdi u. — Qolaversa, sizni birinchi marta ko'rib turibman.

— Nomim — Devid Belfur, — deb o'zimni tanishtirdim.

so'radi. — Mister Devid Belfur, biz tomonlarga qanday kelib qoldingiz? — deb qo'shib qo'ysi, yuzlarimga nigo-hini qadagancha.

— Ser, juda ols joylardan keldin, — dedim. — O'yashimcha, xoliroq joyda batafsil so'zlab bersam yomon bo'lmasdi.

U lablarini tishlagancha bir zum o'yga toldi: goh men-ga, goh tosh yo'nga nazar soldi.

— Ha-ya, — dedi. — Albatta, shunday qilsak yaxshi bo'lardi.

Meni ichkariga taklif etdi-da, o'zi uyga qaytib kirdi; choshgohgacha band bo'laman, yonimga hech kim kir-masin, deb qichqirdi kimgadir, ammo uy ichida odam ko'trimadi. Kitoblaru qog'ozlarga liq to'a torgina chang bosgan xonaga kirdik. O'mashib o'tirib olgach, meni ham o'tirishga taklif qildi va kir-chir ust-boshimga ko'zi tu-shib, ta bi tiriqlanganini yashira olmadi; top-toza stulga achinib qarab qo'ysi.

— Shunday qilib, ishingiz bo'lsa, iloji boricha lo'n-daroq gapirishingizni iltimos qilaman — Nec dermino bellum. Troianum orditab ovo. * Nima demoqchi ekanimmi angladgingizmi? — deb so'radi xavotirlanib.

— Ser, albatta Goratsiyning maslahatiga amal qila-man, — deb javob berdim kulmsirab. — Darhol sizni in medias res** bilan tanishtiraman.

Rankiler mammun qiyofada bosh irg'ab qo'ysi; asli-da, mening bilimimni sinab ko'rish maqsadida gapiga lo-tinchha so'zlarini aralashtirgan edi. Mammun ekanimi ko'rib ko'nglim ko'turilgan bo'lsa-da, so'z boshlashim bilanoq qonim qaynab ketdi.

— Qonun bo'yicha Shos qo'rg'omining merosxo'ri bo'lishim lozim.

Vakolatlilik qutidan qozilikka doir daftarni chiqardi-yu, oldiga olib ochib qo'ysi.

* «Troya urushi haqidagi hikoya tuxumdan boshlangani yo'q edi» (Goraitsiydan).

** «Asl muddao» (lotincha).

— Xo'sh, nima bo'pti? — dedi.
Ko'nglimdagi gapni aytganidan so'ng birdan tildan qoldim.

— Mister Belfur, gapiring, gapirsangiz-chi! — dedi qozi. — Bir gapni boshlagandan keyin oxiriga yetkazish kerak-da! Qayerda tug'ilgansiz?

— Essendinda tug'ilganman, ser, — dedim. — Bir ming yetti yuzu o'ttiz uchinchi yilning o'n ikkinchi mart kuni.

U so'zlarimni daftaridagi yozuvlar bilan tuqqoslab ko'rardi; ammo nima uchun bunday qilayotganini tushun-masdim, albatta.

— Ota-onangiz kim? — deb so'radi.

— Otam Aleksandr Belfur, Essendin maktabining mu-allimi edi, — dedim. — Onam Greys Pierrou, yanglish-masam, Engusdan kelin bo'lib tushgan edi.

— Yoningizda shaxsingizni tasdiqlaydigan birorta hujjat bormi? — deb so'radi mister Rankiler.

— Yonimda yo'q, ser, — dedim. — Lekin ruhoniyimiz mister Kempbell talab qilgan zahotingiz kerakli hujjatlar-ni beradi. O'sha mister Kempbell kafolet berishi mumkin. Agar faqat shu xususda bo'lsa, o'yashimcha, amakim ham kim ekanimmi aytishdan bosh tortmusu kerik.

— Mabodo mister Ebenezer Belfumi nazarda tutma-yapsizmi? — deb so'radi qozi.

— Aynan o'sha kishini nazarda tutyapman, — dedim.

— Siz u bilan uchrashgammisiz?

— U meni o'zi xonadonida kutib olgan edi, — deb javob berdim.

— Mister Xozison degan kimsa bilan ham uchrashma-gannmisiz? — deb so'radi mister Rankiler.

— Baxta qarshi, ser, u bilan ham uchrashganman, — dedim. — Axir, o'sha odamning mathamatik tufayli (ama-kimning niyati ham shunday edi) mana shu shaharga kiri-b kelishimga ikki qadam qolganda o'g'irlab ketildim, zo'rlab dengiz safariga jo'natildim, kema halokatiga duch keldim va boshimdan minglab kulfatlarni kechirdim; endi esa qarshingizda juldurvoqi qiyofasida turibman.

— Kema halokatiga duch kelganingizni eslatib o'tdingiz, — dedi Rankiler. — O'sha hodisa qayerda ro'y berган edi?

— Mal orolining janubiy chegaralari yaqinida, — dedim. — To'lqin meni Irreyd degan orolga itqitib tashladi.

— E-e, jug'rofivni mendan ko'ra yaxshiroq bilar ekansiz, — dedi u miyig'ida kulgancha. — Nima ham derdim, rostini aytasam, bu gaplaringiz boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarga aynan mos kelyapti. Sizni o'g'irlab ketishibdi-a? Qaysi ma'noda so'zladningiz?

— Ser, bo'lgan gapni aytdim, — dedim. — Uyingizga kelayotgan paytunda aldab-suldab meni savdo kemasi bortiga chiqarishdi-yu, boshimga nima balo bilan tushirishib, hushimdan ketkazib qo'yishdi va kemaning oski qismiga uloqiturib yuborishdi; o'z-o'zidan ravshanki, men ochiq dengizda o'zinga keldim. Mustamlakachilarga qul sifatida sotib yuborishmoqchi edi, biroq xudoymanning rahmi keldi shekilli, qutulib qoldim.

— Kema yigirma yettinchi iyun kuni halokatga uchragan edi, — dedi Rankiler daftarga ko'z yogurtirib. — Bugun esa yigirma to'rtinchchi avgust. Mister Belfur, hazilakam vaqt o'tmabdi — saltak ikki oy o'tibdi. Bu vaqt mobaynida do'stharingiz bo'laricha bo'lishgandir, hoynahoy. Nazarimda, o'tgan muddat haqida to'la-to'kis ma'lumotEGA bo'lmaganimcha baribir ko'nglim to'lmaydi.

— Ser, to'g'risimi aytasam, osonlikcha ko'nglingizni to'q qilib qo'yishim mumkin, — dedim. — Hikoyamni boshlashdan avval, xayrixoh inson bilan suhbatlashayotganimga ishonch hosil qilsam, xursand bo'lardim.

— Noto'g'ri tasavvur xuddi shu yo'sinda hosil bo'jadi-da, — deb e'tiroz bildirdi qozi. — Gaplaringizni oxirigacha eshitmasam, qat'iy bir qarorga kelolmayman. Toki qo'llinda yetarli darajada asosim yo'q ekan, o'zimni sizga do'stman, deb aytolmayman. Sizning yoshingizdagi yigitchalar ishonuvchan bo'lishadi. Bilasizmi, mister Belfur, g'alati maqolimiz bor: yomon odam yomonlikdan qo'rqadi.

— Ser, esingizda bo'lsinki, ishonuvchanligim oqibatida bir marta pand yegamanan, — dedim. — Bilishimcha, meni qul qilib sotib yubormoqchi bo'lgan kishi sizga hum xizmatlarigiz uchun haq to'laydi.

Bu vaqt mobaynida asta-sekkin mister Rankiler bilan qanday gapplashmoq kerak ekanini o'rganib oldim: oyog'im zaminda mustahkam turganini his etganimidan so'ng, o'zinga nisbatan ishonchim ham ortdi. Miyig'inda kulganimcha hamla qilganimidan keyin u baralla sixxolab yubordi.

— Bay-bay-bay, salgina oshirib yubordingiz-kul! — dedi. — Fui, non sum.* Rostdin ham, bir puytlar amaki-ingizing ishonchli vakili bo'iganman, ayni chog'da siz (imberis juvenis custode penitenti)*** g'arbda tarallabbedod qilib yurgan kezlarda ko'p suvlar oqib ketdi; agar qulog'ingiz qizimagan bo'lsa, meni bu yerda g'iybat qilishmabdi-da, deb o'ylamang tag'in. Sizlar dengizda baxsizlikka uchragan kuni mister Campbell idoramga tashrif buyurdi-da, nima qilib bo'lsa ham sizning ulushingizni unga olib berishimi talab etdi. Bu dunyoda siz bor ekaningizni xayolimga keltirmagan edim; amakingizni esa yaqindan bilaridim, shuning uchun qo'lindagi ma'lumotlarga qurugunda (bu haqda keyinroq to'xtalamani), har qanday og'ir natija ro'y berishi mumkin edi. Mister Ebenezer esa siz bilan uchrashganini tan oldi; guvohlik berishicha, go'yoki usizga ancha miqdorda pul bergan emish (albatta, uning so'zlariga ishonib bo'lmadsi) va siz tafsil ko'rish uchun Yevropaga jo'nab ketibisz — bu gapga qisman ishoni mumkin edi. Bu haqda nima uchun yigitcha mister Kembelliga hech narsa demasdan ketdi, degan savolga u: «O'tmishga bog'iq barcha rishtalarni uzib tashlamoqchi edi», deb javob berdi. Hozir qayerda ekaningizni so'rasam, aniq bilmayman-u, harholda Leyenda bo'lsa kerak, deb mujmal javob qaytardi. Suhbatimizning qisqacha mazmu-

* «Bo'lganman, faqat ilgarli» (lot.).

** «Mo'ylovi sabza urmagani boshoqqsiz yigitcha» (lot.).

ni shulardan iborat. Uning gaplariga hech kim ishommasa kerak, — deb so'zida davom etdi mister Rankiler kulim-sirab. — Ba'zi bir gumonlarim amakingizning fig'onini falakka chiqarib yubordi va oxiri kavushimni to'g'rilib qo'ydi. Shunday qilib, boshi berk ko'chaga kirib qoldik; taxminlarimiz qanchalik oqilona bo'lsa-da, lekin ularni mutlaqo isbotlab bo'imasdi. Xuddi o'sha payda go'yo osmondan tushgandek darg'a Xozison yangilik topib keldi: go'yo siz cho'kib ketgan emishsiz, shundan so'ng kalavaring uchi topildi — ishlar xamirdan qil sug'urgandek silihko'chdi; faqat mister Kempbellning yurak-bag'ri o'rtanib ketdi, mening hamyonim zarar ko'rdi va amakingiz no'miga yana bitta dog' tushdi; shundoq ham nomi balchiqqa qorishib yotibdi. Xullasi kalom, mister Belfur, voqealar mundarijasi bilan deyarli tanishdingiz va endi menga qayduraqdu ishonishingiz mumkin ekanimi bilsangiz kerak, — deb so'zlarini yakunladi.

Gapning indallozini aytganda, u bo'lib o'gan voqealarni lo'ndagina qilib tasvirlab berdi, men esam «shirasini o'zinga olib, «to'ppasini» qog'ozga tushiryapman, xolos; qolaversa, suhabdoshim nutqiga lotincha iboralar bilan jilo berishni xush ko'rardi; so'zlayotgan paytida qarashlaridan, sa'y-harakattaridan ezzulik alomatlari balgib turardiki, beixtiyor oramizdag'i begonalik pardasi ko'tarilib, yuragim erib ketdi. Shubha-gumonlar uning ko'nglini tark etgani ko'rini turardi, mening kimliginga to'la-to'kis ishonch hosil qilgan edi, demak, dastlabki dovondan o'tib olgandim.

— Ser, boshimidan kechirgan voqealarini oqizmaytomizmay aytib beradigan bo'lsam, do'stining hayotini garovga tikishim lozim, — dedim. — Unga tegishli sirastorni dilda saqlashga va'da berishingizni iltimos qila man. Men o'zin uchun qandaydir kafolat so'rayotganim yo'q, chunki munosabatingizni yuzingizzdan bilib turibman.

U nihoyatda jiddiy qiyofada menga va'da berdi.

— Faqat bir narsani ta'kidlab qo'ymoqchiman: gap-

so'zlarining kishini hushyor torttirib qo'ydi; agar hikoyangizda qonunga xilof ishlar xususida gap ketsin, kamina qonun xizmatkor ekanimni e'tiborga olishingizni, o'shanday o'rnlarga batafsil to'xulib o'tirmasligingizni so'rayman, — dedi.

O'z tariximi hikoya qilishga kirishganim zahoti ko'zoynagini peshonasiغا surib qo'ydi-de, ko'zhami yungan ko'y'i tinglay boshladi; shuning uchun, nazarimda, uslab qolgandek tuyulardi. Biroq uyquni xayoliga hum keltirmasdi. Keyinchalik amin bo'ldimki, har bir so'zimning ohorini to'kmasdan eslab qolardi; xotinasi kuchhiligini qoyil qoldim. Hatto quloxqu g'lati eshitiladijan, g'ayritabliy gelchua ismlar tassodifan atigi bir bora aytilgan bo'lsa-du; nimmo u baribir unutmasdi; oradan ko'p yillar o'tgandan so'ng o'sha ismlarning birortasi haqida mengu savol berardi. Nihoyat, Alan Brekning ismi sharrifi ni to'liq aytganimdan keyin o'rtamizda qizg'in munozara bo'lib o'idi. Ravshanki, Epindagi qotillikdan va qotilini tughan odamunga va'da qilingan mukofotdan so'ng Alan-ning ismi butun Shotlandiyaga mashhur bo'lib ketgan edi; uning nomi og'zindan chiqishi bilan qozi o'tirgan joyida bir qimirlidi-yu, ko'zurini ochdi.

— Mister Belfur, agar o'mingizda men bo'lganimda, ortiqcha ismlarni tilga olmagan bo'lardim, — dedi. — Ammo bir gapni boshlagandan keyin uni oxirigacha yetkazish lozim. Balki unday emasdir, — deb e'tiroz bildirdi mister Rankiler. — Ehtimol, o'zingiz ham sezgan bo'lsangiz kerak, qulog'im vazminroq, shuning uchun ba'zi bir so'zlarini to'g'ri eshitiganinga kafolat berolmayman. Ijozat bersangiz, bundan keyin do'stingizni «mister Tomson» deb ataymiz; chunki ortiqcha gap-so'zlardan hech qanday naf bo'lmaydi. Mabodo yana-tag'in biror ta tog'ilklar nomini (turik yoki abadiy uyquga ketgan bo'lishidan qat'iy nazar) tilga olish lozim bo'lsa, sizning o'mingizda men aynan shunday qillardim.

U men aytilgan ismi aniq-ravshan eshitigan edi va endi qotillik haqida gapira boshlashimni sezib qolgandi. Umu-

man, agar istasa o'zini garanglikka solishi mumkin — ix-tiyor o'zida; men «Tomson» tog'liklarga unchalik yarashmaydigan ism ekanini shunchaki eslatdim-u, miyig'imda kulib qo'ydim va taklifiga rozi bo'ldim. Shunday qilib, hikoyamning oxirigacha Alan «mister Tomson» bo'lib qoldi; eng qizig'i shundaki, hiyla-nayrang do'stinga ham ma'qil bo'lardi, albatta. Kelishuvimizga binoan Jeyms Stuart «mister Tomsonning qarindoshshi» deb ataldi; Kolin Campbellni «mister Glen»ga almashtirdik; Klunga navbat yetganda uni tog'liklarning yo'lboshchisi «mister Jenson» deb atadim. Bularning hammasi oq ip bilan bichib-chatilgan edi, men nima uchun qozi bunday o'yinga ishqivoz ekaniga hayron bo'lardim; aslmi olganda, bu o'sha davr ruhiga hamohang bo'lib, mammakatda ikki guruh o'rtasida qaqshatqich kurash ketayotgan bir zamonda tirkchilikdan boshqa g'ami bo'limgan beozor inson zinhor-bazimhor bir tarafning yonimi olishni istamasdi; imkon tug'ilgan joyda o'z ulushini qo'ldan boy bermaslikka intilardi: ayni chog'da six ham, kabob ham kuymaydigan tarzda harakat qilardi.

— Ana xolos, — dedi qozi hikoyamni tugatganim-dan so'ng. — Xuddi nasriy asarga o'xshaydi-ya, o'ziga xos «Jangnomra» ekan. Olim bo'lganiningidan so'ng bar-cha gaplaringizni lotin tiliga tarjima qilib qo'ying; lo-zim topsangiz, ingliz tilida qog'ozga tushirib qo'ysangiz ham bo'ladi, lekin lotin tilining imkomiyatlari kattaroq, deb o'layman. Anchagina sarson bo'libisz. Jahongashtlik chog'ingizda qnoe regio in ferris* (siyqa gapirayotgan bo'lsam, ma'zur ko'rasisz), Shortlandiyaming siz bormagan muzofoti qolmabdi hisob! Buning ustiga, bema'ni ahvolga tushib qolgan bo'lsangiz ham, lekin tan berish lozimki, o'zingizni yo'qotib qo'ymabsiz. Nazarimda, mister Tomson binoyidek jentelmen ekan; faqat andak qasoskor shekilli. Shunday bo'lsa-da, agar u (barcha ijobjiy xislatlari bilan birgalikda) Shimoliy dengiz qa'riga cho'kib ketgan-

da niroyatda xursand bo'lardim va o'zimni ancha baxtliyordi his etardim; chunki bu odam, mister David, domo bирорта Janjalni kavlashtirib topaveradi. Shubhaisizki, unga sadoqat ko'rsatib mutlaqo to'g'ri qlyapsiz, axir u ham do'stiga sodiq edi-da. Aytish mumkin, munosib hamroh bo'libdi, shuningdek, paribus curis vostigin fifti, menimcha ikkovluring ham bekorgana doriga osish haqidagi o'ylamagansizlar, axir. Nima hum devdin, omaduring yurishibdi — quro kunlari ortida qolibdi. O'yaymonki, yaqin oradni (qonunshunos sifatida emas, odungarchilik yuzasi dan shunday deyinman) barcha azob-uqbabliudan foriq'bo'lasiylar.

U surguzashlurim xususida safsata solardi-yu, lekin mendan mehr to'la, beg'uraz nigohni uzmasdi; o'zim zo'rg'a qivonchinni yashurib o'tirardim. Ma'lumki, qonun-ponungu itoat etmaydigan kimsalar orasida bir qancha vaqt o'ralshib yurdim, tog'larda — ochiq havoda tunturni bedor o'tkazdim; mana endi rasmana boshpanada o'tirardim, top-toza xona ko'zimga mo'jizadek ko'rinardi. Ayniqsa, movut chukmon kiygan buma'ni zot bilan subbutashib o'tirishning gashti o'zgacha edi! Shu payt nigohim egimindagi juldur kiyimlarga tushib qoldi-yu, yana o'zimni noqulay his eta boshladim. Qozi menga ko'zi tushgun zahoti ko'nglimidan nimular kechayotganini darghol anglatdi va o'midan turdi-da, mister Belfur bilan birga nonushta qilamiz; ikkalamizga dasturxon tuzab qo'yinglar, deb qichqirdi. So'ngra, yuqori qavatdagagi yotoqxonaga ergashtirib chiqdi. Qo'limga suv to'la ko'za, sovun, taroq tutdi; o'g'liga atalgan kiyimlarni ko'pa ustiga yoyib tashladi. Keyin o'zimni tartibga keltirib olishim uchun xoli qoldirdi: lotinchal qildi-yu, xonani tark etdi.

* «Yer yuzining biror joyi» (lot.).

Y i g i r m a s a k k i z i n c h i b o b

MEROSIMNI AJRATIB OLGANI OTLANDIM

O'zimga imkon boricha oro berdim; ko'zguga qarab juldurvoqi yigitcha o'mishda qolib ketganiga va uning o'mida yana Devid Belfur hayotga qaytganiha ishinch hosil qilsang, qalbing beixtiyor quvonchga to'lar ekan. Lekin baribir bu o'zgarish ko'nglimda unchalik o'tirishmasdi, ayniqsa, birovning kiyimi yelkamdan zil-zambil toshdek bosib turgandek tuyulardi. Yasan-tusanimni poyoniga yetkazganimdan so'ng, ostonada mister Rankiler qarshi oldi va tashqi ko'rinishimni olqishladi-da, tag'in ishxonasiga ergashtirib ketdi.

— Mister Devid, marhamat, o'tiring, — dedi. — Ana endi sal-pal asl holatingizga qaytdingiz. Qani, ko'raylikchi, balki bi'zi bir yangiliklarni bilib olishingizga yordam berarman. Nazarinda, otangiz bilan amakingizing munosabatlari qanaqa bo'lganini o'zingizcha taxmin qilayotganga o'xshaysiz-a? Ha, bu juda ham g'aroyib hodisa. Rostini aytsam, uni aynan sizga tushuntirib berishga majbur bo'lganidan xijolat chekyrapman. Chunki buning asosiy sababi — muhabbat mojarosiga borib taqaladi. — Qozi haqiqatan ham o'ng'aysiz avholga tushib goldi.

— To'g'risi, amakimning turish-turmushiga bunday izoh sira ham mos tushmaydi, — dedim.

— Biroq, mister Devid, u bir umr qarti chol bo'lma-gan, — deb e'tiroz bildirdi qozi. — Bundan tashqari, yoshligidan boshlab yaramaslikni kasb qilib olmagan edi desam, yana hayron bo'lsangiz kerak. Unihoyada dovyurak, olyjanob yigit edi; asov ot ustida javlon urib yurgan kezlarda odamlar ostonaga yopirilib kelishardi. Uni o'z ko'zlarim bilan kuzatgamanan: sизга chin dildan ayishim mumkinki, unchaliq ko'rkam yigit bo'lmaganim uchunmi, ishqilib, hasad qilardim va o'sha paytlarda hech ikkilanmay: «Odi te gui bellus es, Sabelle»* deyishim mumkin edi.

— Bu quandaydir tushga o'xshaydi, — dedim.

— Ha, ha, — dedi mister Rankiler. — Yillar yoshlikdan mana shunday qasos oladi. Qolaverus, u fivqu-

loda, umidi shaxs bo'lib yetishishi ham mumkin edi. Yetti yuzu o'n beshinchi yilli uyidan qochib ketudi. Qo'zg'olonechilarga qo'shilib ketmoqchi bo'lad. Boshqu birov emas, aynan amkingiztumming oqquzidan quvib yetadi va allnaqnday jorlikda izlogen odamlarini topdi-yu, butun o'lkani bosliga ko'turib, mulum gementem* ota yurlini turk etadi. Aynol chog'da, majora canumus** og'anilar suddi o'chuktuqganday hitin qizga oshiq bo'llib qolishadi. Minter Ebenezer junontining erktoyi edi, izzattalab bo'llib qolgandi; aytilish munkinki, qizning qalbini zabitishiga ishonchi komil edi, lekin yangleshganini anglaydiyu, huddan oshib ketadi. O'z yog'iga o'zi qovurilib yuruganini butun o'inka bilardi; goh yuragi xastalanib ko'ptoshak qilib yotib qolardi, befarosat oila a'zolari esa bosigni to'planib olishardi; gohida qahvaxonama-qahvaxona tentirib yuraverardi, burnidan chiqquncha araq ichardi va duch kelgan odungu dilidagi durdini to'kib solirdi. Mister Devid, otangiz yuxshi inson bo'llib, lekin niroyaitda irodusi bo'sh edi; o'tkinchi oh-vohlurga chiduyolmasdun ajoyib kunlarning binda jigargo'shasini deb, qizdan voz kechadi. Amno qiz xiyla oqila ekan (ko'rinish turibdi, aqlfarosat sizga aynan onangizdan meros qolgan): o'zining xuddi koptoq misoli qo'ldan qo'iga irg'itilishimi aslo istamaydi. Ikki og'a-ini uning oyog'iga bosh urib yalini-yolvorishadi; qiz unisini ham, bunisini ham ko'chaga haydab chiqaradi.

O'zimga ham bu bema'ni voqeadek tuyula boshladi; unutmaslik lozimki, unga otam aralashib qolgandi.

— Ser, rostini aytsam, hikoya qilayotgan voqeadean fojaning hidj kelyapti, — dedim.

— Yo'g'-e, taqsir, yo'g'-e! — deb e'tiroz bildirdi

* «Hoy, o'ktam yigit, seni ko'runga ko'zim yo'q!» (lot.).

** «Alam bilan xo'rsinayotgan» (lot.).

*** «Endi ashulaning davomini aytamiz» (lot.).

qozi. — Chunki fojja ro'y berishi uchun arzgulik bahona topilishi darkor; al-qasosul min al-haq, deb bekorga ayishmaydi! Bu yerda esa bitta asov eshak hamma narsani ostin-ustin etib yubordi: hamma erkalataverib, taltaytirib qo'ygandi; endi jilovlab olib, obdan savalash lozim edi, vassalom — shundan boshqa «malham» kor qilmasdi.

Ammo otangiz ayricha fikra edi; birin-ketin yon beraverdi, amakingiz bo'lsa borgan sayim xudbin ehtiroslariga erk

beraverdi va oxir-oqibatda ular o'rtasida g'alati shartnomas tuzildi; o'shaming achchiq mevasini keyingi paytlarda tatab ko'rdingiz. Oq'a-inilarining bittasiqa — suyuqlik yor, boshqasiga — qo'rg'on nasib etdi. Mister David, bilsizki, olighthimmatlik va mehr-shafqat haqida ko'p gapi-riadi; o'ylaymanki, agar odamlar maslahat olish uchun tez-tez qoziga murojaat etib turishsa, hamma ismiq qonun bo'yicha amalga oshirishsa bormi, mana shunaqa chigal hayotiy muammolar ham ko'ngildagidek hal etilgan bo'lardi. Umuman olganda, otangizning haybarakal-

la sa'y-harakatlari aslida adolatsiz edi; oqibatda adolatsizlik bolalab ketishiga zamin hozirlandi. Ota-onangiz umrlarining oxirlarigacha qashshoqlikda yashadilar, sizni risoladagidek tarbiyalay olmadilar; ayni chog'da Shos qo'rg'onining ijarradorlari qanday hayot kechirganlarini bir ko'rsangiz edi! Ayni chog'da mister Ebenezer (bunda kamina zarracha ham tashvishlamasa-da) qanday ko'rgulikka duch kelganini aymaysizmi!

— Eng hayratlanarti joyi shundakki, odamzod tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketishi mumkin ekan, — dedim.

— Bu haqda bir yoqlama hukm chiqarib bo'lmaydi, — dedi mister Rankiler. — Menimcha, bu tabiiy holdir. Munosib ish qildim, deyishi uchun uning hech qanday asosi yo'q edi. Hamma gaplardan xabardor kishilar undan bezib ketishdi; bexabar kishilar esa og'a-inilarining bittiysi izsiz yo'qolganini, boshqasi qo'rg'onga yakkahokim bo'lib qolganini ko'rishi-yu, qotillik ro'y bergani xususida mish-mish tarqatishdi: natijada amakingiz moxova o'xshab

xoldiqdin ujralib qoldi. Bunday bitimidan so'ng fuqat boylikta ega bo'ldi, xolos. Ravshanki, boylikka hira qo'ysi. U yoshlik chog'lariha ham xudbin edi, keksaygan paytida ham xudbinlik uni tark etmadi. Oliy his-tuyg'ulari, ustamoniqgi tuban maqsadga yo'naltirilganini esa o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz.

— Ser, bunday murakkab vaziyatda nima qillishim lozim? — deb so'rudim.

— Shuhbansizki, qo'rg'on sizniki, — deb juvob berdi qozi. — Amakingiz hujjat puljat to'g'ilib o'rganidan qut'i nazar — baribir merosko'y bo'lib qolaversiz. Ammo amakingiz shunaqa odunki, «oqoni egor» deyish-dan hum toymaydi; nazarimda, u sizning siz ekaningizni inkor etishga urinib ko'rsa kerak. Suddagi da'volar doimo qimmatga tushadi, oilaviy da'voju janjalilar esa tillarda doston bo'lib ketadi. Bundan tashqari, mister Tomson bilan birgalikdagagi sayohatingiza doir zig'indek haqiqat fosh etilsa, xonavayron bo'lamiz. O'z-o'zidan ravshanki, agar sizning o'g'irlab ketilganimizni isbotlay olsak bormi, bu asosiy quroolimiz bo'ldi. Lekin uni isbotlash juda mushkul vayzifi; shuning uchun o'sha voqeja eslatilgan chog'da amakingizga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishni ko'zlab hurikat qilishni mustahat beramini; hatto umga umrining oxirigacha Shos qo'rg'onida istiqomat qilishga ijozat bermoq darkor; yigirma besh yil mobayinda o'sha yerda ildiz otdi, hozircha barcha imtiyozdan bahramand bo'laversin.

Yon berishga tayyor ekanimni va, tabiiyki, oilaviy mayda-chuyda gaplarni ovoza qilmastikdan manfaatdorligimni izhor qildim. Ayni paytda xayolimga bir fikr kelib oldi: keyingi xatti-harakatlarimizga ana shuni asos qilib oldik.

— Demak, muhimi — mening o'g'irlanishimda amakingim bosh aybdor ekanini bo'yimga qo'yishimiz lozimmi? — deb so'radim.

— Albatta, — dedi mister Rankiler. — Lekin buni sud zalida amalga oshirmagan ma'qul. Mister David, o'ylab ko'ring: «Vasiyat» kemasida xizmat qilgan birorta de-

ngizchini izlab topishimiz mumkin; ammo dengizchi gunohlik bera boshlagandan so'ng uning ko'rgazmalarini cheklab qo'yishga qodir bo'lmyy qolamiz va kimdir albat-

ta sizning do'stingiz bo'lmysh mister Tomson haqidida biror og'iz so'z aytilib yuboradi. Bu esa (ugat sizdan eshitgan gaplarimga ishomadigun bo'lsam) unchalik ko'ngili emas.

— Ser, bilasizmi, ba'zi bir narsalarni o'ylab qo'ydim, — dedim.

O'z niyatimni izhor etdim.

— Ha, tuzuk. Lekin, anglashimcha, o'sha Tomson bilan uchrashmog'im darkor shekilli? — dedi u gapimni yakunlaganimdan so'ng.

— O'yashimcha, shunday qilmasak bo'lmaydi, ser, — dedim.

— Falokat oyoq osida, deb shuni aysalar kerak! — deb xitob qildi peshonasini ishqalagan ko'yi. — Eh, ko'rgilik ekan-da! Yo'q, mister Devid, bu rejani amalda tatbiq etib bo'lmaydi. Do'stingiz to'g'risida hech qanday yomon gap aymoqchi emasman, mister Tomson nojo'ya ish qilganimi ham bilmayman; agar bilganimda (mister Devid, bu tomonini ham hisobga olib qo'ying) bormi, uni tutib berish — mening burchim-kul! Endi insof bilan aytinchi, biz uchrashsak, bundan nima foyda? Mabodo, uning boshaq gunohlari ham bo'lsa-chi? Mabodo siza hammasini aytmagan bo'lsa-chi? Mabodo asl nomi Tomson bo'lmasa-chi! — deb qichqirdi qozi, ma'nodor ko'z qisib qo'yigan ko'y! — Bu toifadagilar yurgan yo'ida o'ziga yangi nom topaveradi; hatto ba'zi bir do'lana larning mevasidan ham ularning nomlari ko'proq bo'ladi.

— Ser, o'zingizza havola, — dedim.

Shunga qaramasdan, men aytgan filr xayolini band etib olgani yaqqol ko'rilib turardi; chunki tushlikka taklif etishgan chog'da — missis Rankiler xonimming tiniq ko'zari unga qadalib turgentur malarda ham xayollarini parishon edi, nimalarnidir o'yldi. Xonodon sohibasi bizni yolg'iz qoldirib ketishi bilanq (stol ustiga bir shisha may qo'yilgan edi) u men amalga oshirmoqni ko'zlagan

rejonining ikir-chiklilarini ezmalanib surishirat boshladidi do'stim mister Tomson bilan qachon, qayverda uchrashishni kelishib olganniz; Tomson degunlarining keksa tulki amaking tuzoqqa ilinsa, falon-piston shartlarga ko'nasamni kabi savollar ketma-ket ravishda mister Rankiler og'zidan uchib chiqb, kamining qulog'iqa qudalalaydi. Ayni paytda maza qilib may ichib o'trad. Burcha savollarga javob quturganimdan so'ng, aftidan, qinotayosil qildi shekilli, yanada teran o'yga toldi, hatto gulgun may hum esidan chiqb ketdi. Key'in qog'oz-u qalam oldi-da, bir nimalarini yozishga kirishdi; har bir so'zni salmoqlab ko'rardi go'yo. Xatni tugatgach, qo'ng'iroqchani chaldi-yu, ostonada mirza paydo bo'ldi.

— Torrens, kechgacha mana bu xatni chiroyli qilib ko'chirib qo'ying-da, ishni tugatgamingizdan so'ng shlyapangizni kiyib, bizni — manavi jentelmen ikkalamizni bir joyga kuzatib borishga tayyor bo'lib turing; guvoh sifatida foydangiz tegib qolishi mumkin, — dedi qozi.

— Ser, niyoyat, tavakkal qilishga qaror qildingizmi? — deb so'radim mirza eshikni yopib xonadan chiqishi bilan.

— Ko'rib turibsiz-ku, — dedi mister Rankiler, yana o'z qadahiga quilt-quilt etkazib may quyar ekan. — Endi ishni bir chetga qo'yib turaylik. Torrensga ko'zim tushgan mahalda esimga bitta voqeal kelib qoldi: bundan bir necha yil muqaddam biz ana shu sho'rtumshuq lapashhang bilan Edinburgning eng katta maydonida uchrashishga kelishib olgan edik. Keyin har kim o'z yumushi bilan ovora bo'lib ketdi; soat to'rtga qadar Torrens bir stakan araq ichib olishga ham ulguribdi, oxiri u xojayinini ham taniyay qoldi; men esam ko'zoynagimni uyda unutib qoldiribman — xudo haqi, shapko'rligim tuftyli xizmatkorini tanimagan edim o'shanda! — Qozi tovushini baralla qo'yib xaxolab yubordi.

Odob yuzasidan men ham jilmayib, haqiqatani ham, g'alati hodisa ro'y bergen ekan, deb qo'ydim. Hayratla-

nari joyi shundaki, mister Rankiler kun bo'yi o'sha hango mani yangi va yangi tafsilotlari bilan qayta-qayta ayaverdi, tovushining boricha xaxolayerverdi; uning bunday ahmoqona harakatlariidan oxiri noqulay ahvolga tushib qoldim, ko'zlarimni qayoqqa yashirishni bilmasdim.

Alan bilan uchrashishga kelishgan vaqtimiz yaqinlashgan payda qozining uyidan tashqariga chiqdik; mister Rankiler meni qo'ltiqlab oldi, orqamizdan esa cho'ntagiga xatni buklab solib olgan, qo'liga savatcha ushlagan Torrens kelardi. Shahar bo'ylab odimlayotgan chog'imizda qozi har qadanda goh o'ng tononiga, goho so'l tononiga qarab bosh irg'ib qo'yardi; yo'lovchilar dam-badam shaxsiy yoki rasmiy ishlari yuzasidan savol berishardi, bir daqiqqa to'xtashini ittimos qilishardi; mister Rankiler ni o'lkada hamma hurmat qilishi shundoq ham ko'rinish turardi. Niroyat, uydan xiyla uzoqlashib ketdik; bandar-goh yoqalab — «Do'lana» mehmonxonasi tonon, parom to'xtaydigan joyga qarab (aynan mana shu yerda mening boshimga kulfat tushgan edi) borardik. Bu joylarga befarq nigoҳ tashlay olmasdim; o'sha payda yonimda bo'lgan kishilarning juda ko'philiyi endi oramizza yo'qligi bextiyor esimga tushib qolardi; Ransom o'sha ablahlar qo'lida jon berdi va og'ir qismatdan osonroq qutulib ketdi; Shuanming hozir qayerda ekanini tasavvur etishning o'zi kishini dahshatga solib qo'yardi; kemada so'nggi safarga otlangan baxtiqaro kinsalar dengiz qa'rida yotishardi. O'sha isqoti kemadan ham, yovuz dengizchilar dan ham omudiroq ekanman; og'ir sinovlardan, dahshatli xavf-xattarlardan omon-eson o'tib oldim. Daf"atan xursand bo'lishim, shukr qilishim lozimdek tuyulardi; biroq bu joyga ko'zim tushgan payda o'tgan-keftganlarning yodini eslab ich-ichimdan ezilishim va o'mishdagi qo'rquinchli hodisalar sharpasi dilimni xufton qilishi turgan gap edi...

O'z xayollarim og'ushida borardim. Tuyqusdan mister Rankiler cho'ntaklariga shapattilagan ko'y qichqirib, xakolay boshladi.

— Yo'q, bunga siz ham qoyil qolasiz! — deb xitob

qildi. — Kun bo'yi javrayerib, quloq-miyangizni yedim, lekin baribir ko'zoynagimni uyda esimdan chiqqib qoldi ribman — mana buni ermak desa bo'ladi!

Albatta, men labimni tishladim; kun bo'yi anuvi «zurbulmasal» bekorga takrorlannugunini payqadim vi atyylab ko'znoynak uyda qoldirilgumni bilih turadim: o'zini jo'rttaga Alanning yordamini memsimayotgandek ko'rsatmoqchi bo'lad; ish chappasiga ketau, jinoynichining yuziga tikilib turib guvohlik berish dhuhmuzasidam qulilib qolishni isturdi. Hu, u ustamoniq qilgan ed: xo'sh, agar ishimiz yomon tononga aylanib ketgandi, Rankiler qusim ichib do'stimni tamimligini ayturmidi? Meni badhom qiladigan ko'rsutma berishiga kim majbur qila olardi? Shundaylikka shunday-ku, u allamahalgacha o'zining xotirasi sustekanini unutib qo'ydi, chamasi; shahar bo'ylab borayotgan paytimizda yo'l-yo'lakay gaplashgan ko'plab odamlarni nomma-nom tanir ekan... Xullas, ko'zoynaksiz ham unchaliq yomon ko'rmasligiga zarracha ham shubhalanmasdim. «Do'lana» mehmonxonasi yonidan (ostonada xo'jayin trubka chekib o'tirardi; uni bir ko'rishdayoq tunidim va sira ham keksaymagandan hayratlandim) o'tishimiz bilan oq mister Rankiler safimizdagi turibni o'zgartirdi; o'zi Torrens bilan orqada yura boshladi, meni esa xudi di chopar singari oldingga o'tkazib yubordi. Tepalikka ko'tarilaverdim, dam-badam gelcha qo'shiq kuyimi hush-tak bilan chalib qo'yardim va, niroyat, bunga javoban hushtak chalinganini eshidim-u, quvonib ketdim; buta ortidan Alan qaddini rostladi. Yakka o'zi shu atrofdi yashirinib yurgani uchun, Dandas yaqinidagi faqirona pivoxonada chala-chulpa ovqatlangani tufayli o'zini xiyla oldirib qo'ygan edi. Hartugul, ust-boshimga ko'zi tushgan zahoti yashnab ketdi; ishlarmiz chakki emasligini aytganimidan so'ng (albatta, hal qiluvchi jarayonidan u ham chetda qolmasdi) esa butunlay o'zgardi-qoldi.

— Maqtovga loyiq fikk, — deb ma'qulladi. — To'g'risini aytib qo'ya qolaman, bu roga Alan Brekdan munosib odamni baribir topolmasdilar. Aymi payt-

da alohiда fahm-farosat talab etlidi; sir emaski, har kim bunday fazilatga ega bo'lavermaydi. Darvoqe, sezib turib-manki, qozi meni o'z ko'zi bilan ko'rishga juda ham ishtiyoqmand, uchrashuvni sabrsizlik bilan kutyapti.

Mister Rankilerni chiqardim, unga qarab qo'llimi silkidim; yolg'iz o'zi yonimizga yaqinlashdi va uni do'stim mister Tomsonga tanishtirdim.

— Bag'oyat xursandman, mister Tomson, — dedi. — Baxtga qarshi, ko'zoynagimni umutib qoldiribman; mana, do'stimiz mister Devid ham aytishi mumkin (u yelkamga qoqib qo'ydi), ko'zoynagim bo'lmasa, shapko'r bo'lib qolaman. Shuning uchun agar ertaga sizni uchratib qolsam-u, yoningizzdan indamasdan o'tib ketsam, sira ham ajablan-mang.

Astida, Alanga taskin berish uchun shu gaplarni aytdi, ammo tog'ilik yigitning izzat-nafsimi qitiqlashga arzimas bahoja kifoya qilardi.

— Ser, rahmingiz kelsin, bu nima degan gap bo'ldi! — dedi u jiddiy ohangda. — Yagona maqsadimiz — mister Belfur haqiqatni topishi lozim; o'yashimcha, bizni bog'lab turadigan shundan boshqa hech qanday umumiy manfaatimiz yo'q. Shunday bo'lsa-da, uzingizni qabul qilaman; u ayini paytda aytildi.

— Mister Tomson, mening shundan boshqa niyatim ham yo'q! — dedi Rankiler zardali tarzda. — Xo'sh, endi ana shu korxonada ikkalamiz asosiy xizmatkor ekanmiz shekilli, shundoq bo'lgach, menimcha, barcha nozik masalarni maslahatlashib olmog'imiz darkor. Keling, yaxshisi, qo'ltig'ingizzdan ushlab olayin, aks holda yo'lni g'ira-shira ko'ryapman, xolos; qorong'i tushib qolganga o'xshaydi, boz ustiga, ko'zoynagim ham uyda qolibdi... Siz esa, mister Devid, vaqtinizi bekor ketkazmasdan shakarguftor Torrens bilan suhabatlashib turing. Faqat ijozat bersangiz, bir gapni eslatib qo'ysam, siz bilan do'stingiz mister... hm-m... Tomsonning sarguzashlari haqida unga batafsil gapirib o'tirishning hech qanday hojati yo'q.

Ular o'zaro qizg'in suhabat boshlashdi-yu, oldinda

yo'ligi tushishdi, Torrens ikkalamiz orquda shoshilmasdan yun boshladi.

Ko'paramizdan Shos qo'rg'oni ko'ringan chog'da oq-shom cho'kkani eddi. Soat o'n marta zang urdi; osmonda oy ko'rinnasdi, havo iliqqina; janubi-g' arbdan esayotgan mayin shabada yaproqlami shitirlaturdi; qudim tovushlarimiz deyarli eshitilmasdi; qo'rg'onga yaqin bordik, lekin bu tomonda chiroqning yilt etgan shu'lasi hum ko'rinnasdi. Aftidan, amakim allaqachon o'ringa krib yotib olgandi; bizga esa aynan shu narsa kerak edi. Ko'zhangun manzilga ellik qadamcha qolganda oxirgi martu shivirlashib maslu-hattashib oldik; so'ngra Torrens, qozi va men elhiyotkorlik bilan qo'rg'omning yonginasiga bordik-da, burchakka yashirindik; Alan esa namoyishkorona tarzda ostonaga yaqinlashdi-yu, eshikkni mushtlab-mushtlab taqillatishga kirishdi.

Y i g i r m a t o' q q i z i n c h i b o b

MURODIMGA YETDIM

Alan ancha vaqtgacha eshikkni do'mbira misoli gum-birlatib chalaverdi; tovush qo'rg'on devorlariga tegib aks sado berardi va atrofqa taralardi. Nihoyat, deraza lo'kidoni ohista tushirildi; sezzimki, amakim kuzatuw marrasidan joy olgan edi. G'ira-shira ko'roydinda u faqat ostonada turgan Alanni ilg'ashi mumkin, xolos. Uchta guvoh esa qorong'iukda ko'rinnasdi; odam o'z uyida xavotirilanib o'tirgani kishining kulgisini qistatardi. Dastlabki damlarda chaqirilmagan mehmonni zimdan kuzatib turdi, so'ngra ikkilanibroq gap boshladi — go'yo pand yeb qolishini ko'ngli sezib qolgan edi.

— Kim u? — dedi. — Yaxshi kishilar kechalari day-dib yurishmaydi, bemahal qichqiradigan xo'roz bilan gapni cho'zib o'tirmayman. Nima kerak? Ayib qo'yay, qo'llinda piltamiltig'im bor.

— Mister Belfur siz emasun? — deb so'radi Alan va

orqasiga bir-ikki qadam chekindi-da, qop-qorong'i dera-zaga nigohimi qadadi. — Piltamiltiqni ehtiyyot bo'lib ushlab turing; juda ishonechisiz dasmoya — o'zidan o'zi otilib ketishi hech gap emas.

— Nima kerak deyapman?! Kim bo'lasiz? — dedi amakim tishlarini g'ichirilatib.

— Men o'z nomimni aytib, butun o'lkaga ayyuhannos solishga orzumand emasman, — dedi Alan. — Lekin menga nima kerakligi — boshqa masala; u mendan ko'ra ham ko'proq sizga tegishli. Ijozat bersangiz, uni kuyga solib, innaykeyin sizga yetkazishim mumkin.

— Qanaqa ish o'zi? — deb so'radi amakim.

— Devid, — dedi astagina Alan.

— Nima? Nima bo'pti? — deb so'radi amakim butunlay boshqacha tovushda.

— Xo'sh, nomini to'liq aytaveraymi? — dedi Alan.

Sukunat cho'kdi.

— Shoshmang-chi, hozir uyga kiritaman, — dedi amakim ishonechisiz tovushda.

— Kiritmasangiz ham bo'lmaydi-da, — dedi Alan. — Lekin ichkariga kiramanmi — avval shuni so'rang-da. Ochig'ini aytasam, biz siz bilan ana shu joyda — ostonda gaplashib qo'ya qolamiz: mana shu yerda gaplashamiz yoki umuman gaplashmaymiz, tushundingizmi? Bilasizimi, men o'jarmam; asli nasilimi surishitrib kelsak, qonim xiyla toza bo'lib chiqqadi.

Ishning bu darajada chappasiga ketishi Ebenezerni dovdiratib qo'ydi; bir qancha vaqtgacha esankirab turdiyu, so'ngra:

— Nachora, shunday qiliish lozim bo'lsa, shunday qilamiz-da, — dedi va derazani yopdi.

Ammo pilapoyadan pastga tushguncha ancha-muncha vaqt o'tib ketdi, eshikking hamma qulflarini ochguncha xiyla ovora bo'ldi; chamasi, har bir pog'onaga qadam bosayotganda, har bir zamjirni tushirayotganda ichida o'zini koyindi, qo'rquvdan dir-dir titrardi. Nihoyat, lo'kidonning

g'isq etgan tovushi eshitildi: amakim niroyatda ehtiyyotkorlik bilan ostona hatlab tashqariga chiqdi va (Alumi bir necha qadam nariga ketganimi ko'rgrach) piltamiltiqning yuqori pog'onasiga o'tirib oldi; qo'lida piltamiltiq'i otishga shay bo'lib turardi.

— Hushyor bo'ling! — dedi. — Piltamiltiq o'qlangan, agar joyingizzdan bir qadam jilsangiz — asfalsosifinga ketdim, deyavering.

— Seni qara-yul! — dedi Alan. — Mulozumat hum sal evi bilan-dha.

— Nima bo'pti, — dedi amakim, — vaziyat qalish, demak, ehtiyyot bo'lib turishim lozim. Xo'sh, endi kelishib oldik, qani, gapiring — muddao nima?

— Xo'p, mayli, — dedi Alan. — Siz farosatl insonsiz; chunonchi, tog'li o'lkada tug'ilganimni allaqachon payqagan bo'lsangiz kerak, albatta. Nomimming bu ishga aloqasi yo'q, faqat mening yurtim Mall oroliga yaqin ekanini aytib qo'ymoqchiman, xolos. O'ylaymanki, orol ha-qida eshitigan bo'lsangiz kerak. Tasodifi qarangki, xuddi o'sha joyda bitta kema halokatga uchradi; ertasi kuni qarindoshim qumloq sohilda sintq yog'ochlarni terib yursa birdan suvga cho'kib yotgan bitta yigitchaga duch kelib qolibdi. U o'smirming oyog'ini ko'tarib, ichiga to'lib qol-ga qolibradi. Ullas, ko'plashib yigitchani eski qo'rg'onga obil ketishibdi; hozir o'sha yerda xastalananib yotibdi. Lekin qarindoshlarim uni boqishga qiyinalishyapti. Ular — ko'chmanchisehlar; boshqalar kabi qonunga itoat etib, bir joyda muqim o'tirishavermaydi; aniqlanishicha, yigitcha boy-badavlat xonadon arzandasini ekan; mister Belfur, u tug'ishgan amakivachchangiz bo'lar emish; shuning uchun meni o'sha xususida gaplashib kelgani jo'natishdidi. Avvalbosdan ogohlantirib qo'ymoqchimanki, agar kelisha olmasak, bundan keyin uni tirik ko'rishingiz dushuvor. Negaki, qarindoshlarim unchaliq o'ziga to'q kishilar emas, — deb shunchaki qo'shib qo'ydi Alan oxirgi so'zlarini.

Anakim tomoq qirib qo'ydi.

— Qayg'urishga ham uzimaydigan musibat ro'y beribdi, — dedi. — U azaldan suriq chaqaga qimmat pardavaqi edi. Xo'sh, nima uchun men uni qutqarib olishim lozim ekan?

— E-e, ha, nimaga ishora qilayotganingizni bilib turibman, — dedi Alan. — Uni arzon-garov narxa sohib olish maqsadida jo'rttaga o'zingizni beparvo qilib ko'rsatmoqchi bo'lyapsiz.

— Aslo unday emas, bor haqiqatni ayytayman, — dedi amakim. — Yigitchaning taqdiri meni mutlaqo qizqitirmaydi, uni qutqarib olish uchun pul to'lamayman; istasalaring, yigitchani so'yib, yog'idan sovun qilinglar.

— Jim ursin, ser, qondoshlik — hazil gap emas! — deb qitehqirdi Alan. — Hech jahonda akaning o'g'lidan ham voz kechish mumkinmi, bu axir isnod-ku! Uyaling-e! Agar shu gappingizdan qaytmassangiz, butun o'lkaga gap tarqatib yuboramiz: o'ylaymanki, keyin o'zingiza qiyin bo'jadi.

— Menga hozir ham oson bo'layotgani yo'q, — dedi Ebenezer. — Qolaversa, odamlarga bu gaplarni isbotlab bo'lmaydi-ku? Albatta, hech kim bu haqda miq etmaydi. Do'sti aziz, bekorga safsata sotib o'tiribnim.

— Unday bo'isa, demak, Devidning o'zi gapirib beradi, — dedi Alan.

— Qanday qilib? — deb so'radi amakim xavotirlanib. — O'z og'zi bilan gapirib beradi, vassalom, — dedi Alan. — Sir emaski, qarindoshlarim tutqun evaziga mo'may pul ishlab olishdan umidini uzgunlariga qadar jiyanchangzni ushlab o'tirishadi; umidlari puchga chiq-qach esa ketiga bir tepib haydar yuborishadi: to'rt tomoning qibla, deyishadi.

— Yo'q-bunday qilish yaramaydi, — dedi amakim. — Bu oqilonha ish emas.

— Shunday bo'lshini bilardim, — dedi Alan.

— Qayerdan bilardingiz? — deb so'radi Ebenezer. — Nega bilmas ekanman, axir, mister Belfur? —

dedi Alan. — Eshitishimga qaraganda, ish teskari to-monga aylanib ketishi mumkin: Devidni asrab qolish uchun pul to'laysiz va huzuringizza chaqirib olasiz yoki asosli sabablarga ko'ra, uning ketishini aalo istmasiz: biz uni ozodlikka qo'yib yubormasligimiz uchun haqimizni berasiz. Ko'rini turibdiki, birinchi yo'hi tanlamoqchi emassiz; xo'p, mayli, demak, ikkinchi yo'ldan ketamiz — bundan qurindoshlarim xafa bo'lismaydi, albatta. Chunki qabilamiz bir kishi hisobiga ko'payadi...

— Negadir maqsadiningizni unchalik anglay olmuyaman, — dedi amakim. — Rostdanmi? — dedi Alan. — Ma'lumotiningiz uchun, men aslzodaman; qirol ham bizning urug'imizdan qandaydir daydi savdogar emasman, sizning ostonangizda itga o'xshab yotib olmayman. Hoziroq menga birorta jo'yali javob berasiz yoki tumshug'ingizni yorib tashlayman; Glenko qoyalari haqqi, qasam ichaman!

— Ey birodar, sal past tushing! — deb o'kirib yubordi amakim, zo'rg'a o'rnidan turar ekan. — Nima balo, passsha chaqib oldimi? Men oddiy odamman, raqs mualimi emasman, har doim jo'yali gapiraman. Og'zingizdan bodi kirib, shodi chiqiyapti, hatto gaplaringizni eshitish ham uyat. Jag'imni yorib taslar emish, gapini qaranglar-a! — deb to'ng'illadi. — Qo'lindagi piltamitiqni ko'rma yapsamni?

— Puturdan ketgan qo'lingizdag'i miliq Alan ning qilichi qarshisida nima bo'slibdi? — deb javob berdi do'stim. — Bular go'yo mudroq bosgan shilliq-qurtu tezuehar qaldiring'ochga o'xshaydi-ku! Qilichim ko'ksingizning titig'imi chiqarib yuborgan chog'da hatto tepkini bosishga ham ulgurmey qolasiz!

— Ha, mayli, lekin birov munozara qilayotgani yo'q-ku, axir?! — dedi amakim. — Mayli, siz aytgancha bo'la qolsin, mutlaqo e'tiroz bildirmayman. Faqat o'zingizza nima kerakligini aytasangiz — bas, bipasda kelishib olamiz.

— Ser, bir narsani istayman, xolos, — dedi Alan. — Ya'ni tiliyog'lamlilik qilmasinlar. Qisqasi, lo'nda qilib aytganda: yigitchani o'ldirish kerakmi yoki tutqunlikda saqlaylikmi?

— O'h, seni qara-yu, bu juda og'ir gunoh-ku! — dedi Ebenezer sarosimaga tushib. — Gunohi azim-ku! Hatto aytiliga ham til aylanmaydi-ya!

— O'ldirilsimi yoki tirik qolsinmi? — deb savolini takorladi Alan.

— Tirik qolsin, tirik! — dedi amakim zorlanib. — Shafqat qiling, hech qanday qon to'kilmasin!

— Nachora, o'zingiz bilasiz, — dedi Alan. — Lekin bu juda qimmatga tushadi.

— Qimmatga tushadi? — deb qichqirib yubordi Ebenezer, — Nahotki, qo'lingizni qonga bulg'ashdan hazar qilmusangiz?

— Voy-bo! — deb xitob qildi Alan. — Baribir emasni, har ikki holat ham jinoyat-ku! Lekin o'ldirib qo'ya qolsak, ishimiz oson ko'chardi. O'smirni ushlab o'tirishning turgan-bitgani dardisarlikdan iborat.

— Baribir tirik qolishini afzal ko'rardim, — dedi Ebenezer. — Umrinda harom ishlarga qo'l urmaganman, qandaydir tog'dan tushgan yovvoyi odamning ko'nglimi olish uchun qing'irlik qilishni istamayman.

— Qaranglar-a, vijdonli odam ekan-ku... — dedi Alan mazaxlab.

Men e'tiqodi mustahkam insomman, — dedi Ebenezer soddadilik bilan. — Shuning uchun jazoga loyiq bo'lsam, mayli, jazolanayin. Boz ustiga, esingizda bo'isin, o'sha o'smir — tug'ishgan akamning o'g'li bo'ladi, — deb qo'shib qo'ydi.

— Hm-m, ana xolos, — dedi Alan. — Uday bo'lsa, narx-navoni kelishib olsak. Aniq qiymatni aytish xiyla mushkul; avvalambor, ba'zi bir ahamiyatsiz o'rmlarga oydinlik kiritish kerak. Masalan, Xozison-ga bay puli sifatiga qancha bergeningizni bilib olsam yomon bo'imasdi.



— Xozisongami? — deb baqirib yubordi amakim hay-

ratga tushib. — Nima uchun pul bergen ekanman?

— Devidni o'g'irlab ketish uchun-da! — dedi Alan.

— Yolg'on, qip-qizil yolg'on! — deb hayqirdi amakim. — Uni hech kim o'g'irlagani yo'q. Uyalmay-netmay sizni aldashibdi. O'g'irlagan emish! Hech qachon bunday bo'lman!

— Agar o'g'irlab ketishmagan bo'isa, buning bizu siza hech qanday aloqasi yo'q, — dedi Alan. — Hatto Xozisonga ham aloqador emas; agar so'zları rost bo'isa, abatta.

— Buni qanday tushummoq lozim? — deb qichqirdi Ebenezer. — Demak, Xozison hammasini gapirib beribdi da?

— Bo'lmasam-chi, nima deb o'ylovding, qari to'n-kal! — deb qichqirib yubordi Alan. — Bunday gaplar-ni yana kindan eshitishim mumkin? Xozison ikkalamiz aslida bitta odammiz; u albattra o'z ulushimni beradi. Endi amin bo'lgandirsizki, yolg'on gapirishdan siza zarracha ham foyda bo'lmaydi... Ha, rostini ayтиб qo'ya qolay: o'sha dengiz shunqoriga sirflaringizni ochib, ahmoqona ish qilgansiz. Biroq so'nggi pushaymondan naf yo'q: har kim ekkанини o'radi. Gap boshqa yoqda: siz unga qancha bersansiz?

— O'zi aytmadimi? — deb so'radi amakim.

Alan.

— Xo'p, hammalaring bir go'r-ku, — dedi amakin. — U nimalar deb sayragan bo'lsa ham, hammasi qip-qizil yolg'on; haqiqat esa, xudo shohid, mana bunday: unga yigirma funit to'laganman. Rostini aytasam, bundan tashqari, o'smirni Karolinada sotib yuborgandan so'ng pulning ma'lum qismini berishim lozim edi. Lekin aslo cho'ntagimdan ketmasdi, tushunarlimi?

— Mister Tomson, tashakkur sizga! Shuning o'zi kifo-ya, — dedi qozi burchakdan chiqar ekan. — Xayrli kech, mister Belfur! — dedi yolg'onidakam mulozamat bilan.

— Xayrli kech, Ebenezer amaki! — dedim.

— Mister Belfur, ob-havoning ajoyibligini qu-

rang-a! — deb qo'shib qo'ydi o'z navbatida Torrens.

Amakim miq etmadi; zinupoya ustida lom-mim de-

masdan turaverdi; tildun qolgundek ko'zlarini lo'q qil-

gancha tikilib goldi. Alan uning qo'lida piltamiltiqni tortib oldi; qozi esa qo'ltig'idan oldi-yu, ostoma hatlab ichkariga o'tdi va oskhoni tomon bonhlidi (ularning

ortidan biz ham ergashdik); o'choq yondidagi stulga o'tqazdi: o'chib qolayozgum olovdan iliqqina taft yuzi-

mizga urildi.

Dastlab, hammamiz tik turganchu unga tuntunli nazar tashladik; ishimiz muvaffaqiyatlari yakunlunganidan mam-

nun edik. Ayni paytda sharmandyi sharmisor bo'lgan ra-

qibimizga ich-ichimizdan achinardik, abatta.

— Yetar, mister Ebenezer, qo'ying endi, — dedi qozi. — Noumid bo'lmang, sizni xoru zor qilib qo'ymaymiz. Chin so'zim — shu, ishonavering. Hozir esa, marhamat qilib, sandiqning kalitini bersangiz-u, Torrens otangizzdan qolgan vintadan bir shisha olsa va ana shu tantanani munosib nishonlasak! — Keyin orqasiga o'girildi-da, qo'lidan tutdi va: — Mister Devid, hayo-tingizza ro'y bergen ajoyib o'zgarish bilan qizg'in tabrik-layman! Menimcha, siz shunga loyiqsiz, — dedi. So'ngra jiddiy qiyofada Alanga yuzlanib: — Mister Tomson, ijozat bersangiz, sizga ham chin dildan minnatdorchilik izhor etsam! — dedi. — O'z rolingizni mohirena ijo etdingiz. Ammo baribir unchalik tushummadm: ismingiz Jeynismi yoki Karlini? Agar unday bo'lmasa, demak, Gelegsiz-a?

— Ser, nima uchun men ana shu uch nomidan bittasi bilan atalishim lozim, axir?! — dedi Alan jangariligi tutib. Afidan, xafa bo'llib qolganga o'xshardi.

— Yo'g-e, ser, o'zingiz qirollar avlodidan bo'laman, deb eslatib o'tganingiz uchun shunday deyapman, xo-los, — deb javob berdi Rankiler beg'araz ohangda. — Hartugul, shu paytgacha qirol Tomson degan zot dovrug'ini eshitiganim yo'q; o'yladimki, siz cho'qintirish

marosimida berilgan ismn nazarida tutgan bo'lsangiz kerak, hoynahoy.

Nozik joyga zarba berilgan edi:

o'chig'ini aytasam, bu gap Alanga og'ir bodd. U bir og'iz ham gapmasdan, oshxonan burchagiga bordi-da, xo'mraygancha o'tirib oldi; qachonki uning qo'lini qisib qo'yganindan va tantanali kunlаримда xizmatlari beqiyos ekanini ta'kidlab, minnatdorchilik izhor etganimidan keyingina u labini cheti bilan ma'yus jilmaydi: davramizga qo'shilishga rozi bo'ldi.

Bu payida o'choqqa gulduratib gulxan yoqigan edi; shisha tiqini ochilib, savatchadan olingen sarxil yemishlar stol ustiga terib qo'yildi; Torrens, Alan va men miriqib ovqathana boshladik, qozi esa shartnomaga tuzish uchun amakim bilan narigi xonaga kirib ketishdi. Ular eshikni zichlab yopishgancha bir soatcha kengash o'tkazdilar; oxiri bir to'xtunga kelishi; so'ngra amakin bilan men hujjat ostiga imzo chekdik. Shartnomaga binoan, o'rinda vositachiilik qilgani uchun amakin Rankilerga haq to'lashi; menga esa har yili Shos qo'rg'onidan keladigan daroming uchdan ikki qismimi berishi kerak edi.

Shunday qilib, ertaklardagidek yalandoyoq daydi yigitcha o'z yer-mulkiga ega bo'idi; o'sha kechasi oshxonadagi sandiq ustiga badavlat kishi misoli, aslzoda zotning merosxo'ri kabi taltayib cho'zildim. Alan, Torrens va Rankilerlar o'zlarining qattiq o'rmlarida timmasdan xurak otishardi. Men esam, necha kunkardan beri och-nahor, balchiqqa botib yoki toshlarga bosh qo'yib yotib yurgan bo'lsam-da, uyqu nimaligini deyarli unutib qo'yganimga qaramay, boz ustiga, kelajagini o'ylab dahshat ichra yashagan bo'lsam ham, kutilмаган о'згаришлар qarshisida esankirab qoldim; birdaniga ulkan baxt-saodatga erishganimmi sira tasavvuringa sig'dirolmadsim; shuning uchun tong otguncha shiftga termilib, o'ynoqlayotgan shu'lalarni tomosha qilib, kelgusi hayotimni o'ylab yotdim.

O' t t i z i n c h i b o b

XAYRLASHUV

Mana, endi boshpanum bor. Biroq Alanni o'ylasun vijdonim qynalardi; undun juda katto quzdar edim. Yuragimning tub-tubida g'um-anduh og'ir toshdek cho'kib yotardi: ya'ni, Jeyms Glen nohaq ravishda qotilidida ayblanardi. Ertalabki sot otilarda — Rankiler ikalamiz Shos qo'rg'oni atrofini sayr etib yurgen paytimizda ko'nglimdag'i dardlarni unga to'kib soldim. Ko'z o'ngimizda bir vaqtlar ota-boboluringa qurnashli bo'lgan bepoyon dalalar, o'mronlar yashnab turardi. Hozir bularning xo'jayini kamina edi. Xiyla sertashvish mavzuda subbatlashayotgan bo'lsak-da, olis-olislarga zo'r qoniqish bilan, quvonib nigoh tashlardim; g'ururim ichimga sig'masdi, yuragim gurs-gurs urardi.

Do'stim qarshisida burchlli ekanimi qozi so'zsiz tanoldi. Qanday qilib bo'lsa ham uning Shotlandiyadan chinib ketisinga yordam berishim lozim edi; ammo Jeymsning taqdiri masalasiga u boshqacha nuqtayı nazaridan qarardi.

— Mister Tomson — boshqa masala, — dedi. — Mister chikirkardan batafsil xabardor emasman, lekin, bilishimcha, bu ishni shaxsan akobir janoblarining aralashuvvisiz hal etib bo'lmaydi (ijozat etsangiz, biz u zoti olyni G. A.* deb atay qolamiz). Taxminlarga qaraganda, u kishi ayblanuvchi to'g'risida muayyan bir to'xtamga kelgan ko'rindalar. G. A., shubhasizki, olyjanob mulklor hisoblanadi. Ammo baribir, mister Devid, xudobeziordan qo'rqish lozim. Agar o'rtaga tushib nohaq qon to'kilishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'lsangiz-da, doimo bir narsani yoddan chiqarmang; sizdan guvoh sifatida qutulishning ishonchli vostasi bor: o'zingizni ham sudlanuvchilar kursisiga o'tqazib

* Gersog Argaylskiy (muallif izzohi).

qo'yishadi, vassalom. U yerda mister Tomson qarindoshi-
ning boshiga tushadigan kulfatga sherik bo'lasiz. Men ayb-
dor emasman-ku, deb e'tiroz bildirishingiz mumkin, ammo
u ham aybsiz-ku? O'zaro nizolarni tog'lik qasamxo'r
maslahatchi-sudylar ujrim qilishsa, ustiga-ustak, sudya
lavozimida yana bitin badbushara tog'lik o'tirs, bunday
sud bilan dorming orasi bir qadam bo'lub qoladi.

Rostini aysam, ana shunaqa isbot-u dalillarni o'zim
ham bilganimdan e'tiroz qilib o'tirmadim. Ammo sodda-
dilik bilan yordam berishimi iltimos qilavedim.

— Ser, unda dor ostiga borishdan boshqa ilojim yo'q
ekan-da? — dedim.

— Aziz bolajonim, xudo xayringizni bersin, boring,
bilganningizni qilavering! — xitob qildi Rankiler. — As-
lida, sizni to'g'ri bo'lsa-da, sharmandali yo'iga boshla-
yotg'on o'zin ahmoqman! Aytgan so'larimni qaytarib
olaman, meni kechirasiz! Boring, o'z burchingizni ado
etavering: lozim bo'lsa, halol inson sifatida dorga osilib
o'lavering! Hayotda dorga osilib o'lishdan ham yomonroq
ishlar uchrashi mumkin-ku, axir.

— Unday ishlar juda oz, ser, — dedim kulimsirab.

— Afsuski, ma'zur tutasiz, ser! — deb qichqirib yu-
bordi Rankiler. — Unday ishlar juda serob. Masalan,
uzoqqa borib o'tirmaylik amakingiz odob yuzasidan bo-
shini sirtmoqqa tutib berib, dorda osilib yotganda bormi,
eng kamida yigirma marta foyda qillardu!

Shunday deb u qo'rg'onga qaytdi (hamon hovuridan
tushmagan edi; ko'rinish turardiki, o'jarligim unga qim-
matga tushgandi) va menga atab ikkita xat yozdi; ularni
nima qilishim kerak ekanini tushuntirdi.

— Mana bu — Britaniya zig 'irkorlik qarz-havola ja-
miyatidagi bankchilaringa ishonchnomha: ulardan sizning
nomingizga kirim-chiqim hisobi ochishlarini iltimos qil-
dim, — dedi. — Mister Tomson barcha yo'l-yo'riqlarni
o'rgatadi; u kishi bu joylarni juda yaaxshi biadi. Siz
qarz yordamida do'stingizning xorijiy mamlakatga chi-
qib ketishimi ta'minlaysiz. Umid qilamanki, o'z pulingiz-

ni sal o'yllabroq surflaysiz, ammo mister Tomson kabi
do'starlim bo'lganda, pulning yuziga qurab o'turnasdan
ishlataverardim. Uning qarindoshi masalasiga ketsak,
Bosh prokuror huzuringa borsangiz, o'zingiz uchun ham
yaxshi bo'lardi; hammasini bir boshdan so'zlab bering
va guvohlikka o'tajagingizni ham aytin: u sizni takli-
fingizni qabul qilish-qilmasligi — butunlay boshqa gap;
bu G. A. ga bog'ilq muammadir. Sizni Bosh prokurorga
tanishitirib qo'yishlari uchun olim adashning bo'lmish
pilriglik Belfur nomiga xat yozib beryapman; u zomi
juda hurmat qilaman. Agar sizni otososhungiz tanishitir-
sa, maqsadga muvoqiq bo'lardi: Pilrig sohibi huquq
shunoslar o'rasida katta obro'ga ega, u Bosh prokuror
Grantning ham ishonchini qozongan. Agar o'mingizda
men bo'lganimda, ortiqcha tafsilotlar bilan uning boshini
qotirib o'tirmasdim. Bilasizmi, memimcha, mister Tom-
son nomini eslatib o'tirishning hech qanday hojati yo'q.
Mister Belfurdan o'mak olishga harakat qilsangiz kam
bo'lmaysiz; u taqid qilishga arziyidigan munosib inson.
Bosh prokuror bilan muomala qilayotgan chog'ingizda
tilingizga nihoyatda ehtiyyot bo'ling. Mister Devid, barcha
ishlaringizda xudo siza siga yor bo'lsin!

So'ngra u hammamiz bilan xayrlashdi-da, Tortens
hamrohligida parom qatnaydig'an kechuv tonon yo'l
oldi. O'z navbatida Alan ikkalamiz ham Edinburg shahri
sari otlandik. Biz maysalar o'sib yotgan so'qmoqdan
yurdik; tosh ustunlari chala-yarim qorovulkxonan yonidan
o'tdik: ajoddalarimdan qolgan makomi yo'l-yo'lakay
tomosha qilib ketdik. Qo'rg'on nihoyatda ulug'ver edi,
lekin odam yashamaydigan vayrona kabi huvilab yotar-
di, sovuq ko'rinaridi; faqat yuqoridaq derazadan xuddi
uyasida u yoqdan bu yoqqa yugurib yurgan quyonning
qulog'iday bitta qalpoq dam-badam ko'rinish qolar-
di. Ha, meni bu yerda quchqoq ochib kutib olishmadni,
yomon ko'z bilan qarshiladilar; ammo ketayotgan pay-
timda ortidan pinhona kuzatib qolishdi, shunisiga ham
shukr!

Alan ikkovimiz imillab qadam tashlardik; gaplashgimiz ham, ildamroq yurğımız ham kelməşdi. Bir narsa xusida xayol surardı; ayrlıq onları yaqinlashmoqda edi, o'gan kunlar xotirasi yelkamızdan og'ir yuk kabi ezib turardı. Albatta, biz qıladıqan ishlurımız borısida gaplashıb olğan edik; Alan uncha olis bo'lmugan joylarda — goh u yerda-goh boshqa yerdə yashırınib yurishi lozim edi. Lekin har kuni bir marta kelishilgın pakkaga kelishi shart edi; o'zim yoki uchinchi odam vositasida u bilan aloqa bog'lab turishim kerak. Aynı zamonda epinlik Styuartlardan chiqqan biorta qozi bilan bog'lanishim darkor edi; chunki unga bemalol ishonsa bo'lardi; topshiriq shundan iboratki, munosibroq biorta kema topish va Alan unga omon-eson chiqib olishi uchun sharoit yaratıb berish kerak edi. Bu masalarni muhokama etganimizdan so'ng, ma'lum bo'ldiki, tilimizga go'yo tushov tushgandi: to'g'ri, Alanni «mister Tomson» deb mazaxlardı, Alan esa yangi ust-boshlarimdan, yet-mulkimidan kulardi, ammo hozir kuladıqan ahvolda emasligimizni biliib olish unchalik qiyin emasdi, balki yig'lagimiz kelardi.

Yaqin yo'ldan yurdik; Korstorfinskiy dovonidan oshib o'tishga qaror qıldıq: Nafas Rostla degan joyga yetgan paytimiz, pastılıkda yastanib yotgan Korstorfinskiy botqog'iga va undan-da narida — tepaliķda qo'r to'kib turgan shanarga nigoh tashladik. İkkalamız ham birdan to'xtab qolgamimizga sabab — xuddi shu yerdə yo'limiz ajralishi lozim edi; buni har birimiz juda yaxshi bilar-dik. Do'stim boy'a kelishib olgan shartlarni mena qaytadan eslatib qo'ydi: qozini qayerdan topish mumkin; uni — Alanni kunning qaysisi pallasida uchiratamiz: belgilangan vaqtida albatta o'sha pakkaga kelib turadi; uchrashti lozim va hokazo. So'ngra och-nahor qolmasligi uchun cho'ntagimdagı hamma pulimni Alanga berdim (menda Rankilerden oğlanım ikki tanga bor edi, xolos). Oxiri Edinburgga termilgamimizcha bir necha daqqa suket saqladik.

— Xo'p, mayli, xayr! — dedi Alan va mengu chap qo'lini uzatdi.

— Xayr! — dedim-u, qo'lini mahkam qisib qo'ydim va nishablikdən pastga qarab tusha boshladim.

Biz bir-birimizgu quramuslikka harakat qıldık; u uzoqlashib ketguncha ortimga o'girilib boqmudim. Lekin shaharga ketayotib o'zimni shunchalar bechonhol, yolg'iz his etdimki, yo'l chetiga o'tirib olib yosh boladıy yerga yumalab-yumalab yig'lagim keldi.

Uestikirk va Grassmarketni ortda qoldırıb, poytaxt ko'chasiga chiqqan paytimda vuqt tushlikka yaqinlashıb qolgan edi. O'n-o'n besh qavatlı buland imoratlı, tor-gina, qubbali darvozalar, poyonsiz gavjum yo'lkalar, do'konlarning peshtaxtalariga yoyib qo'yilgan mol-matalar, g'ala-g'ovuru yugur-yugur, dimoqni yoradıgan sassiq hidrları bashhang kiyimlar, ko'plab ajoyibot-ları mayda-chuydalar meni daf atan esankiratib qo'ydi. Bir joyga yetganimda og'zim ochiib, hallayı-ib qolgan ekanmanmi — bilmadim, es-hushimni yig'ishtirib mun-dog qarasam, ko'chami to'ldırıb ketayotgan olomon oqimi nomá'lum tomonqa surib ketayotibdi-yu, men esum sıqat Nafas Rostla tepaligida turgan chog'imizdagı Alanning qiyofasını eslayman, xolos. Albatta, tez oradı yangiliklur kishini hayratga solishi turgan gap. Biroq hozir ichim-ga chiroq yoqsa yorishmasdi, negadir dilim xufton edi: nazarimda, qandaydir ishni ko'ngildagidek bajarmaganga o'xshardim.

Taqdir taqozosi bilan olomon oqimi meni naq Britaniya zig'irkorlik qarz-havola jamiyatining ostonasiga eltilib tashladı.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Bag 'ishlov' | 6 |
| Birinchchi bob. Men uzoqqa — Shos qo'rg'oniga jo'nayapman | 8 |
| Ikkinchchi bob. Manzilga yetdim | 15 |
| Uchininchchi bob. Amakim bilan tanishuv | 22 |
| To'rinchchi bob. Shos qo'rg'oni — baloyi qazolar uyasi | 31 |
| Beshinchchi bob. «Kunsferi» kechuvdi tomon yo'l oldim | 40 |
| Oltininchchi bob. Kechuvda ro'y bergen hodisa | 49 |
| Yetininchchi bob. «Vasiyat» kemasida dengiz uzra safar | 55 |
| Sakkizinchchi bob. Quyruqdagi boshqarma | 65 |
| To'qqizinchchi bob. Tilla kamarli kishi | 71 |
| O'ninchchi bob. Boshqurma qamali | 83 |
| O'n birinchchi bob. Darg'a tuqdırıgu tan berdi | 93 |
| O'n ikkinchchi bob. Malla tulki | 98 |
| O'n uchininchchi bob. Kema halokati | 110 |
| O'n to'rinchchi bob. Mo'jaz orol | 118 |
| O'n beshinchchi bob. «Kumush tugmachali o'smirla». Mall | |
| orolida | 130 |
| O'n oltinginchchi bob. «Kumush tugmachali o'smin». Marven | |
| orolida | 141 |
| O'n yetininchchi bob. Mallu tulkingin o'llimi | 150 |
| O'n sakkizinchchi bob. To'qaydagi suhabat | 157 |
| O'n to'qqizinchchi bob. Qo'rquv maskani | 168 |
| Yigirmanchi bob. Sirli so'qmoq bo'ylab. Qoyalar | 176 |
| Yigirma birinchchi bob. Sirli so'qmoq bo'ylab. Korinak jarligi | 186 |
| Yigirma ikkinchchi bob. Sirli so'qmoq bo'ylab. Archagulli | |
| tashlandiq makon | 195 |
| Yigirma uchininchchi bob. Qo'nalg'a | 204 |
| Yigirma to'rinchchi bob. Sirli so'qmoq bo'ylab. Nizo | 215 |
| Yigirma besinchchi bob. Belkidderra | 228 |
| Yigirma oltininchchi bob. Ozodlik. Biz fortdan o'tmoqchimiz | 237 |
| Yigirma yetininchchi bob. Rankiler huzurida | 251 |
| Yigirma sakkizinchchi bob. Merosimni ajratib olgani otlandim | 262 |
| Yigirma to'qqizinchchi bob. Murodinga yetdim | 271 |
| O'ittininchchi bob. Xayrlashuv | 281 |

ROBERT LUIS STEVENSON

MEROSXO'R

Roman

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi

Bosh tahririyati

Toshkent – 2010

Muharrir: *Barnobek Eshpo'latov*
Badiy muharrir: *Firuza Bashsharova*
Teknik muharrir: *Diana Gabdraxmanova*

Sahifalovchi: *Tatyana Ogay*

Musabhiblar: *Nodira Oxunjonova, Ma'mura Ziyamukhamedova*

CHIRCHI
UTIMOIY-JATISQIVOT
KOLLEJI
XBOROT-RESURS
KOMPLEX SHAXOBCHASI

Terishga berildi 20.09.2010. Bosishga ruxsat etildi 22.11.2010. Bichimi
84x108^{1/2}. «Times» gamiturasi. Offset bosma. Shartli bosma tabog'i 15,12.
Nashriyot-hisob tabog'i 13,68. Addi 3.000 nusxa. Buyurtma № 1291.
Bahosi kelishilgan narnda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**